

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**M.O.Karimova, D.K.Rafikova, B.X.Baydjanov**

**PEDAGOGIK KOMPETENTLIK  
VA KREATIVLIK ASOSLARI**

**O'QUV QO'LLANMA**

**UO'K:**

**KBK:**

**U**

**M.O.Karimova, D.Q.Rafiqova, B.X.Baydjanov .**

Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / O'quv qo'llanma. – Farg'ona, 2021. 248 bet.

Mazkur o'quv qo'llanmada pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanning nazariy-metodologik va ilmiy-amaliy asoslari, predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari, pedagogik kompetentlik va kreativlik sifatlari, talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, modulli o'qitish texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llash metodikasi, pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar hamda mustaqillik yillarda oliy ta'lim tizimini rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'limning "Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turlari bo'yicha)" mutaxassisligi magistrantlati uchun "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" fanidan tavsiya etiladi.

### **Taqrizchilar:**

**B.S.Siddiqov –**

*pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

**M.A.Shaxodjayev –**

*pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*Mazkur o'quv qo'llanma Farg'ona davlat universiteti Kengashining 2021 yil 26 noyabrdagi 4-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

# M U N D A R I J A

<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>I BOB. “PEDAGOGIK KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK ASOSLARI”</b>	
<b>FANINING NAZARIY ASOSLARI</b>	
1.1. O‘zbekiston Respublikasi oliy pedagogik ta’limidagi modernizasion jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti .....	8
1.2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari .....	25
1.3. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati ...	30
1.4. Kasbiy kompetentlik sifatlari.....	43
1.5. Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovasion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi .....	54
<b>II BOB. PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI</b>	
<b>RIVOJLANTIRISH</b>	
2.1. Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish ..	61
2.2. Pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar .....	73
2.3. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish .....	79
2.4. Oliy ta’lim o‘qituvchisi malakasiga ega bo‘lish uchun qo‘yilgan talablar.....	89
<b>III BOB. TALABALARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH</b>	
<b>KOMPETENTLIGI</b>	
3.1. Talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini rivojlantirishning huquqiy asoslari .....	104
3.2. Talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	112
<b>IV BOB. TALABALARNING AMALIY TAYYORGARLIGINI</b>	
<b>TAKOMILLASHTIRISH</b>	
4.1. Talabalarning amaliy ta’limi professional pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim omili .....	123
4.2. Faoliyatli yondashuv amaliy ta’limning metodologik asosi.....	131
<b>V BOB. TALABALARNI INNOVASION FAOLIYAT VA PEDAGOGIK</b>	
<b>VAZIYATGA OID MASALALARNI YECHISHGA AMALIY</b>	
<b>TAYYORLASH MODELI</b>	
5.1. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning innovasion faoliyatga tayyorlash.....	141
5.2. Talabalarning innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarни yechishga tayyorgarligi .....	153

## **VI BOB. PEDAGOGIK KREATIVLIK**

6.1. Pedagogik kreativlik .....	162
6.2. Talabalarda kreativlik qobiliyatni rivojlantiruvchi omillari .....	176
6.3. Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish .....	184

## **VII BOB. PEDAGOGIK KOMPETENTLIK VA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR**

7.1. Modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi .....	200
7.2. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar .....	218

**XULOSA VA TAKLIFLAR .....** 227

**GLOSSARIY .....** 230

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....** 241

## K I R I S H

Mamlakatimizda inson kapitalini mehnat bozori talablarini asosida rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan [2]. Bunda oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ana shu nuqtai nazardan, oliy ta’limning magistratura bosqichi bitiruvchilarida yuksak kasbiy kompetentlik va kreativlikni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni [5] yangilanish davrida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergen eng muhim dasturiy hujjat bolib, unga asosan ta’lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu farmonni bajarishda “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” fanining o‘rni beqiyosdir. Chunki, pedagoglarning ilmiy-innovasion faoliyati pedagoglarning kompetentlik va kreativlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetetentlik tushunchasi pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajadagi natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lish degan xulosaga kelinadi.

Ta’lim va tarbiya jarayoni o‘sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablarini o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy buyurtma asosida hayotga tayyorlashdan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonida yoshlар ajodolar tomonidan to‘plangan bilim, odob, urf-odat, madaniyat va mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi, hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashi, salohiyati va

dunyoqarashining shakllanishida pedagog shaxsi, uning kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlarda davr talabidan kelib chiquvchi yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo‘ladigan sifatlarni shakllantirish pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Buning uchun avvalo pedagogning o‘zida yangicha bilim berish, o‘zgarib boruvchi mehnat va hayot sharoitlariga muvofiq ijodiy faoliyat bilan shug‘ullana olish ko‘nikmalari tarkib topgan bo‘lishi lozim.

O‘quv qo‘llanmada pedagogik kompetentlik va kreativlikka doir bilimlarning o‘rni va ahamiyati, takomillashuvi, pedagogik kompetentlik va kreativlikning mazmuni va mohiyati, asosiy tushunchalari, turlari va xususiyatlari, pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirish yo‘llari, shakl va metodlaari, pedagogik kompetentlik potensiali va undan oqilona foydalanish shartlari, pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda innovation ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni o‘rganish haqidagi bilimlarni o‘z ichiga olgan. Shuningdek, ushbu o‘quv qo‘llanma ta’limiy-tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi pedagogik vazifasini bajaradi.

## **Mualliflar.**

## I BOB.

---

### “PEDAGOGIK KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK ASOSLARI” FANINING NAZARIY ASOSLARI

#### *Bobning qisqacha mazmuni*

Mazkur bobda O‘zbekiston Respublikasi oliy pedagogik ta’limidagi modernizatsion jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti, pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari, kompetensiya va kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati, kasbiy kompetentlik sifatlari, oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovasion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi bo'yicha quyidagi bilimlar o'rin olgan:

Xalqaro tajribalarga ko‘ra, ta’lim amaliyotining differensatsiyalanishi va innovatsion sharoitida ishlashga, yangiliklarni amaliy joriy etishga qodir professional pedagoglar tayyorlash oliv ta’limning strategik vazifalaridan hisoblanadi. “Modernizatsiya” atamasini pedagogik nuqtai nazardan talqin etadigan bo‘lsa, u pedagogika sohasidagi o‘zgarish va yangilanishlarni anglatadi.

Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari belgilab berilgan.

Kompetentlilik tushunchasi jahon ta’limi tajribalarida o‘z ma’nosida markaziy bo‘g‘in sifatida tushuniladi .

Kompetentlik mazmunli (bilimlar) va kasbiy (ko‘nikmalar) tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, eng maqbul yechimni tanlay olish, tanlovni asoslash, tanqidiy tafakkurni nazarda tutadi. Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir.

Kasbiy kompetentlik sifatlari: Ijtimoiy kompetentlik; Shaxsiy kompetentlik; Maxsus kompetentlik; Estremal kompetentlik; Texnologik kompetentlik.

Oliv ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovasion pedagogik faoliyatga tayyorlash talabalarning fanlarga oid yangiliklarni o‘zlashtirishi va olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishi taqoza etadi.

## **1.1. O‘zbekiston Respublikasi oliy pedagogik ta’limidagi modernizatsion jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti**

*Tayanch so‘z va iboralar: modernizatsiya, Yevropa mamlakatlari, Bolonya jarayoniga moslashtirish, xalqaro tajribalar, oliy ta’lim tizimini yanada rivojlanтирish, amaliy tayyorgarlik, me’yoriy-huquqiy ta’minot.*

Oliy pedagogik ta’limni modernizatsiyalash mustaqil O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-madaniy sohalaridagi dinamik jarayonlar, milliy pedagogik ta’limning ustuvor modelini shakllantirish, innovation ta’lim muhitida muhim yo‘nalishlarni yaratish bilan o‘zviy bog‘liq. O‘zbekistonning ta’lim tizimini Yevropa mamlakatlaridagi Bolonya jarayoniga moslashtirish pedagogik ta’lim mazmunini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Uning leytmotivi (asosiy, bosh g‘oyasi) ta’limdagi eskirgan, uning rivojlanishiga to‘sinq bo‘ladigan tartib-qoidalar va tamoyillarni yo‘q qilish, totalitar jamiyatga xos bo‘lgan ta’limni mafkuralashtirishdan voz kechish, o‘quv va dars jarayonlaridan keraksiz materiallarni chiqarib tashlash, ularni yangi mazmun bilan boyitish, real tarixiy jarayonga, zamonaviy ijtimoiy-madaniy voqeliklarga yaqinlashtirish moslashtirish va ta’limdagi o‘zgarishlarni prognozishlashtirishga qaratishni talab etmoqda. Hozirgi vaqtda ta’lim siyosatini demokratlashtirishga, xususan, ta’lim tizimini markazlashtirmaslik va oliy ta’lim muassasalarining mustaqilligini oshirishga, o‘qituvchilar va talabalarning ongli safarbarligiga ko‘proq e’tibor qaratilmoqda.

Xalqaro tajribalarga ko‘ra, ta’lim amaliyotining differentsiatsiyalanishi va innovationlik sharoitida ishslashga, yangiliklarni amaliy joriy etishga qodir professional pedagoglar tayyorlash oliy ta’limning strategik vazifalaridan hisoblanadi. Hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro‘y berayotgan katta o‘zgarishlar kasbiy faoliyatning mazmuni va xarakterini sifat jihatdan qayta o‘zgartirishni, bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-kasbiy safarbarligi darajasini, raqobatbardoshligini belgilovchi sifatlar (nazariy bilim va amaliy tayyorgarlikning o‘zviyligi va birligi, kasbiy kompetentlik, moslashuvchanlik va kasbiy safarbarlik, kasbiy vazifalarni hal etish usullarini egallash, turli kasbiy muammolarni yecha bilish qobiliyati, o‘ziga ishonch, mas’uliyat, muvaffaqiyatga

intilish, faol hayotiy va kasbiy pozisiya, o‘zining amaliy tajribasini muntazam boyitishga tayyorgarlik)ni talab etmoqda. Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilarining amaliy tayyorgarligini takomillashtirish masalasiga pedagogik ta’limning yangilanishi (modernizatsiyalanishi) xarakterini belgilab beruvchi hujjatlarda muhim o‘rin ajratilgan.

“Modernizatsiya” atamasi lug‘atlar (siyosiy, biznes, tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, texnik lug‘atlar)da turlicha talqin etilgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “modernizatsiya” tushunchasi “biror narsani zamonaviy talab va didga moslab o‘zgartirish; zamonaviylashtirish” - deb izohlanadi.

“Modernizatsiya” atamasini pedagogik nuqtai nazardan talqin etadigan bo‘lsak, u pedagogika sohasidagi o‘zgarish va yangilanishlarni anglatadi. Modernizatsiya hisobiga an’anaviy pedagogik ta’lim (u pedagogikadagi an’anaviy tartib-qoidalar va tamoyillari asosida rivojlanadi va innovasiyalarni tezda qabul qilavermaydi) zamonaviylashtiriladi. Modernazion jarayonlar natijasida pedagogik sohalardagi yangilanishlar, o‘zgarishlar, innovasiyalar ma’qullanadi va an’anaviy ta’lim innovation nuqtai nazardan qayta anglanadi va talqin etiladi. Albatta, har qanday o‘zgarish va yangilanishlarning huquqiy-me’yoriy asoslari va me’yoriy-huquqiy ta’minti mavjud bo‘ladi.

Quyida pedagogik ta’limdagi o‘zgarishlarga, yangilanishlar, uni modernizatsiyalashga asos bo‘lgan va bo‘layotgan me’yoriy-huquqiy ta’mintlar haqida so‘z yuritiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev so‘nggi yillarda ta’lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e’tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2829-sonli, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2017 yil 30 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligini faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-son,

2020 yil 27 fevraldag'i "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-son Qarori va boshqa ko'plab ma'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. E'tibor beradigan bo'lsak, mazkur ma'yoriy-huquqiy hujjatlarda uzlucksiz ta'lim tizimining barcha turlari qamrab olinganligini ko'rshimiz mumkin.

Qolaversa, "2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da ham ta'lim sohasini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovasiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integrasiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasining oliy pedagogik ta'limini modernizatsiyalash tegishi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda amalga oshirib kelinmoqda. Me'yoriy-huquqiy ta'minot pedagogik ta'lim tizimidagi muayyan o'zgarishlarni tartiblashtiradi va uning keyingi rivojlanishi uchun asos hisoblanadi. Me'yoriy-huquqiy ta'minot pedagogik ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni institualizatsiyalash imkonini beradi va ularning yo'nalishini belgilaydi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili O'zbekiston Respublikasi pedagogik ta'limini modernizatsiyalash doirasida o'zgarishlarni maqsadli joriy etish orqali oliy ta'lim muassasalari pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning amaliy kasbiy tayyorgarligida qanday o'zgarishlarni amalga oshirish mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Demak, oliy ta'lim muassasalari pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining amaliy kasbiy tayyorgarligining me'yoriy-huquqiy ta'minoti – bu uni tashkil etishni tartibga soluvchi hujjatlar yig'indisidan iboratdir. So'nggi o'n yilliklarda pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarning

amaliy kasbiy tayyorgarligining me'yoriy-huquqiy ta'minoti quyidagi yo'nalishlarda rivojlandi:

- oliv kasbiy va pedagogik ta'lim tizimlarini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini qayta ko'rib chiqilishi;
- tavsiyalar va strategik dasturiy hujjatlar (doktrinalar, kontseptsiyalar)ning ishlab chiqilishi;
- ta'lim sohasidagi qonun hujjatlarining ishlab chiqilishi yaratish, o'zgartirishlarning kirtilishi va eskilarining bekor qilinishi.

Mamlakatimiz davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, 1992 yilda ilk bor "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun ikkinchi bor 1997 yil 29 avgustda (464-I-son) va uchinchi bor 2020 yil 23 sentyabrda (O'RQ-637-son) qayta ko'rib chiqilgan va takomillashtirilib yangi tahrirda qabul qilingan. Bugun, O'zbekiston ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan mazkur qonun 11 bob, 75 moddadan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, jamiyatga yuqori kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashning asosi ekanligini ta'kidlab o'tish o'rnlidir.

O'zbekistonda butun huquqiy tizim, jumladan, amaliy kasbiy ta'lim, pedagogik ta'limni isloh qilishning universal tizimi sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini misol qilib keltirib o'tishimiz mumkin. Ta'limni huquqiy tartibga solish mexanizmida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi eng oliv yuridik kuchga ega, eng birinchi navbatda, u to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va qo'llaniladi konstitutsiyaviy norma bilan belgilanadi, u O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va qo'llaniladi; O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga zid bo'lmashligi kerak. Ikkinchidan, ta'lim to'g'risidagi qonunchilikning maqsad va vazifalari 2020 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonunda mustahkamlangan.

Ta'lim to'g'risidagi qonunchilikning maqsadi davlat kafolatlari, ta'lim sohasida inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish mexanizmlarini

belgilashdir va uning asosiy vazifalaridan biri O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining ta’lim olish bo‘yicha konstitutsiyaviy huquqini ta’minlash va himoya qilishdir. Ta’lim huquqining konstitutsiyaviy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida keltirilgan. Unga ko‘ra, har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir. Unda O‘zbekiston Respublikasi hukumati mamlakatimizda yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta’minlayotganligi aniqlandi.

Hozirgi bosqichda ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilik asosida qurilgan asosiy qonun 2020-yilda qabul qilingan. Ushbu Qonunda O‘zbekiston Respublikasida ta’limning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta’lim tizimi faoliyati va ta’lim faoliyatini amalga oshirishning umumiy qoidalari, ta’lim sohasidagi munosabatlar ishtirokchilarining huquqiy maqomi belgilab berilgan.

Qonunda “ta’lim”, “tarbiya”, “professional ta’lim” va sohaga oid boshqa tushunchalar izohlangan, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi, pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari, pedagog xodimlarning majburiyatli belgilangan.

Konstitutsiya va “Ta’lim to‘g‘risida” gi asosiy qonundan tashqari, oliy ta’lim, shu jumladan, pedagogik ta’lim tizimining rivojlanishi va o‘zgarishining me’yoriy-huquqiy ta’minoti tizimida Respublikamiz hukumati, vazirliklar hujjatlari alohida o‘rin tutadi. Ular mamlakatimiz ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, strategiyasi va yo‘nalishlarini belgilab beradi (doktrina, kontseptsiya, strategiya, rivojlanish dasturi).

Yuqorida keltirib o‘tilgan manbalarning barchasi ta’lim tizimini ta’minlash mexanizmida umumiy xarakterga, shuningdek maxsus xususiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Umumiy xarakterdagи hujjatlar davlatning ta’lim siyosati kontekstida ta’lim tizimining rivojlanishini tartibga soladi.

Maxsus normativ-huquqiy hujjatlar oliv ta’lim muassasalarini, shu jumladan, pedagogik universitetlaridagi o‘quv jarayoniga normalar, qoidalar va talablarni belgilab beradi.

Davlatning ta’lim sohasidagi asosiy vazifalaridan biri aholining mehnatga layoqatli qatlamini amaliy kasbiy faoliyatga tayyorlash va mlakasini oshirish uchun uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Ta’lim maqsadlariga erishishda pedagogik kadrlarning o‘rni alohida ta’kidlandi, bu ta’lim tizimiga ta’lim-tarbiya ishlarini, o‘quv jarayonlarini, yuqori darajada sifatli va samarali tashkil etishga, ilmiy-pedagogik izlanishlar olib borishga, yangi pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta o‘zlashtirishga, talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qodir iste’dodli mutaxassislarni jalb qilish zarurligini ko‘rsatdi.

Yana bir dasturiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi “Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minalash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-1761-sون Qarori edi. Hujjat o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini uchun pedagogik kadrlar tayyorlash mazmuni va to‘zilishini asosiy sa’noat, xizmat ko‘rsatish, madaniyat, armiya, davlat xizmatlari va boshqalar, hududiy mehnat bozorlari, shuningdek istiqbolli mehnat talablariga muvofiq ravishda modernizatsiyalashning asosiy g‘oyalarini mujassam etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyati va ijtimoiy sohalar, fan, texnika, texnologiyalar rivojlanishi, hududlarda mehnat bozorining talab va takliflari malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta’minalash tizimini yangilashning asosiy omillari omili sifatida belgilandi. Xalqaro sifat standartlarini e’tiborga olgan holda, ta’limning barcha darajalarida amaliy kasbiy tayyorgarlik mazmunini sezilarli darajada yangilash va sifatini oshirish, kasblarning integrasiyasini ta’minalash zarururati tug‘ildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-soni Farmoni bilan tasdiqlangan “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini

rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglab yetish, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishida muhim vazifalar sifatida belgilangan mamlakatimizdagi islohotlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta’minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini isloh qilishga, shuningdek, dasturning 4-bandida ijtimoiy sohani rivojlantirishda ta’lim, fan, san’at va madaniyatning rolini yanada oshirishga qaratilgan. Harakatlar strategiyasida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ta’lim tizimining uzlucksizligini yanada takomillashtirish maqsadida sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish eng muhim vazifalardan etib belgilangan. Hujjatda ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yangi ta’lim muassasalarini qurish, ta’mirlash va kapital ta’mirlash barobarida, zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash nazarda tutilgan. Harakatlar strategiyasi qabul qilinganidan so‘ng, mamlakatimizda ta’lim tizimini sohalarini isloh qilish borasida ko‘plab farmon va qarorlar qabul qilindi. Mazkur me’yoriy hujjatlar barcha yo‘nalishlarda islohotlarni amalga oshirishda muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o‘zgartirishda aniq yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Ularning birinchisi, ta’limni tubdan demokratlashtirish; ikkinchisi, uzlucksiz ta’lim g‘oyasi, so‘ng “ta’lim – bir umrga” g‘oyasini “ta’lim – butun umr davomida” g‘oyasiga almashtirish; uchinchisi, bu nafaqat mutaxassislarini tayyorlash vositasi, balki jamiyatga ongli, fidoyi insonlarni yetkazib berish; to‘rtinchisi, ta’limning globallashuviga erishish; beshinchisi, ta’limni axborotlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori asosida oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va

modernizatsiya qilish, zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash bo‘yicha Oliy ta’lim tizimini 2017 – 2021 yillarda kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Oliy ta’lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish, malakali pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘yicha eng muhim vazifalar sifatida quyidagilar belgilandi: har bir oliy ta’lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, yosh o‘qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o‘tashlarini tashkil qilish; oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish yo‘nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish; pedagog kadrlarning kasb mahorati sifati va saviyasini uzlusiz yuksaltirish, xorijda pedagog va ilmiy xodimlarning malakasini oshirish va stajirovkasini o‘tkazish, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini PhD va magistratura dasturlari bo‘yicha o‘qitish; oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishga keng jalg etish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagи “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son Qarorida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish, shu bilan birga, respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o‘z vaqtida zarur ixtisosliklar bo‘yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy

ta’lim mazmunini bevosita korxonalar, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalari aks etdi.

Shuningdek, qarorda O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiyalashning zaruriy sharti sifatida o‘qituvchilarning kasbiy saviyasini oshirish va hozirgi zamon talablariga javob beradigan pedagogik jamoalarni shakllantirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Pedagogik ta’limni rivojlantirish dasturi doirasida ta’lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta’minlashdagi salbiy tendentsiyalarni bartaraf etish, pedagog kadrlarning ijtimoiy holati va kasbiy mahoratini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘zda tutildi.

Pedagogik ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumiy tendentsiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Eng asosiysi, O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi raqobatbardoshligining asosiy sharti – bu iqtisodiy rivojlanishning innovation usuli. O‘z navbatida, kadrlar, jumladan, o‘qituvchilar tayyorlashga, ta’lim tizimini rivojlantirishga sarmoya kiritmasdan iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori pedagogik ta’limni modernizatsiyalashda muhim o‘rin tutdi. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da quyidagilarni amalga oshirish vazifalari belgilab qo‘yilgan: oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy tadbirlar tashkil etish va amalga oshirish (“Benchmarking” (oliy ta’lim muassasalari faoliyatining komponentlari bo‘yicha qiyosiy tahlil etish orqali muammolarga yechim topish), “Total quality management” (ta’lim sifatini oshirishning yalpi boshqaruvi),

“blended learning” (yagona elektron tizim orqali ta’limni amalga oshirishning talaba-pedagog muloqoti), “Tuning” (umumkasbiy va mutaxassislik kompetensiyalariga asoslangan ta’lim berish) kabi ilg‘or xorijiy ta’lim muassasalarida joriy etilgan tizimlarni o‘rganish; o‘rganish natijalariga ko‘ra tahliliy ma’lumot tayyorlash; ta’lim klassifikatsiyasining xalqaro standartini (MSKO–2011) milliy ta’lim tizimiga joriy etishni o‘rganish bo‘yicha ishchi guruh to‘zish; ta’lim klassifikatsiyasining xalqaro standarti (MSKO–2011) joriy etilgan xorijiy davlatlarning ta’lim tizimi sifatin o‘rganish va tahliliy ma’lumot tayyorlash.)” mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta’lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish; davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar va sohalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini oliy ta’lim muassasalari tomonidan televideenie va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e’tiboriga yetkazish; oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, yosh olimlar va talabalarning ilmiy-tadqiqot natijalari va innovasion ishlanmalarini amaliyotga joriy etish tizimini samarali tashkil etish; oliy ta’lim muassasalari rahbariyatining mamlakatni isloh qilish jarayonida faol ishtirok etish borasidagi mas’uliyatini oshirish.

2030 yilgacha O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kontsepsiyasiga binoan, oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri – bu talabalar o‘qituvchilarni va fundamental va amaliy tadqiqotlarga jalb etishdir. Bu nafaqat dunyoga mashhur o‘zbek ilmiy maktablarini yanda rivojlantirish, balki innovasion bilim iqtisodiyoti ehtiyojlariga yo‘naltirilgan tadqiqotchilarining yangi avlodini shakllantirishga imkon beradi.

Fundamental ilmiy tadqiqotlar talabalarning ma’lumotni izlash, tahlil qilish, o‘zlashtirish va yangilash kompetensiyalarini egallashida eng muhim manba va vosita bo‘lishi kerak. Shu bois oliy ma’lumotli mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda oliy o‘quv yurtlariga qabul tartibini takomillashtirish, QS Rankings, Times Rankings, ARWU xalqaro reytinglarida oliy o‘quv yurtlari mavqelarini, oliy ta’lim uchun xarajatlar ulushini YaIMga

nisbatan oshirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, oliv o‘quv yurtlarida TQM o‘qitish sifatini boshqarish tizimini joriy etish borasida izchil izlanishlar olib borilishi zarur.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovation salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, shuningdek 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi hamda uning maqsadli ko‘rsatkichlari va indikatorlari tasdiqlangan. Unda ilm-fan sohasida boshqaruva tizimini takomillashtirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish, ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish, ilm-fan taraqqiyotiga ko‘maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish nazarda tutilgan.

“Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda quyidagilar pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan:

- tarbiya va o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xorijiy tillarni puxta o‘zlashtirgan, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash;

- pedagogik kasbga qiziqishi yuqori bo‘lgan yoshlarni aniqlash hamda ularni maqsadli tayyorlab va tarbiyalab borishning uzlusiz tizimini joriy qilish;

- pedagogik ta’lim sohasining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovation o‘quv-me’yoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;
- sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovation faoliyatni samarali tashkil etish;
- pedagog kadrlar buyurtmachilari ehtiyoj va talablarini muntazam o‘rganib borish, ular bilan o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda pedagog kadrlar tayyorlashning ilmiy asoslangan istiqbolli rejalarini belgilash va ularni amalga oshirish;
- oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integrasiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘srimcha sharoitlar yaratish;
- pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- pedagogik ta’lim infratuzilmasini yaxshilash, sohadagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish;
- yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmaga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.

Mazkur qaror asosida pedagogik ta’limni modernizatsiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, pedagogik ta’lim tizimining sifat jihatidan yangi holatga o‘tishi, afsuski, tor idoraviy xususiyat yoki mablag‘larning yetarli emasligi sababli hozircha ta’minlagani yo‘q. Pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimi tartibga solinadigan mehnat bozorida qurilgan, ko‘p yillar davomida o‘zgarmagan va pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi kasbiy ta’lim yo‘nalishi tarmog‘iga tayanadi.

Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash doirasida o‘qituvchi kadrlarni amaliy kasbiy tayyorlashda kelgusidagi o‘zgarishlarning yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- pedagogik kadrlar tayyorlashning amaliyatga yo‘naltirilganligini kuchaytirish (maktab, professilonal ta’lim muassasalarini - universitet hamkorligi, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim o‘rtasidagi tarmoq aloqasi, amaliy bakalavriat dasturlari, o‘zoq muddatli stajirovka va boshqalar);
- amaliy kasbiy tayyorgarlikning variativligini kengaytirish (eng iqtidorli va g‘ayratli talabalarni pedagogik faoliyatiga maqsadli tayyorgarligini ta’minlaydigan va “qolgan” bitiruvchilarni boshqa kasbiy faoliyatga tayyorlashni nazarda tutadigan oliy o‘quv yurtlarida joriy etiladigan keng qamrovli bakalavriat dasturlari);
- nopedagogik yo‘nalishda ta’lim olayotgan pedagogika sohasiga qiziquvchi 2-3 kurs talabalarining pedagogik tayyorgarligi;
- ta’lim tizimini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash (o‘qituvchi-metodistlarni tayyorlash bo‘yicha magistratura tadqiqotlari dasturlari);
- ta’lim muassasalarida uzoq muddatli amaliy stajirovka asosiga qurilgan amaliy magistratura dasturlari; ta’limni boshqarish bo‘yicha magistrlik dasturlari va boshqalar.

O‘zbekiston viloyatlari milliy va mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, madaniy, demografik va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta’limni rivojlantirishning respublika, mintaqaviy dasturlarini, shu jumladan xalqaro dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishlari maqsadga muvofiq.

Ta’lim standartlari oliy ta’lim muassasalarini talabalarining amaliy kasbiy tayyorgarligi me’yoriy-huquqiy ta’mimnotining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Umuman, ta’lim standartlari, xususan, Davlat ta’lim standartlarining ning huquqiy xususiyati kamida ikkita shaklda namoyon bo‘ladi.

Har qanday standart, shu jumladan, ta’lim standarti, ayni holda, bu - ta’lim munosabatlarining turli ishtirokchilariga yo‘llangan muayyan qoidalar yig‘indisi (ro‘yxati). Ammo, ushbu ishtirokchilarning o‘zлari, ularning maqsadi, motivlari,

munosabatlari va harakatlarining shart-sharoitlari bir-birlarinikidan farq qilgani bois, bu turdag'i qoidalar ham turli xil bo'ldi.

Bundan tashqari, ushbu qoidalar, odatda, hamma uchun majburiy hisoblanadi, ya'ni ular normativ xarakterga ega bo'lib, huquqiy me'yordarning boshqa xususiyatlari (tashqi, ya'ni rasmiy ifodalanganlik va aniqlik, izchillik, vakolatli davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan umumiyligi majburiylikning ta'minlanganligi) bilan ularni bir-birlariga yaqinlashtiradi. Bundan tashqari, ushbu standartlar, eng avvalo, davlatdan tomonidan belgilanadi va shu bois ular davlat yoki davlat-jamoat topshirig'i xarakteriga ega. Va nihoyat, ta'lim standarti, boshqa har qanday qonun normalari singari, ta'lim sohasida yoki ularning ishtirokchilari o'rtaida shakllanayotgan munosabatlarning ma'lum jihatlarini muvofiqlashtirish, huquq va majburiyatlarini ta'minlash, u yoki bu turdag'i ta'limiy munosabatlarning mazmuni va xarakterini belgilash uchun xizmat qiladi.

Oliy ta'limning Bolonya deklaratsiyasi tamoyillariga moslashtirilishi va uning ta'lim sifatini ta'minlashga yo'naltirilganligi Davlat ta'lim standartlarining yanada takomillashtirilishiga rag'bat beradi, uning muhim xususiyati fundamentalligi va amaliy yo'nalishi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasi oliy pedagogik ta'limidagi modernizatsion jarayonlarining me'yoriy-huquqiy ta'minotini ta'minlashda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi" muhim ahamiyat kasb etib, unda quyidagilar nazarda tutilgan:

- oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish; oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'mini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;
- oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

- xorijiy investitsiyalarni keng jalg qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliv ta’lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

- oliv ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufo‘zli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash.

O‘zbekistonda ta’limni isloq qilishning Yevropa formati mehnat bozoridagi talablar va talab etilgan malakalar uyg‘unlashtirishning yangi huquqiy vositalarni izlashni talab qiladi. Malaka ramkalari ana shunday vositalardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda milliy malaka ramkalarini (MMR) ishlab chiqish yoki amalda tatbiq etish jarayoni jahonning 125 dan mamlakatlarini o‘z ichiga oladi.

Malaka ramkasi – ta’lim tizimida o‘zaro izchil bog‘liq bo‘lgan barcha malakalarning tavsifidir. Malaka ramkalarini ishlab chiqish mamlakat ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni aniqlash va joriy etish uchun asos bo‘lib, ta’limning raqobatbardoshligini ta’minlash hamda uni xalqaro darajada targ‘ib qilish imkonini beradi. O‘zbekistonda turli darajadagi va har xil turdagilari malaka ramkalarini ishlab chiqishda ushbu vosita Yevropa va jahonning boshqa mamlakatlarda avvaldan shakllanilganligini, malaka ramkalarini shakllantirishning o‘ziga xos tarixi va metodologiyasiga ega ekanligini hisobga olinadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, pedagogika oliv ta’lim muassasasalarida tahsil olayotgan talabalarining amaliy tayyorgarligini tashkil etishni tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvch hujjalarni tizimi aniq ierarxik tuzilishga ega bo‘lib, asosiy hujjalarni qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni; davlat tashkilotlari va organlari (Vazirlar mahkamasi, vazirliklar, boshqarmalar va

hokimliklar)ning ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvorligi, strategiyasi va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi dasturiy-maqsadli hujjatlari (doktrinalar, tushunchalar, strategiyalar, rivojlanish dasturlari); davlat ta’lim standartlari; o‘qituvchining kasbiy standarti; milliy malaka ramkalar; mintaqalarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar va kontseptsiyalar.

Ushbu hujjatlarda pedagogik ta’limidagi o‘zgarishlarni amalga oshiriladigan ishlar qayd etilgan: pedagogika universiteti talabalarining amaliy tayyorgarligi: ko‘p bosqichli amaliy tayyorgarlikni amalga oshirish; uchta yo‘nalish bo‘yicha amaliy tayyorgarlik: pedagogik ta’lim, psixologik va pedagogik ta’lim, maxsus (defektologik) ta’lim; turli ixtisoslik bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning umummadaniy va amaliy kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish; komptenttsiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim standartlari asosida o‘qitish; modulli o‘qitish, chiziqli ta’lim jarayonidan turli usullar va yo‘nalishlarda ta’lim berishga o‘tish; nafaqat ta’lim natijalarini, balki amaliy pedagogik faoliyat jarayonini me’yorlashtirish(o‘qituvchining amaliy kasbiy faoliyati standarti); o‘qituvchilarni tayyorlash masalalarida ta’lim tizimining turli darajadagi tashkilotlari (oliy o‘quv yurtlari, professional ta’lim muassasalarasi, maktablar va boshqalar) ning o‘zaro hamkorligini ta’minlash.

Retrospektiv va perspektivdagи oliy ta’lim muassasalarida talabalarning amaliy tayyorgarligini rivojlanishini ko‘rsatuvchi tarixiy-pedagogik izlanishlar, shuningdek talabalarning pedagogik ta’limni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichidagi amaliy kasbiy tayyorgarligida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqidagi nazariy va empirik ma’lumotlarni umumlashtiruvchi tadqiqotlar olib bormayapti. Pedagog olimlar tomonidan bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini rivojlantirish muammosi bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish muammolari, amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishda zamonaviy pedagogik dasturiy vositalar, o‘quv-uslubiy ta’minotlar, o‘qitish texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yetarlicha ochib berilmagan.

Milliy pedagogik ta’limni modernizatsiyalash jamiyatning pedagogik ta’limga bo‘lgan talablari tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi, uning strategik maqsadi talabalarning nafaqat nazariy bilim, ko‘nikma, malakalarni, kopetentsiyalar va kompetentlikni puxta egallashlari uchun tashkiliy va funksional sharoit-sharoitlarni yaratish, balki asosan o‘zining potensiol qobiliyatini rivojlantirishga va ularning pedagogik amaliy kasbiy mahoratini oshirish dasturini amalga oshirishga qodir va tayyor bo‘lgan ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Buning uchun har bir o‘qituvchi tomonidan yagona va moslashuvchan siyosatni shakllantirish uchun dunyo mammalakatlarida talab qilinadigan kompetentli o‘qituvchilarni tayyorlash uchun pedagogik ta’limni sifatli isloh qilish, doimiy malaka oshirish, o‘qitishning yangi shakllari va usullarini o‘zlashtirish zarurligi to‘g‘risida asosiy tushuncha talab etiladi.

Ta’limdagi o‘zgarishlar jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi, chunki ta’lim nafaqat o‘ziga xos qadriyat, balki innovation iqtisodiyotni shakllantirish, ijtimoiy birdamlik ta’minalash va ijtimoiy tuzulmalarni rivojlantirish asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta’limiy tashabbuslar ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi boshqa o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida paydo bo‘lishi mumkin. Ta’limdagi o‘zgarishlar ko‘pincha innovasiyalar bilan bog‘liq, ammo bu ikki hodisaning umumiy va alohida xususiyatlari pedagogikada hanuzgacha aniq izohlab berilgan emas. G.M.Kojaspirovning pedagogik lug‘atida pedagogik innovasiya yoki pedagogik yangilanish, pedagogik o‘zgarishga quyidagi ta’rif berilgan: pedagogik innovasiya - bu ta’lim muhitiga ta’lim tizimining alohida qismlari, komponentlari va qolaversa, umuman butun ta’lim tizimi xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan barqaror elementlar (yangiliklar)ni maqsadli kirititish va natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlardir.

#### *Nazorat savollari:*

1. Xalqaro tajribalarga ko‘ra, ta’lim amaliyotining differensatsiyalanishi va innovation sharoitida oliy ta’limning strategik vazifalarini asosab bering.

2. 2030-yilgacha O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kontsepsiyasiga binoan, oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy shartlari nimalardan iborat?

3. Oliy ta’limning Bolonya deklaratsiyasi tamoyillariga moslashtirilishi va uning ta’lim sifatini ta’minlashga yo‘naltirilganligi nimalarni talab qiladi?

4. Milliy pedagogik ta’limni modernizatsiyalash jamiyatning pedagogik ta’limga bo‘lgan talablari haqida nimalarni bilasiz?

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** O‘zbekiston Respublikasi oliy pedagogik ta’limidagi modernizatsion jarayonlarining me’yoriy-huquqiy ta’minoti haqida o‘z fikrlaringizni umumlashtiring!

**2-topshiriq.** Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning amaliy tayyorgarligini rivojlanishini ko‘rsatuvchi tarixiy-pedagogik izlanishlarga misollar keltiring.

## **1.2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari**

**Tayanch so‘z va iboralar:** kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatlari, kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, pedagogik innovasiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga samarali tatbiq etish.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Kompetentlik tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Suningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati quyidagicha yoritiladi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.
2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.
3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.
4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
5. Ekstremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Pedagogning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetuklikligini baholovchi me’yor. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Pedagogning kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F.Zeer kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integrasiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatdi [38.14.].

Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentlik mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi [44.81].

Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining **maqsadi** – bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovasion ta’lim texnologiyalari, o‘qitishning yangi, innovasion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, ularda pedagogik kasbiy kompetentlik sifatlari va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish imkoniyatini yaratish.

Pedagogik kompetentlik va kreativlik fanining **vazifalari** quyidagilarni qamrab oladi:

- bo‘lajak o‘qituvchilarning zamonaviy innovasion ta’lim texnologiyalarning tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo‘lishlari, ta’lim amaliyotida o‘qitishning innovasion texnologiyalaridan foydalanish,
- kompetentlik sifatlari va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko‘nikma malakalari hosil qilish; bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik innovasiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga samarali tatbiq etish yo‘llaridan xabaror bo‘lishi;
- o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning faolliklarini ta’minlash, ta’lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirish.

“Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” fani ta’lim texnologiyalarining mohiyati, muhim asoslari bilan tanishtiradi, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatda pedagogik texnologiyalarni samarali, maqsadli qo‘llash malakalariga ega bo‘ladi, ta’lim jarayonini oqilona loyihalashtirishga doir tajribaga ega bo‘ladi. Shuningdek, pedagogik innovasiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga samarali tatbiq etish yo‘llaridan xabaror bo‘ladi.

Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining **predmeti** – bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining **obyekti** – oliy ta’limda ta’lim–tarbiya jarayoni bo‘lib, u pedagogik-psixologik tayyorgarlik, ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish shakllari, metodlari hamda vositalari; bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini o‘rganishning psixodiagnostik metodlari, ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uzviyligini ta’minlash.

Shuningdek, ushbu fanni o‘qitish quyidagilarni qamrab oladi:

- fanlarni o‘qitish metodikasining asosiy g‘oyalari; ta’limda pedagogik va axborot texnologiyalar; seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish, pedagogik qobiliyat, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, tarbiya nazariyasi,

metod va usullarini egallaganlik, ko‘p omilli fikr yurita olish va boshqalarga o‘z fikri va nuqtai nazarini ilmiy munozara asosida tushuntira olish;

- maxsus va professional, metodik va informasion layoqat, tadqiqot olib boriladigan fan sohasi bo‘yicha fundamental va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda ularni ilmiy, ilmiy-texnik faoliyat va ta’lim jarayoniga joriy etish yo‘nalishlari haqida bilim va layoqatga egalik, iqtidorli talabalar bilan ishlash: iqtidorli talabalar bilan ishlash tizimi; iqtidorli talabalarni tanlash yo‘llari va usullari;
- talabalarning o‘quv predmetlari bo‘yicha kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari mavzularini belgilash (tanlash) yo‘llari;
- “Ustoz-shogird” metodi; iqtidorli yoshlar bilan ishlash vazifalari; talabalar olimpiadasini o‘tkazish tartibi; fan ilmiy to‘garaklarining tashkil etilishi va faoliyati haqida bilim va layoqatga egalik, kasbiy mahorat:

  - mashg‘ulot olib boriladigan fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va obyekti; fanga qo‘yiladigan asosiy talablar; fanni o‘zlashtirishga ajratilgan umumiy yuklama hajmi, unda nazariy va amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ta’lim salmog‘i;
  - fanning asosiy metodlari; mashg‘ulot olib boriladigan fan bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasiga belgilangan talablar; fanning o‘quv rejadagi fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi;
  - fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni va ahamiyati; fan taraqqiyotining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga bog‘liqligi; foydalilaniladigan asosiy darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va elektron adabiyotlar;
  - fanning amaliy, metodologik ahamiyati; fanning asosiy bo‘limlari va ularning mazmuni; fan bo‘yicha kasbiy kompetentlikni aniqlash usullari; fan mazmunini ishlab chiqishda o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizontal va vertikal o‘zviylikning ta’minlanishini baholash; fanning istiqboldagi taraqqiy etishi muammolari va ularning yechimlari haqida bilim va layoqatga egalik.

### **Nazorat savollari:**

1. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining maqsadini aytib bering.

2. Pedagogik kompetentlik va kreativlik fanining vazifalari nimalardan iborat.
3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti nimalardan iborat?
5. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining obyektini izohlang?

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalarini “Klaster” texnologiyasi asosida ifodalang.

**2-topshiriq.** Pedagogik kompetentlik va kreativlik haqidagi izlanishlarga misollar keltiring.

### **1.3. Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyati**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Kompetentlik, kompetensiya, kasbiy faoliyatni amalga oshirish, modernizatsiya, maxsus, shaxsiy, ijtimoiy, individual, psixologik va pedagogik omillar.

**Kompetentlik** mazmunli (bilimlar) va kasbiy (ko‘nikmalar) tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, eng maqbul yechimni tanlay olish, tanlovni asoslash, tanqidiy tafakkurni nazarda tutadi. Umuman olganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ko‘plab ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma’naviy, psixologik va pedagogik omillar ta’sirida amalga oshirish pedagogdan mazkur jarayonni innovation texnologiyalar yordamida tashkil etishni talab etadi.

**Kompetentlilik** tushunchasi (lotinchadan “competencia”, “compete” so‘zidan olingan bo‘lib – “birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to‘g‘ri kelaman” degan ma’nolarni bildiradi) lug‘atlarda esa “nimadir to‘g‘risida fikr yuritishga yo‘l beradigan bilimlarga ega bo‘lish”, “xabardor bo‘lmoq, huquqli

bo‘lmoq” degan ma’noni bildiradi. Amalda barcha lug‘at to‘zuvchilar “kompetentlik” va “kompetensiya” kategoriyalarini chegaralab qo‘yadi.

Kompetentlik ta’rifi o‘xhash va bir-birining o‘rnini egallaydi (to‘ldiradi), shu bilan bir vaqtida kompetensiya so‘zi uchun yagona izohlash yo‘q, bu tushuncha “vakolatlar yig‘indisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qo‘yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar”, “nimanidir to‘g‘risida fikr yuritishga yo‘l beradigan bilimlarga ega bo‘lish (egalik qilish)”, “kimdir yaxshi xabardor bo‘lgan savollar to‘plami (sohasi)” tushuniladi (Mannopov J., Xolmatova A.)

Kompetentlik tushunchasi deganda, ma’lum bir sohada talaba (masalan, bo‘lajak o‘qituvchi) tomonidan egallangan kompetensiya, ya’ni ma’lum bir sifatlarning to‘liq shakllangan majmui tushuniladi (Aliev I.T.)

**Kompetensiya** – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo‘lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetensianing bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo‘lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo‘lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi. Hozirgi kunda “kompetensiya” atamasi turli sohalarda qo‘llaniladi: huquqshunoslik, tilshunoslik, madaniyat sohalarida, shuningdek, tashkilot, muassasa yoki kompaniyaning muhim kompetensiyalari

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

**Kasbiy kompetentlik** quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Ta’lim strategiyasining modernizatsiyasida kompetentlikni bilim, malaka va ko‘nikmalarga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki amalda qo‘llay bilish nazarda tutilgan: “Kompetentlik tushunchasi bilim, ko‘nikma va malaka tushunchalarining keng ma’noda qo‘llanilishi bo‘lib, o‘z tarkibiga (aslida, gap kompetentlikni bilimlarning oddiy adaptiv yig‘indisi sifatida emas – malaka – ko‘nikma tushunchalarining ma’nosи bu bir qancha boshqa tushunchalarni anglatadi). Kompetentlik tushunchasi o‘zida kognitiv va operatsional-texnologik tarkibiy qismigina emas, balki motivatsion, axloqiy, ijtimoiy va xulqiy qismlarini ham oladi. U ta’lim natijalarini (bilim va malaka), qadriyatli yo‘nalganlik tizimi, odatlar va boshqalarni jamlaydi”.

Tadqiqotchilar o‘z tadqiqotlarida kompetensianing turli ta’lim yo‘nalishlarida turli jihatdan tahlil qilishgan. N.A.Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda tayanch, umumiylar maxsus kompetentlik darajalarini shakllantirish muhimligini aniqlagan. Tayanch kompetenlikliklar – ta’lim oluvchining ta’lim jarayoni nihoyasida ega bo‘lgan barcha tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalaridir. Xulq-atvori va fikrlashi keng ma’nodagi “kompetentlik” tushunchasiga kiritiladi. Ta’lim jarayonining maqsadi ta’lim oluvchining kompetentliklarini rivojlantirishni rag‘batlantirish hisoblanadi.

Kompetentliklarni ikki turga ajratish mumkin:

1) o‘quv fani yoki ta’lim yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kompetentliklar – ixtisoslikka oid maxsus kompetentliklar;

2) barcha ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ham muhim hisoblanadigan kompetentliklar – umumiy kompetentliklar. Umumiy kompetentliklar ba’zan “transversal ko‘nikmalar” deb ataluvchi, ya’ni, barcha yoki ko‘pchilik fanlar yo‘nalishlariga xos bo‘lgan ko‘nikmalarga o‘xshab ketadi. Umumiy kompetentliklarning qanchalik muhimligi to‘g‘risidagi bilimlarni rivojlantirish maqsadida ularning eng muhimlarining ro‘yxatini to‘zib olish zarur, ularning ahamiyati va oliy ta’lim muassasalarida rivojlantirilayotgan kompetentliklarga mos kelish darajasi aniqlanishi kerak.

Kompetentlik turlarining umumiy tomonlari va farqlari aniqlanib, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus kompetentliklar ro‘yxati shakllantirilishi kerak. Maxsus kompetentliklar guruhidan ularning qaysi birlari birinchi bosqichda, qaysisi ikkinchi bosqichda va qaysilari uchinchi bosqichda muhimligi, shuningdek, qaysi bosqichlari ularni rivojlantirish kerakligi aniqlanadi

Shuningdek, o‘z tadqiqotida masalali-faoliyatli modelda ta’lim mazmuni uch darajada: – tayanch kompetentlik (o‘quv rejasidagi barcha blok fanlari uchun); – fanlararo kompetentlik (o‘quv rejasidagi bir blok fanlari to‘plami uchun); – predmet doirasidagi kompetentlik (o‘quv rejasidagi bir fan yuzasidan) shaklida keltirilgan

Kompetentlik uch muhim omil bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirishni nazarda tutadi:

- boshqa odamlar bilan munosabatlar madaniyatini;
- o‘z faoliyat sohasi haqida axborot olish ko‘nikmasini;
- o‘quv axborotini boshqalarga berish ko‘nikmasini.

Shunday qilib, professional-pedagogik kompetentlik quyidagi asosiy komponentlar bilan tavsiflanadi:

- shaxsiy-insoniy mo‘ljal;
- pedagogik jarayonni tizimli idrok etish;

- o‘z faoliyati sohasida mo‘ljal ola bilish;
- pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirganlik.

Pedagogika, psixologiya o‘qituvchisidan talab qilinadigan kompetentlik quyidagi turlarga ajratiladi:

- professor-o‘qituvchi tomonidan o‘z bilimini muntazam ravishda boyitib borish, egallagan malakalarini takomillashtirishga tayyor bo‘lish, zamon yangiliklaridan boxabar bo‘lish;
- ta’lim jarayonida axborot kommunikatsiya, informasion texnologiyalari va o‘qitish vositalarining barcha turini qo‘llay olish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lish;
- anglangan va mustaqil faoliyat (mustaqil fikr, maqsad qo‘yish, o‘quv adabiyoti va qo‘sishimcha manbalardan to‘g‘ri foydalana olish);
- tashabbuskorlikda o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qila olish;
- tanqidiy fikr yurita olish va dars jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta olish;
- hamkorlik, o‘zaro bir-birini tushunish, empatiya bildirish, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan pedagogik muloqotni o‘rnata olish;
- chuqur kasbiy bilimdonlikka ega bo‘lish.

Hozirgi zamon oliv o‘quv yurti professor o‘qituvchisining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi:

Ijtimoiy bilimdonlik – dars mobaynida auditoriya bilan samarali o‘zaro muomala shaklini tashkil eta olish, yoshlar bilan til topish va sog‘lom ma’naviy muhitni hosil qila olish qobiliyati.

Uslubiy bilimdonlik – barcha bilimlarini, ko‘rgan-kechirganlarni yoshlarga tushunarli, ravon tilda yetkaza olishi, ta’lim texnologiyasi va metodlaridan samarali foydalanishi.

Ixtisoslik bilimdonligi – o‘z fani va predmeti sohasi bo‘yicha chuqur va har tomonlama mukammal bilimlarga ega bo‘la olishi, o‘z ustida ishslash qobiliyati.

Psixologiyada ta’kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o‘z maqsadi, ishtiy yoqi va shaxsiy xulqqa ega bo‘lgan ishtirokchisi

hamdir. Pedagog doimo o'sib o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

Ta'limi kompetensiyalar ikki guruhdan iborat: tayanch (umumiy) va maxsus (fanga oid) kompetensiyalar.

### **Tayanch kompetensiyalar:**

#### **1. Kommunikativ kompetensiya**

- jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozisiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish;

#### **2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi**

- mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;
- media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishslash, o'zatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;
- ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;
- kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish, mehmonxona ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

#### **3. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi**

- shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;
- hayot davomida o‘qib-o‘rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;
- o‘z xatti-harakatini adekvat baholash, o‘zini nazorat qila bilish, halollik, to‘g‘rilik kabi sifatlarga ega bo‘lish;
- o‘qib-o‘rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

#### **4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi**

- jamiyatda bo‘layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish (ya’ni haridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);
- mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;
- kasbiy mavqeining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish.

#### **5. Umummadaniy kompetensiyalar**

- Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;
- badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;
- orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy me’yorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish,
- umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;
- xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatalgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish.

**Kompetentlilik** – aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi. Kompetentlilik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko‘nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Amalda kompetentlik–bilim mahsuli bo‘lib, amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyon bo‘lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kompetentlikning asosiy mezoni (kriteriya) turli holatlarda, shu bilan birga asabiy vaziyatlarda ham o‘zini tuta bilishning namoyon bo‘lishidir. Uning tasodifiy muvaffaqiyatli qo‘llanilishi hisobga kirmaydi. Yana bir bor ta’kidlash joizki, “kompetentlik” va “kompetensiya” o‘zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, vaziyatga bog‘liq emas.

**O‘qituvchi kasbiy kompetentligi quyidagilarni qamrab oladi:** ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy - metodik asoslarda tashkil etish, talabalar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida ta’lim jarayonlarning sifat va samaradorligini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, o‘zini-o‘zi va o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma’naviy dunyoqarashga, psixologik–pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, axborotlar to‘plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishslash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta’lim oluvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va talabalar faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko‘rish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan hamda ta’lim-tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta’minlash yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega.

Bugungi kunda ta’limda kompetentli yondashuvni amalga oshirishda jahon tajribalariga tayanilmoqda, ularni mamlakatimiz an’anaviy ta’lim sharoitlari hamda uning ehtiyojlariga moslashtirilmoqda. “Kompetentlilik tushunchasi jahon ta’limi tajribalarida o‘z ma’nosida markaziy bo‘g‘in sifatida tushuniladi – bunda kompetentlilik, birinchidan, ta’lim o‘z tarkibida intellektual va ta’limni tashkil etuvchi malakalarni jamlaydi; ikkinchidan, kompetentlilik tushunchasida ta’lim “natijalaridan shakllanuvchi” ta’lim mazmunining g‘oyaviy interpretatsiyasi yotqizilgan; uchinchidan, tayanch kompetentlik integrativ tabiatga ega bo‘lib, yoki o‘z ichiga keng ma’nodagi madaniyat va faoliyat (axborot, huquqiy va boshqa) sohalariga taalluqli qator bir xil yoki o‘zaro yaqin malaka va bilimlarni jamlaydi”.

Shunday qilib, mazkur tushuncha mazmun-mohiyatining tahlili quyidagilarni anglatadi:

- kompetentlik shaxsning integrativ, kompleks tavsifi bo‘lib hisoblanadi;
- kompetentlik tushunchasi o‘z ichiga bilim, ko‘nikma va malakalarni jamlaydi, biroq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning yig‘indisini anglatmaydi;
- kompetentlik tushunchasi kognitiv va operatsional-texnologik jihatdan o‘z tarkibiga motivatsion, axloqiy, ijtimoiy, xulq-atvorni ham jamlaydi;
- kompetentlik o‘zlashtiriladi, faoliyatda namoyon etiladi (o‘quv, kasbiy, ijtimoiy, maishiy va boshqalar) va bilimlari hamda malakalari majmuidan ma’lum bir vaziyatlar muammolarini hal qilishda anglagan holda qo‘llash qobiliyati bilan bog‘liq.

Ko‘pincha adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari sinonim sifatida qaraladi. Mazkur tushunchalar farqini belgilash zarur.

Lug‘atlarda “kompetensiya” tushunchasi mazmun-mohiyatida “mazkur shaxs ega bo‘lgan bilim va tajribalar bilan bog‘liq masalalar tushunilishi» ochib beriladi, “qonunda nazarda tutilgan kompetentli shaxslar, kompetentli organlar yoki mansabdor shaxslarga nisbatan boshqa harakatlar”, “kompetentlik”

- 1) kompetensiyaga ega bo‘lishdir;
- 2) nimalar haqidadir fikr yuritishga imkon beruvchi bilimlarga egalikdir.

Kompetensiyaning turlarini tasniflashga doir xilma xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar kasbiy ta’lim nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

maxsus kompetensiya – yetarli yuqori darajada o‘z kasbiy faoliyatini egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

ijtimoiy kompetensiya – bиргаликдаги kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallash, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallash, kasbiy-shaxsiy o‘sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorgarlik;

asosiy kompetensiyalar – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalar.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, kompetensiyalarning har bir turi kasb ta’limi o‘qituvchilarining uzluksiz ravishda rivojlanib borishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari yig‘indisidir. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, kompetensiyalarning metodik xarakteri insonning butun hayoti davomidagi nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, kompetensiya tushunchasining umume’tirof etilgan mohiyati va kompetensiyalarning yagona tasnifi mavjud emas.

Shunga o‘xshash nuqtai nazar, A.K.Markova tadqiqotida bayon etilgan, ya’ni kompetentlik muayyan sohada kompetentliklarini hisobga olgan holda, insonning hal qilish huquqiga ega bo‘lgan bir qator masalalarni, shuningdek, “aqliy xususiyatlari sifatini aqliy holat sifatida birlashtirib, mustaqil va mas’uliyatli (samarali kompetentlikka) ega bo‘lishga imkon beradigan, muayyan mehnat faoliyatini amalga oshirish qobiliyatidir” [27; 31-b.] “Ba’zan shunday gaplarni eshitamiz: bu mening kompetentimga kiradi (men buni hal qila olaman), lekin mening kompetentligim doirasida emas (buni hal qilishga kompetentlik berilmagan)” [27; 34-b.].

A.V.Xutorskoy o‘z tadqiqot ishida mazkur tushunchani biroz boshqacha, kompetensiyani “ma’lum fanlar doirasida va sermahsul faoliyat jarayonlari uchun zarur bo‘lgan o‘zaro aloqador shaxsiy xususiyatlar yig‘indisi (bilim, malaka, ko‘nikma, faoliyat usullari) sifatida” ta’riflaydi.

Kompetensiya tushunchasi mazmun-mohiyatida ta’lim oluvchilar ta’limiy tayyorgarligiga oldindan qo‘yilgan talablar sifatida tushuniladi.

Kompetentlik esa – bu “inson tomonidan tegishli kompetensiyaga egalik bo‘lib, uning predmetli faoliyatiga shaxsiy munosabatini o‘z ichiga oladi”. Bu uning shakllangan shaxsiy xususiyati bo‘lib, mazkur sohada faoliyatiga munosabatda qo‘llaniladigan tajribasidir [41; 60-61-b.].

Ta’limni takomillashtirish yangi avlod darsliklariga ta’limning yangilangan mazmuni asosiga “tayanch kompetentlik”ning kiritilishini ko‘zda tutilgan. Asosiy kompetentlik tushunchasi bugungi kunda yetarli darajada o‘rganilmagan.

Turli vaziyatlar, turli muhim maqsadlarga erishish va quyidagi murakkab muammolarni hal qilishda unga ega bo‘lish zarur:

tayanch kompetentlik fanlar va fanlararo xususiyatlarga xos bo‘lib, ular nafaqat maktabda, balki ishda, oilada, siyosiy sohada va boshqa turli vaziyatlarda qo‘llaniladi;

tayanch kompetentlik muhim intellektual rivojlanishni: mavhum fikrlash, o‘z-o‘zini o‘ylash, o‘z mavqeini belgilash, o‘zini hurmat qilish, tanqidiy fikrlash va boshqalarni talab etadi;

tayanch kompetentlik ko‘p qirralidir, ya’ni o‘z ichiga turli aqliy jarayonlar va intellektual (tahliliy, tanqidiy, kommunikativ va boshqa) malakalarni, yangiliklardan xabardorlik, shuningdek, “sog‘lom fikrlarni” jamlaydi.

Shunday qilib, asosiy kompetentliklar deb, jamiyatning har bir a’zosi turli xil vaziyatlarda ega bo‘lishi, qo‘llashi mumkin bo‘lgan va kerak bo‘lgan xususiyatlarni aytish mumkin.

Hozirgi vaqtda asosiy faoliyat kompetentligi tushunchasining o‘ziga emas, balki uning tarkibiy qismlari ham amaliyotga yaxshi joriy etilmagan, aslida, bu yo‘nalishda xalqaro loyihalar, dasturlar va konferentsiyalar kabi bir qancha

tadbirlar amalga oshirilgan, tashabbuslar mavjud. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bu maqsad maktabni bir yildan oshiq vaqt mobaynida amalga oshirdi. 1990-yillarning o‘rtalarida Yevropa Kengashi ta’lim muassasalarining barcha bitiruvchilariga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan quyidagi asosiy kompetensiyalar ro‘yxati qabul qilingan:

mas’uliyatni zimmasiga olish, birgalikda qaror qabul qilishda ishtirok etish, zo‘ravonliksiz nizolarni boshqarish, demokratik institutlarning faoliyati va rivojlanishida ishtirok etish, siyosiy va ijtimoiy qobiliyatlar bilan bog‘liq kompetensiyalar;

ko‘p madaniyatli jamiyatda hayotga bog‘liq bo‘lgan (turli xil tushunishni, bir-biriga hurmatni, boshqa madaniyatlar, tillar va dinlarning boshqa odamlar bilan yashash qobiliyatini tushunish) kompetensiyalar;

og‘zaki va yozma muloqotni qila olish, bir necha tilni bilish qobiliyatini belgilovchi kompetensiyalar;

axborot jamiyati paydo bo‘lishi, axborot texnologiyalarini qo‘llash, ularning mohiyatini tushunish, axborot texnologiyalaridan foydalanishning kuchli va zaif tomonlari bilan bog‘liq;

butun faol hayoti mobaynida o‘qish qobiliyati va xohishini amalga oshiruvchi kompetensiyalar.

Kompetensiya tushunchasini asosiy ilgari suruvchi-tadqiqotchi G.Xalaj, uning ta’rifini Yevropaning oldida turgan qiyinchiliklarga (demokratik ochiq jamiyatni saqlab qolish, ko‘p tilli, ko‘p madaniyatli, mehnat bozorining yangi talablari, integrasiyalashgan tashkilotlarning rivojlanishi, iqtisodiy o‘zgarishlar va boshqalar) javob sifatida bergen.

Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan tayanch kompetentlikning quyidagi butunlay boshqa tarkibi ishlab chiqilgan va qabul qilingan:

“Raqamlar bilan ishlash” (ingliz ish beruvchilari maktab bitiruvchi-ishchilarining jadval va kalkulyatoridan qanday foydalanishni bilmasliklarini hisobga olib, bu vazifani darhol milliy ta’lim vazirligiga topshirganlar);

“Kommunikatsiya” (ona tili - og‘zaki va yozma, xorijiy tillar, muloqot uchun

yeterlicha vositalar va usullarni tanlash, qayta aloqa qurilmasi, ya’ni siz suhbatdoshning fikringizni qanday tushunish qobiliyati);

axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish;

“O‘z-o‘zini tanishtirish” yoki “o‘z-o‘zini taqdim etish” (inglizlar o‘smirning kelajakdagi ish faoliyatini aynan mакtabda o‘ргanishi kerakligiga ishonishadi);

Eng muhim kompetentlik “o‘z muammolarini hal qilish qobiliyatidir”. Bu, aniqrog‘i, Kembrij ekspertizasi xulosasi bo‘yicha ta’riflarda, maqsadlarga erishish uchun ularning ichki va tashqi resurslarini tashkil etish qobiliyatiga egalikdir. Ichki resurslarga an’anaviy bilim va ko‘nikmalar kiradi. Agar o‘rta maktab bitiruvchilari o‘z maqsadlariga erishish uchun ularni tashkil etish imkoniga ega bo‘lsalar, Britaniya mакtabining ijtimoiy institut sifatida vazifasi bajarilgan deb hisoblanadi.

Shveysariya milliy statistika byurosi tomonidan AQSHning Ta’lim statistikasi milliy markazi va Kanada statistika markazi bilan hamkorlikda o‘tkazilgan “Tanlovni aniqlash va tanlanish: nazariy asoslar” (DeSeCo) dasturi bo‘yicha strategik hisobotda "kompetentlarni aniqlash va tanlovi ushbu jamiyatni qadrlaydi" va "shaxslar, guruhlar va muassasalar, institutlar nuqtai nazaridan muhim" deb hisoblanadi.

A.V.Xutorskiy qadriyatli-mazmuniy, umummadaniy, o‘quv-bilish, axborot, kommunikativ, ijtimoiy-mehnatga oid va shaxsiy mustaqil takomillashish kompetentligi kabi yettita tayanch ta’limiy kompetentlik qobiliyatini ajratib ko‘rsatgan [41].

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, kompetensiyalarning har bir turi kasb ta’limi o‘qituvchilarining uzluksiz ravishda rivojlanib borishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va qobiliyatları yig‘indisidir. Ushbu fikrlardan shuni aytá olishimiz mumkinki, klaster yondashuvi asosidagi kompetensiyalar insonning yangilikka intiluvchi va kreativ jihatlarini ham to‘la ta’minlab bera oladi. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, kompetensiyalarning metodik xarakteri insonning butun hayoti davomidagi nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki,

kompetensiya tushunchasining umume'tirof etilgan mohiyati va kompetensiyalarning yagona tasnifi mavjud emas.

### **Nazorat savollari:**

1. Kompetentlik tushunchasiga ta'tif bering.
2. Kompetensiya tushunchasi mazmun-mohiyatini ifodalang.
3. Murakkab muammolarni hal qilish deganda nimaarni tushunasiz?
4. Fanlar va fanlararo xususiyatlarga xos bo'lgan kompetentlikni aniqlang.
5. A.V.Xutorskoy o'z tadqiqot ishida qanday tushunchalarni asosab berdi?

### **Mustaqil ta'lif togshirig'i:**

**1-topshiriq.** Kompetensiya va kasbiy kompetentlikning mazmuni va mohiyatini FSMU texnologiyasida yoriting.

## **1.4. Kasbiy kompetentlik sifatlari**

**Tayanch so'z va iboralar:** kasbiy kompetentlik, Ijtimoiy kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, maxsus. psixologik, metodik, informatzion, kreativ, innovatsion, kommunikativ, ekstremal, texnologik kompetentlik.

Bugungi kunda kadrlar buyurtmachilari tomonidan qo'yilayotgan eng kata talablardan biri mutaxassislarning raqobatbardoshligidir. Mehnat bozorida raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur? Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lif sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik

“noan’ anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

**Kasbiy kompetentlik** – ko‘p qirrali va ko‘p jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir bo‘luvchi o‘zgarishlarga mos ravishda o‘zgaradi hamda turli nuqtayi nazarlar ostida ko‘riladi. O‘qituvchining “kasbiy kompetentligi” tushunchasi mazmuniga zamonaviy yondashuvlar tahlili ko‘rsatishicha, mazkur muammo hozirgi vaqtda uning talqiniga turlicha mazmun baxsh etuvchi, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o‘rganilmoqda. Ye.V.Bondarevskaya kasbiy kompetentlik tushunchasini uning asosiy komponenti hisoblangan, “ta’limda hunarmandni” emas, balki yuqori madaniyatli mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan “pedagogik madaniyat” tushunchasi bilan bog‘laydi.


Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o‘zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

S.Ya.Batishev va B.S.Gershunskiy kasbiy kompetentlikni “savodxonlik kasbiy kompetentlik – madaniyat – mentalitet” umumiy bo‘g‘inidagi ta’lim natijasi sifatida qaraydi. B.S.Gershunskiyning fikriga ko‘ra, kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, fanni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini va ularni faoliyatda amalga oshirish malakalarining shakllanganligining ma’lum darajasi, sifat va natijaviy ko‘rsatkichini aks ettiradi. Uning yozishicha, kasbiy kompetentlik, asosiy ravishda kasbiy ta’limining darajasi, insonning tajribasi va individual qobiliyatları, uning uzluksiz mustaqil ta’limga va o‘z-o‘zini takomillashtirishga motivli intilishi, ishga ijodiy va mas’uliyatli munosabati bilan aniqlanadi.

U kasbiy kompetentlik strukturasida funksional savodxonlikdan tashqari, fan mazmunidan ko‘ra shaxsning shakllantiriladigan sifatlari: mas’uliyat, ijod, qiziquvchanlik, tirishqoqlik, yangi bilimlarni egallahsga intilish, haqiqatni estetik idrok etish, o‘z ishining haqiqiy professionalini tasavvur etib bo‘lmaydigan yuqori

axloqiylikni ajratadi. Kasbiy kompetentlik o‘z ichida falsafiy, psixologik, ijtimoiy, madaniy, shaxsiy tartibdagi jihatlarni qamrab oluvchi tizim sifatida ifodalanishi mumkin (T.G.Braje).

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi (1.4.1-rasmga qarang):



#### **1.4.1-rasm. Kompetentlik sifatlari**

1. **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish Ko‘pgina mahalliy hamda xorijiy olimlar pedagogning kasbiy kompetentligi kasbiy bilimlar va ko‘nikmalar, sotsiumda qadriyatli yo‘nalishlar, uning faoliyati motivlari, nutqida, muloqot uslubida aks etuvchi umumiyligi madaniyati, o‘zining ijodiy imkoniyatini rivojlantira olish qobiliyati, shuningdek fanni o‘qitish metodikasini egallaganligi, talabalarni tushunish va ular bilan o‘zaro aloqa qilish qobiliyati, ularga hurmat, kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlari bilan aniqlanishi to‘g‘risidagi fikrlarga qo‘shiladilar. ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini

real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1) psixologik kompetentlik–pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash.

3) informasion kompetentlik–axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish.

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

5) innovasion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyatga samarali tatbiq etish.

6) kommunikativ kompetentlik–ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

**3. Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

**4. Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**5. Ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.


Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

Amerika ijtimoiy fanida kompetentli mutaxassis tartibi intizomlilik, mustaqillik, kommunikativlik, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishdan iborat deb ta’kidlanadi. Shved olimlari kasbiy kompetentlik – bilimlarning intellektual, ma’naviy, ijtimoiy, estetik, siyosiy jihatlari integrasiyasi deb hisoblaydilar.

M.I.Lukyanova esa psixologik-pedagogik kompetentlikni pedagog shaxsining o‘ziga xos sifatlari hamda yuqori darajadagi kasbiy tayèrlikni va ta’limtarbiya jaraènida ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro samarali ta’sir ko‘rsata olish yig‘indisi deb ta’kidlaydi


### **Pedagogning kasbiy kompetentligi va uning tarkibiy qismlari**

O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligini aytib o‘tadi (1.4.2-rasmga qarang) [45.82]:



**1.4.2-rasm. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (A.K.Markova)**

O‘zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o‘ziga xos jihatlari o‘ranilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi (1.4.3-rasmga qarang):



**1.4.3-rasm. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (B.Nazarova)**

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishslash, o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

Gnoseologik jihatdan kasbiy ta’lim natijasi talabalarning o‘quv-bilish faoliyatiga, o‘zlashtirgan bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlaridan amalda foydalanishaga, talabalar tomonidan topshiriqlarni muntazam ravishda bajarilishiga bog‘liq bo‘lib, talabalarning aqliy rivojlanganlik darjasini ular tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ish-harakat usullari hajmiga mos bo‘ladi

O‘zini-o‘zi tahlil etish gnoseologiya, psixologiyada bilish va amaliy faoliyatga doir barcha harakatlarni o‘z ichiga oladi, pedagogikada esa, tadqiq qilinayotgan narsa-hodisalarning alohida tarkibiy qismlarga ajratish qonuniyat va usullarini o‘zida aks ettiruvchi bilish jarayoni sifatida ifoda etiladi.

O.O.Kashenkonning fikricha, o‘z-o‘zini tahlil etish falsafa va psixologiyada o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini baholashning tarkibiy qismi sifatida aks ettirilsa ham mustaqil kategoriya sifatida ishlatilmaydi.

Biroq o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi va rivojlanishi o‘z-o‘zini tahlil etish asosida amalga oshishini esda tutish zarur. Chunki aynan pedagogik voqelikda o‘z-o‘zini tahlil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ularning o‘zi haqidagi tasavvurlari, qiziqishlari, motiv, ehtiyojlari tizimi sifatida tushuniladigan “Men-konsepsiyasi”ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarning eng asosiyalaridan biridir.

O‘z-o‘zini tahlil etish usullari quyidagilarga e’tibor qaratishni talab etadi:

- 1) ijtimoiylikka yo‘naltirilgan o‘zaro harakat vaziyatlaridan shaxsiy xulq-atvor, tarbiyalanuvchi shaxsi, uning o‘ziga xosliklari, qadriyatları tizimi kabilarni obyekt sifatida ko‘rib chiqish;
- 2) o‘z xulq-atvori, shaxsiy fazilatlarini tahlil etish mezonlari tizimini aniqlash;
- 3) noma'lumdan ma'lumi ajratib olish;
- 4) qarama-qarshiliklarni aniqlash.

O‘z-o‘zini tahlil etish o‘z-o‘zini anglashdan avval kelib, aynan uning asosida shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlari umumlashgan ko‘rinishga o‘tadi. O‘z-o‘zini anglash natijasida shaxsda o‘zining kimligini anglash, o‘zining jamiyatdagi o‘rnini tushunib yetish, boshqalarning ko‘z o‘ngida kim sifatida gavdalanishini his etish kabilar shakllanadi. O‘z-o‘zini anglash o‘z-o‘ziga munosabat sifatida shakllanuvchi hissiy va mantiqiy jihatlarni o‘zida aks ettiradi.

Ma’lumki, o‘z-o‘zini anglash usullari ham mantiqiy, ham emosional darajada o‘z-o‘zini tahlil etish natijasida olingan axborotlarni aniqlashtirish va umumlashtirishni talab etadi.

O‘qituvchining vazifasi va burchi tarbiya natijasida ta’lim oluvchilar da milliy qadriyatlarga e’tiqod, milliy mafkura, demokratik qarashlar va hayotiy pozisiyani shakllantirishdan iborat. Tarbiya mazmunining eng muhim xususiyatlaridan biri – bu insonning hayotiy jihatdan o‘z-o‘zini anglashi, uning shaxsiy hayoti va faoliyati o‘zi yashab turgan muhitning subyekti sifatida e’tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini anglash muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi ta’lim oluvchilarni o‘z-o‘zini tarbiyalashga, ya’ni o‘z

ustida ongli, batartib ishlashga o'rgatsagina tarbiya jarayoni samarali natijalar beradi. Ta'lism oluvchilarni o'z-o'zini tarbiyalash metodlariga ko'nikma hosil qildirish o'qituvchining mahoratiga, tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Ta'lism oluvchilar odatda yaqin kishilarining, ba'zan o'qituvchilarining xulq-atvoriga taqlid qiladilar.

Shuning uchun o'qituvchi o'z pedagogik mahoratiga tayanib, ta'lism oluvchi qalbida o'ziga nisbatan ishonch, mehr tuyg'ularini uyg'ota olishi lozim. Ta'lism oluvchilar o'qituvchining darsda va hayotda o'zini qanday tutishini, kiyinishi, muomalasini, kishilar bilan o'zaro munosabatini kuzatib boradilar. Bu ham ta'lism oluvchilarning o'z-o'zini tarbiyalashda ta'sirchan vosita hisoblanadi va ijtimoiy mavqeini oshirishning muhim usulidir.

Ta'lism oluvchilar o'qituvchining bevosa na zoratida ta'lism va tarbiya jarayonida, dam olishda, jamoat ishlarida, o'z-o'zini tarbiyalash usullariga ko'nikma hosil qiladilar, bu usullar ta'lism oluvchilarni tashabbuskorlikka, mustaqil fikr-mulohaza yuritishga undaydi. O'qituvchi tarbiya jarayonida ta'lism oluvchilarning quyidagi o'z-o'zini tarbiyalash metodlaridan foydalanishi mumkin:

- o'z-o'zini tahlil qilish va nazorat qilish;
- o'z-o'zini baholash (tengdoshlariga taqlid qilish asosida);
- izohlash (ta'lism oluvchining ma'naviy-axloqiy sifatlari izohlanadi);
- munozara (ta'lism oluvchiga siyosiy, madaniy, estetik, huquqiy mavzularda og'zaki ta'sir o'tkazish);

Mazkur komponentlardan hatto birining ham bo'lmasligi butun tizimni bo'zadi va pedagog faoliyatining samaradorligrini pasaytiradi. Shu tariqa, kasbiy kompetentlik shaxsning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga, uning ahamiyatiga va uni amalga oshirishda qo'llaniladigan, barcha bilimlar hamda ko'nikmalar birligidagi ma'lum bir o'ziga xos vazifalarga munosabati sifatida ta'riflanishi mumkin.

Talabaning kasbiy kompetentligi faoliyatning boshqaruv, pedagogik, kommunikativ, diagnostik va tadqiqotchilik komponentlarini o'z ichiga oladi hamda maqsadlarga erishish bo'yicha pedagogik vazifalarni optimal ravishda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kasbiy bilimlar va ko'nikmalarning

shakllanganligi darjasи, kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarining rivojlanish darjasи bilan aniqlanadi

Talabaning kasbiy kompetentligining asosiy komponentlari orasida tadqiqotchilik komponenti alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilik komponenti bo‘lajak mutaxassislarning nafaqat asosiy bilimlar va ko‘nikmalarini egallahshlarini, balki izlanishlar, tadqiqotchilik xususiyatidagi ijodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilimlarni ham egallahni ko‘zda tutadi.

Bo‘lajak mutaxassisning tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarining yuqori darajasining, shuningdek mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarining mavjudligini talab etuvchi tadqiqot faoliyatiga tayyoragarlik sifatida belgilanadi.

**Tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish** bo‘lajak mutaxassislarning mazkur fan vositalari bilan yangi ilmiy bilimlarni izlab topishning mantiqiy tabiatи, fanda ishlab chiqilgan tadqiqotchilik instrumentariysining barcha majmuini egallah va bu asosda – zamonaviy ilmiy bilimning evristik g‘oyalarini ijodiy idrok etish to‘g‘risida ravshan tasavvurlarni nazarda tutadi.

Zamonaviy sharoitlarda ko‘pgina o‘qituvchilar jiddiy eksperimental-tadqiqotchilik faoliyati bilan shug‘ullanadilar. V.I.Andreyev oliy ta’lim muassasasining vazifalaridan biri – bo‘lajak o‘qituvchiga uning tadqiqotchi-o‘qituvchi sifatida tayyorlanishi va shakllanishiga yordam ko‘rsatish deb yozadi. V.I.Andreyev bo‘lajak pedagog uchun zarur hisoblangan tadqiqotchilik ko‘nikmalarini ajratadi, ular orasida eng ahamiyatlilari esa turli xil ko‘zatish metodlari, talabalarning aktual va potensiol rivojlanish darajalarini diagnostika qilish va testdan o‘tkazish jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan diagnostik ko‘nikmalar hisoblanadi.

Muallif ilmiy adabiyot bilan ishlash ko‘nikmasini ham muhim deb hisoblaydi (bibliografiya, bayonnoma to‘zish, havolalar va boshqalar). Muallif “tadqiqotchi-o‘qituvchi” va “etakchi tadqiqotchi o‘qituvchi” toifalarini aniqlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, tadqiqotchi-o‘qituvchi ijodiy tadqiqotchilik faoliyatiga yaqqol ifodalangan moyilliklariga ega bo‘ladi. U metodologik madaniyat, aktual

pedagogik muammolarni ko‘rish va faol yechish qobiliyatiga egadir. Uning ishi uchun ijodiy yondashuv xos. Bunday pedagogning ilmiy maqolalari mavjud, uning talabalari turli tanlovlari, olimpiadalar, bellashuvlarning g‘oliblari bo‘ladilar.

Yetakchi tadqiqotchi-o‘qituvchilar shaxsiy o‘ziga xos metodikalarga ega, ijodiy tadqiqotchilik guruhlarini boshqaradilar, bevosita boshqa o‘qituvchilarning eksperimental-tadqiqotchilik faoliyatlariga rahbarlik qiladilar, ularning talabalari tanlovlari, olimpiadalar, bellashuvlarda katta natijalarga erishadilar, obro‘li oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kiramalar.

Bugungi kunda o‘qituvchi tadqiqotchi-o‘qituvchi darajasiga erishishi, shakllangan tadqiqotchilik kompetentligiga ega bo‘lishi kerak, chunki ta’limning milliy doktrinasi ta’lim tizimini pedagogik ishchilarni ilmiy faoliyatda ishtirok etishlarini ta’minalashga yo‘naltiradi va bu ularning kasbiy tayyorgarliklarida sezilarli o‘zgartirishlarni kiritishni talab etadi. Bo‘lajak o‘qituvchisining tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish oliy maktab pedagoglarining turli komponentlarni qamrab oluvchi loyihalashtirishni ko‘zda tutadi. Bu yetakchi komponentlardan biri bo‘lib, talabalarning o‘quv-ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati mazmuniga xizmat qiladi. Qo‘yilgan vazifalarni hal etish uchun ham nazariy va ham amaliy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Nazariy metodlar tizimli yondashuv, ijodiy loyihalashtirish, modellashtirish, mavhumlashtirish, induksiya va deduksiyadan iborat bo‘ldi. Amaliy metodlar anketa so‘rovi, test, kuzatish, monitoringni tashkil etish, talabalar faoliyati natijalarini tahlil qilish, ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish, yangi tajribani yaratish, tadqiqotning olingan natijalarini amaliyotga joriy etish, talabalar uchun metodik ko‘rsatmalarni, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalarni tayyorlashdan tashkil topdi. Bo‘lajak o‘qituvchilarini ilmiy ijodga jalb etish orqali ularda tadqiqotchilik ijodiy faolligini shakllantirish muammosi dolzarb va oliy ta’li tizimining kechiktirib bo‘lmaydigan vazifasi hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarning nazariy tahlili ko‘rsatganidek, pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri oliy ta’lim muassasalarida o‘quv

ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida har bir talabani ilmiy ijodga jalg qilishning kompleks tizimini va amalga oshirish orqali uning strukturasiga innovation o‘zgarishlarni kiritish hisoblanadi.

Bilimlarning fanlararo integrasiyasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlash bo‘yicha zamonaviy ilg‘or tajribani umumlashtirish va zamonaviy ilmiy bilishga xos bo‘lgan integrativ yondashuv o‘rganilayotgan hodisalarini ularning boshqa hodisalar va jarayonlar bilan ko‘p tomonlama aloqalarida umumlashtiradi va chuqurlashtiradi; zamonaviy fanning holati va rivojlanish istiqbollari to‘g‘risidagi umumiylar yaxlit tasavvurni shakllantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarini kasbiy kompetentliklarining asosiy komponenti sifatida tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishga yordam beradi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Pedagogning kasbiy kompetentligi va uning tarkibiy qismlari xaqida gapirib bering.
2. I.Andreyev oliv ta’lim muassasasining vazifalaridan biri sifatida nimalarni e’tirof etgan.
3. “Men konsepsiysi”ning rivojlanishiga undovchi ichki omillarni ko‘rsating.
4. Talabalarda tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirishda nimalarga e’tibor berish kerak.

#### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq:** Kasbiy kompetentlik sifatlarini ta’lim texnologiyasi asosida yoriting.

## **1.5. Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi**

**Tayanch so‘z va iboralar:** innovation pedagogik jarayonlar, individual-ijodiy yondashuv, Ilmiy bilish, Innovasion pedagogik faoliyat, Innovasiyalarni amaliyotga joriy etish, talabalarining o‘zini rivojlantirishi.

Bugungi kunda innovasion pedagogik jarayonlar oliy ta’lim muassasasi o‘quv faoliyatining muhim komponentlaridan biriga aylanib bormoqda. Chunki innovasion pedagogik jarayonlar ta’lim xizmatlari bozorida nafaqat u yoki bu ta’lim muassasasining raqobatbardosh bo‘lishiga asos yaratadi, balki oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida professor-o‘qituvchi va talaba shaxsini intensiv rivojlantirish,

Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida professor-o‘qituvchi va talabalarining birgalikdagi faoliyati va muloqotini demokratlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish, talabani faol ta’lim olish hamda o‘zini har tomonlama shakllantirib borishga yo‘naltirish, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan texnologiyalar, metod va vositalarini takomillashtirish hamda modernizatsiyalash, ta’limning moddiy texnika bazasini mustahkamlash kabi vazifalarni bajaradi, pedagoglarning kasbiy mahorati, ularning ijodkorligi, izlanuvchanligining rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlaydi, talabalarining shaxs sifatida kamol topishida muhim o‘rin tutadi.

Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarining fanlarga oid yangiliklarni o‘zlashtirishi va olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishi, oxirgi qabul qilingan o‘quv me’yoriy hujjatlar bilan muntazam tanishib borishi zamonaviy oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talaba faoliyatiga beriladigan baho mezonlaridan biri hisoblanadi.

Amaliyotda innovasion pedagogik jarayonlarning xarakteri quyidagilar bilan belgilanadi:

- olingan natijalar mazmuni;
- tatbiq etilayotgan takliflarning yangilik darajasi;

- amaliyotchilarning innovation pedagogik faoliyatga tayyorligi.

Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimli, refleksiv-faoliyatli va individual-ijodiy yondashuv asosida olib boriladi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan pedagogik ta’limning barcha bo‘limlari innovation pedagogik faoliyatning barcha komponentlarini maksimal rag‘batlantirishi lozim. Refleksiv-faoliyatli yondashuvni amalgalashirishda oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarda ularning o‘zi va o‘z faoliyatiga nisbatan faol tadqiqotchilik pozisiyasiga o‘tish qobiliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi.

Individual-ijodiy yondashuv oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni ularda ijodiy individuallikni aniqlash va shakllantirish hamda innovation pedagogik jarayonlarni anglashni ta’mindigan shaxsiy bosqichga chiqaradi. Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlashning asosiy omillaridan biri talabalar pedagogik faoliyatining individualligini rivojlantirish hisoblanadi, ya’ni yangiliklarni o‘zlashtirish individual shaxsiy bosqichda amalga oshiriladi. Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlash 4 ta bosqichda amalga oshiriladi.

1. Talabalarning ijodiy individualligini rivojlantirish bosqichi. Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarda ijodiy pedagogik vazifalarni aniqlash, tahlil qilish va yechimini topish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek, ijodiy izlanuvchanligini rivojlantirish, ya’ni avval egallangan bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatga mustaqil olib o‘tish, ma’lum bo‘lgan vaziyatda muammo va obyektning yangi funksiyasini ko‘ra olish, obyektning tarkibiy qismlarini aniqlash, muqobil yechim yoki uning usullarini ko‘rish, avval o‘zlashtirilgan faoliyat usullarini yangi vujudga kelgan muammo bilan muvofiqlashtirish vositasida uni innovation mahsulotga aylantirish hamda talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishni nazarda tutadi.

2. Ilmiy bilish, pedagogik tadqiqot bosqichi. Bu bosqichda innovation pedagogikaga kirish metodologiyasi asoslarining egallanishi, ularni innovation

pedagogika vujudga kelishining ijtimoiy va ilmiy zamini, shart-sharoitlari, uning asosiy tushunchalari bilan tanishtirish tushuniladi.

3. Innovasion pedagogik faoliyat texnologiyasini o‘zlashtirish bosqichi. Bu bosqich mualliflik dasturlarini mustaqil tuzish metodikasini o‘zlashtirish, yangiliklarning keyinchalik rivojlanishi hamda yangiliklarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etishda kuzatilayotgan qiyinchiliklarni tahlil etish va prognozlashtirishni shakllantirishni nazarda tutadi.

4. Innovasiyalarni amaliyotga joriy etish bosqichi. Bu bosqich tajriba maydonchasida talabalarning amaliy ishini tashkil etish, tuzatish ishlarini olib borish hamda tajriba natijalarini kuzatishni o‘z ichiga oladi. Mazkur bosqichda talabalarda kasbiy faoliyatini o‘zi tahlil etish ko‘nikmasi rivojlanadi, ularning yangiliklarga nisbatan qarashlari, yo‘nalishlari, munosabatlari o‘zgaradi, innovasion nuqtai nazari shakllanadi.

Pedagogik jamoada qulay innovasion muhitning mavjudligi, ya’ni ta’lim muassasalari ta’lim jarayoniga innovasiyalarni kiritishni ta’minlaydigan tashkiliy, metodik va psixologik xarakterga ega bo‘lgan kompleks chora-tadbirlarni o‘zida mujassam etgan belgilangan ma’naviy psixologik muhitning mavjudligi talabalarning yangiliklarga “qarshilik qilish” koeffitsiyentini kamaytiradi, kasbiy faoliyatda paydo bo‘lgan stereotiplarni yyengib o‘tishga yordam beradi. Innovasion muhit ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning pedagogik innovasiyalarga bo‘lgan munosabatida o‘z ifodasini topadi.

Oliy ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning o‘zini rivojlantirishi ularning aqliy mehnat texnikasini bilgan hamda intellektual faoliyatning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi. Talabalarning o‘zini rivojlantirish faoliyati shaxsiy vaqtini tashkil etishni bilish, o‘zini rivojlantirish bo‘yicha individual reja tuza olish va uni amalga oshirish ko‘nikmasiga egaligiga bog‘liq.

Shunday qilib, yuqorida bayon etilgan fikrlar davlat talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda oliy ta’lim tizimi talabalarning ta’lim sohasidagi zamonaviy boshqaruv (menejment), marketing, monitoring, pedagogika, psixologiya, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari, huquq,

iqtisodiyot, ixtisoslik fani nazariyasi va uni o‘qitish metodikasi va boshqa sohalar bo‘yicha kasbiy va metodik bilimlarini chuqurlashtirish va yangilash, ularni amalda qo‘llashga o‘rgatish orqali talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlash va jalb etish, ular faoliyatining sifat va samaradorligi hamda raqobatbardoshligini oshirib borishga imkon yaratadi.

Talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlashda innovation texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Innovation texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi-talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interafaol metodlardan to‘liq foydalaniladi. Bunday metodlar - jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, u pedagogik ta’sir etish usul bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

O‘qitish jarayonida o‘quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma’suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan samarali foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga, pedagogika va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish o‘quv jarayonida innovation va axborot texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi. O‘qitish tizimiga innovasiyaning kirib kelishini ta’lim mazmunida, o‘qitish metodlarida, dars shakli, o‘qitish turlari, o‘qitish vositalarida ko‘rishmiz mumkin.

- ta’lim mazmuniga innovasiya an’anaviy, noan’anaviy va masofaviy o‘qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.

- o‘qitish metodlariga innovasiya faol, passiv va interfaol metodlarining kirib kelishi misolida ko‘ramiz. Aktiv metodni qo‘llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interfaol metoddha birgalikda faol harakat qilish (o‘qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.

- dars shakliga innovasiya kirib kelishini standart, nostandard hamda virtual dars shakllari misolida ko‘rishimz mumkin.

- o‘qitish turlaridagi innovasiyani muammoli ta’lim, evristik ta’lim, darajalangan ta’lim, integrasiyalangan ta’lim, interfaol ta’lim, informal ta’lim, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim turlari bilan izohlanadi.

- o‘qitish vositalariga innovasiyaning kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz.

Demak, innovasion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoki amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining yuzaga kelgan me’yor bilan to‘qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi. Pedagogik innovasiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta’lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi. Shu bois har bir o‘qituvchi innovasiyalarning mohiyatini to‘la tushungan holda o‘z faoliyatiga tatbiq eta olsa ta’lim jarayoni ham, sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimining rivojini ta’minlaydi.

Ta’limning yana asosiy maqsadi yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash ya’ni turli xil hayotiy sharoitlarda o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarini amalda qo‘llay olish darajasiga yetkazishdir. Ta’lim jarayonida faqat ilmiy bilimlar bilan qurollanmay, balki ana shu bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishlarini ta’minlanishi ham kerakdir. Bu o‘z navbatida kelgusida murakkab ilmiy nazariyalarni amalda qo‘llay olish uchun zarur bo‘lgan tajribadir.

Ta’lim jarayonida o‘quv materialning mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonununiyatlarini ilmiy asosda to‘g‘ri, chuqr tushunib olish va keljakda amaliy faoliyat uchun zarur bo‘lgan mahorat, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi. Shuning uchun ham bilimlarni mumkin qadar amaliyot bilan bog‘lash ta’lim jarayonini tamoyili sifatida qabul qilinadi. Ta’limda onglilik, faollik va mustaqillikka erishish, olingan bilimlarini amalda samarali qo‘llashdan iboratdir. Bundan tashqari bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish bilimlarga

nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, emosional kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga oladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Talabalarning ijodiy individualligini rivojlantirish bosqichlarini izohlang.
2. Pedagogik jamoada qulay innovation muhitning mavjudligi qanday chora-tadbirlarni o'zida mujassam etadi?
3. Innovation faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligini asoslab biring.
- 4 Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillikka erishish, olingan bilimlarini amalda samarali qo'llash qanday ahamiyat kasb etadi?

### **Mustaqil ta'lim togshirig'i:**

**1-topshiriq.** Oliy ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovation pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini “ven” diagrammasi asosida ifodalang.

## **II BOB.**

---

### **PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

#### *Bobning qisqacha mazmuni*

Mazkur bobda kasbiy kompetentlilikni rivojlanirish jarayonlarida motivlashtirish; pedagogik kompetentlikka oid akmeologik yondashuvlar; o‘qituvchi kasbiy kompetenttsiyasini takomillashtirish; oliv ta’lim o‘qituvchisi malakasiga ega bo‘lish uchun qo‘yilgan talablar bo‘yicha quyidagi o’rin olgan:

Motivlashtirish o‘qituvchilarining o‘z kasbiy kompetentliligini rivojlanirish yo‘nalishidagi xatti-harakatlariga turtki berib, erishish zarur bo‘lgan maqsadlarni belgilaydi. Motivlashtirish ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rivojlanirish va takomillashtirish yo‘nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi. O‘qituvchilarada kasbiy mahoratlarni rivojlanirish jarayonlarida motivlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki ularda kasbiy kompetentlilikning rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayoni va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga bog‘iq bo‘lib, mazkur jarayonlarning samaradorligi kasbiy kompetentlilikni rivojlanirish jarayonlari natijaviyligini ifodalaydi.

Akmeologik yondashuvga asoslangan oliv pedagogik ta’limning markaziga talaba shaxsi qo‘yiladi. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Professor-o‘qituvchilar talabalar bilan dialogga asoslangan muloqot jarayonida ularda o‘zlariga nisbatan ishonch hosil qilib, o‘z fikrlarini dadillik bilan bayon etishlariga sharoit yaratadilar. Bu esa talabalarga o‘zlashtirilayotgan kasbiy bilimlarning mazmun-mohiyatini anglash va o‘quv materiallarini jadal o‘zlashtirish imkonini beradi. Natijada talabalarda kasbiy rivojlanishga intilish, dadillik, qiziquvchanlik sifatlari tarkib topadi

Zamonaviy o‘qituvchi – bu asl muammoli pedagogik va tanqidiy fikrlash, Ilg‘or jahon tajribasi va yangi o‘quv texnologiyalari asosida ko‘p tarmoqli

dasturlarning yaratuvchisi, ularni diagnostika va aks ettirish asosida aniq pedagogik sharoitlarda talqin qilish.

## **2.1. Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish**

***Tayanch so‘z va iboralar: o‘zgartirishlar va yangiliklar, motivlashtirish, qobiliyatlarning yuksak darajasi, natija, o‘quv motivlari.***

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini, fan texnika yutuqlarini, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning innovasion texnologiyalarini o‘rganishga undovchi motivlarni aniqlash va ulardan o‘z mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri foydalanish zarur hisoblanadi, chunki kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish motivlarining o‘ziga xos xususiyatlari kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ya’ni turli xil motivlar ta’lim muassasalarida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limiy muhitni o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklar asosida o‘qituvchilarga belgilanayotgan zamonaviy talablar:

- ta’lim va yoshlar to‘g‘risidagi xukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib yetadigan hamda targ‘ibot qiladigan;
- o‘z fanini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda talabalarning subyektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan;
- o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan;
- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, talabalar va o‘qituvchilar hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiv faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida

refleksiv ta’limiy muhitni shakllantirish yo‘nalishlarida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta’limiy muhitni ta’lim muassasalarida shakllantirish uchun zaruriy shart–sharoitlarni yaratishda o‘qituvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o‘rganish asosida ularning kasbiy kompetentliligini takomillashtirish va rivojlantirish zarur bo‘lib, mazkur jarayonda motivlashtirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida ham motivlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki ular kasbiy ta’lim-tarbiya jarayoni va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari natijaviyligini ifodalaydi.

Ta’lim muassasalarida umumiyy manfaatlar uyg‘unlashuvida va ehtiyojlarni qondirish yo‘nalishida belgilanadigan maqsadni tanlash va unga erishish jarayonida, ya’ni o‘qituvchilarni o‘z kasbiy mahoratini rivojlantirishga undovchi va harakatga keltiruvchi motivlarning ahamiyati va ta’siri ularning tasavvuri orqali sinovdan o‘tadi.

Motivlarni o‘qituvchilar tomonidan qabul qilinishida ularning ishonchliligi, ta’sirchanligi va ahamiyatini asoslash orqali o‘qituvchilarga ta’sir ko‘rsatish motivlashtirishni ifodalaydi. Psixologik adabiyotlarda motivlashtirish keng ma’noda inson hayotining (uning xulq-atvori, va mohiyatining) murakkab, ko‘p qirrali boshqaruvchisi deb keltiriladi.

O‘qituvchilar faoliyati turli motivlar yordamida boshqarilishi mumkin. Motivlar yordamida irodaviy xatti-harakatlarni vujudga keltiruvchi va faoliyatni muvofiqlashtiruvchi ta’siri samarali hisoblanib, faoliyat natijalarining samaradorligi motivlarning xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi, bu o‘z navbatida motivlashtirish jarayonining samaradorligini ifodalaydi.

Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish o‘qituvchilarni umummilliy qadriyatlarini, milliy urf-odatlarini, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar va ularning natijalarini, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga undashning ko‘p darajali va murakkab tizimi bo‘lib, ehtiyojlar,

qiziqishlar, intilishlar, vositalar, e'tiqod, maqsad, orzu-istak, manfaatlar, talablar, qadriyatlar, urf-odatlar va boshqalar mazkur tizimning komponentlari hisoblanadi.

Tadqiqotlarda o'quv motivlari va o'quv samaradorligini o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilganda shaxsning intellektual darjasи va qobiliyatлari haqida fikr yuritiladi. Ularda keltirilishicha, ta'lim oluvchilarda zaruriy qibiliyatlar yetarli bo'lmagan xollarda yoki bilim, ko'nikma va malakalar talab darajasida bo'lmagan vaziyatlarda ularning o'rmini ijobiy motivlashtirish bilan to'ldirishi mumkin.

Aksincha, qobiliyatlarning har qanday yuksak darjasи ham motivlashtirishning o'rmini bosa olmaydi hamda o'quv faoliyatining samaradorligini yetarli darajada ta'minlay olmaydi. Motivlashtirish ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o'qituvchilar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida o'qituvchilarning ehtiyojlari yoki umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish ularda keljakka ishonch, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikni qadrlash kabi tushuncha va ko'nikmalarни shakllantirish va rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy amaliyat va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilish orqali kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Motivlashtirish o'qituvchilarning o'z kasbiy kompetentliligini rivojlantirish yo'nalishidagi xatti-harakatlariga turtki berib, erishish zarur bo'lgan maqsadlarni belgilaydi. Motivlashtirish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yo'nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi.

Motivlashtirish jarayonida o'qituvchilar ehtiyojlari yoki ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki mazkur ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi. Demak, ehtiyojlar

o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyat bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki amaliy mehnatga, dam olish, bilim olish, hunar o‘rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi.

O‘qituvchilarining ehtiyojlari turli xil bo‘lib, ularning psixologik xususiyatlariga, ya’ni odati, didi va kayfiyati, yoshi va sog‘ligi, jinsi, oilaviy ahvoli, mehnat qilish va yashash sharoitlariga ham bog‘liq. Masalan, ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchi bilan birinchi yil faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchining, oila qurgan o‘qituvchi bilan oila qurmagan o‘qituvchining ehtiyojlari bir-biridan farq qiladi.

O‘qituvchilarining ehtiyojlari o‘zgaruvchan, yashash va ish sharoitlari o‘zgarib, rivojlanib borgan sari ehtiyojlar ham ortib boradi. Hayotida mavjud bo‘lgan xilma-xil ehtiyojlarni aniqlash, tahlil qilish va ularda uzluksiz malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish asosida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun turli tadbirlarni tashkil etish va mazkur tadbirlarda ularning ishtirokini ta’minalash, hamda o‘quv faoliyatini muvofiqlashtirishda motivlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivlashtirish jarayoni mavjud ehtiyojlarga qoniqish hosil qilish uchun, ya’ni ehtiyojlarning qondirilishi uchun maqsadni belgilash va unga erishish uchun harakat qilishdan boshlanadi. Mazkur jarayonda ehtiyojning qondirilish darajasi o‘qituvchilarining muayyan faoliyatining holatini belgilaydi. Demak, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va tarbiyaviy

munosabatlar jarayonini muvofiqlashtirish asosida ularda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta’minalash o‘qituvchilarda o‘quv motivlarini shakllantirish, ya’ni motivlashtirishga bog‘liq bo‘lib, motivlashtirishning samaradorligi o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining natijaviyligini ifodalaydi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri motivlashtirishning samaradorligi

pedagogik jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi bo‘lib, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarda o‘qituvchilarning umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va milliy tariximizni o‘rganish asosida o‘tmishimiz va kelajagimiz haqida boy tasavvurga ega bo‘lishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darjasи, dunyoqarashining kengayishi, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasining o‘sishini, ya’ni ularda kasbiy kompetentlilikning rivojlanishini belgilaydi.

Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarda motivlashtirishning samaradorligiga erishish mumkin bo‘lgan natijalar bilan erishilgan natija o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlarni belgilaydi. Natijaviylik kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida o‘qituvchilar faoliyati natijalari bo‘lib, belgilangan maqsadga erishish yo‘nalishidagi xattiharakatlar bilan yo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatli natijalar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Bunda natijaviylik motivlashtirish samaradorligining ko‘rsatkichi sifatida qo‘llaniladi.

O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligiga erishish mumkin bo‘lgan natijalar bilan erishilgan natija o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashi, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlarida natijaviylikni taominlash uchun quyidagi shartlarning bajarilish zaruriyatini belgilaydi:

- o‘qituvchilarning bilimi, ko‘nikma va malakasi, tajribasi hamda o‘z faoliyati samaradorligi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- o‘qituvchilarda uzlusiz ijobiy motivlarni shakllantirish;
- o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini inobatga olish;

- o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlariga murakkab innovasion pedagogik tizim sifatida yondashish;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilarda o'z faoliyati samaradorligini o'rganish, tahlil qilish va obektiv baholash ko'nikmalarini shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'sirni ahamiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish.

Mazkur belgilangan shartlarga va yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligini rivojlantirish jarayonlarida ularda kasbiy kompetentlilikning rivojlanish dinamikasi yoki ijobiy motiv hisoblangan muvaffaqiyatga intilish motivlarining shakllanganlik darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan omillardan biri pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog'liqligidir. Motivlashtirish o'qituvchilarda yetarli darajada faollikni taominlash uchun zarur.

Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish, qanday motivlar o'qituvchilarni uzluksiz ijodiy yo'naltirishi va qaysilari ularning faolligini ta'minlashga, mustaqil o'rganishga, ma'lumot olishga va o'zini-o'zi tarbiyalashga imkoniyat yaratishini bilish, ularning bilim, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini oldindan aniqlash o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilarda motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta'sir etuvchi omillardni inobatga olgan holda, samaradorlikning o'zaro bog'liq bo'lgan quyidagi ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- o'qituvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, dunyoqarashi, tasavvuri, qiziqishi va imkoniyatlarining belgilangan maqsadlarga mos kelishini ifodalovchi xususiyatlar;

- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi omillar va vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari;
- o‘qituvchilar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari;
- davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining rivojlanishi, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ehtiyojlarini va qoniqish hosil qilish darajasi;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ilmiy-metodik ta’minoti darajasi;
- kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda refleksiv yondashuv, tizimli yondashuv, innovation yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’sir va boshqa yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari;
- axborotlarning ishonchliligi va yangiligi.

O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligining o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan ushbu ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, axborotlarning ishonchliligi va yangiligi ham asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida keltirilmoqda. Motivlashtirish jarayonida axborotlar bilan ishslash:

- o‘qituvchilarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari bo‘yicha tushunchalarini aniqlash;
- tasavvuri va dunyoqarashi, qiziqishi va imkoniyatlarini o‘rganish;
- belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish;
- o‘qituvchilarning ehtiyojlarini va qoniqish hosil qilish darajasini aniqlash;
- o‘qituvchilarga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bo‘yicha zaruriy ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishslash va o‘zatishdan iborat bo‘lib, o‘qituvchilarda ijodiy motivlarni shakllantirish va ularning o‘quv faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo‘llaniladi.

O‘z navbatida, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida axborotlarning o‘ziga xos ahamiyatini ifodalaydi, shuning uchun ham axborotlar yangi va ishonchli bo‘lishi zarur hisoblanadi. Ularning yangiligi va ishonchliligi to‘plangan axborotlarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida aniqlaniladi.

Ishonchli va yangi hisoblangan axborotlar asosida o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish, takomillashtirish, ya’ni ularning faolligini oshirish ishlari amalgalashiradi. Yangi va ishonchli deb topilgan axborotlarga asoslangan holda, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ham tahlil qilish imkoniyati tug‘iladi va ularga asosan kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish hamda o‘qituvchilarda ijobjiy motivlarni shakllantirish va motivlashtirish yo‘nalishlaridagi vazifalar belgilanadi.

O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish o‘qituvchilarni o‘z kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratish, o‘qituvchilarda o‘z ustida ishslash, uzluksiz ijodiy izlanishlar vujudga keltiruvchi ijobjiy motivlarni shakllantirishdan iborat, deb aytish mumkin.

O‘qituvchilarda kasbiy mahoratlarni rivojlantirish jarayonlarida motivlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki ularda kasbiy kompetentlilikning rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayoni va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga bog‘iq bo‘lib, mazkur jarayonlarning samaradorligi kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari natijaviyligini ifodalaydi.

Demak, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvi motivlarni o‘rganish o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, bunday motivlarni kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish motivlari, deb aytishimiz mumkin.

Ustoz-murabbiylarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning innovasion texnologiyalarini o‘rganishga undovchi motivlarni aniqlash va ulardan o‘z mohiyatiga ko‘ra to‘g‘ri foydalanish zarur hisoblanadi,

chunki kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish motivlarining o‘ziga xos xususiyatlari kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ya’ni turli xil motivlar ta’lim muassasalarida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limiy muhitning o‘zgarishiga olib kelishi mumkin.

Fikrimizcha, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish o‘qituvchilarni umummilliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlarini o‘rganishga undashning ko‘p darajali va murakkab tizimi bo‘lib, ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, vositalar, e’tiqod, maqsad, orzu-istak, manfaatlar, talablar, qadriyatlar, urf-odatlar va boshqalar mazkur tizimning komponentlari hisoblanadi.

O‘quv motivlari va o‘quv samaradorligining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilganda, shaxsning intellektual darajasi va qobiliyatları haqida fikr yuritilishini kurishimiz mumkin. Motivlashtirish ma’lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o‘qituvchilar faoliyatini psixologik ta’sir etish yo‘llari bilan maqsadga muvo-fik yo‘naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida o‘qituvchi ehtiyojlari yoki o‘qituvchilarning umumiyl manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarini inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirishi asosida amalga oshiriladi.

Shuningdek, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonini muvofiklashtirish asosida ularda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta’minalash o‘qituvchilarda o‘quv motivlarini shakllantirish, ya’ni motivlashtirishga bog‘liq bo‘lib, motivlashtirishning samaradorligi o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining natijaviyligini ifodalaydi. Fikrimizcha, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarda motivlashtirishning samaradorligi erishish mumkin bo‘lgan natijalar

bilan erishilgan natija o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi xususiyatlarni belgilaydi.

Shuningdek, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarda motivlashtirishning samaradorligi belgilangan maqsadga erishish yo‘nalishida o‘qituvchilar faoliyatining natijalarini ifodalab, barcha o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish hamda o‘qituvchilar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish zaruriyatini belgilaydi. Demak, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonini muvofiklashtirish asosida ularda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta’minalash o‘qituvchilarda o‘quv motivlarini shakllantirish, ya’ni ularning manfaatdorligiga bog‘liq bo‘lib, motivlashtirishning samaradorligi o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining natjaviyligini ifodalaydi.

Bugungi kunda ta’lim muassasasi o‘qituvchisi uzlucksiz innovasion izlanishda bo‘lishi, fikrlashi, vaziyatga ko‘ra o‘z kasbiga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirishi, shuningdek, boshqalarda ham innovasion g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur. O‘qituvchilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko‘rishi kerak bo‘lib, bu o‘z navbatida ta’lim muassasasi rahbarlarining asosiy funksiyalaridan biri bo‘lgan ta’limni rivojlantirishning o‘zoq muddatli strategik rejalarini to‘zishda asosiy e’tiborni o‘qituvchilarning u yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun tushuntirish ishlariga qaratishi lozim.

Bu o‘z navbatida o‘qituvchilarning kasbiy qiziqishlari ko‘lamini kengaytirish, ya’ni ularning adabiyotlar o‘qib o‘rganishdan to nazariy psixologik-pedagogik va fundamental tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi. Yaxshi ilmiy-pedagogik tayyorgarlik innovasion faoliyatning samaradorligini ta’minalaydi. Innovasion jarayonlarda faol ishtirok etuvchi o‘qituvchilar muntazam ravishda o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishining

katalizatoriga aylanadi, ya’ni mazkur jarayonlarning tezlashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday o‘qituvchilar bilan ishslash, ya’ni pedagogik jamoani o‘ziga ergashtira oladigan o‘qituvchilarning faoliyatini tashkil etish va muvofiklashtirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun ta’lim muassasasi rahbarlari yangilik yaratish va ularni tadbik etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning tajribasini targ‘ib qilish, ommalashtirish, innovasion faoliyatlarining natijalarini baholash bo‘yicha, ayniksa, ta’lim muassasasi va pedagogik jamaa darajasida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur bo‘lib, bu ularning integrativ mahoratlarini belgilaydi.

**Integrativ mahorat** – umumlashtirilgan mahorat bo‘lib, ta’lim muassasasi rahbarlari boshqaruv faoliyatida ijobiy natjalarga erishish, pedagogik jarayonlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muassasasi ichki boshqaruvining maqsadini tizimli rejashtirish va amalga oshirishida zarur hisoblanadi.

Mazkur ko‘nikmaga ega bo‘lmadan maqsadga erishishning yo‘llari, vositalari va erishish muddatini aniq belgilash mushkul. Pedagogika fanining va oldingi tajribalarning integrativ asosdagi xulosalari va tavsiyalari yangi g‘oyalarning manbasi hisoblanadi, ular o‘z navbatida innovasion jarayonlarni boshqarish samaradorligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Umumiyl holda, ta’lim muassasasida o‘qituvchilarning innovasion faoliyatini tashkil etishga obyektiv va subyektiv omillar sabab bo‘ladi.

### **Obyektiv omillar tarkibida:**

- davlatning ta’lim siyosatidagi yangiliklar;
- ta’lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar;
- ta’lim muassasasining innovasion faoliyat yo‘nalishidagi tajribalari.

### **Subyektiv omillar tarkibida:**

- ijtimoiy, iqtisodiy, hududiy ehtiyoj;
- ta’lim muassasasi faoliyatining rivojlanish jarayoni;
- ta’lim muassasasida faoliyat olib boruvchi o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari;

- ilmiy salohiyatining rivojlanishi;
- ta’lim muassasasi salohiyatining o‘sishi;
- boshqaruv xususiyatlarining o‘zgarishi.

**Pedagogik faoliyat** – insonni isloh qiladigan kasbiy faoliyat turlaridan biridir.

O‘qituvchilarda pedagogik mahoratning ortishi barobarida ularning ruhiy jismoniy salomatligining pasayishi kuzatiladi. O‘qituvchilarning talabalar bilan o‘zoq muddat ishslashlarni natijasida hissiy yonish sindromi sifatida kasbiy faoliyat shaklining o‘zgarishi vujudga keladi. Bu esa o‘qituvchi faoliyati, uning boshqalar bilan muloqot qilish jarayonini murakkablashtiradi. Natijada quyidagi holatlarga e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi.

Tez suratlarda kechayotgan jarayonlarda bugungi kunda amalga oshirilayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bevosita ta’lim tizimiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ta’lim tizimida yanada ko‘proq yangiliklarni joriy etish va o‘zviyligini ta’minalash uni demokratlashtirish, ijtimoiylashuvi va insonparvarlashuvi, boshqaruvda ma’muriy buyruqbozlik tizimidan voz kechish, integrativ jarayonlarni kuchaytirish, ta’limning ishlab chiqarish bilan aloqasini takomillashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlar ijtimoiy-madaniy vaziyatlarning obyektiv o‘zgarishlari bilan bog‘lik holda mazkur tizimning innovation faoliyatlarga bo‘lgan ehtiyojini belgilaydi. Keksa va yosh avlod pedagoglar qarashlaridagi tafovutlarni yakdillashtirish, yoshlarning iqtidorini ko‘ra bilish, ulardan maksimal darajada foydalanish, o‘z navbatida rag‘batlantirish muhim hisoblanadi.

O‘qituvchi faoliyatidagi doimiy yuqori sur’atda ishslash darajasining saqlanishiga quyidagi ba’zi omillar to‘sqinlik qilishi mumkin:

- yangiliklar va o‘zgarishlarsiz bir xil qolipdagi dars jarayoni;
- muhit (ta’lim muassasasi, jamoa, oila) qobig‘iga o‘ralib yolish, ya’ni noodatiy hayot shaklini yaratishga intilishning susayishi;
- sog‘lom raqobat shakli yuqori darajada emasligi;
- ayrim o‘qituvchi-pedagoglarning kasbiy mahoratini uzlucksiz ravishda oshirish uchun intilishining sustligi va h.k.

Qunt bilan ter to‘kib, barcha aqliy qobiliyatlarni ishga solib, muntazam o‘z ustida shug‘ullanib, uzoq vaqt davomida tayyorgarlik ko‘rish ish faoliyat unumdarligi hamda o‘qituvchining muvaffaqiyatining oshishiga xizmat qiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida qanday motivlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi?
2. O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarda motivlashtirish qanday ahamiyatga ega.
3. O‘quv motivlariga nimalar kiradi.
4. O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligi imalarga bog’liq.

### **Mustaqil ta’lim togshirig‘i:**

**1-topshiriq.** Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarda motivlashtirish bo‘yicha fikrlaringizni klaster usulida ifodalang.

## **2.2. Pedagogik komponentlikka oid akmeologik yondashuvlar**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Shaxs intellekti, akmeologiya, kasbiylik, ijodkorlik, zamonaviy ta’lim, ta’limda akmeologik yondashuv, akmeologik muhit tuzilmasi, metodologiya.

Har bir taraqqiyot davrining o‘ziga xos ahamiyatli tomoni bor, oxirgi yillarda akmeologiya fani paydo bo‘ldiki, u aynan yetuklikka erishishning shart-sharoitlari va omillarini o‘rganadi. Shaxs intellektida akmeologiya juda muhim o‘rin egallaydi. Akmeologiya yangi yo‘nalish bo‘lib, insonning yangi qirralarini ochib beradi. Akmeologiya grekcha “akme” – cho‘qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davri ma’nolarini anglatadi.

Akmeologiya yigirmanchi asrning 90-yillarida mustaqil ilmiy fan sifatida shakllana boshladi. “Acme” atamasi ma’nosiz “pik”, biror narsani rivojlanishida “tepalik” degan ma’noni anglatadi. Insonni o‘rganish uchun ishlatalganidek, “akme” inson hayotining o‘sha davrini professional va shaxsiy rivojlanishining

yuqori qismida ifodalab bera boshladi. Akmeologiyaning asoschilaridan biri bo‘lgan A.A.Derkach akmeologiyani mustaqil ilmiy fan deb ta’kidlaydi.

Bugungi kunda davlat va jamiyat bo‘lajak o‘qituvchilar oldiga uzluksiz kasbiy rivojlanish vazifasini qo‘ymoqda. Bunday rivojlanish jarayoni birinchi navbatda faoliyatli yondashuv konseptsiyasi talablari asosida tashkil etiladi. Bu o‘z navbatida ijodkor, mustaqil fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarni qat’iy yondashuv asosida hal eta oladigan, kasbiy kompetensiyalarni chuqur egallagan mutaxassislarni taqozo qilmoqda. Bunday pedagogik jarayonni tashkil qilishga asos bo‘ladigan o‘quv dasturlari akmeologik yondashuv prinsipi asosida yaratilishi lozim.

**Akmeologik** yondashuvga asoslangan oliy pedagogik ta’limning markaziga talaba shaxsi qo‘yiladi. Bu jarayonda bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglashga muvaffaq bo‘ladilar. Professor-o‘qituvchilar talabalar bilan dialogga asoslangan muloqot jarayonida ularda o‘zlariga nisbatan ishonch hosil qilib, o‘z fikrlarini dadillik bilan bayon etishlariga sharoit yaratadilar. Bu esa talabalarga o‘zlashtirilayotgan kasbiy bilimlarning mazmun-mohiyatini anglash va o‘quv materiallarini jadal o‘zlashtirish imkonini beradi. Natijada talabalarda kasbiy rivojlanishga intilish, dadillik, qiziquvchanlik sifatlari tarkib topadi

**Akmeologiya** – metodikani va nazariyani, metodlarni o‘rganish va ishlab chiqishni va ayni paytda insonni haqiqiy yaxshilanishini ta’minlaydigan texnologiyalarni, usullarni va amaliyotlarni rivojlantirishni o‘zida birlashtirgan mutlaqo yangi ilmiy fan turi. Albatta, akmeologiya paydo bo‘lishidan oldin psixologlar, sotsiologlar va pedagoglar akmeologik muammolarga o‘xhash ko‘p jihatlarga ega bo‘lgan kasbiylik, ijodkorlik va kattalar ta’limini o‘rganishgan. Biroq, mahoratning kamolotiga erishish, uning akmeologik shakllarini o‘stirish, birinchi navbatda, maxsus akmeologik muammolar paydo bo‘lishiga, keyinchalik xos akmeologik texnologiyalarning kontseptual va uslubiy qurilishiga, shuningdek ma’lum bir fanning o‘ziga xos mavzusi va usullari bilan paydo bo‘lishiga alohida e’tibor qaratildi. Akmeologiyada insonning kasbiy

faoliyati va o‘z hayotini o‘zi belgilashi, o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishi, uning hayotiy faoliyati subyekt sifatida qarab chiqiladi.

Zamonaviy ta’lim muassasasi uchun akmeologik yondashuv bugungi kunda kelajakli va istiqbolli bo‘lib, uning mohiyati shundan iboratki, yuqori marralarga erishishga ta’sir etish mumkin bo‘lishi uchun subyektga kompleks tekshiruv o‘tkazilishi va yaxlitligini qayta tiklashi, yetuklikka erishishga o‘tishda, uning individ, shaxs va subyekt sifatida faoliyat xarakteristikasi barcha o‘zaro aloqadorliklar va vujudga keltiruvchi sabablar bilan birgalikda o‘rganiladi .

Bu ta’limdagi innovation yondashuvlardan biri bo‘lib, talaba o‘z, shaxsiy akmesini aniqlab olishi uchun unda o‘sha tanlagan ixtisosligiga nisbatan kuchli undovchi motivlar, hayotda esa muvaffaqiyatlarga erishish motivi yoki yutuqlarga erishish ehtiyoji kuchli rivojlanadi. Talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashda, undagi shaxsiy sifatlar va fazilatlari, uning individual qiyofasida namoyon bo‘ladi.

### **Akmeologik yondashuv quyidagilardan tashkil topgan:**

- ilk o‘spirinlik davrida talabaning borliq bilan munosabati va yaxlit fenomen sifatida haqqoniy aloqalarini o‘rganish;
- har bir talabani hayotiy cho‘qqilarga erishishini mo‘ljallashda, shaxsning o‘zini shaxsiy sifatlarni takomillashtirishga, muvaffaqiyatga, madaniy rivojlanish yetukligiga va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonidagi sifatlar, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini anglash asosida ma’naviy-axloqiy sifatlarga erishishga intilishi;
- yaratuvchilik, ijodkorlik faoliyatini tashkil etishda, qiziqarli va mahsuldor, har bir talabaning qobiliyatini ochib beruvchi va uning muvaffaqiyatlarini ta’minlovchi, ijtimoiy tan olinish, o‘z yetukligini his etish, ijodiy guruhlarda kommunikativ hamkorlik qila olishni tashkil etish va boshqalar.

### **Akmeologik yondashuvdan foydalanish:**

- ta’lim oluvchilarning sog‘ligini mustahkamlash va saqlash, kasbni muvaffaqiyatli egallahsga erishish, ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlanish rivoji, ta’lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli xal etish;

- qayta fikrlash, ijodiy tafakkur qilish, ta’lim ichki ehtiyojga aylanishi, barcha subyektlarda ta’lim tizimlashtirilgan bilish motivlari bo‘lishi, ta’lim muassasasining funksionallikdan rivojlanishga o‘tishida ta’lim sifatining oshishi imkonini beradi.


Ta’limda akmeologik yondashuvni samarali amalga oshirish, ta’lim jarayoni ishtirokchilaridan barcha jarayonlarni o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqishni talab etadi. Shuningdek, muammolarni ko‘rish va ularni o‘z vaqtida yechishni hamda doimiy o‘z-o‘zini takomillashtirishdan to‘xtamaslikka erishish imkonini beradi. Akmeologik rejimda rivojlanayotgan ta’lim muassasasi insonning yaxlit ma’naviy va ma’rifiy barkamolligini ta’minlaydi va bitiruvchining kasbiy faoliyatga va hayotga yuqori tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Zamonaviy ta’lim muhiti talaba yuqori cho‘qqilarga erishishi, o‘z-o‘zini takomillshtirishi, rivojlantirishi mumkin bo‘lgan, akmeologik muhitni shakllantirish bilan to‘ldirilishi lozim.

**Akmeologik yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadi** – mavjud har qanday qiyinchilik yoki muammolardan talabaning o‘zi mustaqil ravishda chiqib keta olsin, unda ijodkorlik shunday rivojlansinki, hatto o‘zi mustaqil ravishda yakka tadbirkor sifatida faoliyat yurita olsin.Bunga erishish uchun ta’lim jarayonida akmeologik yondashuvdan foydalanish bilan birgalikda, pedagogik jamoada ijodkorlik va muvaffaqiyatga erishish motivida akmeologik muhitni shakllantirish ustida ish olib borilishi lozim.


Buning uchun ta’lim muassasasida yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa ijtimoiy tashkilotlar, psixolog, guruh murabbiysi, o‘qituvchilar tomonidan ijodiy ishlar olib borilishi, jumladan, natijalari har semestr yakunida umumiy talabalar va o‘qituvchilar jamoasida ko‘rib chiqilib, faollar munosib taqdirlanishi ko‘zda tutilgan tadbirlar (to‘garaklar, festivallar, konkurslar, musobaqalar, marafonlar, o‘yinlar, treninglar), maxsus dastur natijalari doimiy ravishda ishlab turishi lozim. Bunda talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish, liderlik, ijodiy faoliyat, loyihamalar ustida ishslash kabi qobiliyatlari shakllantirib borilishi maqsadga muvofiq.

Akmeologik yondashuv ta’limdagi yangi innovasion yondashuvlardan biridir, u bir necha tuzilmaviy yo‘nalishlardan tarkib topgan (2.2.1-rasmga qarang).

“Akmeologik yondashuvning mohiyati, subyektning yosh davrlari bosqichlarida, uning individual, shaxsiy va subyektiv-faoliyatli tavsifi birlgilikda o’rganiladi, subyektning yaxlitligini tiklash, yuqori darajaga erishishi uchun ta’sir qilish va kompleks tadqiqot olib borishdan iborat (2.2.2-rasmga qarang).



## 2.2.1-rasm. Kasbiy tayyorgarlikda innovatsion- akmeologik muhit tuzilmasi



**2.2.2-rasm. Ta'limda akmeologik yondashuv**

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, akmeologiya metodologiyasi inson va uning ma’naviy dunyosi, ijodkorlik va o‘zini o‘zi yaxshilash qobiliyatiga oid g‘oyalar to‘plamiga asoslanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bugungi kunda davlat va jamiyat bo‘lajak o‘qituvchilar oldiga vazifalarni qo‘ymoqda.
2. Akmeologik yondashuvdan foydalanishning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
3. Akmeologik yondashuv ta’limdagi qanday yondashuvlardan biri va qanday tuzilmaviy yo‘nalishlardan tarkib topgan?
4. Akmeologik yondashuvdan foydalanish ahamiyatini izohlang.

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** Kasbiy tayyorgarlikda innovation-akmeologik muhit tuzilmasini tahlil qiling.

## **2.3. O‘qituvchi kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish**

*Tayanch so‘z va iboralar: pedagogik kreativlikni rivojlantirish, ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy rivojlantirish, kompetensiyaning turli jihatlari, bilim, ko‘nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar.*

Bugungi kunda ta’limda kompetentli yondashuvni amalga oshirishda jahon tajribalariga tayanilmoqda, ularni mamlakatimiz an’anaviy ta’lim sharoitlari hamda uning ehtiyojlariga moslashtirilmoqda. “Kompetentlilik tushunchasi jahon ta’limi tajribalarida o‘z ma’nosida markaziy bo‘g‘in sifatida tushuniladi – bunda kompetentlilik, birinchidan, ta’lim o‘z tarkibida intellektual va ta’limni tashkil etuvchi malakalarni jamlaydi; ikkinchidan, kompetentlilik tushunchasida ta’lim “natijalaridan shakllanuvchi” ta’lim mazmunining g‘oyaviy interpretatsiyasi yotqizilgan; uchinchidan, tayanch kompetentlik integrativ tabiatga ega bo‘lib, yoki o‘z ichiga keng ma’nodagi madaniyat va faoliyat (axborot, huquqiy va boshqa) sohalariga taalluqli qator bir xil yoki o‘zaro yaqin malaka va bilimlarni jamlaydi”.

Mazkur tushuncha mazmun-mohiyatining tahlili quyidagilarni anglatadi:

- kompetentlik shaxsning integrativ, kompleks tavsifi bo‘lib hisoblanadi;
- kompetentlik tushunchasi o‘z ichiga bilim, ko‘nikma va malakalarni jamlaydi, biroq to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning yig‘indisini anglatmaydi;
- kompetentlik tushunchasi kognitiv va operatsional-texnologik jihatdan o‘z tarkibiga motivatsion, axloqiy, ijtimoiy, xulq-atvorni ham jamlaydi;
- kompetentlik o‘zlashtiriladi, faoliyatda namoyon etiladi (o‘quv, kasbiy, ijtimoiy, maishiy va boshqalar) va bilimlari hamda malakalari majmuidan ma’lum bir vaziyatlar muammolarini hal qilishda anglagan holda qo‘llash qobiliyati bilan bog‘liq.

Ta’lim jarayoni o‘zaro hamkorlikka va ijodiy tajriba almashinishga asoslanilgan jarayondir. Ta’limda samarali o‘qitishning tashkil etilishiga erishishda bir qancha ta’lim turlaridagi joriy etilayotgan o‘qitishning yangi shakllarini joriy etish zarur. O‘zlashtirilayotgan bilim va malakalar qanchalik tajribadagi mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bilan assotsiativ bog‘liqlik hosil qilsa, uni o‘zlashtirish va xotirada saqlanishi oson kechadi.

Shu ma’noda oliy ta’limdagi joriy etilayotgan samarali o‘qitish usullarining qo‘llanilishi talabalarning ilmiy ijodiyotini o‘sirish, mustaqil fikriy tahlilini oshirish va o‘z ustida ishlashga keng imkon yaratadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida uzuksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli ta’lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash hamda oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash tizimini yangi bosqichga ko‘tarishda 2017-2021 yillarda oliy ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan yangiliklar talabalarning mustaqil faolligini oshirishni, o‘quv mashg‘ulotlarida noan’anaviylikka asoslanilgan usullarga ko‘proq yondashishni taqozo etadi.

Talaba shaxsi kamolotida berilayotgan mustaqil o‘quv topshiriqlari, muammoli yechimga qaratilgan munozarali dars shakllari va audiovizual vositalarga asoslanilgan o‘quv materiallari kuchli ijtimoiylashtiruvchi ta’sir ahamiyatiga ega. Aynan mana shunday o‘qitish usullari vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarni oliy ta’limdagi o‘quv faoliyatiga tayyorlash, mantiqiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirish, mavjud qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga imkon yaratiladi.

Bu esa o‘z-o‘zidan o‘qituvchi-talaba hamkorligini talab etadigan pedagogik faoliyatdan iborat bo‘ladi. Zamonaviy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar nafaqat kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki ularni ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirish ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi bo‘lajak o‘qituvchida o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini namoyon etish qobiliyatini ro‘yobga chiqarishni taqozo etadi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoni talabalarning inson va jamiyat, tarix va madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, tayanch fundamental bilimlarni egallash, ilmiy faoliyatga yo‘naltirish, kasbiy pedagogik bilim asoslarini singdirish, pedagogik kreativlikni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim olish va ijodiy pedagogik faoliyatini davom ettirish huquqini ta’minlashdan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini rivojlantirishning umummilliyl, psixologik-pedagogik asoslarini ijtimoiy his-tuyg‘ular va moslashish asosida ijtimoiy qiyinchiliklarni bartaraf etish, ta’lim jarayonini tavsiflovchi omil sifatida ijtimoiy muhitning ustuvorligi, jamiyatga munosabat va jamiyat oldidagi burchni ado etishga kasbiy faoliyat nuqtai nazaridan yondashish, shaxsning shakllanish asosi sifatida mayllarning rivojlanishiga oid nazariy yondashuvlar va ijtimoiy pedagogik g‘oyalar tashkil etadi.

Har qanday shaxs kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o‘zining ijodkorligi, kompetentligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi, to‘ldirishi lozim. Bunday tajribalarni bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogika oliv ta’lim muassasalarida o‘zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. O‘qituvchilarning shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Shundagina u o‘z faoliyati davomida kasbiy kompetentligini namoyon eta oladi.

Oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish faolligi va shu asosda ulardagi ijodiy intilishni qo‘llab-quvvatlash vositalari quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi:

- barcha ta’lim oluvchilarni umumiyligiga pedagogik qo‘llab-quvvatlash, ya’ni talabalarga diqqat bilan, yaxshi munosabatda bo‘lish, ularni o‘quv-bilish jarayonini rejalashtirishga jalgan qilish, o‘zaro o‘qitish muhitini yaratish, ta’limning faoliyatli mazmuni, o‘rgatuvchi o‘yinlar, rang-barang ijodiy ishlar, ularning yutuqlarini ijobiy baholash, dialogik muloqotdan foydalanish;

- individual-shaxsiy qo‘llab-quvvatlash, bo‘lajak o‘qituvchi-talabaning shaxsiy muammolarini aniqlash, rivojlanish, tarbiyalanganlik, ta’lim olishni tashxislash, har bir talabaning rivojlanish jarayonini kuzatib borish, pedagogik yordam va qo‘llab-quvvatlash zaruratini ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta’minlashdan iborat.

Shuningdek, ta’lim oluvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta’lim boshqa ta’lim turlaridan farqli ravishda o‘rganuvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini tarkib toptirish bilan birga, ularda yuqori aqliy faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirishni shakllantiradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta’kidlash lozimki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi rivojlanganligini to‘laqonli tarzda o‘rganish uchun munosabat nazariyasi nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi, chunki munosabat shaxsning mayllarini o‘zida mujassamlashtiradi va shu asosida shaxsning kasbiy yo‘nalganligini aniqlash imkoniyati vujudga keladi.

**Kompetensiya** - u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik.

**Kompetensiya** (lot. competo - erishyapman, munosibman, loyiqman)

- 1) muayyan davlat organi (mahalliy o‘zini - o‘zi boshqarish organi) yoki mansabdar shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;
- 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba.

**Kompetensiya** so‘zining 16 xil ma’nolarini psixologlar tomonidan 7 xil baholash shkalasidan foydalanishdi (internet-uyushma psixologlar ekspert). Ekspertlar tomonidan qayd etilgan tushunchalar quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish masalalarini yecha olish qobiliyati;
- aniq vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish qobiliyati;
- kasbiy standart tavsifiga mosligi;
- tashkilot tomonidan subyektning sifatli faoliyatini shakllantirish maqsadida ishchiga qo‘yilgan talab;
- ishchining xulq-atvor me’yorlari tashkilotga mosligi;
- -bilim, ko‘nikma va malakalar (BKM), qobiliyat, motiv, shaxs, kommunikativ sifatlar va boshqa tushunchalarning umumiyligini yig‘indisi;
- sifatli ishga tayyorgarligi va ko‘nikmasi;
- lavozim vazifalariga mas’ulligi va vakolati;
- BKM+kasbiy muhim sifatlar;
- kompetensianing turli jihatlari;
- kasbiy muhim sifatlar tashkilotchilik konteksti bilan birgalikda;
- kasbiy tajribani chuqur anglanishi;
- shaxsiy xususiyat, individuallik;
- muvaffaqiyatli faoliyatda inson omili;
- samarali ishlab chiqarish faoliyati mezonlari;
- ijodkorlik;
- aniq tashkilotlarda ishlab chiqarish vazifalari.

Natijada, **kompetensiya bu** - bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, sabab omillari, shaxsiy sifatlar, maqsadli vaziyatlarning umumiyligini uyg‘unligi bo‘lib,

qaysikim aniq tashkilot, aniq guruh, aniq ish joyida, aniq ishlab chiqarish jamoasi ijrochilarining samarali yechimlarini ta'minlab beradi [25.123]

Psixolog olimlar kasbiy kompetensiya tushunchasiga turlicha ta'rif beradilar. T.M.Sorokinaning fikricha kasbiy kompetentlik pedagoglarning kasbiy faoliyatni nazariy va amaliy jihatdan amalga oshirishga tayेrligi hamda pedagogik vazifalarni turlicha darajada yechish qobiliyatiga ega bo'lishi tushuniladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyaning tasnifli komponentlarini o'rganishda kommunikativ vaziyatlarni 4 guruhga ajratish mumkin, ya'ni kommunikativ kompetensiyaning tasnifli komponenti, muloqotga ta'sir qiluvchi omillar, kommunikativ mazmun va muloqotga kirishuvchanlikdir [53.133].

**Kommunikativ kompetensiya** - murakkab kommunikativ ko'nikma va ko'nikmalarini egalik, yangi ijtimoiy tuzilmalar yetarli ko'nikmalarini shakllantirish, muloqot madaniy normalar va cheklovlar bilim, aloqa sohasida bojxona, urf-odatlari, etiket, odob-axloq, ta'lim, aloqa vositalari orientasiya bilim, milliy, sinf mentalitetiga xos va, bu kasb doirasida ifodalangan.

**Kommunikativ kompetensiya** - bu muloqot qobiliyatları, bilim, ko'nikma va ko'nikmalar, biznes aloqalari sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o'z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir. Muloqot qobiliyati quyidagilardan iborat:

- muloqot qilish kerak bo'lgan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy - psixologik prognozini berish;
- muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan dasturlash, kommunikativ vaziyatning o'ziga xosligiga asoslangan;
- kommunikativ vaziyatda aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish.

Kommunikativ qobiliyat umumiy madaniyatni va uning professional faoliyatida o'ziga xos namoyonlarini sintez qiluvchi integral sifatdir. Kommunikativ kompetensiyaning shartlaridan biri, muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng muhimlari quyidagilar:

1. Eng keng tarqalgan qoida - bu o‘z-o‘zidan tushunilmagan yoki to‘liq tushunilmagan bo‘lsa, fikr bildirishni boshlashning iloji bo‘lman qoidadir.
2. Tushunish uchun doimiy tayyorgarlik qoidasi. Ko‘pincha semantik va shaxsiy to‘siqlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha xabarlarni to‘liq va noto‘g‘ri tushunishga olib keladi.
3. Aniqlik qoidasi. Noma’lum, noaniq so‘zlardan qochish kerak va begona yoki yuqori ixtisoslashgan atamalardan foydalanmaslik lozim.
4. Og‘zaki bo‘lman signallarni nazorat qilish qoidasi. Faqat nutqingizni va xabarning mazmunini nazorat qilish yetarli emas. Bundan tashqari, uning tashqi eskort - yuz ifodalari, imo-ishoralari, intonatsiyasi, pozisiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan qismida uning shaklini nazorat qilish kerak.
5. O‘z nohaqligi qoidasi. Aloqa paytida har doim shaxsiy nuqtai nazar noto‘g‘ri bo‘lishi mumkinligiga ruxsat berish kerak. Bu ko‘pincha jiddiy xatolardan ogohlantiradi.
6. Joy va vaqt qoidasi. Har qanday xabarning samaradorligi o‘z vaqtida amalga oshiriladigan eng munosib vaziyatni tanlashda keskin oshadi.
7. Ochiqlik qoidasi. Yangi ochilgan vaziyatlarning ta’siri ostida o‘z nuqtai nazarini qayta ko‘rib chiqishga tayyor bo‘lishni, shuningdek, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish qobiliyatini anglatadi.
8. Faol va konstruktiv tinglash qoidasi samarali kommunikatsiyalarning asosiy shartlaridan biridir.
9. Fikr-mulohaza qoidalari. Bu qoida, oxir-oqibatda, kommunikativ jarayonning asosiy maqsadiga erishishni ta’minlaydi.

- o‘zaro tushunish.

Kommunikativ kompetensiya asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- muloqotni tashkil qilish;

- shaxslararo muloqot ko‘nikmasi;

- muloqotni, kontaktni saqlash, teskari aloqani o‘rnatish; muloqot natijalarini analiz qilish [55.82]

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda kompetensianing turli ta’riflari keltirilgan:

**Kommunikativ kompetensiya** - bu ichki resurslar uchun zarur bo‘lgan tizim samarali kommunikativ qurilish shaxslararo o‘zaro munosabatlarning muayyan doirasidagi harakatlar.

Kommunikativ kompetensiya - bu shaxslararo tajribani shakllantirishning darajasi, ya’ni ta’lim bilan o‘zaro muloqot qilish shaxs talab qiladigan boshqalar, o‘z qobiliyatlari va ijtimoiy mavqeい doirasida ushbu jamiyatda muvaffaqiyatli ishslash uchun.

Kommunikativ kompetensiya - bu muayyan narsalarni qo‘yish va hal qilish qobiliyati aloqa vazifalari turlari: maqsadlarni aniqlash aloqa, vaziyatni baholash, hisobga olish hamkorning niyatlari va aloqa usullari (hamkorlar), yetarli strategiyalarni tanlash, aloqa muvaffaqiyatini baholash, o‘z nutq xatti-harakatlarini o‘zgartirishga tayyor bo‘lish

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta’limining asosiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Bu talab o‘qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Bugungi kunda dunyo ta’limini yangilashning asosiy yo‘nalishi ta’lim jarayonida faoliyatli yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzlusizligi, o‘zviyligi, talaba shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalarni shakllantirdi. Bo‘lar:

**Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi** – media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishslashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

**O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi** – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish,

hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Mamlakatimiz kelajagi porloq, iqtisodiy-siyosiy salohiyati, ilmiy-texnik taraqqiyoti barqaror, jahon hamjamiyatida o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘lishi uchun, unga hozirdanoq tamal toshi (poydevor) qurib borish lozim. Ana shunday buyuk maqsadnini ijobjiy hal qilish va amalga oshirishda o‘qituvchilar, ya’ni ziylolar qatlami zimmasiga ulkan vazifalar, qator mas’uliyatlar yuklatiladi. Zero, o‘qituvchilar va tarbiyachilar jamoasi kelajakda el-yurt, mamlakat ravnAQI yo‘lida faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni yetishtirib beruvchi muhim kadrlar sanaladi.

Shu bois ham bunday mas’uliyatli ishga o‘qituvchilar doimo shaxsiy mas’uliyat his etib, o‘zlarining kasbiy malaka va mahoratlarini oshirib borishlari lozim. Chunki, vaqtning o‘tishi muhit, vaziyat, sharoit va nihoyat, insoniyatning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, talabalarning ham qiziqish va ehtiyojlari o‘zgaradi. Natijada o‘qituvchining ta’lim berish metodikasi, tamoyili, mahorat va malakalari ham o‘zgarishi, aslida, oshishi talab etiladi.

Jumladan, fan-texnikaning jadal rivoji, bu sohada erishilayottan yutuqlarning benihoyat ko‘pligi, axborot ko‘lamining kengayib borayotganligi pedagog kadrlarning malakaviy darajasiga nisbatan yuqori talablarni qo‘ymoqda. Ushbu talablardan kelib chiqqan holda o‘qituvchilar mutaxassislik asoslarini puxta o‘zlashtirgan, yangiliklarni o‘z vaqtida anglay oladigan, ayni vaqtida axborotlarning qaysi biridan ko‘proq foydalanish zarur ekanligini his qiladigan bo‘lishlari zarur.

Bundan tashqari, zamon va insonlarning talablaridan kelib chiqib, o‘qituvchi ham o‘z fazilatlariga ishlov, jilo berib borishi lozim. Yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlar ta’lim mazmuniga ilg‘or g‘oyalarni singdirishni taqozo etmoqda. Zero, pedagogik tizim barcha davrlarda ham jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi omillardan biri bo‘lib kelgan. Bu vaziyatni anglash hozirgi zamon o‘qituvchisining kasbiy mahoratini uzlusiz takomillashtirib borishni talab etadi.

O‘qituvchi zamon bilan hamnafas bo‘lishi, ta’limning sifat va samaradorligini ta’minlashi, fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlari orqali mashg‘ulotlarni tashkil etishi, fundamental bilimlardan o‘z o‘rnida foydalana olishi uchun o‘z ustida uzluksiz mustaqil ishlashi, bilimi va mahorati oshirib borishi kerak. Maqsad - jahon ta’limi standartlariga to‘la javob bera oladigan, mustaqil fikrlash hamda ijodkorlik layoqatiga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ekan, bunda o‘qituvchining o‘rni beqiyos ekanligini anglab yetishi lozim.

Yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko‘p jihatdan o‘qituvchining g‘oyaviy e’tiqodi, kasbiy mahorati, bilimdonligi, madaniyati, insonparvarligi, rahbarlik qobiliyati kabi qator fazilatlariga bog‘liq.

#### **Nazorat savollari:**

1. Zamonaviy sharoitda bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablari nimalardan iborat.
2. Kommunikativ qobiliyat umumiy madaniyatni izohlang.
3. Kommunikativ kompetensiyaga misollar keltiring.
4. O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi nimalarni qamrab oladi.
5. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi nimalardan iborat.

#### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** O‘qituvchi kasbiy kompetenttsiyasini takomillashtirishni FSMU texnologiyasi asosida ifodalang.

**2-topshiriq.** Kompetensiya tushunchasiga tadqiqotchi-olimlar tomonidan berilgan mualliflik ta’riflarini bayon eting.

## **2.4. Oliy ta’lim o‘qituvchisi malakasiga ega bo‘lish uchun qo‘yilgan talablar**

**Tayanch so‘z va iboralar:** zamonaviy o‘qituvchi, o‘qituvchi kasbidagi shaxsiy fazilatlari, shaxsiy xususiyatlar, faoliyatning asosiy soha va turlari, psixologik, mulohazali, axloqiy.

Zamonaviy o‘qituvchi – bu asl muammoli pedagogik va tanqidiy fikrlash, Ilg‘or jahon tajribasi va yangi o‘quv texnologiyalari asosida ko‘p tarmoqli dasturlarning yaratuvchisi, ularni diagnostika va aks ettirish asosida aniq pedagogik sharoitlarda talqin qilish. Zamonaviy o‘qituvchi yuqori ijodni, faol ijodiy va transformatsion faoliyat, texnologik tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilishi kerak.

“O‘z-o‘zini tarbiyalash” talabalarining shaxsiy ma’lumotlari, talabalar shaxsiy qobiliyatlarining tezkor o‘sishini yengib o‘tish va o‘qituvchilarining shaxsiy qobiliyatlarini yengib o‘tish va o‘qituvchilarining shaxsiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash va ularning doimiy ravishda ishlashi uchun mablag‘ oqimini yengib o‘tish va o‘qituvchilarining shaxsiy qobiliyatlarini yengib o‘tish va o‘qituvchilarining shaxsiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash va o‘z o‘zlar uchun muntazam ravishda ish olib boradigan tezkor o‘sishi va rivojlanishi. ijodiy shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

O‘qituvchi kasbidagi shaxsiy fazilatlar professionaldan ajralmas. Kasbiy fazilatlar maxsus bilimlar, ko‘nikmalarni, fikrlash tarzi, faoliyat usullarini olish bilan bog‘liq. Ular orasida: fanni o‘qitish, psixologik tarbiya, keng madaniy qarashlar, pedagogik va mahorat, pedagogik texnikasi, aloqa texnologiyalariga egalik qilish, notiqlik, notiqlik va boshqa fazilatlar. Kasbiy ishingizni seving - sifatsiz bu o‘qituvchi bo‘lmasisligi mumkin. Ushbu sifatning komponentlari vijdongan va sadoqat, doimiy ravishda talabchan, ularning pedagogik malakalariga bog‘liq.

Zamonaviy o‘qituvchi identifikatori asosan uning yuqori darajadagi madaniyat darajasi bilan belgilanadi. O‘quv jarayonida tarbiyaviy ishlarni samarali olib borish, yuqori axloqni shakllantirish qobiliyati, vatanparvarlik va mehnatkash,

mustaqilligi pedagogik mahoratning yana bir elementi hisoblanadi. O‘qituvchining vazifasi - o‘qitish jarayonida ijobjiy his-tuyg‘ularni topishdir. Bu ish usullarini, talabalar faoliyatini oshirishga, qiziqarli misollarni keltirib chiqaradi.

O‘qituvchi kasbiy komponentsiyasini takomillashtirish–bu ishlab chiqarish sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etilishini ta’minlovchi, ma’lum sifatlarni ta’riflovchi hamda kasb egasining mustaqil bilim olishi va o‘zini rivojlantirishini aks ettiruvchi andoza hisoblanadi.

Buning uchun kasbiy faoliyatning ma’lum turi uchun muvofiq keladigan shaxsiy sifatlar to‘plami tartibga solinadi. Uning mazmunida quyidagi holatlar aks etadi: turli lavozim va turli ish joylari uchun xos bo‘lgan kasbiy faoliyat turlari, vazifa va majburiyatlar, shaxsiy sifatlar, bilim va ko‘nikmalar. Bunday modellar kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularni attestatsiyadan o‘tkazish, shuningdek, mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarini to‘zishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy tavsifnomasi me’yoriy model deb ham ataladi. Bu mutaxassis faoliyati va shaxsiga qo‘yiladigan umumiy talablarni aks ettiruvchi maxsus pasportdir.

Malakaviy tavsifnomasi borasidagi yaxlit va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlar Ye.M.Borisova tomonidan aniqlangan. Muallif fikricha, malakaviy tavsifnomaning tuzilmasi quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy xususiyatlar.
2. Faoliyatning asosiy soha va turlari.
3. Ular faoliyat olib boruvchi tashkilotlarning turlari.
4. Ular egallashi mumkin bo‘lgan lavozimlar.
5. Shaxsiy sifatlarga nisbatan qo‘yiluvchi talablar.
6. Kasbiy mahorat qo‘yiluvchi talablar.
7. Lavozim bo‘yicha amalga oshiriluvchi vazifalarning tartibi.
8. Kasbiy bilim darajasiga qo‘yiladigan talablar.

O‘qituvchining malakaviy tavsifnomasida qo‘yidagilar o‘z ifodasini topadi:

**I. Faoliyatning asosiy sohasi va turlari:**

a) faoliyat sohasi:

- 1) ta’lim;
- 2) boshqaruv va boshqalar.

b) faoliyat turlari:

- 1) o‘quv;
- 2) metodik;
- 3) tarbiyaviy;
- 4) tashkiliy;
- 5) ilmiy (rahbarlik);
- 6) kadrlar bilan ishlash;
- 7) tadbirkorlik;
- 8) ekspertlik va boshqalar.

**II. Ular faoliyat olib boruvchi tashkilotlar:** 1) oliy ta’lim muassasalari; 2) oliy ta’limdan keyingi ta’lim muassasalari (malaka oshirish kurslari va kadrlarni qayta tayyorlash markazlari); 3) ta’limni boshqarish organlari;

**III. Shaxsiy sifatlarga talablar:** 1) psixologik; 2) mulohazali; 3) axloqiy; 4) faoliyatni tashkil etish mahorati va usullariga qo‘yiluvchi talablar.

Kasbiy tavsifnoma ma’lum soha bo‘yicha faoliyat yurituvchi mutaxassisning muvaffaqiyatli ravishda umumlashtirilgan namunaviy modeli sanaladi. Biroq ayrim holatlarda professiogrammada “o‘rta” darajadagi kasbiy faoliyatni bajarish variantlari ham inobatga olinadi. Professiogrammaning mazmuni va to‘zilishiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud.

Namunaviy kasbiy tavsifnoma quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- 1) mutaxassislik ta’lim yo‘nalishi, bilim sohasi va ixtisoslik nomi;
- 2) kasbiy ta’lim (ta’lim shakllari, o‘qishga kirish shartlari, ta’limning davomiyligi, egallanadigan malaka darajasi, kasbiy jihatdan o‘sish imkoniyatlari), o‘qishni davom ettirish;

3) kasbiy faoliyati (vazifasi) xususiyatlari, faoliyatning ustuvor jihatlari, malakaviy talab hamda egallanishi zarur bo‘lgan asosiy malakalar;

4) psixogramma kasbiy-yo‘naltirilgan talablar, ijtimoiy madaniy sifatlar, mutaxassislikka xos bo‘lgan sifatlar (kasbiy yo‘nalganlik, bilimdonligi, kasbiy layoqat);

5) mehnatning sanitariya-gigiyenik sharoitlari (ish tartibi, sensomotorli va pertseptiv doiradagi tibbiy ko‘rsatmalar).

Mehnat faoliyatining umumiyligi (ijtimoiy, texnologik, iqtisodiy, sanitariya-gigiyenik) xususiyatlari eng ommalashgan kasbiy tavsifnomada kasbiy faoliyatning maqsadi, predmeti, usuli, natijalarni baholash mezoni, zarur malakaviy xususiyatlari, vositasi, sharti, tashkil etilishi, mehnat kooperatsiyasi, mehnat omilkorligi, xavf-xatar turlari va ularning ishchi hayoti va faoliyatiga bo‘lgan salbiy ta’siri yoki faoliyat natijasi uchun foydasi kabi holatlar o‘z aksini topadi.

So‘nggi paytlarda taklif etilayotgan tahliliy kasbiy tavsifnomada “kasbiy faoliyat va shaxsning kasbiy ahamiyatli sifatlari, uning alohida jihatlari emas, kasb (yoki kasbiy faoliyat)ning psixologik tuzilmasini umumlashtiruvchi me’yoriy va morfologik ko‘rsatkichlar” yoritiladi.

Tahliliy kasbiy tavsifnomada quyidagi ikki blokning alohida qayd etishning zarurligi ta’kidlanadi:

1) ma’lum shaxsga bog‘liq bo‘lmagan va ijtimoiy tajribalarga asoslanuvchi kasbiy faoliyatning obyektiv xususiyatlarini tavsiflash;

2) obyektiv faoliyatga simmetrik, biroq u bilan mos kelmaydigan psixologik mazmunga ega faoliyat va uning sifatlarini tavsiflash. Boshqacha qilib aytganda, analistik professiogrammada kasbiy faoliyat me’yori, psixologik tuzilmasi hamda ishchining psixologik sifatlari alohida qayd etiladi.

Ancha murakkab turdagи professiogrammaning tarkibiy tuzilmasi, kasbiy faoliyatning mohiyati, shuningdek, mutaxassis shaxsini tavsiflash (trudogramma va psixogramma) imkoniyatini beruvchi tuzilma bilan tanishamiz.

“Kasbiy faoliyat tavsifi” (trudogramma)ning mazmunida quyidagilar aks etadi:

1. Kasbning yo‘nalganligi, vazifasi, uning jamiyatdagi o‘rni va roli (moddiy mahsulot yoki g‘oyalar ishlab chiqarish, turli ijtimoiy sohalarda xizmat ko‘rsatish, axborotlarni to‘plash, saqlash va tarqatish)ning insonga yo‘naltirilganligi.
2. Kasbning keng tarqalganligi (ushbu kasb bo‘yicha faoliyat olib boruvchi tashkilotlar).
3. Kasbning mehnat predmeti—inson uchun mehnatni tashkil etish jarayonida ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy omillar (moddiy buyumlar, ijtimoiy-g‘oyaviy predmetlar—madaniyat, axborot, ma’lum shaxs yoki ommaning ijtimoiy ongi, notabiyy buyumlar).
4. Kasbiy bilimlar muayyan yo‘nalishda faoliyatni tashkil etishning turli jihatlari borasidagi ma’lumotlar to‘plami sifatida.
5. Samarali natijaga erishish uchun faoliyat jarayonida qo‘llaniluvchi texnika, texnologiya, harakat, usul, mahorat va ish metodlari, faoliyatlar hamda ularning ko‘lami, umumlashtirilgan va avtomatlashtirilganligi.
6. Mehnat vositalari—zarur mehnat mahsulotini olish yo‘lida xususiy maqsadni amalga oshirish, mehnat predmetiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida inson tomonidan foydalanadigan ijtimoiy (moddiy va ma’naviy) omillar. Mehnat vositalari sirasiga ish qurollari, asbob-uskunalar, kopyuterlar hamda mantiqiy fikrlash, axloqiy va estetik baholash tizim va ko‘rsatkichlari kiradi.
7. Mehnat sharoitlari: mehnat va dam olish tartibi, ularni o‘zgartirish imkoniyatlari; ijtimoiy muhit xususiyatlari; mehnatning sanitariya-gigiyenik omillari; ish joyi, mehnat sur’ati, jadalligi va ishning davomiyligi.
8. Mehnatni tashkil etish va bu borada hamkorlikka erishish: ushbu kasb uchun xarakterli bo‘lgan individual, hamkorlikka asoslanuvchi va guruhli faoliyat turlari: kasbiy munosabatlar turlari va unda uning ishtirokchilari tutgan o‘rin, ular o‘rtasida mehnat vositalari va mahsulotlarning almashishi; ishni bajarish me’yorlari va muddati; lavozimlar yoki lavozimlar tartibi bo‘yicha bo‘ysunish, kasb doirasidagi ijtimoiy mavqe va mansab.
9. Mehnat mahsuloti (yoki uning natijasi): inson tomonidan mehnat jarayonida sodir etiluvchi sifat va miqdor o‘zgarishlari, mehnat natijalarini

baholash ko'rsatkichlari, mehnat natijasining muayyan darajasi (mehnatni kasb taqozosi uchungina bajarilishidan ijodiy xususiyat kasb etishiga erishilishi), qat'iy tartiblarning belgilab qo'yilishi.

10. Kasbiy mahoratning mavjud darajalari va malakaviy razryadlar, ularga haq to'lash tartibi.

11. Mutaxassisning xulqi: psixologik va ijtimoiy xavfsizlik, kasbiy faoliyatida qulay mikromuhitning mavjudligi; ijtimoiy kafolatlar, mehnat va dam olishga haq to'lash, mehnatni muhofaza qilish; mehnat faoliyatini bajarishning individual metodini tanlash va operatsiyalarni individual tarzda o'zgartirish huquqining mavjudligi, malakan oshirish, turdosh kasblar bo'yicha qayta tayyorlash borasidagi imtiyozlar, lavozim bo'yicha "o'sib boorish" tartibi va mutaxassisning kasbiy jihatdan o'sishining rag'batlantirilishi.

12. Mutaxassisning majburiyatları: kasbiy malakanı egallash, kasbiy hulq-odob qoidalarining majburiyigini bilish (kasbdoshlari bilan munosabatda samimiyl, axloqli bo'lish); ish jarayonida kasbiy va xizmat sirlarini saqlash qoidalariga amal qilish, hujjatlarni to'g'ri yuritish; muayyan cheklanishlar (ya'ni, ushbu faoliyat jarayonida ma'lum xatti-harakatlarni sodir etishning ta'qiqlanganligi); lavozim bo'yicha vazifalar va majburiyatlar (u yoki bu tashkilotda muayyan lavozimga ko'ra mutaxassisning qanday vazifalarni qay tarzida bajarishi).

13. Kasbning inson xulq-atvori va yashash tarziga ko'rsatuvchi ta'siri.

14. O'z-o'zini shakllantirish, fiziologik-psixologik rivojlanish yo'naliishlari, biopsixologik o'zgarishlar, kasb vositasida qaror topuvchi individuallik, uning shaxsni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlari, kasbiy jihatdan tarkib topgan muayyan jamoa hamda ijtimoiy guruhga mansublik.

15. Kasbiy faoliyatning salbiy jihatlari: qiyinchiliklar, kasbiy faoliyat jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar, ularning turlari va ko'lami, ro'y berish ehtimoli bo'lgan moddiy hamda ma'naviy yo'qotishlar, murakkab vaziyatlarning mavjudligi, vaziyatning o'zgaruvchanligi yoki to'xtalishlarning sodir bo'lishi, monotonlik, vaqtning chegaralanganligi, axborot yetishmovchiligi yoki ularning ko'pligi; avariya holatlarining sodir etilish ehtimoli, kasbiy

kasalliklarni keltirib chiqaruvchi va boshqa psixologik holatlar; kasbiy jihatdan yuqori lavozimlarga ko‘tarilishning mumkin emasligi, past darajadagi mehnat samaradorligi, mavjud qoidalarni bo‘zganlik uchun belgilanuvchi ma’muriy jazo (jarimalar) turlari.

Psixologik tavsifnomalar (psixogramma – mutaxassisning ma’naviy-axloqiy va ruhiy qiyofasi). Kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishda ijtimoiy-kasbiy munosabatlar, kasbiy jihatdan o‘sish, shuningdek, sodir bo‘lish ehtimoli bo‘lgan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun talab etiluvchi psixologik sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi, ularning sirasiga quyidagilar kiradi:

- 1) shaxsiy ehtiyojlar, hayotiy maqsad, vazifalar, talablar, qiziqishlar, shaxs ishtirokida tashkil etiluvchi munosabatlar mazmuni, qadriyatli yo‘nalishlar, psixologik pozisiya;
- 2) kasbiy intilishlari, talablari, kasbiy jihatdan o‘zini baholash, o‘zini mutaxassis sifatida anglash;
- 3) psixik holat va hissiy (emosional) qiyofa;
- 4) mehnat, uni tashkil etish jarayoni va natijalardan qoniqish (mutaxassisning operatsional xususiyatlari);
- 5) mehnat va kasb borasidagi psixologik bilimlar;
- 6) psixotexnologiyalar, psixologik harakatlar, usullar, metodlar, mahorat va texnikasi (ularning, shaxsning o‘zi va boshqalarga ta’siri);
- 7) kasbiy qobiliyat, kasbiy salohiyat, kasbiy jihatdan o‘sish imkoniyatlari;
- 8) kasbga xos, shu jumladan, ijodiy fikrlash, kasbiy tajribani boyitish imkoniyatlari;
- 9) kasbiy jihatdan o‘sishni rejalashtirish va rivojlanish;
- 10) psixologik ziddiyatlar (kasbiy faoliyatga mutlaqo yoki muayyan darajada mos kelmaydigan psixik sifatlar, bu o‘rinda kasbga xos operatsional ziddiyatlarni aniqlab olish maqsadga muvofiqdir);
- 11) kasbiy jihatdan o‘sish yo‘nalishlari.

Bizning nazarimizda kasbiy tavsifnomalar mazmunida, yana shuningdek, kasbiy jihatdan tayyorlash va qayta tayyorlash, alohida psixologik sifatlarini mashq

qildirish, o‘zgartirish, o‘rnini to‘ldirish, kasbiy malakani oshirish va turdosh kasbga yo‘naltirish (shaxsning individual xususiyatlarini inobatga olish asosida) masalalarining yoritilishi maqsadga muvofiqdir.

Mutaxassis shaxsi va faoliyatini modellashtirishga nisbatan yondashuvlarning turlicha bo‘lishiga qaramay, ilmiy tadqiqotlarda kasbiy pedagogik tayyorgarlik tizimida mutaxassisning kasbiy va shaxsiy kamoloti, shuningdek, mutaxassisni kasbiy tayyorlash jarayonining modelini yaratish muammosi tadqiq etilmagan.

Buyuk Britaniyalik olim M.Rozenberg o‘qituvchi faoliyatining to‘qqiz yo‘nalishi va ularga nisbatan qo‘yiluvchi quyidagi kasbiy talablarni ishlab chiqdi:


- talabalarning talab va ehtiyojlarini bilish;
- faoliyat samaradorligini baholay olish;
- o‘quv dasturlarini ishlab chiqa olish layoqatiga egalik;
- kasbiy mahoratga ega bo‘lish;
- maslahatchi bo‘la olish;
- kommunikativ layoqatiga ega bo‘lish;
- ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyatiga egalik;
- doimiy ravishda kasbiy mahoratni takomillashtirib borishga erishish;
- shaxsini madaniy jihatdan takomillashuviga erishish.

L.M.Mitina o‘qituvchilik faoliyati mohiyatiga tayangan holda bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlash modeli quyidagi uchta o‘zaro bog‘liq yo‘nalish asosida namoyon bo‘lishini qayd etib o‘tadi:

- 1) talabaning shaxsi;
- 2) talabaning o‘quv-o‘rganish faoliyati;
- 3) talaba tomonidan tashkil etiluvchi ijtimoiy munosabatlar [53.87].

N.A.Muslimovning tadqiqotlari yuqorida keltirilgan kasbiy-pedagogik faoliyatni modellashtirishga oid tahlillarimiz hamda biogenetik, ijtimoiy-genetik hamda madaniy genetik jarayonlarni qiyosiy o‘rganishimiz asosida kasb ta’limi o‘qituvchini tayyorlashning masalali-faoliyatli modeli ishlab chiqilgan [47.65] (2.4.1-rasmga qarang).

Yuqorida ko‘rinib turibdiki, tayanch kompetentlik oliy pedagogik ta’limning har bir bosqichi uchun ta’lim bloklari va o‘quv fanlari darajasida aniqlanadi. Tayanch kompetentlik tartibini belgilashda kasbiy pedagogik ta’limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko‘nikmalarни egallashga imkon beruvchi asosiy turlar muhim ahamiyat kasb etadi.



#### **2.4.1-rasm. Kasbiy sharllangan pedagog modeli.**

Bugungi kunda mamlakatimizda uzlusiz ta’lim tizimining barcha turlarini davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion o‘zgartirish va islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovasiyaga tayanish muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlар ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi”, deb aytgan fikrlarida bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etishi o‘z ifodasini topgan.

Mamlakatimizda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, ta’lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj va talabning o‘sib borishi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari (UO‘TM) o‘qituvchilari faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlarida o‘ziga xos qator talablarni belgilaydi.

Bu o‘z navbatida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlariga ijodiy yondashuvni talab qilmoqda. Ya’ni o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari, tajribasi, mahorati, omilkorligi asosida pedagogik jarayonlardagi mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishi, pedagogik jarayonlar samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashi, pedagogik jarayon subyektlari (o‘qituvchi va o‘quvchilar) faoliyatini takomillashtirish yo‘nalishlaridagi qarorlarni qabul qilishda mavjud vaziyatlarni, subyektlarning moyilligi, ehtiyoji va qiziqishini o‘rganishi, ta’lim muassasasida tarbiyaviy munosabatlar jarayonining pedagogik jarayon sifatida mavjudligi hamda ko‘p

qirrali hisoblangan mazkur jarayonda bevosita hamda bilvosita ta'sir mavjudligini e'tiborga olishi zarur.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentlilagini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri sifatida ta'lim muassasasida uzluksiz malaka oshirish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish zaruriyatini keltirish mumkin. Ilmiy asoslarda tashkil etilgan uzluksiz malaka oshirish jarayonlarining ilmiyligi – yangiliklarni izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentlilagini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetentlilagini rivojlantirishga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi. Pedagogik tajribalardan ma'lumki, pedagog faoliyati o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchidan nafaqat oliv ma'lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, pedagogik va kasbiy tayyorgarlik yo'nalishida bilim, ko'nikma va malakalarga, shuningdek, ma'lum tajribaga ham ega bo'lishni talab etadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchilarning eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funksiyalarini amalga oshirish jarayoni bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya'ni pedagogik jarayon subyektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi. Pedagogik tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda qo'llanilayotgan innovatsiya tushunchasiga berilgan bir qancha ta'riflarning tahliliga ko'ra, innovasiya tushunchasi mazmuni o'zgarishlarni, ya'ni yangilik kiritish asosida ma'lum bir jarayonni rivojlantirish yoki samarali tashkil etish kabi ma'nolarda qo'llaniladi.

Shuningdek, innovatsion faoliyatda sohaga yangilik kiritish asosida ma'lum bir jarayonni samarali muvofiqlashtirish mumkin. Bizning fikrimizcha, pedagogik innovatsiyalarning ilmiyligi, yangiliqi va amaliyatga tatbiq etilishi uning amaliy ahamiyatiga molik zaruriy xususiyatlaridan hisoblanadi. Shunday ekan,

innovatsiya natijalari samaradorligi innovatsion jarayon yoki innovatsion faoliyatning ilmiy asoslarda tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq.

Pedagogik tadqiqotlar jarayonida innovasiyalarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ularning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligi;
- qo'llanilish sohasi va ko'lami;
- tatbiq etilishi va samaradorligi;
- natijaviyligi va unumdarligi;
- tatbiq etish metodlari va texnologiyalarini tavsiflash imkoniyati;
- vaziyatlarga ko'ra jamoada yoki tatbiq etish jarayoni ishtirokchilari o'rtaida ixtiloflarni keltirib chiqarishi.

Demak, innovatsiya tushunchasi, asosan, yangilik kiritish sifatida qo'llaniladi, innovatsion jarayon tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o'zlashtirish, amaliyotga tatbiq etish hamda innovasiyalarning samaradorligi va natijaviyligini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash kabi jarayonlarni qamrab oladi. "Innovatsion faoliyatning tuzilishi – ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritish, texnologik va metodologik tayyoragarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati.

Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin". O'qituvchilar kasbiy kompetentliligi, asosan, innovatsion jarayonlarda shakllanib, rivojlanib boradi, deya aytilgan fikrni olimlarimizning tajribalari ham tasdiqlaydi. Innovatsion yondashuv o'qituvchidan boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llashni emas, balki ularni doimiy takomillashtirishni talab etadi.

Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgaradi. Bundan tashqari o'qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirib borish uzlusiz malaka oshirish jarayonlarida amalga oshiriladi. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirib borish jarayonlari – ta'limi xodimlarining o'z sohasi bo'yicha fan va texnologiyalar yutuqlari, yangiliklari bilan muntazam tanishtirib borish asosida kasbiy va pedagogik mahoratini, o'quv-

tarbiya jarayonlarida ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘qitishning innovatsion metodlaridan foydalanish bo‘yicha ularning kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirib borish, ilg‘or pedagogik tajribalarni ommalashtirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari, sayyor malaka oshirish, o‘quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq darslar, o‘zaro dars kuzatishlar, fan kechalari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ilmiy-metodik materiallar tayyorlash, shuningdek, malaka oshirish muassasalaridagi nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda masofaviy malaka oshirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishi, o‘z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o‘zlashtirishga intilishi, o‘quv axborotlarini talabalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoida. Binobarin, global axborotlashuv ijtimoiy subyektlar, xususan, talabalar tomonidan ham istalgan ma’lumotni ixtiyoriy ravishda o‘zi uchun qulay sharoitda turli axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘zlashtirish imkoniyatini yuzaga keltirmoqda.

Garchi shunday holatda ma’lumotlarni qabul qilish imkoniyati nihoyatda keng bo‘lsada, biroq, shaxs tomonidan bu taqlitda o‘zlashtirilgan axborotlarning barchasi ham bilim sifatida namoyon bo‘lmaydi. Chunki bilimning har qanday axborotdan asosiy farqi ma’lumotlarning muayyan sohalar bo‘yicha tizimli, izchil, uzuksiz hamda maqsadga muvofiqli o‘zlashtirilganligi bilan belgilanadi.

Ta’lim tizimida tom ma’noda talabalarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun pedagogi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va talabalarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

### **Nazorat savollari:**

1. O‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligin rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillarni ko’rsating.
2. Faoliyatning asosiy sohasi va turlarini ayting.
3. Pedagogik tadqiqotlar jarayonida innovasiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
4. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchilarning eng asosiy vazifalarni ayting.

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** O‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga doir fikr va mulohazalaringizni asoslang. Misollar yordamida yoriting va bayon eting.

**2-topshiriq.** Kasbiy-pedagogik kompetentlik masalasi o‘rganilgan pedagogik modellar xaqida o‘z fikrlaringizni bayon eting. Fikrlaringizni “Ikki qisqli kundalik” metodi orqali ifodalang.

### **III BOB.**

---

## **TALABALARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH KOMPETENTLIGI**

### ***Bobning qisqacha mazmuni***

Ushbu bobda talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishning huquqiy asoslari, shuningdek, talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan.

Jahon miqyosida kezib yuruvchi axborotlar muayyan davlat manfaatlariga ta'sir etmay qolmaydi. Bu faqat shu axborot tarqaladigan alohida olingan bir mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy va jarayonlardan darak berishi bilangina emas, balki boshqa mamlakatlarning mazkur xabarlar haqida hech narsa aytilmagan auditoriyasi bularni o'z davlatidagi holatga qiyoslashi bilan ham mazkur mamlakat manfaatlariga ham ta'sir etadi. Shu sababli davlatlar, hukumatlar o'rtasida ayrim kelishmovchiliklar vaqtı-vaqtı bilan yuzaga chiqib turishi mumkin. Bunda kim haq yoki kim nohaq ekanligini aniqlash har doim ham oson bo'lavermaydi.

Axborot xuruji avvalo, talaba-yoshlarga qaratilar ekan, bu xurujlarning salbiy siyosiy qarashlarini shakllantiruvchi omillarni keskin ravishda pedagogik-psixologik jihatdan bartaraf etish shart.

Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tahlil natijalari talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirish mutaxassislar tayyorlashning muhim vazifasi sifatida individual, guruhiy va omma psixologiyasini jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, ekologik va boshqa sohalariga qaratilgan turli darajalardagi salbiy ta'sirlardan himoyalashga doir faoliyatini tashkil etib, axboriy savodxonlik, g'oyaviy yo'nalanlik, ijtimoiy-siyosiy faollik, tizimli qaror qabul qilish, sog'lom tafakkur yuritish, axborot iste'moli madaniyati kabi komponentlarni o'z ichiga qamrab olishi haqidagi xulosaga kelindi.

### **3.1. Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishning huquqiy asoslari**

**Tayanch so'z va iboralar:** *jamiyatni axborotlashtirish, axborot xuruji, axborot resurslaridan erkin foydalanish, axborot xavfsizligini ta'minlash, me'yoriy-huquqiy hujjatlar.*

XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko'lamdagи axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jahbalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatayotgan omil sifatida e'tirof etiladi. E'tiborli jihat, mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlar ehtiyojining juda ortib borishidir. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potensioli va imkoniyatlarining o'sishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo'nalishlarda keng tarzda ishlatilishi, yangi XXI asrdagi odamzot taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarning biri bo'la oladi.

Mamlakatimizda ham jamiyatni axborotlashtirish qonun bilan belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati aniq belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan.

Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlash;

davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O‘zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish;

xalqaro axborot tarmoqlari va internet jahon axborot tarmog‘idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratish;

davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish hamda rivojlantirish, ularning bir-biriga mosligini va o‘zaro aloqada ishlashini ta’minlash;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalari ishlab chiqarilishini tashkil etish;

axborot resurslari, xizmatlari va axborot texnologiyalari bozorini shakllantirishga ko‘maklashish;

dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlantirilishini rag‘batlantirish;

tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;

kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishdan iborat [25, 50-b].

“Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasida shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta’sir ko‘rsatilishidan himoya qilish yo‘li bilan ta’milanadi. Shu o‘rinda qayd etish kerakki, “Axborot-kutubxona faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga binoan, foydalanuvchilarining intellektual, ma’naviy-axloqiy, madaniy va ta’lim olish ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, milliy madaniyatni tiklashga va yanada rivojlantirishga ko‘maklashish, O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini saqlash axborot-kutubxona faoliyatining asosiy vazifalari etib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga binoan, hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborotni

Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish tartibi belgilab qo‘yilgan. Veb-saytning va (yoki) veb-sayt sahifasining egasi, shu jumladan bloger hamma erkin foydalanishi mumkin bo‘lgan axborot joylashtiriladigan internet jahon axborot tarmog‘idagi o‘z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan O‘zbekiston Respublikasining mavjud konstitutsiyaviy to‘zumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da’vat etish, urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, shuningdek diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g‘oyalarini targ‘ib qilish, davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarni yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi, shuningdek fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘yuvchi axborotni tarqatish, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni targ‘ib qilish, pornografiyani targ‘ib qilish, qonunga muvofiq jinoiy va boshqa javobgarlikka sabab bo‘ladigan boshqa harakatlarni sodir etish maqsadlarida foydalanishiga yo‘l qo‘ymasligi shart etib belgilab qo‘yilgan [22].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma’lumotlarni o‘zatish tarmoqlarida, shu jumladan, Internetda tarqatish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda har qanday ma’lumotlar Internetda tarqatilishiga yo‘l qo‘yilmasligiga doir bir qancha qoidalar o‘rnatilgan bo‘lib, axborot ayirboshlash vositalari tarkibiga axborot resurslaridan foydalanishning alohida qoidalari belgilangan davlat axborot tizimlari, tarmoqlarini ulash axborot xavfsizligi talablariga muvofiq attestatsiyadan o‘tkazilgandan keyin O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan amalga oshiriladi degan qoida o‘rnatilgan [23]. Bundan ko‘rinadiki, Internet tarmoqlariga ulanayotgan axborot tizimlari axborot xavfsizligiga qanchalik javob berilishi tekshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasida ommaviy axborot vositalari e’lon qilinayotgan axborotning to‘g‘riligini tekshirib ko‘rishlari

shart va ular axborot beruvchi bilan birgalikda uning to‘g‘riliqi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar deb belgilangan [24].

Bunday javobgarlik masalalari boshqa qonun hujjatlarida ham (O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, Jinoyat kodeksi) o‘rnatilganligiga qaramasdan, ayrim shaxslar xavfli axborotlardan g‘araz maqsadlarda foydalanayotganligi hammamizga ma’lum.

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, axborot borasidagi xavfsizlik deganda, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holati tushuniladi.

Shuningdek, ushbu Qonunga ko‘ra, axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo‘ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo‘nalishlarini, shuningdek fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat-notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o‘rni va ahamiyatini belgilaydi.

Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya’ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda texnikaviy-texnologik sohada katta imkoniyatga ega bo‘lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo‘ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o‘z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g‘oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. Shunga ko‘ra, ko‘pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, ular yagona jahon uyg‘unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o‘zi tobora global harakat tusini olmoqda.

Jahon miqyosida kezib yuruvchi bunday axborotlar muayyan davlat manfaatlariga ta’sir etmay qolmaydi. Bu faqat shu axborot tarqaladigan alohida olingan bir mamlakatdagi ijtimoiy, siyosiy va jarayonlardan darak berishi bilangina

emas, balki boshqa mamlakatlarning mazkur xabarlar haqida hech narsa aytilmagan auditoriyasi bo‘larni o‘z davlatidagi holatga qiyoslashi bilan ham mazkur mamlakat manfaatlariga ham ta’sir etadi. Shu sababli davlatlar, hukumatlar o‘rtasida ayrim kelishmovchiliklar vaqtı-vaqtı bilan yuzaga chiqib turishi mumkin. Bunda kim haq yoki kim nohaq ekanligini aniqlash har doim ham oson bo‘lavermaydi.

Axborot xuruji avvalo, talabalarga qaratilar ekan, bu xurujning salbiy siyosiy qarashlarni shakllantiruvchi omillarini keskin ravishda pedagogik-psixologik jihatdan bartaraf etish shart.

Siyosiy jarayonlarning motivlari hamda shaxsni siyosiy tarbiyalash, axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish va rivojlantirish masalalarining mohiyatini bilish va ularga faol ta’sir ko‘rsatish talab qiladi. Shuning uchun ham davlatimiz yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini yo‘naltirish, ularning siyosiy, huquqiy, mafkuraviy ongini shakllantirishga juda katta e’tibor qaratmoqda.

Axborot xuruji inson, jamiyat ongiga manfaatli axborot ta’siri bo‘lib, uning xulq-atvorini o‘zgartirishga yoki uni barqarorlashtirishga qaratilgan. Axborot xurujining manbalari xilma-xil. Ularning subyekti sifatida ommaviy axborot vositalari, internet tarmog‘i, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, jamg‘armalar, oddiy kitob, film, haykal, rasm va hokazolar ham chiqishi mumkin.

Axborot xuruji obyekti esa – bu bir individ yoki ijtimoiy guruh, davlat. Bugun zamonaviy jahonda jamiyat sohalarining takomillashuvi, kishilarning intellektual darajasining oshishi axborot xuruji mexanizmlarini takomillashtirishni ham talab etadi. Chunki bu muayyan jamiyat ustidan hukmronlikni o‘rnatishning qulay va samarali usuli deb qaraladi. O‘z navbatida axborot xavfsizligi masalasi dolzarblashib bormoqda, siyosiy, ijtimoiy institutlar tomonidan fuqarolarning ma’naviy dunyosini mustahkamlashga e’tiborini kuchaytirishga sabab bo‘lmoqda. Axborot xurujining ko‘rinishlari xilma –xil bo‘lganligi bois, ularning har birini o‘rganish va salohiyatini tahlil etish va shu asnoda ularga qarshi immunitetni shakllantirish lozim.

Bu turdag'i tahdidlar insonning ijtimoiy ongini noto'g'ri shakllantirish va shu tariqa o'zligiga ega bo'lmanan olomonni tarkib toptirishni ko'zlaydi. Informatsion tahdidlar axborot xuruji sifatida ham talqin qilinadi va shaxsni o'zi istagan tarzida shakllantiradi va muammolar girdobiga tashlaydi. Natijada fuqarolarning ijtimoiy ongi zaharlanib, jamiyatda ijtimoiy xastalik vujudga keladi [60; 19-b.].

Hozirgi vaqtda axborot xurujlarining quyidagi turlari keng tarqalgan: davlatning milliy siyosatini atayin tanqid qilish; soxta xabarlar tarqatish; ijtimoiy ongi manipulyatsiya qilish; kichik muammoni katta, yirik muammo sifatida tasvirlash; talabalarни chalg'itish; milliy qadriyatlarni noto'g'ri talqin qilish; yetti yot begona ma'naviy qadriyatlarni singdirish; xalqning tarixiy xotirasini bo'zish va o'zgartirish; kiberterrorizm.

Hozirgi zamon axborot tizimi, uning juda keng imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda axborot olish, saqlash, foydalanish va tarqatishning umummilliy manfaat va umummilliy taraqqiyot nuqtai nazaridan boshqaruv mexanizmini yaratish, uning mohiyati va unsurlarini chuqur anglash zarur bo'lib qolmoqda.

Davlatimizning axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida olib borayotgan siyosati bugungi kungacha davom etayotganligini amalda qabul qilinayotgan yangi qonun hujjatlari misolida ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar deb nomlangan beshinchı ustuvor yo'nalishida axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish masalasi alohida yo'nalish sifatida belgilanib, bunda talabalar ongiga tahdid soluvchi axborot xurujlarining oldini olish, talabalarda internet va boshqa axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil qilishga alohida e'tibor qaratilgan [10].

Harakatlar strategiyasi doirasida axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralda "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son Qarori qabul qilindi. Qarorda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini boshqarish va joriy etish sohasidagi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ushbu sohaning jadal rivojlanishiga, sifatli axborot xizmatlarini ko'rsatishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan, davlat axborot tizimlari va resurslarida axborot xavfsizligini va axborotni muhofaza qilishni ta'minlash ishlarining zaif tashkil etilganligi axborotdan ruxsatsiz foydalana olish, ma'lumotlar bazalarining butunligi va maxfiyligini bo'zish imkoniyatini oshirib yuborayotganligi alohida ta'kidlab o'tilgan [26].

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-martdagi "Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 185-son Qarorida qonunchilik va boshqa normativ hujjatlar, davlat standartlari talablari hamda aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati buzilganligi uchun moliyaviy sanktsiyalar (jarimalar)ni hisoblash tartibi[28] asosida axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asosi takomillashtirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-maydagi 318-son Qarori 1-ilovasi bilan "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlandi [29].

Mazkur Nizomda vazirlikning funksiya va vazifasi sifatida axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq uchta band kiritildi: axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligi tahdidlarini aniqlash va ularga qarshi kurashish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan jinoiy, razvedka va terroristik maqsadlarda foydalanish bilan kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish va joriy qilish yo'li bilan ushbu maqsadlarda foydalanish holatlarini to'xtatish; axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik tahdidlari to'g'risidagi axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, kerakli axborotni tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga,

mahalliy davlat hokimiyati organlariga taqdim etish; axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik, loyiha, qidiruv va texnologik ishlanmalarni tashkil qilish va o'tkazish.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida axborot-xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslari yaratildi va masalaning dolzarb ahamiyatga egaligi bilan bog'liqlikda uni takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Bu esa, o'z navbatida talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishni taqozo etadi.

### **Nazorat savollari:**

- 1 Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-martdagi "Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 185-son Qarori haqida nimalarni bilasiz.
2. Hozirgi vaqtda axborot xurujlarining qanday turlari keng tarqalgan.
3. Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilindi?
4. "Axborot xuruji" nima?
5. Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin.

### **Mustaqil ta'lim togshirig'i:**

**1-topshiriq.** Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishning huquqiy asoslarini gapirib bering.

**2-topshiriq.** Ongga tahdid soluvchi axborot xurujlarini oldini olish borasida me'yoriy huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan norma va qoidalar xaqida aytib bering.

### **3.2. Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari**

**Tayanch so‘z va iboralar:** axborot texnologiyalari, axborot tahdidi, axborot xurugi, global axborot muhiti, axborot xurujlariga qarshi xavfsizlikni ta'minlash masalasi.

Axborotlashgan jamiyatni shakllantirish eng avvalo, axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish va global axborot muhitini rivojlantirish bilan tavsiflanuvchi zamonaviy jamiyat evolyutsiyasining qonuniy bosqichini o‘zida aks ettiradi. Yangi jamiyatni shakllantirish jarayoni axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini to‘g‘ri anglash va oqilona foydalanish bilan bog‘liqdir.

Uchinchi ming yillikda axborotlashtirish bilan bog‘liqlikda yuzaga kelayotgan xavf va tahdidlardan himoyalanish muammosi zamonaviy sharoitda alohida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasiga qator tadqiqot ishlari bag‘ishlangan bo‘lib, hozirda ham mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. SHu bilan birga ilmiy adabiyotlar tahlili axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini o‘rganishning metodologik jihatlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Ushbu nuqtai nazardan eng avvalo ko‘plab mualliflar tomonidan ta’rif-tavsif berilgan “axborot”, “xavfsizlik”, “axborot xavfsizligi”, “axborot xavfsizligi kompetentligi” atamalarining izohini aniqlashtirish zarur.

“Axborot” tushunchasi ilmiy muomalaga 1928 yilda amerikalik olim R.Xartli tomonidan texnik aloqa kanallari bo‘ylab tapqatilyvchi ma’lumotlarni miqdoriy o‘lchash mezonini belgilash uchun kiritilgan. Hozirda bu atama har xil ma’nolarda qo’llanilmoqda. Axborot ayrim (maishiy) hollarda odamlar tomonidan beriladigan ma’lum narsa yoki hodisa haqidagi ma’lumot, ba’zida (kibernetika) - tartibga solingan o‘zgartirish, tizimning tashkil etilganlik o‘lchovi, boshqa vaziyatda-obyektlarning rang-barang jihatlarini ifodalash, aks ettirish tushuniladi. Axborotning mohiyatiga nisbatan qarashlarning ko‘pligiga qaramay, bu tushunchaga hanuzgacha aniq umum e’tirof etilgan ta’rif berilgani yo‘q, ba’zan

bunday ta’rifni berish mumkin emas, degan fikrlar ham uchramoqda. Masalan, T.Stounerning fikriga ko‘ra, “biz o‘zimiz axborotlashgan jamiyat deb ataydigan jamiyatda yashashimizga qaramay, axborot nimaligini bilmaymiz”. Shunga ko‘pa, quyida “axborot” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirishga harakat qilamiz.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “axborot” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: Axborot – (lotincha “information” – tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og‘zaki, keyinroq esa yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma’lumotdir.

Taniqli olim N.N.Moiseevning fikricha, “axborot tushunchasini faqat jonli tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tavsiflashda qo‘llash, bu tushunchani subyekt-obyekt munosabatlari bilan bog‘lash o‘rinli bo‘ladi, zotan, “axborot” tushunchasini ta’riflab bo‘lmaydi, uni faqat tavsiflash mumkin”. Ammo, bizning nazarimizda, bu qarashlar axborotga keng falsafiy nuqtai nazardan, uni aks ettirish bilan bog‘lash, axborotda rang-baranglikni ifodalash (aks ettirish) deb, in’ikosining obyekтивlashishi mumkin bo‘lgan asosiy qismi yoki jihatni deb tushunish imkonini beradi. Tabiiy muhitda moddiy tashuvchi yordamida amalgalashiriladigan axborot, fizikaviy jarayon hisoblanmaydi, chunki uzatiluvchi ayni bir signallarning fizik tabiatini har xil bo‘lishi va muhim rol o‘ynamasligi mumkin. Axborot moddiy tashuvchiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan olib qaraganda, axborot, borliqning alohida tipidir. Zero, axborot bu materiya ham, energiya ham emas, balki axborotdir; axborot ruh yoki subyektivlik emas, balki axborotdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, axborot bu oqilona foydalanish uchun muayyan shaklga solingan ma’lumotlardir. O‘z navbatida, axborot bloklarini tegishli tarzda ishlov berish yo‘li bilan yaxlit bilim korpusiga aylantirish mumkin.

Hozirgi vaqtida “**axborot tahdidi**”, “**axborot xuruji**” tushunchalaridan ilmiy iste’molda keng foydalanilmoqda. Mazkur tushunchalar etimologiyasiga e’tibor qaratilsa, ularni sinonim sifatida qo‘llash mumkin, degan xulosaga kelish mumkin.

Tarixiy manbalarda “xuruj” so‘zi kengroq qo‘llanilgan. O‘z mohiyati bilan “xuruj” atamasi Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari” kitobida ham uchraydi. Ya’ni, “Xuruj kunlari qilgan beshinchi kengashim”, “Xuruj vaqtida qilgan oltinchi kengashim”, “Xuruj kunlari qilgan yettinchi kengashim” sarlavhali bitiklarda g‘animlarning qay tariqa xuruj qilishgani va unga qarshi ko‘rilgan tadbirlar bayon etiladi. Hamisha jaholatga qarshi ma’rifat yo‘lini tanlagan Sohibqiron bir o‘rinda shunday yozadi: “G‘animlarni chuchuk so‘z, shirin hikoyatim bilan o‘z tomonimga egmoqchi va ular vujudidagi yondiruvchi (g‘azab) o‘tini to‘g‘ri tadbir suvi bilan o‘chirmoqni maslahat ko‘rdim. Shu tarzda ularni rom qilmoqchi bo‘ldim”. Demakki, o‘sha davrda ham mamlakat tinchligi va osoyishtaligiga xuruj qilingani hamda unga qarshi kurashda qanday yo‘l tutilganini ham shunday manbalar orqali bilish mumkin.

Axborot xuruji yoki tahdidi – bu axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug‘diruvchi sharoit va omillar yig‘indisidir.

Axborot xurujlariga qarshi xavfsizlikni ta’minalash masalasi barcha sohalarda ham muhim sanaladi. Epikur xavfsizlik tushunchasini inson va tabiat uyg‘unligi bilan aloqadorlikda tavsif etgan. T.Gobbs xavfsizlikni ikki ezgu amalda ko‘radi: imon va qonun.

“Chembers lug‘ati”da “xavfsizlik” tushunchasini “holat, xavfsizlikka keltiruvchi vositalar yoki sezgi” deb talqin qilingan. Mazkur tushuncha “besaranjomlilik, tashvishlilik”, “ishonch”, “barqarorlik”ning yo‘qolishi bilan bog‘lab tushuntirilgan .

Zamonaviy adabiyotlarda “xavfsizlik” tushunchasi obyektning o‘z funksiyalarini cheklashi va o‘zining ichki qonunlari asosida rivojlanadigan shart-sharoitlar va omillar tizimi sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, xavfsizlik individ yoki jamiyatga xavf-xatar tug‘diruvchi shart-sharoit va omillardan himoyalanish tarzida ham tavsif etilad.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, “xavfsizlik” tushunchasiga berilgan ko‘plab ta’riflar olimlar va amaliyotchilar tomonidan tanqidga uchramoqda.

Bizningcha, ko‘plab ta’riflarda aniqlik yetishmasligining asosiy sababi tushunchaga ta’rif berishda xavfsizlikning dialektik ziddi hisoblangan xavfning hisobga olinmasligi bilan bog‘liq. Aynan xavf-xatarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish “xavfsizlik” tushunchasiga aniqroq ta’rif berish imkonini beradi. G.A. Atamanov ta’kidlab o‘tganidek, xavfsizlik uning hosilasi sifatida xavf-xatar bilan aloqadorlikda mazmun kasb etadi [39; 106-b.]. Muallifning fikricha, “xavfsizlik” ichki va tashqi ta’sirlarning mavjudligi sharoitida tizimning hayotiy mavjudlik mexanizmining buzilishiga doir obyekt holatini ifoda etadi. Uning har qanday tahdidni xavf-xatar sifatida qabul qilishi o‘rinli bo‘lmaydi, xavfsizlik xavf-xatarni yyengib o‘tish natijasida yuzaga keladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, shunday xulosaga kelish mumkin: xavfsizlik tizimning xavf-xatarlarga qarshi kurashish imkoniyatiga egaligi, shuningdek, o‘z rivojining yuqori darajasini egallah qobiliyatidir. Bizningcha, xavfsizlik istalgan obyektning mavjudligi tavsifini, mazkur obyektning o‘z qadriyatlari, maqsadlari, qiziqishlarini himoya qilish, boshqacha aytganda, tizimning mavjudligini ta’minlovchi asoslarga, tahdid soluvchi kuchlarga qarshi kurashish qobiliyatidir.

**“Xavfsizlik”** tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish asosida “axborot xavfsizligi” atamasining mazmun-mohiyatini izohlashga harakat qilamiz. Bizningcha, axborot xavfsizligi butun insoniyat uchun global ahamiyatga ega bo‘lgan, uning obyektiv, amaliy ta’rifini shakllantirishning hayotiy zaruriyat ekanligi bilan tavsiflanuvchi zamonaviy jamiyatning noyob hodisaside.

Mutaxassislarning qayd etishicha, axborot xavfsizligi muammosini yoritib berishning murakkabligi hozirgi vaqtgacha mazkur tushunchaning umumjamoatchilik tomonidan qabul qilingan izohining mavjud emasligi, fan sohasi bilan bog‘liqlikda bayon etilishi bilan bog‘liq. Ana shu sababli “xavfsizlik”ning obyektsiz mavjud bo‘lmasligini aniqlab olish zarur. A.A. Streltsov to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganidek, “aniq obyektsiz”, “xavfsizlik” tushunchasi mavhum xarakter kasb etadi, u o‘zining ichki mohiyatini yo‘qotadi”.

Shuningdek, axborot xavfsizligi murakkab hodisa sifatida mazkur tushunchani izohlash qiyin ekanligini izohlovchi bir nechta asoslarni keltirib o‘tish mumkin:

1. **Axborot xavfsizligi** – jamiyat rivojining obyektiv shart-sharoitlari bilan bog‘liq obyektiv hodisa. Uning shakllanishi jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bilan bog‘liqlikda yuzaga keladi.

2. “**Axborot xavfsizligi**” tushunchasini ta’riflashdagi murakkabliklar, bizningcha, uning turli – texnik, huquqiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy jihatlar bilan aloqadorlikda tadqiq etilishi bilan bog‘liq. Albatta, olimlar o‘zining ilmiy faoliyat sohasi bilan bog‘liqlikda mazkur tushunchaga turli-tuman ta’rif berishadi. Bu esa, “axborot xavfsizligi” atamasiga yagona bir ta’rifni shakllantirishda qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Sotsiologik-psixologik adabiyotlarda “axborot psixologik xavfsizlik” atamasini qo‘llash an’anaga aylangan.

**Axborot-psixologik xavfsizlik** – davlat, jamiyat va shaxsga ziyon yetkazishi mumkin bo‘lgan tasodifiy yoki qasddan qilingan axboriy ta’sirlardan himoyalashga qaratilgan muhim sa’y-harakatdir. Mutaxassislar fikricha, bu quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish; axborotning konfidentsialligini saqlash, uning OAVda chiqib ketishi, o‘g‘irlanishi va yo‘qolishining oldini olish; axborotni buzib ko‘rsatish va soxtalashtirishning oldini olish.

Demak, bugungi globallashgan makonda axborot xavfsizligini ta’minalash axborot sohasiga ziyon yetkazilishining oldini olishga xizmat qiladi. Bu jarayonda yovuz niyatli kishilarning kirdikorlariga qarshi kurash bilan bir qatorda turli darajada keltirilishi mumkin bo‘lgan zararlarning ham oldi olinishi, tabiiy.

Dunyo yagona axborot makoniga aylangan bugungi kunda biror axborotning yo‘liga sun’iy to‘siq qo‘yib bo‘lmaydi. Istiqlol sharofati bilan dunyoga yuz ochgan, yoshlari dunyo tillarini bemalol egallab, “internetomaniya” kasaliga chalinish arafasida turgan yurtimizga ham yaxshi, ham yomon ta’sirlar, turli xurujlar mavjudligi sharoitida shaxsning o‘zini-o‘zi psixologik jihatdan salbiy

ta'sirlardan himoya qila olish imkoniyatlarini kengaytirish eng dolzarb muammolardan biridir.

Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot xavfsizligini ta'minlash ta'lim oluvchilarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq.

M.Quronovning o'zining "Biz angloyotgan haqiqat" kitobida "Diqqat, Internet" sarlavhasi ostida quyidagi fikrlarni bayon etgan: "Hali Internetning inson hayotidagi o'rni haqida yakdil xulosa qilishga ertaroqqa o'xshaydi. "Texnologiya biznesa. Connect" jurnali o'zining 2003-yil 10-sonidagi "Informatsiya + natsiya" maqolasida havotirli gaplarni yozdi. "Internetdan mustaqil foydalanuvchilarda, – deb yozadi jurnal, – o'zini o'zi barqaror identifikatsiya qilish, o'ziga xoslik yo'qola boradi. Odamning o'zini anglashi xiralashadi yoki beqaror bo'lib qoladi...".

Bugun biz tabiiy resurslarning an'anaviy bozorlariga qo'shimcha ravishda axborot va bilimlar bozorining shakllanishi hamda rivojlanish jarayoniga guvoh bo'lyapmiz, bu jarayonlarning faol qatnashchilariga aylanyapmiz. Shunday ekan, talabalarda axborotlar olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish malakasini shakllantirish, ularda axborot iste'moli madaniyatini tarbiyalash hayotiy ahamiyatga ega.

U.G'afurovning ta'kidlashicha, axborot iste'moli madaniyati, eng umumiy ma'noda, axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilim, qobiliyat va malakalar tizimini anglatadi.

B.Xodjaevning qayd etishicha, "axborot iste'moli madaniyati" tushunchasi asosida shaxs axborot xavfsizligining uchta asosiy darajasi aks etadi: umumiy, kasbiy va mazmunli-qadriyatlari. Shaxsda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishning mazkur darajalari aniq mezonlarni tanlash va shaxsiy rivojlanganlik ko'rsatkichlari bilan bog'liq. Axborot iste'moli madaniyati tizimidagi kognitiv-operatsion va tashkiliy tarkibiy qismlar universallik, axboriy faoliyatning fanlararo aloqadorligi, shuningdek insonning turli xil faoliyat

tizimidagi umumlashgan tavsifini aks ettiruvchi kompyuter savodxonligi bilan belgilanadi [61. 58].

“Axborot xavfsizligi” tushunchasining asosiy mazmuni axborot xavfsizligini ta’minlash, informasion makonda o‘zaro birgalikda harakatlanayotgan subyektlarni zararli axborotlar ta’siridan himoya qilish, xavfsiz axborot muhitini shakllantirish vositasida talabalarning axborot olish ehtiyojini qondirishda o‘z ifodasini topadi.

Adabiyotlar tahlili asosida axborot xavfsizligi – axborotlashgan jamiyat bilan uyg‘un rivojlanishga yordam berishga yo‘naltirilgan zamonaviy sotsiumning obyektiv taraqqiy etishi bilan bog‘liq murakkab hodisa ekanligi haqidagi xulosaga kelindi. Axborot xavfsizligini ta’minlash eng avvalo, axborot texnologiyalarini qo‘llash bilan bog‘liqlikda yuzaga keladigan salbiy ta’sirlarni o‘rganish, talabalarni mazkur salbiy ta’sirlardan o‘z-o‘zini va jamiyat a’zolarini himoya qilish, yuzaga keladigan muammolarning oldini olishga qaratilgan.

Pedagogik hamjamiatda kompetensiya va kompetentlik, ulardan qaysi biri tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo‘yicha qizg‘in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv talabadan alohida-alohida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallahshi talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda o‘z navbatida o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash o‘z navbatida ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Bizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayangan holda, dastlab ko‘pgina holatda sinonim so‘zlar sifatida qo‘llaniladigan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur.

Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ta’lim tizimi oldiga qo‘yayotgan talablar bilan bog‘liqlikda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta’lim mazmuni va metodlarini o‘zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko‘rib chiqilgan. Ana shu nuqtai nazardan ko‘plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv

va ijodiy faoliyat uchun zarur o‘zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmui, kompetentlik esa, ma’lum sohaga doir biror-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan.

Kompetensiya – talabaning ma’lum bir sohada samarali faoliyati uchun zarur hamda uning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (me’yorlar)dan ham o‘zib ketishidir.

Me’yoriy-huquqiy hujjatlar, psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlar va axborot xavfsizligi sohasiga doir ilmiy ishlarni tahlil etish asosida talabalarni axborot xavfsizligi faoliyatiga tayyorlashga doir kompetensiyalar tizimi aniqlashtirildi.

Tahlil natijalari talabalarda axborot xavfsizligini ta’minalash kompetentligini rivojlantirish mutaxassislar tayyorlashning muhim vazifasi sifatida individual, guruhiy va omma psixologiyasini jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, ekologik va boshqa sohalariga qaratilgan turli darajalardagi salbiy ta’sirlardan himoyalashga doir faoliyatini tashkil etib, informasion savodxonlik, g‘oyaviy yo‘nalganlik, ijtimoiy-siyosiy faollik, tizimli qaror qabul qilish, sog‘lom tafakkur yuritish, informasion dunyoqarash, axborot madaniyati, axborot iste’moli madaniyati kabi komponentlarni o‘z ichiga qamrab olishi haqidagi xulosaga kelindi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari talabalarda axborot xavfsizligini ta’minalash kompetentligini rivojlantirish – bo‘lajak kasb egasi sifatida bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali uni o‘z aqidalari, ma’naviy-axloqiy ideallari, e’tiqodidan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashish malakasini tarkib toptirish bilan aloqadorligini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga aynan axborot xavfsizligini ta’minalash kompetentligini rivojlantirish millat ma’naviyatini himoya qilish bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur holatda talabalarining tarixiy-madaniy meros, jumladan urf-odatlar, an’analar, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarni chuqr o‘zlashtirishini talab etishini ko‘rsatdi.

Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida talabalar ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval talabalarning ijtimoiy xulqida ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimadandir cho'chish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hislarining namoyon bo'lishidir. Chunki agar, psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo'tadillikni asrash uchun o'zidagi havotirlanish, qo'rquv va hadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo'lishga intiladi. Psixologik himoya – shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ochiq axborot xurujlari vaziyatida talabaning o'z-o'zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish lozim:

Birinchidan, har bir talaba uchun mustaqil fikrga ega bo'lish muhim. Mustaqil fikrga ega bo'lган insongina o'ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma'lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko'rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. M.Quronov ta'biri bilan aytganda, mustaqil fikrga mustaqil (erkin, ozod; tobe bo'lмаган, alohida) – ixtiyori o'zida bo'lган; tobe, qaram bo'lмаган kabi ma'nolaridan kelib chiqib qarashimiz lozim. Bunda o'zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz, o'zicha fikr yuritish, yashash tushuniladi. Yoshlar shunga qodirmi? Uni shunga o'rgatyapmizmi?.

Ikkinchidan, talabalar turli yot va bemaza axborot xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda milliy g'ururni tinmay tarbiyalashimiz va bunda fanlararo aloqadorlik hamda tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. Masalan, mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan qator yutuqlar: bobolarimizning muborok nomlari, millatimizning azaliy sharafi tiklandi; dunyo o'zbek xalqining insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini tan oldi; Toshkent 2007 –yilda Islom madaniyati poytaxti degan yuksak sharafga sazovor bo'ldi. Bularning barcha-barchasi talabalar uchun buyuk ibrat vazifasini bajaradi va ularni ochiq fikr almashinuviga chorlash orqali milliy g'ururni uyg'otadi.

Uchinchidan, milliy g‘ururi bor insonda iymon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog‘liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan “kompas” rolini o‘ynaydi. “Internet shunday o‘rmonki, unda kompassiz yurib bo‘lmaydi”. Garchi Internet axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to‘plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, professor-o‘qituvchilar tomonidan aytildigan har bir so‘zning aniq mo‘ljalli bo‘lishini ta’minlash zarur. O‘qituvchi tomonidan quyidagi fikr muntazam takrorlab turilishi zarur: “Axborot qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, u qabul qiluvchi insonning izmida bo‘lishi, uning manfaatiga xizmat qilishi kerak”. Buning uchun yovuz niyatli, yot g‘oyalarni targ‘ib etuvchilarning asl niyatlarini, ular sa’y-harakatlarining oqibatlari nima bilan tugashini har bir mashg‘ulotning tashkiliy qismida esga solib turish lozim.

### **Nazorat savollari:**

- 1 Adabiyotlar tahlili asosida axborot xavfsizligini izohlang.
2. Axborot xavfsizligi muammosini yoritib berining.
3. “Axborot” tushunchasi ilmiy muomalaga qachon, kim tomonidan kiritilgan?

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** Hozirgi zamon axborot tizimidan samarali foydalanish usullariga misollar keltiring.

**2-topshiriq.** Pedagogika-psixologiya sohasining yetakchi olimlari tomonidan axborot xavfsizligini ta’minlash borasida ilgari surilgan g‘oyalarni aytib o‘ting.

## **IV BOB.**

---

### **TALABALARING AMALIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

#### ***Bobning qisqacha mazmuni***

Ushbu bobda talabalarining amaliy ta’limi professional pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim omili; faoliyatli yondashuv amaliy ta’limning metodologik asosi ekanligi bo'yicha quyidagilar o'rin olgan:

Ilmiy bilimlarning boshqa sohalaridagi “amaliyot” tushunchasi orqali ham “amaliy ta’lim” tushunchasini ta’riflash mumkin. Ma'lumki, amaliyot kategoriyasi falsafada markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Amaliy tayyorgarlik - ishlab chiqarish (kasbiy) amaliyotni o‘tash jarayonida amaliy malakalar olishga yo‘naltirilgan faoliyat, laboratoriya ishlarini, amaliy mashqlarni, kurs loyihalari va ishlarini bajarish.

Amaliy ta’lim, ishlab chiqarish ta’limi – professional ta’lim muassasasidagi pedagogik jarayonning asosiy qismi, uning asosiy maqsadi bo‘lib, ta’lim oluvchilarda muayyan sohaga oid kasbiy mahorat asoslarini shakllantirish hisoblanadi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasida ham amaliyotchi kontsepsiysi yuzaga keldi va rivojlanmoqda. Amaliyotchi kontsepsiysi nuqtai nazaridan qaraganda, individ, eng avvalo, faoliyat jarayonida qo‘llaniladigan ko‘nikma va malakalarining ma’lum tizimini eltuvchi hisoblanadi. Bu tajriba, ko‘nikma va malakalar tizimi, amaliy bilimdir. U birlamchi hisoblanadi va har qanday “nazariy” bilishning zaminini tashkil etadi, ilmiy, falsafiy va axloqiy refleksiyaning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Faoliyatli yondashuv ta’lim jarayonida talabalarda faoliyatni amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. O‘qitish va o‘qish jarayoni ham faoliyatdir. Bunday qarash, ya’ni o‘qitishga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish bilim va ko‘nikma, ularning roli va nisbatiga bo‘lgan qarashlarni o‘zgartiradi.

## **4.1. Talabalarining amaliy ta’limi professional pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim omili**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Globallashuv, amaliy ta’limning nazariy asoslarini shakllantirish, kvazi, kommunikatsiya, texnologiya, amaliy tayyorgarlik.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarining amaliy ta’limi professional pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. Zero, bilim xazina bo‘lsa, shuhbasiz, uning eshigini ochadigan kalit bu – amaliyat, amaliy ta’limdir. Hozirgi vaqtda pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida amaliy tayyorgarligi yuksak, professional pedagogik kadrlar tayyorlash muammosi eng dolzarb masalalardan biridir.

Globallashuv, ayniqsa, pedagogik ta’limdagi keyingi islohotlar jarayonining tezlashishi, zamonaviy o‘qitish texnologiyalar paydo bo‘lishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan amaliyatda keng foydalanish bilan bog‘liq holda, ushbu muammo yanada keskinlashdi. Hozirgi zamonaviy iqtisodiyot uchun qiyin va doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda yangi muammolarni yechishga qodir bo‘lgan kadrlar talab qilindi. Zamon talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash uchun kompetentli o‘qituvchilar kerak bo‘ladi. Hozirda vaqtlia oliy pedagogik ta’lim tizimida davlat siyosatida o‘zgarishlar yuz bermoqda. Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va mazmunini takomillashtirishning yangi-yangi shakllari va usullarini izlash ishlari davom ettirilmoqda. Shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, uning faolligini, va yangi sharoitlarga moslashuvchanligini va moslashishini oshirishga qaratilgan innovation va eksperimental o‘qitish metodlarining o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda universitetlar va oliy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilar bitirganlaridan keyin kasb-hunar kollejlari yoki boshlang‘ich professional ta’lim muassasalari - kasb-hunar maktabi - Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta’lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang‘ich professional ta’lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalarida faoliyat yurtishlari

mumkin. Shu bois, ular amaliyot, amaliy ta’lim, ishlab chiqarish ta’limining ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini, mazkur tushunchalarning mazmun va mohiyati puxta bilishlari, uni tashkil etish va o’tkazish uchun amaliy jihatdan tayyor bo‘lishlari zarur.

Ma’lumki, pedagogik tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish pedagogik hodisalar va jarayonlarning o‘ziga xosligini aniqlashdan boshlanadi. O‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu amaliyot, ammo amaliyotni amaliy bilimlarsiz, amaliy ta’limsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Xuddi ana shu ma’noda, amaliy ta’lim alohida pedagogik reallik bo‘lib, u o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Har qanday ilmiy soha kabi amaliy ta’limi pedagogikasi ham o‘zining tarixiy shakllanishi bosqichlarida amaliy va nazariy yo‘nalishlarda rivojlangan, ba’zan esa turg‘un holatda bo‘lgan. Bunday hollarda nafaqat amaliy faoliyatda bevosita foydalilaniladigan obyektlar, balki fanning rivojlanishi jarayonida aniqlangan yangi obyektlar ham o‘rganilgan.

XX asrning 90-yillarida ta’lim nazariyasi turg‘un holatda edi. Z.A.Reshitova o‘sha davrlarda yuzaga kelgan vaziyatni quyidagicha tavsiflagan edi: «...Ta’lim tizimi tizim hosil qiluvchi omilsiz, ya’ni ta’lim oluvchining faoliyatidan ayri holda qaraldi. Bunday holda, ta’lim oluvchi faoliyati o‘quv jarayonida shakllantirishga yo‘naltirilgan boshqarish obyekti sifatida o‘rganilmaydi. O‘qitish dasturi, uning mazmuni, shakllari, vositalari va usullarida ta’lim oluvchining faoliyatini shakllantirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmaydi. Holbuki uning faoliyati mahsuli ta’lim maqsadlariga mos bo‘lishi lozim.

Bu davrlarda pedagogik ta’lim tizimiga, tizim hosil qiluvchi omil — ta’lim oluvchining faoliyatiga bir tomonlama yondashilardi. Ta’lim dasturi, uning mazmuni, shakli, vositasi va usullarida ta’lim oluvchi faoliyatini shakllantirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmasdi.

Taniqli olim I. Ya. Lerner ta’lim nazariyasi holatini quyidagicha baholaydi: «Eng asosiy masala shundan iboratki, hozirgi vaqtga qadar didaktikada bilimlarning yaxlit tizimi ifoda etilmagan, ya’ni didaktik birliklarning har bir bloki

(yoki birligi) oldingisidan keltirib chiqarilmagan va oldingisi keyingisining mazmunini belgilab bermagan.

Didaktikaning holatini yanada tanqidiy nuqtai nazardan baholab shuni aytish mumkinki, Ya. A. Komenskiyning “Buyuk didaktika” asari yozilganiga ham 300 yildan ko‘proq vaqt o‘tdi, ammo shu vaqtga qadar mukammal ta’lim nazariyasi (hozirgi vaqtda «didaktika» atamasi aynan xuddi ana shunday ta’riflanadi) yaratilmadi, u hozir ham yo‘q. Albatta, biz bunda nazariyani umummaishiy ma’noda (biror hodisani tushuntirishga yo‘naltirilgan qarashlar, tasavvurlar, g‘oyalar majmui sifatida) emas, balki ayni nazariyaning obyekti – borliqning ma’lum sohalarining muhim o‘zaro bog‘liqliklari va qonuniyatları haqida yaxlit tasavvur beruvchi ilmiy bilishni tashkil etish shakli sifatida talqin etishni nazarda tutmoqdamiz. Ammo shuni ham ta’kidlash joizki, bizning firimizcha, SHarqda tarbiya borasidagi didaktika puxta ishlangan. Bunga maqollar, topishmoqlar, matallar, ertaklar, hikoyalari, hikoyatlar, rivoyatlar, masallar, hadislar va boshqalar misol bo‘la oladi.

Agar nazariy bilim holatiga muammo bo‘yicha e’tibor beradigan bo‘lsak, u holda bu yerda turg‘unlik belgilarini yanada aniqroq ko‘rishimiz mumkin. Amaliy ta’lim (ishlab chiqarish ta’limi) nazariyasi bo‘yicha eng ahamiyatli ishlar deyarli XX asrning oxirlarida bajarilgan edi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi: Ishlab chiqarish ta’limi didaktikasi (N.I.Dumchenko, 1973); Kasbiy pedagogikaning aoslari (S.A.Batishev va S.A.Shaporinskiy tahriri ostida, 1977); O‘quv-tarbiya jarayonini ilmiy tashkil etish (S.Ya.Batishev, 1980), Ishlab chiqarish pedagogikasi (S.Ya.Batishev, 1984).

Mamlakatimiz hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlarning keskin o‘zgarishi ta’limning bozor iqtisodiyotidagi o‘rni va rolini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab etdi. Shuning uchun, pedagogik va professional ta’limi sohasidagi nazariy ishlar kasbiy-pedagogik ta’limning mavjud tizimini bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlariga moslashtirish mexanizmlarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan edi. Ammo bunda tadqiqotning metodologik asoslari deyarli o‘zgarmasdan qolgan edi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz olimlari N.N.Azizzodjaeva, B.R.Adizov, Sh.Q.Mardonov, O.Musurmonova, O'.Q.Tolipov, D.Sharipova, Sh.Shodmonova, N.G'.Egamberdieva, A.A.Xoliqov va boshqalar tomonidan pedagogik ta'limi nazariyasi va metodikasi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Lekin hozirgi kunda ham, muhim didaktik muammo, xususan, amaliy ta'lim nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada emas.

Shu bilan birga, iqtisodiyotda bozor munosabatlarining rivojlanishi jarayonida va pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida, bizning nazarimizda, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimida ta'lim berishning samarali tartib-qoidalari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Ular asosida talabalar amaliy bilimlar bilan o'zviy bog'liq nazariy bilimlarni maksimal darajada egallashi kerak. Ayni vaqtda, bu bilimlar hayotda talab etilishi va istiqbolda zarur bo'lishi, ya'ni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatga tez va muvaffaqiyatli moslashishiga imkon berishi lozim.

Amaliy ta'limning nazariy asoslarini shakllantirishda, eng avvalo, quyidagi savolga javob topish lozim: nazariy bilimlar qo'llaniladigan o'sha aniq reallik qanday bo'lmog'i kerak? Boshqacha aytganda, eng birinchi navbatda, «amaliy ta'lim» tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish lozim bo'ladi.

Oliy ta'lim lug'at-ma'lumotnomasi amaliyot, amaliy tayyorgarlik, amaliy ta'lim, ishlab chiqarish ta'limi tushunchalariga quyidagicha ta'riflar berilgan:

amaliyot - 1) insoniyat jamiyati va ongi mavjud bo'lishi hamda rivojlanishi uchun zarur sharoitni yaratishni ta'minlaydigan obyektiv borliqni o'zlashtirish, uni qayta to'zishga yo'naltirilgan kishilarning moddiy faoliyati. Amaliyot - bilimning chinlik mezoni; 2) tajriba, o'quvning asosi sifatidagi ixtisoslik bo'yicha ish, mashg'ulot. Amaliyot – nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash – bu amaliyot deb ataladi.

Amaliy tayyorgarlik - ishlab chiqarish (kasbiy) amaliyotni o'tash jarayonida amaliy malakalar olishga yo'naltirilgan faoliyat, laboratoriya ishlarini, amaliy mashqlarni, kurs loyihalari va ishlarini bajarish.

Amaliy ta’lim, ishlab chiqarish ta’limi – professional ta’lim muassasasidagi pedagogik jarayonning asosiy qismi, uning asosiy maqsadi bo‘lib, ta’lim oluvchilarda muayyan sohaga oid kasbiy mahorat asoslarini shakllantirish hisoblanadi.

Gap shundaki, ta’limning avvalgi tizimida ishlab chiqarish ta’limining barcha turlari, shu jumladan, ishlab chiqarish amaliyoti ham ushbu atama orqali ta’riflangan. Pedagogik ta’limda esa, maxsus fanlar tarkibidagi amaliy ishlar va o‘quv-ishlab chiqarish amaliyotining barcha turlari amaliy ta’lim hisoblanadi.

Ehtimol, «ishlab chiqarish ta’limi» tushunchasining noaniqligi tufayli ishlab chiqarish ta’limi nazariyasi bo‘yicha ko‘p yillar davomida munozaralar yuzaga kelgan. Ba’zi pedagog olimlar nafaqat ishlab chiqarish ta’limi nazariyasini yaratishning imkon yo‘qligini, hatto pedagogik ta’lim jarayonida ishlab chiqarish ta’limini nazariy ta’limdan alohida holda tashkil etish maqsadga muvofiq emasligini asoslashga urindilar. Z.A.Reshetovaning ta’kidlashicha, “bunday yondashuv (faoliyatiy yondashuv - eslatma muallifniki) o‘qitishning nazariy va amaliy mazmunini, aynan maxsus texnologiyaning nazariy kursi va amaliy kursini alohida ajratishni mustasno etadi...”.

Ushbu nuqtai nazarni P. Ya. Galperin ham qo‘llab-quvvatlaydi. U faoliyatning yo‘naltiruvchi asosi haqidagi pedagogik nazariyani yaratgan taniqli olimlardan biridir. Uning e’tirof etishicha, «Ishlab chiqarish ta’limi umumiyligi ta’lim nazariyasidan farqli o‘laroq psixologik-pedagogik nazariyaga ega emas». Bu nazariy jihatdan juda to‘g‘ri fikr.

Uning opponentlari esa ishlab chiqarish ta’limini pedagogik reallik sifatida nazariy jihatdan alohida talqin etish lozimligini e’tirof etadilar. Pedagogik adabiyotlarda ishlab chiqarish ta’limiga quyidagicha ta’rif berilgan...: «ishlab chiqarish ta’limi -bu bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy mahorat asoslarini shakllantirishga imkon beruvchi masalalarni (ishlab chiqarish ta’limi ustasi va talaba tomonidan) yechishning pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan, ilmiy asoslangan tizimidir».

S.A.Shaporinskiy ham ishlab chiqarish ta'limi haqida o'ziga xos fikr bildiradi.

"Eng umumiy holda ishlab chiqarish ta'limi nazariy ta'lim bilan o'zviy bog'liq amaliy ta'lim sifatida, ma'lum kasbni bajarish uchun amaliy bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim sifatida ta'riflanadi. Garchand ishlab chiqarish ta'limi amaliy ta'lim sifatida qarab o'tilsa-da, lekin u nafaqat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, balki ilmiy-amaliy bilimlarni o'zlashtirish masalalarini ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu yerda gap kasbiy-pedagogik ta'limning nazariy tashkil etuvchisi haqida ketmoqda".

Keltirib o'tilgan oxirgi ta'rifdan yaqqol ko'rinish turibdiki, amaliy ta'lim nazariyasining tarfdorlari ham, unga qarshi bo'lganlar bu masalaga turli metodologik nuqtai nazardan yondashganlar.

Amaliy ta'lim nazariyasiga qarshi bo'lgan olimlar faoliyatini yondashuvni e'tirof etganlari holda, quyidagi dalillarni inkor etadilar.

*Birinchidan*, kasbiy faoliyatni mukammal egallash sifat jihatdan mutlaqo boshqa faoliyat - o'quv faoliyati vositasida ta'minlanadi. O'quv faoliyati esa o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

*Ikkinchidan*, o'quv faoliyati shakllari o'zlashtiriladigan kasbiy pedagogik faoliyat shakllariga aynan mos emas. Bo'lajak o'qituvchining amaliy tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirish uchun faoliyatning bir turi(bilish faoliyati)dan boshqa turi(amaliy kasbiy pedagogik faoliyat)ga o'tishni ta'minlash zarur. Bu faoliyatlarda ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, vositalar, predmetlar va natijalar boshqa-boshqa bo'ladi. Amaliy ta'lim nazariyasi tarfdorlarining e'tirof etishlaricha, to'laqonli ishlab chiqarish ta'limi uchun ishlab chiqarish jarayonini qayta tiklash zarur.

Garchand to'la holda bo'lmasa-da, amaliy ta'lim ma'lum darajada ishlab chiqarish mehnati jarayonida amalga oshirilishi kerak. Ammo bu o'qitish paytida real amaliy faoliyat jarayoni qanday amalga oshirilsa, uni hamma vaqt xuddi ana shunday tarzda tiklash kerakligini bildirmaydi. Uni o'quv ustaxonalarida va ba'zan hatto modellar yordamida qayta tiklash mumkin.

Agar ishlab chiqarish ta’limi nazariyasi tarfdorlari nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bu holda didaktik muammo ishlab chiqarish ta’limining metodik tizimini shakllantirish va uni nazariy jihatdan asoslashdan iborat bo‘ladi. Metodik tizim deyilganda ta’lim mazmunini qismlarga ajratish tartibi, uning qismlarini guruhlarga bo‘lish va ularni talabalarining izchil o‘zlashtirishi tushuniladi SHuning uchun, ishlab chiqarish ta’limi mazmunini qismlarga ajratish asosiy metodik masala sifatida qaraladi. Uning yechimi o‘quv jarayonida ishlab chiqarish jarayonini qayta tiklash imkoniyatini, va binobarin, ishlab chiqarish ta’limining prinsipial jihatdan amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Bizning nazarimizda, pedagogik ta’limi uchun dolzarb hisoblangan ushbu muammo industrial ishlab chiqarish sharoitida kasbiy faoliyatning barcha sohalarida mehnatning tobora intellektuallashishi jarayonini, va binobarin, kasb ta’limining prinsipial jihatdan mutlaqo boshqa shakl va usullarini talab etuvchi ommaviy kasblarni qamrab ololmaydi.

Hozirgi vaqtida amaliy ta’lim haqida zamonaviy qarashlar shakllanmoqda. A. A.Verbitskiy talabalarining amaliy ta’lim jarayonidagi faoliyatini «kvazikasbiy faoliyat» deb ataydi. “Kvazi kasbiy faoliyat” talabalarining o‘quv faoliyatidan sekin-asta kasbiy faoliyatni amalga oshirishga o‘tishni bildiradi. Bunda talabalar kasbiy faoliyatni bevosita amalga oshirmaydilar, balki unga taqlid(imitatsi) qiladilar.

**Kvazi** (lat. **quasi** - go‘yo, go‘yoki) murakkab so‘zlarning bir qismi bo‘lib, «haqiqiy emas», «mavhum» kabi ma’nolarni, «imitatsiya» (lat. Imitatio – taqlid) nimagadir yoki kimgadir taqlid qilishni, qayta tiklashni, qalbakilikni bildiradi.

A.Verbitskiy “imitatsiya” atamasini o‘quv faoliyatiga nisbatan qo‘llaganda quyidagilarni nazarida tutadi: o‘quv jarayonida kasbiy faoliyatni qayta tiklash - o‘qitishning tashkiliy shakli; taqlid - o‘qitish jarayonida amaliy bilimlarni shakllantirish usuli. Bu borada u haq albatta. Ammo gap «haqiqiy bo‘lmagan» faoliyat, ya’ni amaliy ta’lim haqida ketsa, uning fikriga qo‘shilib bo‘lmaydi.

Biz oliy ta’lim tizimida amaliy ta’lim o‘zining mazmuni, shakli va usullariga ko‘ra, talabalar faoliyatining mutlaqo mustaqil turi ekanligini e’tirof etamiz. SHuni

ta'kidlash joizki, oliy pedagogik ta'limda «ishlab chiqarish ta'limi» tushunchasiga qaraganda «amaliy ta'lim tushunchasi» kengroq ma'noga ega.

Atamalar borasida tushunmovchiliklarning yuzaga kelmasligi uchun ba'zi mualliflar «ishlab chiqarish ta'limi» tushunchasini quyidagi ma'noda izohlash lozimligini uqtirib o'tadilar: “..o'qishni ta'lim muassasasidan tashqarida, ya'ni ishlab chiqarish korxonasida tashkil etish”. Kasb ta'limining amaliy qismini belgilash uchun «kasbiy-amaliy ta'lim» yoki «kasbiy faoliyatga amaliy tayyorlash» atamalaridan foydalaniladi. Bizning nazarimizda, bu unchalik o'rinni emas, chunki u yuqorida keltirib o'tilgan ta'riflarga hech qanday qo'shimcha kiritmaydi.

Ilmiy bilimlarning boshqa sohalaridagi “amaliyot” tushunchasi orqali ham “amaliy ta'lim” tushunchasini ta'riflash mumkin. Ma'lumki, amaliyot kategoriyasi falsafada markaziy o'rindan birini egallaydi. Hozirgi zamon sotsiologiyasida ham amaliyotchi kontsepsiysi yuzaga keldi va rivojlanmoqda. Amaliyotchi kontsepsiysi nuqtai nazaridan qaraganda, individ, eng avvalo, faoliyat jarayonida qo'llaniladigan ko'nikma va malakalarning ma'lum tizimini eltuvchi hisoblanadi. Bu tajriba, ko'nikma va malakalar tizimi, amaliy bilimdir. U birlamchi hisoblanadi va har qanday “nazariy” bilishning zaminini tashkil etadi, ilmiy, falsafiy va axloqiy refleksiyaning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Izohli lug'atlarda amaliyotga quyidagicha ta'rif berilgan:

1) amaliyot - faoliyatning biror sohasidagi usul va ko'nikmalar yig'indisi.

Faoliyatning biror sohasida orttirilgan tajriba;

2) amaliyot - ish, mashg'ulot, tajriba, ko'nikma manbai sifatidagi biror sohada bilimlarning qo'llanilishi.

Bu ta'riflar asosida ta'kidlab o'tish mumkinki, amaliy ta'limning asosiy maqsadi talabalarni amaliy faoliyatga o'rgatishdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Amaliy ta'limning nazariy asoslarini shakllantirish nimalardan iborat.
2. Pedagogik ta'lim tizimiga, tizim hosil qiluvchi omillarni ko'rsating.
3. Izohli lug'atlarda amaliyotga berilan ta'riflardan misollar keltiring.

## **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** Talabalarining amaliy ta’limi professional pedagogik kadrlar tayyorlashning muhim omili ekanligini ta’lim texnologiyasi yordamida ifodalang.

**2-topshiriq.** Amaliy ta’lim nazariyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar haqida aytib bering.

### **4.2. Faoliyatli yondashuv amaliy ta’limning metodologik asosi**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Faoliyatli yondashuv, ta’lim jarayoni, faoliyat usullari, faoliyat nazariyasi, dinamik usul, maqsadlar, vositalar, masalalar, faoliyat maqsadlari, natijalar.

Faoliyatli yondashuvni amaliy ta’limning metodologik asosi sifatida qabul qilish mumkin. Bu - amaliy ta’limning nazariy asoslarini ishlab chiqishning zaruriy sharti. Faoliyatli yondashuv o‘qitish tizimida bundan qariyb qirq yil muqaddam yuzaga kelgan edi. U ko‘plab taniqli pedagog olimlarning ishlari tufayli dunyo miqyosida e’tirof etilgan nazariyaga aylandi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, L.S.Rubinshteyn, B.T.Badmaeva, P.Ya.Galperin, V.V.Javidov, Ye.I.Mashbina, Z.A.Reshetova, N.F.Talizina, L.F.Fridman, D.B.Elkonina va boshqalar).

Faoliyatli yondashuv ta’lim jarayonida talabalarda faoliyatni amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. O‘qitish va o‘qish jarayoni ham faoliyatdir. Bunday qarash, ya’ni o‘qitishga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish bilim va ko‘nikma, ularning roli va nisbatiga bo‘lgan qarashlarni o‘zgartiradi. faoliyatli yondashuvga muvofiq bilim va ko‘nikmalar yoki talabalarning o‘sha ko‘nikmalardan foydalanishi talab etiladigan ish-faoliyat o‘quv jarayonida yaxlit holda qaraladi. Bu shu bilan belgilanadiki, bilimlarni o‘zlashtirish ayni bir vaqtda ulardan foydalanish (faoliyat) usullarini o‘zlashtirish bilan birga amalga oshiriladi.

So‘nggi yillarda faoliyatli yondashuvga pedagogik ta’limda ham katta ahamiyat berila boshlandi. Taniqli pedagog olim R.X.Jo‘raev bu borada quyidagilarni yozadi: «talabalarning faoliyati - uning o‘quv voqeligi bilan o‘zaro

ta'siri o'qitishning har bir elementida, bosqichida, momentida namoyon bo'ladi. O'quv faoliyati bo'limgan joyda - o'qitish ham bo'lmaydi.

Bundan kelib chiqadiki, kasb pedagogik ta'limda faoliyat usullarini o'zlashtirish birlamchi maqsad bo'lib, amaliy ta'limning mazmuni amaliy faoliyat usullari va amaliy bilimlar tizimidan iboratdir.

Shunday qilib, bilim ta'limning maqsadiga emas, balki vositasiga aylanadi. Bilimlar amallarni bajarish, amaliy ish qilish, faoliyatni amalga oshirish uchun o'zlashtiriladi.

O'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, talabalar nafaqat faoliyat subyekti, balki ayni vaqtida, uning obyekti ham hisoblanadi va shuning uchun ham, o'quv faoliyati faoliyatning boshqa turlaridan farq qiladi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, o'quv faoliyatining maqsadi subyekt ta'sirlashadigan tashqi olam obyektlarini o'zgartirish emas, balki uning o'zini o'zgartirish hisoblanadi.

Faoliyat subyektining o'zgarishi uning ma'lum bilimlarni va bu bilimlarga mos keluvchi faoliyat usullarini o'zlashtirganini bildiradi. Ta'lim jarayoni aynan shuning uchun tashkil etilib, o'quv faoliyatining subyekti tomonidan bilimlarning o'zlashtirilishi va faoliyat usullarining egallanishi uning mahsuli hisoblanadi. SHunday qilib, o'quv faoliyati natijasini uning subyektidan ayri holda qarab bo'lmaydi. Bu o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatdir.

Faoliyat nazariyasidan ma'lumki, faoliyat maqsadiga darhol erishilmaydi, avval ko'plab oraliq maqsadlariga erishiladi. Har bir oraliq maqsadiga ayni faoliyat kechayotgan ma'lum shart-sharoitlarda erishiladi. Bu shuni bildiradiki, faoliyatni bevosita amalga oshirish uchun u amalga oshiriladigan shart-sharoitlarni oldidan aniqlash lozim. Faoliyat nazariyasiga ko'ra, subyekt faoliyatining yo'naltiruvchi asoslarini shakllantirishi zarur.

Bundan kelib chiqadiki, faoliyat ma'lum shart-sharoitlar asosida amalga oshiriladi. Faoliyatning maqsadi o'quv masalalarini yechish shaklida ifodalanadi. Demak, o'quv faoliyati o'quv masalalarini yechish shaklida tashkil etilishi lozim.

Ammo o‘quv masalalarini yechish faoliyatning qabul qilingan usuliga bog‘liq ravishda bajariladigan ish tizimini talab etadi.

**Faoliyat usullari** - bu hamma vaqt qayta o‘zgartirilgan bilimlar, o‘zlashtirilgan bilimlar esa, oxir-oqibatda faoliyat usuliga, amaliy faoliyat ko‘nikmasiga, masalalarni yechish ko‘nikmasiga aylanadi.

**Faoliyat nazariyasi** nuqtai nazaridan haralganda, ko‘nikma -bu subyekt tomonidan o‘zlashtirilgan faoliyat usuli. U holda yechim natijasi faoliyat maqsadlari bilan mos keladi. Ammo o‘quv faoliyati vositasi va o‘quv masalalarini yechish vositasi bir-biriga aynan teng emas. Bu yerda masalalarni yechish natijasi(javob) emas, balki natijaga erishish jarayoni muhimdir.

O‘quv faoliyatini tuzilmalashtirishni uning tarkibi, ya’ni ish va amallar orqali amalga oshirish mumkin. Chunki ular tufayli faoliyat maqsadiga erishiladi. Bu esa butun faoliyat yo‘naltiruvchi asosining mukammal sxemasini to‘zishga imkon beradi. So‘ngra faoliyat amalga oshiriladigan shart-sharoitlarni e’tiborga olgan holda, har bir amalning sxemasini alohida-alohida to‘zish mumkin. Faoliyat nazariyasida faoliyatni tuzilmalarga ajratishning ko‘plab usullari ishlab chiqilgan. Har bir usulda faoliyatning turli komponentlariga va ularning o‘zaro bog‘liqliklariga e’tibor qaratiladi (4.2.1-jadval).

#### 4.2.1-jadval

#### **Faoliyatni tuzilmalarga ajratish usullari**

Usullar	O‘quv faoliyati komponentlari		
Funksional	Motivlar	Bilimlar	Ish-harakat
Dinamik	Maqsadlar	Vositalar	Masalalar
Operatsion	Bilimlar	Operatorlar	Ish-harakat

**Funksional usul** orqali faoliyat komponentlari (bilim, ish-harakat va motivlar) o‘rtasidagi bog‘liqliklar ko‘zatiladi. Bilimlarni o‘zlashtirish faoliyatni o‘zlashtirish bilan o‘zaro bog‘liqlikda qarab o‘tiladi. Faoliyatni o‘zlashtirish bilimlar, shuningdek, motivlar orqali ta’minlanadi. Motivlar nafaqat faoliyatning

shakllanishiga ta'sir qiladi, balki ularning o'zlari ham bilim va ko'nikmalar ta'sirida bo'ladi.

**Dinamik usul** orqali maqsadlar, vositalar va masalalar o'rtasidagi bog'liqliklar o'r ganiladi. Bu faoliyat maqsadlari, vositalari va natijalarining o'zaro o'tishlari dinamkasin oydinlashtirishga imkon beradi.

**Operatsion usulda** faoliyat komponentlari sifatida operatorlar va ularni boshqarish dasturi kiritiladi. Bu komponentlar faoliyatni bilimlar bilan ta'minlaydi.

O'quv faoliyatini tuzilmalarga bunday ajratish uning protsessual o'ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirishga imkon beradi. Ular o'quv masalalarini yechish jarayonini loyihalashtirish va bu jarayonni boshqarish uchun prinsipial ahamiyatga ega. Bunda o'quv masalasini yechishning har bir bosqichi tegishli operator yordamda tavsiflanadi.

O'quv faoliyati nazariyasida faoliyatning funksional tuzilmasi eng ko'p tadqiq etilgan.

Turli tadqiqotchilarining qarashlarini umumlashtirib, biz o'quv faoliyatining zamonaviy funksional tuzilmasini taklif etamiz (4.2.2-jadval).

#### 4.2.2-jadval

#### **O'quv faoliyatining funksional tuzilmasi**

Ye.I.Mashbits	N.F.Talizina	P.Ya.Galperin	Zamonaviy
Mazmuniy			Mazmuniy
Motivatsion		Motivatsion	Motivatsion
	Yo'naltiruvchi	Yo'naltiruvchi	Yo'naltiruvchi
Operatsion	Ijro etish	Ijro etish	Ijro etish
	Nazorat-to'zatish	Nazorat	Nazorat-to'zatish

O'quv faoliyatining mazmuniy komponenti uning asosini tashkil etadi, chunki ta'lim aynan mazmunni o'zlashtirish uchun tashkil etiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, ta'lim mazmuni – bu o'zlashtiriladigan ish-faoliyat usullarining ma'lum tizimi va bu tizimni o'zlashtirishni ta'minlaydigan bilimdan iborat.

O'quv faoliyatidagi eng muhim masala - bu motivatsiyani shakllantirish hisoblanadi, chunki uning shakllanganlik darjasini faoliyat subyektida qadriyatiy yo'nalishlar tizimining shakllanganligini bildiradi. Ana shu yo'l bilan talaba qo'yilgan maqsadga erishish uchun faoliyatni amalga oshirishga tayyorlanadi. U faoliyat maqsadini, uning obyektini, ishni bajarish jarayonida tayaniladigan bilimlar tizimini anglab yetadi. Ta'lim oluvchi faoliyat rejasini to'zadi, uni bajarish tartibini, amallar tarkibi va izchilligini belgilaydi.

Faoliyatning ijro etish tashkil etuvchisi bevosita faoliyat obyektlarini o'zgartirishni va natijalarga erishishni ta'minlashga xizmat qiladi. Nazorat-to'zatish kiritish komponenti faoliyat jarayonini boshqaradi, ya'ni faoliyat natijasining uning maqsadi bilan bog'liqligi masalasini yechadi.

Masala yechimining to'g'ri-noto'g'riliqini nazorat qilish ijro etuvchi ongingin o'z faoliyatiga yo'nalganligini va uning amalga oshirilayogan ishlarni umumlashtira olishini bildiradi.

Faoliyatning yo'naltiruvchi tashkil etuvchisi ko'p hollarda faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Faoliyatning yo'naltiruvchi asosining samaradorligi bilimlarning umumiyligi darajasiga va faoliyatni amalga oshirish uchun obyektiv zarur bo'lgan shart-sharoitlarga bog'liq.

Aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasida e'tirof etilishicha, izchil ish-harakat sifatidagi o'quv faoliyati asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunda ish-faoliyat usulini shakllantirish o'quv faoliyatining shakliga bog'liq bo'ladi. U ish faoliyatini xarakterlaydi. Subyektiv nuqtai nazardan qaralganda esa, bu faoliyatning subyekt tomonidan o'zlashtirilishi darajasini belgilaydi.

### **Faoliyatning asosiy shakllari qo'yidagilar hisoblanadi:**

- pertseptiv (sensor-motor) shakli;
- moddiy (moddiylashgan) shakli;
- nutq shakli;
- mnemik shakli;
- mental (aqliy) shakli.

Faoliyatning pertseptiv va harakat shakllari ta’lim oluvchining ongida o‘quv materialining o‘rganiladigan tuzilmaviy birligi timsoli (obrazi), ya’ni tasavvurning yuzaga kelishiga imkon beradi. Sensor va motor faoliyatlar predmetli faoliyatning kengroq ifodalangan shaklidan iborat. Amaliy ta’limda moddiy vositalar yordamida moddiylashtirilgan faoliyat asos hisoblanadi. Faoliyat real predmetlar bilan amalga oshiriladi. Maqsad ularni o‘zgartirishdan iborat.

Predmetlarning o‘zлari bilan emas, balki ularning modellari bilan ham faoliyatni amalga oshirish mumkin. Bunday holda faoliyat moddiylashtirilgan deyiladi. Faoliyatni moddiy(moddiylashgan) tarzda shakllantirish amaliy holda, ya’ni uning tarkibiga kiritilgan amallar ketma-ketligida bajariladi. Faoliyat usulini shakllantirishning keyingi bosqichi uning nutqiy shakli hisoblanadi.Faoliyatni egallashning bu bosqichi shu bilan xarakterliki, ta’lim oluvchi tashqi moddiy yoki moddiylashgan obyektlarsiz ham faoliyatni shakllantirishi mumkin. Faoliyatni nutq shakliga o‘tkazish(aylantirish) nafaqat nima qilish kerakligi haqida hikoya qilib berishni, balki faoliyatni nutq shaklida amalga oshirish ko‘nikmasini bildiradi. Faoliyatni nutq shakliga aylantirish(o‘tkazish) uni o‘zlashtirish bosqichida qator xususiyatlarga ega:

1. Zarur bilimlar faollashtiriladi.
2. Maxsus atama qayta tiklanadi.
3. Faoliyatni individual holda amalga oshirish tezlik-maromi shakllantiriladi.

Agar ta’lim oluvchi faoliyat mazmuniga hamda bu mazmunning so‘zlarda ifodalanishiga tayansa, faoliyatni nutq shakliga aylantirish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Faoliyat(fikriy amal)ni nutq shakliga o‘tkazish uchun albatta gaplashish lozim.

**Mnemik faoliyat** - (inglizcha mnemonic activity) - axborotni eslab qolish va qayta tiklashga yo‘naltirilgan faollikdir. Mnemik faoliyat ish mazmunini tizimlashtirishga va mnemosxemalar (ya’ni faoliyat tarkibi va tuzilmasini qayta tiklaydigan sxemalar)ni to‘zishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlar ketma-ketligini qamrab oladi.

**Faoliyatning mental shakli** faoliyat usulini «tashqaridan ichkariga qayta o‘zgartirish» jarayonining yakuniy bosqichi hisoblanadi. Faoliyatning mental shaklini o‘zlashtirgan talaba ishni mavjud obyektlar timsollariga xayolan tayangan holda bajara oladi. Faoliyatni o‘zlashtirishning ushbu darajasida tasavvur, tushuncha, fikriy amallar uning to‘zulmaviy elementlari hisoblanadi. Ta’kidlab o‘tish joizki, faqat yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ketma-ketlikda shakllangan mental faoliyatgina yuqori darajada umumlashgan hisoblanadi. Shunday qilib, aniq e’tirof etish mumkinki, faoliyatning yo‘naltiruvchi qismi - bu mental faoliyat shaklida majud bo‘lgan bilimlardan boshqa narsa emas, ko‘nikma -faoliyatning ijro etish qismi bo‘lib, u turli shakllarda (faoliyatlar, xatti-harakatlar va boshqalarda) namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda ta’lim nazariyasida e’tirofga sazovor bo‘lgan faoliyatiy nuqtai nazardan yondashuvni amaliy ta’limning metodologik asosi sifatida qabul qilib, uning muhim didaktik masalalarini hal etish mumkin.

**Pedagogik amaliyat** – pedagogika oliy o‘quv yurtlari va pedagogika kollejlaridagi o‘quv jarayonida egallangan bilimlarni qo‘llashga qaratilgan ta’lim jarayonining tarkibiy qismi. Bo‘lajak o‘qituvlarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi sifatini tahlil etish shundan dalolat beradiki, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari amaliy faoliyatini tashkil etish va olgan nazariy bilimlarini qo‘llay olishga hamma vaqt ham qodir emas ekan.

Kasbiy pedagogik amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish uning to‘laligini (barcha asosiy kasbiy-pedagogik vazifalarni bajarishga amaliy tayyorgarlikni) ta’minalashni nazarda tutadi. Ushbu muammoni yechishga zamonaviy yondashuvlardan biri ta’lim jarayonida kasbiy-pedagogik faoliyatni modellashtirish g‘oyasi hisoblanadi.

Kasbiy pedagogik amaliy faoliyatni modellashtirish – bu ta’lim mazmunida va talabalarning o‘quv faoliyatida uning shunday tarzda aks etishiki, birinchidan, bu ularga yaxlit kasbiy-pedagogik faoliyat haqida to‘g‘ri va to‘la tasavvur beradi (maqsad qo‘yishdan to faoliyat jarayoni va natijalarni mustaqil tahlil etishgacha), ikkinchidan, talabalarga ta’lim jarayonida kasbiy faoliyat usullarini shunchalik

darajada to‘la o‘zlashtirishga imkon beradiki, natijada ular o‘zlarining kasbiy-pedagogik vazifalarini real sharoitda hech qiyalmasdan bajara oladilar.

Modellashtirish, bir tomondan, (mutaxassislar tayyorlanadigan) kasbiy-pedagogik faoliyatni (faoliyat modeli), boshqa tomondan esa, ta’lim va o‘qitish mazmunini tizimli qarab o‘tishni talab etadi (kasbiy tayyorgarlik modeli). U yoki bu obyektning hajmi kattaligi va ko‘p qirraligi sababli uni faoliyat va tayyorgarlikning eng muhim xususiyatarini aks ettiruvchi model ko‘rinishida taqdim etish mumkin.

Biroq ta’lim jarayonida kasbiy-pedagogik faoliyatni modellashtirish o‘qitish mazmunini ishlab chiqish jarayonidan farqli o‘laroq o‘ziga xos pedagogik texnologiya sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mohiyati shundan iboratki, talabalar ta’lim jarayonida maxsus yaratilgan shart-sharoitlarda kasbiy faoliyatni qayta tiklaydilar. Bu faoliyat shartli ravishda kasbiy xarakterga ega bo‘ladi. Pedagogik masalalarni yechishda kasbiy-pedagogik faoliyatning faqat eng muhim xususiyatlarigina aks etadi.

Kasbiy-pedagogik amaliy faoliyatning modelini qurish zarurati qator holatlarga ko‘ra taqozo etiladi. Birinchidan, bunday model talabalarga kasbiy faoliyatning yaxlit mazmuni, uning ichki tuzilmasi, elementlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi haqida tasavvur beradi. Ikkinchidan, bunday modelni ishlab chiqish kasbiy faoliyatning ayrim jihatlari haqidagi axborotlarni (turli o‘quv fanlarida keltirib o‘tilgan) birlashtirishga imkon beradi. Shu yo‘l bilan o‘quv materialini tizimlashtirish, takrorlanishlarni bartaraf etish, yetishmayotgan ma’lumotlarni aniqlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi.

O‘quv-kasbiy masalalarning tarkibi, mazmuni va modelining ketma-ket holda talabalarga taqdim etilishi kasbiy faoliyatning moddiy ifodalanishidir. Ular yaxlit holda, barcha asosiy pedagogik vaziyatlarni qamrab oladi. Ularni yechish esa, kasbiy-pedagogik faoliyat mohiyatini tashkil etadi.

Shunday qilib, amaliy ta’lim metodikasi va texnologiyasi tipik kasbiy vaziyatlarni aniqlashtirishga, ularni pedagogik vaziyatga oid masalalarga aylantirishga, amaliy ta’lim mazmuni doirasida ushbu masalalarning o‘rnini

aniqlashga, aniq mazmunga mos bo‘lgan o‘qitish usullari va shakllarini tanlashga olib keladi. Qarab o‘tilayotgan yodashuv o‘qitish usullari va shakllari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan amaliy ta’limni shakllantirish hamda joriy etishni birlashtiruvchi masala qo‘yish tamoyildan boshqa narsa emas.

### **Nazorat savollari:**

1. Faoliyatli yondashuvni amaliy ta’limning qanday asosi sifatida qabul qilish mumkin.
2. Faoliyatning asosiy shakllarini izohlang.
3. Kasbiy pedagogik amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishga oid fikrlaringizni bayon eting.
4. Kasbiy pedagogik amaliy faoliyatni modellashtirish deanda bimalarni tushunasiz.
5. O‘quv-kasbiy masalalarining tarkibi, mazmuni va modelining ketma-ket holda talabalarga taqdim etilishi xaqida bayon eting.

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** Faoliyatli yondashuv amaliy ta’limning metodologik asosi ekanligini texnologiya asosida yoriting.

**2-topshiriq.** Pedagogik amaliyot va uni tashkil etish haqida fikrlaringizni bayon eting.

## V BOB.

---

# TALABALARNI INNOVASION FAOLIYAT VA PEDAGOGIK VAZIYATGA OID MASALALARNI YECHISHGA AMALIY TAYYORLASH MODELI

### *Bobning qisqacha mazmuni*

Ushbu bobda ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning innovation faoliyati; talabalarning innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarini yechishga tayyorgarligi bo'yicha quyidagilar o'rin olgan:

Bo'lajak o'qituvchining innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarini yechishga tayyorgarligi samaradorligini quyidagi tashkil etuvchilarning birligi belgilab beradi: pedagogik yangilikka va pedagogik vaziyatga oid masalalarga ijodiy munosabatning mavjudligi; bo'lajak o'qituvchining ta'lim muassassalarida innovation faoliyatni amalga oshirishga va pedagogik vaziyatga oid masalalarini yechishga nazariy jihatdan tayyorgarligi (pedagogik innovasiya metodologiyasi va metodikasi, innovation jarayonlarning mohiyati, innovation tizimlarning xususiyatlari va boshqalarni bilishi); bo'lajak o'qituvchining innovation faoliyatga amaliy tayyorgarligi (pedagogik mahoratning mavjudligi) va pedagogik vaziyatga oid masalalarini yechishga qobiliyati

Bo'lajak o'qituvchilarning innovation pedagogik faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarini yechishga tayyorgarligi to'zilishi va mazmuni murakkab psixologik-pedagogik tizim bo'lib, motivatsion, mazmuniy va protsessual komponentlarning birligi bilan xarakterlanadi: bo'lajak o'qituvchilarning innovation pedagogik faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarini yechishga tayyorgarligining psixologik jihatlarini qamrab oluvchi emosional salohiyati; zarur bilimlarga asoslangan intellektual salohiyati; bo'lajak o'qituvchining innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarini yechishga tayyorgarligining motivatsion, rolli, yetakchi tashkil etuvchilarni o'z ichiga olgan boshqaruv salohiyati.

## **5.1. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarining innovation faoliyatga tayyorlash**

**Tayanch so‘z va iboralar:** bo‘lajak o‘qituvchining ta’lim muassassalarida innovation faoliyati, pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish, nazariy, metodologik, umumiy nazariy va innovation tayyorgarlik.

Bo‘lajak o‘qituvchining innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligi samaradorligini quyidagi tashkil etuvchilarning birligi belgilab beradi: pedagogik yangilikka va pedagogik vaziyatga oid masalalarga ijodiy munosabatning mavjudligi; bo‘lajak o‘qituvchining ta’lim muassassalarida innovation faoliyatni amalga oshirishga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga nazariy jihatdan tayyorgarligi (pedagogik innovasiya metodologiyasi va metodikasi, innovation jarayonlarning mohiyati, innovation tizimlarning xususiyatlari va boshqalarni bilishi); bo‘lajak o‘qituvchining innovation faoliyatga amaliy tayyorgarligi (pedagogik mahoratning mavjudligi) va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga qobiliyati (5.1.1-jadvalga qarang).

### **5.1.1-jadval.**

<b>Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash komponentlari</b>		
Motivatsion	Mazmuniy	Protsessual
Pedagogik innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga qiziqishning mavjudligi (pedagogik innovasiyaga ijobjiy munosabat)	Bilimlarnig sohalari (nazariy tayyorgarlik)	Metodlarni egallash (amaliy tayyorgarlik)
Innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarlik salohiyatlari		
Emotsional	Intellektual	Boshqaruv

**Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligi tuzilmasi va mazmuni**

Bo'lajak o'qituvchining psixologik-pedagogik va mazmuniy komponentlarning birligi bilan xarakterlanadigan murakkab psixologik-pedagogik tizim sifatidagi innovasion faoliyatga tayyorgarligi tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish zarur. Pedagogik ta'limni modernizatsiyalash sharoitida talabalar (bo'lajak o'qituvchi)ning umumta'lim maktabidagi innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligi (boshqa har qanday tayyorgarlik singari) motivatsion, mazmuniy va protsessual komponentlarni o'z ichiga oladi.

Ba'zi tadqiqotchilar irodaviy va baholash komponentlarni ham ajratib ko'rsatadi. Ana shundan kelib chiqqan holda, biz bo'lajak o'qituvchining innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligini deganda ushbu faoliyatning barcha komponentlari (motivatsion, mazmunli, protsessual)ni egalaganligi va tayyorgarlikni bo'lajak o'qituvchisi shaxsining integrativ sifati tarzida tushunamiz. Bo'lajak o'qituvchining innovasion faoliyatga tayyorgarligi tuzilmasi va mazmuni parametrlari hissiy salohiyat majmui (o'qituvchining psixolik jihatlari)ni, intellektual salohiyatining majmui (zarur bilimlarga tayaniladigan), boshqaruv salohiyati majmui (motivatsion, roli, yetakchilik tashkil etuvchilarini) ni o'z ichiga oladi

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish natijasida va o'qituvchi-novatorlar tajribasiga asoslanib va tadqiq etilayotgan tayyorgarlikning komponentlari to'g'risida yuqoridagi bayon etilgan ma'lumotlarni hisobga olgan holda, uning hajmini quyidagicha ifodalash mumkin:

1) bo'lajak o'qituvchining innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga qadriyatiy yo'nalganligi, pedagogik yangiliklarga ijodiy munosabatning mavjudligi, o'qitish va tarbiyalash jarayoni samaradorligini oshirish uchun pedagogik yangiliklarning zarurligi va ahamiyatini tushunishi;

2) pedagogik innovasiyalar va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish metodolgogiyasini, o'quv jarayonida pedagogik yangiliklarni ishlab chiqish va amalda tatbiq etish metodikasini bilish, innovasion jarayonlarning psixologik - pedagogik qonuniyatlarini bilish;

3) innovasion va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish bo‘yicha tajribani o‘zatish, o‘quv jarayonida pedagogik yangiliklarni rejalashtirish, rivojlantirish va bevosita joriy, pedagogik eksperimentlarni o‘tkazish bo‘yicha ko‘nikmalarining mavjudligi.

Oliy ta’lim tuzilmasini isloh qilish, pedagogik ta’limni modernizatsiyalashning hozirgi sharoitida ta’lim sifatini, bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish pedagogik jarayonni takomillashtirish va innovasion texnologiyalarni joriy etish bilan birgalikda bo‘lajak o‘qituvchilarni umumta’lim mакtablaridagi innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligini shakllantirishda Davlat ta’lim standartlarining ham imkoniyatlarini aniqlashga ehtiyoj tug‘iladi. SHuni inobatga olgan holda, biz bo‘lajak o‘qituvchilarning umumta’lim mакtabidagi innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligini shakllantirish jarayonining nazariy asoslarini asoslash, shuningdek quyidagilar o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida DTS larning potensiol imkoniyatlarini tahlil qildik:

- oliy ta’lim muassasalari sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodologik, umumiyl nazariy va innovasion tayyorgarligi zarurligi bilan;
- DTSning xilma-xilligi va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning qiyinligi sababli yuzaga keladigan bilimlarni doimiy ravishda kengaytirish va konkretlashtirishga obyektiv ehtiyoj bilan;
- Davlat ta’lim standartlari talablari va bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllangan psixologik-pedagogik, metodik, maxsus, innovasion bilim, ko‘nikma, malakalar darajasi bilan;
- o‘quv rejalar, dasturlar, darsliklar va pedagogik fakultetlar o‘quv-moddiy bazasining didaktik, metodik imkoniyatlari va bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’lim muassasalaridagi innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligiga zamonaviy talablari bilan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning metodologik, umumiyl nazariy va innovasion tayyorgarligi o‘rtasidagi ziddiyatni nazariya va amaliyot o‘rtasidagi maqbul

bog‘lanish orqali hal etish mumkin. Bu yerda didaktikaning asosiy tamoyili - pedagogik innovatika nazariyasi va pedagogik yangiliklarni amaliy joriy etish o‘rtasidagi bog‘liqliklar ko‘zatiladi. Nazariya bo‘lajak o‘qituvchilarning innovasion faoliyatni asosini tashkil etuvchi integrativ bilimlarning shakllanishini ta’minlaydi. Ushbu tamoyil integrativ bilimlar, tizimlilik konstruktivlik va natijaviylik yordamida (avvalgidek, nomutaxassislik + mutaxassislik asosida emas) "mutaxassislik + o‘qitish texnologiyasi" tizimi asosida amalgalash oshiriladi. Tizimlilik nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash texnologiyasining bir necha jihatlariga ega.

Pedagogik mutaxassisliklar uchun turli o‘quv rejalar, dasturlar, darsliklarni tahlil qilib, umumlashtirilgan holda shuni xulosa qilish mumkinki, ularda pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali amaliy kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga deyarli e’tibor qaratilmagan. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida" gi yangi qonuni talablari va pedagogik innovatika sohasidagi ilmiy yutuqlar asosida yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqishni maqsadga muvofiqroq deb hisoblaymiz.

Qo‘yilgan tizimli yondashuvning eng muhim vazifasi – bu o‘rganilayotgan pedagogik hodisalarini modellashtirish hisoblanadi. Ushbu hodisalar va pedagogik o‘zgarishlar natijasida o‘qitish va tarbiyalash jarayoni jadallashtirilib, ta’lim oluvchilarda innovasion bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar shakllantiriladi. Bizning tadqiqotimizda o‘qituvchining kasbiy-malakaviy xususiyatlarini tahlil etish va o‘rganish muhim metodologik shart sifatida qabul qilingan va u hozirgi zamон sharotida bo‘lajak o‘qituvchini innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modelini ishlab chiqish uchun ham nazariy, ham amaliy darajada muhim shart-sharoitlar yaratadi.

Bo‘lajak o‘qituvchini innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modeli mutaxassislar - fan o‘qituvchilari va ular faoliyat

ko‘rsatayotgan muhit (ijtimoiy va kasbiy shart-sharoit)ni tahlil qilish asosida ishlab chiqildi. Bo‘lajak o‘qituvchini innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish o‘rganilayotgan muammoga kengroq nazar tashlash, oliv ta’lim muassasasi bo‘limlari ishlarining sifatini baholashga imkon beradi va standart sifatida model yaratish asosida oliv maktab o‘zining rivojlanishi yo‘nalishini belgilash, tashkil qilish va progozlashtirish mumkin.

O‘qituvchining kasbiy-malakaviy xarakteristikasini tizimli-to‘zulmaviy tahlil etish va o‘rganish talabalarni umumta’lim maktablaridagi innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali ularning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modelini ishlab chiqish uchun zaruriy asoslarni yaratdi.

Biz ishlab chiqqan model bo‘lajak o‘qituvchilarni innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali ularning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishni murakkab muammolarini yechishning dastlabki bosqichi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tuzilmaviy-mazmuniy model va innovasion faoliyat yo‘nalishlarini hisobga olgan holda, bo‘lajak o‘qituvchini innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishni jarayonini qurish - bunday tayyorgarlikning asosiy subyektlari komponentlari, ularning maqsadlari, funksiyalari va o‘qituvchi-navotor shaxsini shakllantirishda maqbul natijalarga erishish maqsadida foydalaniladigan vositalar birligini ta’minlashdir.

Shu bilan birga, nafaqat keng ma’noda ta’limiy, balki tarbiyalash, rivojlantirish, shakllantirish, boshqarish asosiy funksiyalar, shuningdek bo‘lajak o‘qituvchini innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning tuzilmaviy-mazmuniy modeli ishlashini ta’minlaydigan va o‘z ichiga normativ-huquqiy, dasturiy-texnologik va metodik ta’minotni, pedagogik rahbarlik va

umuman butun jarayonni boshqarishni o‘z ichiga olgan pedagogik shartsharoitlarni yaratish ham asosiy funksiyalar hisoblanadi (5.1.1-rasmga qarang).

Ijtimoiy ehtiyoj	Ijtimoy-madaniy shart-sharoitlar	Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash va innovasion jarayonlar sharoitida ta’lim mazmuni	Ijtimoiy buyurtma
<b>Maqsad:</b> Bo‘lajak o‘qituvchini innovasion faoliyatga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish			
<b>Vazifalar</b>			
Ta’lim tizimidagi innovasiyalar va modernizatsion jarayonlar haqidam bilimlarni shakllantirish	Pedagogik ta’limni modernizatsiya lash sharoitida innovasion faoliyat kompetensiyal arini shakllantirish	Innovasion faoliyatni joriy etishga qadriyatiy munosabatni shakllantirish	Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida innovasion salohiyatin shakllantirish
<b>Nazariy-metodologik asoslar:</b> shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyat, tizimli, sinergetik, kontseptual yondashuvlar, ta’limda innovasiya nazariyasi			
Me’yoriy-huquqiy ta’minot: “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi oliy tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 2 martdagি PF-5953-son “Ilm, ma’rifat va raqamlı iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmonlar, 2017 “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar, yangi tahriridagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun			
<b>Komponentlar</b>			
Motivatsion	Mazmuniy	Protsessual	
<b>Mazmun</b>			
Invariant qismi		Variativ qismi	
<b>Innovasion faoliyatga tayyorlash orqali amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish metodi</b>			
Bosqichlar	Shakllar	Metodlar	Vositalar

Moslashish	Innovasion faoliyatga kirishish	Texnologik	Ijodiy	O'quv faoliyatini tashkil etish: an'anaviy va innovasion	Auditoriyadan tashqari ish o'quv faoliyati	Axbort-rag'battantruvchi	Korrektions-rivojlantiruvchi	Mkammoli-izlanishi	Amaliy	Pedagogik vaziyatga oid masalalar	Og'zaki	AKT vositalari	Vizual	O'qitishning texnik vositalari
<b>Tamoyillar:</b> maqsadga yo'nalganlik, diagostik asos, ilmiylik, amaliy yo'nalganlik, bosqichma-bosqichlik va boshqalar														
<b>Monitoring</b>														
<b>O'tkazish metodikasi</b>														
Rejadan tashqari nazorat	Rejalashtirilgan nazorat	Boshlang'ich nazorat	Oraliq nazorat	Kechiktiril-gan nazorat	Mezon va ko'rsatkichlar	Daraja	Metod va metodika-lar							
Erishilmadi		Kutilgan natija												Erishildi
<b>Innovasion faoliyatga tayyorlash orqali amaliy tayyorgarligi takomillashtirilgan komptentli o'qituvchi</b>														

### **5.1.1-rasm. Bo'lajak o'qituvchini innovasion faoliyatga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning tashkiliy-tuzilmaviy modeli**

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchini innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida tashkil etilgan o'quv-tarbiyaviy jarayoni murakkab va ko'p qirrali, shu bilan birga yaxlit va bir butundir. Ta'lim jarayonini boshqarish o'quv mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqari ishlarni (ilmiy-tadqiqot ishlari, bo'lajak o'qituvchilarining ijtimoiy foydali mehnati va boshqalar) samarali, pedagogik asoslangan va puxta tashkil etilishini ta'minlashga yo'naltiriladi. bo'lajak o'qituvchini innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini boshqarishning asosiy vazifasi - o'quv va innovasion faoliyat dinamikasi va barqarorligini kuchaytirish, ushbu tayrgalikda o'qituvchi jamoasi imkoniyatlarini muvofiqlashtirish asosida yuqori natijalarga erishishni ta'minlashdan iborat.

Ushbu holatni hisobga olish va ijtimoiy buyurtmani bajarishga intilish o'quv jarayonini o'quv-metodik ta'minotiga, o'qituvchi ishini ilmiy tashkil etishga

innovation yondashishni taqozo etadi. Bo‘lajak o‘qituvchini innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish o‘quv jarayonini didaktik jihatdan asosli boshqarish, uni rejorashtirishga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Hozirgi kunda mavjud bo‘lgan o‘quv rejalarini va dasturlarining turlari, kursning ishchi rejalarini fanlararo va mavzulararo aloqalarlarning darajasini aks ettirmaydi, bu esa ko‘p hollarda bo‘lajak o‘qituvchilarda bilim va ko‘nikmalarni tizimli ravishda shakllantirishga imkon bermaydi. Ichki va fanlararo aloqalar asosida to‘zulmaviy-mantiqiy tahlillar mavjud bo‘lganda holdagina bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘rganilayotgan predmetlar va obyektlar haqida yaxlit tasavvur hosil bo‘ladi.

Shuning uchun o‘quv jarayonida, eng avvalo, nazariy muammolarni o‘qituvchi-novatorning hayotiy, ilg‘or tajribalari bilan bog‘lash maqsadga muvofiq. Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘qitishga bunday yondashuv pedagogika fanini(innovatika) talablariga javob beradi va undan amaliyotda kengroq foydalanish lozim.

Innovation faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish vositiasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligi takomillashganligini aniqlash mezonlari sifatida uning muayyan tuzilmaviy koponentlari holati, shuningdek ularning aloqadorligi va rivojlanishi darjasini tanlanadi. Mezon ko‘rsatkichlari o‘zlarida o‘lchash mumkin bo‘lgan belgilar guruhini mo‘jassam etadi, ular asosida bo‘lajak o‘qituvchining innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalarining rivojlanganligi baholanadi. Bo‘lajak o‘qituvchining innovation faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish orqali amaliy tayyorgarligi takomillashishi jarayoni dinamikasini ochib beradigan mezon va ko‘rsatkichlarni tanladik

Biz o‘rganayotgan ta’lim muayyan darajada bo‘lajak o‘qituvchilar uchun taqdim etilgan bo‘lishi mumkin. Innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali **amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish**

deganda biz pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida innovation masalarni hal qilishga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik bilim va ko‘nikmalarga asoslangan izchil harakatlar tizimini tushunamiz. Shu bilan birga, innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali **amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish** darajalarining quyidagi gradatsiyasini asos qilib olish mumkin: yuqori, o‘rta, past.

Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida innovation faoliyatga tayyorlash va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida talabalar (bo‘lajak o‘qituvchilar) amaliy tayyorgarligini takomillashtirishni jarayoni boshqarishni uch bochqichga ajratdik.

Birinchi - maqsad bosqichida tadqiqot muammosining real holati o‘rganiladi, innovation faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchining amaliy tayyorgarligini takomillatirish metodikasi ishlab chiqiladi, pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarni innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlashlari uchun oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatiladi.

Ikkinci – amaliy-faoliyatiy bosqichida bo‘lajak o‘qituvchilarning innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligini shakllantirish jarayonining mazmuniy yo‘nalishlari, ya’ni. Davlat ta’lim standartining potensiol imkoniyatlari, pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish metodi, maxsus kurslar tizimi (oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish metodi”, bo‘lajak o‘qituvchilar uchun “Pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish”, “Pedagogik innovasiya”, “Innovation pedagogik texnologiyalar” joriy etiladi.

Uchinchi - bo‘lajak o‘qituvchilarning maktab va professional ta’lim muasasalaridagi innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligini nazorat qilish natijalari bo‘yicha “Kelajak ta’lim

muassasasi” innovasion markazining faoliyati, innovasion faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini boshqarish to‘g‘risida qarorlar qabul qilinadi.

Innovasion faoliyatga tayyorlash va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini boshqarish o‘zlarning vazifalarini juda yaxshi bajarishlari uchun ushbu jarayonning har bir ishtirokchisining o‘rni, vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini aniqlashni nazarda tutadi: o‘qituvchining vazifasi - innovasion faoliyat tayyorlash va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish; bo‘lajak o‘qituvchilarning vazifasi - innovasion faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida amaliy tayyorgarligini takomillashtirish; ta’lim muassasalarining vazifasi - innovasion faoliyatni samarali joriy etish.

Hozirgi zamon zamon talablarga muvofiq bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik innovatika nazariyasi bo‘yicha bilimlarining darajasini va ilmiylik tamoyilini joriy etishga oid amaliy ko‘nikmalarini hisobga olmasdan innovasion faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalar yechish bo‘yicha amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning imkonи yo‘q. Bo‘lajak o‘qituvchilarning umumta’lim maktablari yoki professional ta’lim muassasalaridagi innovasion faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga amaliy tayyorgarligi darajasini aniqlash ancha murakkab jarayon bo‘lib, bu bilish va pedagogik tayyorgarlik tuzilmasida tashhislanadigan parametrni aniqlash metodi, ya’ni pedagogik diagnostikaning muhim xususiyatlarini o‘rganish bilan o‘zviy bog‘liq.

Hozirgi paytda diagnostika metodlarini ishlab chiqishga va oliy ta’lim muassassalari o‘quv jarayonining real darajasini aniqlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu yerda ushbu xilma-xil hodisalarni yaxlit tizimga birlashtirish zarurati paydo bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, jarayon natijalarini ko‘zatib borishga, uning rivojlanishdagi tendentsiyalarni aniqlash va shu asosda zaruriy to‘zatishlarni kiritishga, ya’ni pedagogik monitoring olib tartibini shakllantirishga

imkon tug‘diradi. Monitoring o‘quv jarayonini boshqarish sifatini oshirish vositasi sifatida real holatni ta’lim faoliyatidagi etolonlar va me’yorlar bilan taqqoslashga, mazmunni baholashga, to‘zatish kiritishga, prognozlashtirish (bashorat qilish)ga, qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi.

Innovasion faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha monitoring tizimidan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: monitoring bosqichlari(kirish, chiqish, kechiktirilgan tashhislar)ni, funksional tuzilmasini aniqlash (bo‘lajak o‘qituvchining amaliy tayyorgarligini baholash, innovasion faoliyatga o‘zining tayyorgarligi darajasidan qoniqishini aniqlash, inovatikaga keyingi tayyorgarligi shakli, tartibi va dasturlarni tanlash; v) innovasion faoliyatga tayyorgarlik jarayonida mavjud bo‘lgan va egallagan bilim, ko‘nikma va amaliy ko‘nikmalarni baholash).

Innovasion faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini nazorat qilish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

kirish tashhisi ko‘p holda tashqi nazorat orqali amalga oshirilib, bo‘lajak o‘qituvchining innovasion va amaliy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishi zarurligi bilishini baholash va uning darajasini aniqlashga imkon beradi.

kirish tashhisi - "o‘qituvchi - bo‘lajak o‘qituvchi" tizimida o‘zaro nazorat orqali amalga oshiriladi va bo‘lajak o‘qituvchilarning oliy ta’lim muassasalarida kasbiy tayyorgarligi jarayonida olgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini baholaydi;

- kechiktirilgan tashhis - bo‘lajak o‘qituvchi oliy ta’lim muassasani bitirganidan keyin o‘zini o‘zi tahlil etish asosida innovasion faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalar yechish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakasini sifatlari baholashga imkon beradi.

Innovasion faoliyatga tayyorlash va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish

molelini ishlab chiqish orqali tadqiqot ishida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega masalalar hal etiladi:

bo‘lajak o‘qituvchilarda amaliy tayyorgarlik va innovasion faoliyatga motivatsiya shakllantiriladi va shu masalalar bilan bog‘liq holda o‘zining kasbiy faoliyati haqidagi tasavvurlari aniqlashtiriladi;

bo‘lajak o‘qituvchilar amaliy faoliyatlarini samarali tashkil etishlari uchun umumpedagogik, metodik, maxsus-predmet bilimlarni, shuningdek gnostik, loyihalash, konstruktorlik, tashkiliy-kommunikativ ko‘nikmalarni egallaydilar;

bo‘lajak o‘qituvchilarda amaliy faoliyatni tashkil etishga tayyorgarligini baholash bo‘yicha refleksiv pozisiya shakllanadi.

Biz tomondan ishlab chiqilgan innovasion faoliyatga tayyorlash va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modeli yaxlit jarayonni ifoda etadi, binobarin, ushbu modelning komponentlari alohida olingan holda ularning birortasi qo‘yilagan maqsadga erishish imkonini bermaydi, ular bir butunlikni, tizimni tashkil etadi. Molelning har bir komponenti o‘ziga xos alohida aniq masalarni hal etadi, ularning yig‘indisi asosida natijaga erishiladi – bo‘lajak o‘qituvchilarda yangi sifat – innovasion va amaliy faoliyatga tayyorgarlik shakllanadi va rivojlanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bo‘lajak o‘qituvchining psixologik-pedagogik va mazmuniy komponentlarning birligi nimalar bilan xarakterlanadi?
2. Pedagogik ta’limni modenizatsiyalash sharoitida innovasion faoliyatga tayyorlash nimalarni qamrab oladi?
3. Pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida talabalar amaliy tayyorgarligini takomillashtirishni jarayonii aqida fikrlaringiz.
4. Innovasion faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha monitoring tizimidan foydalanishni izohlab beribg.

## **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**Topshiriq I:** Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida talabalarning innovation faoliyati takomillashtitish doir fikrlaringizni “zinama-zina” texnologiyasi asosida ifodalang.

### **5.2. Talabalarning innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligi**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash, amaliy tayyorgarlik, prognozlashtirish faoliyat, innovation faoliyat, tadqiqot natijalari, amaliyatga keng joriy etish.

XX asrning ikkinchi yarmi va XX1 asrning boshlari ta’lim, fan, madaniyat, iqtisodiyot, texnika, ijtimoiy va individual hayotning barcha sohalarida "global innovasiyalar" davri bo‘ldi. Innovasiya insonning butun dunyo bilan va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarining butun tizimini o‘zgartiriyu yubordi. Global innovation jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalarining jadal rivojlanishi bilan birga kechmoqda, bu esa ijtimoiy va individual sotsial-madaniy rivojlanish sur’atlari o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi va chuqurlashtiradi.

Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida innovation faoliyatni amaliy amalga oshirish nafaqat faoliyat shakl va usullarini, balki ta’lim tizimidagi har bir xodimning ongini u yoki bu darajada o‘zgartirishni talab qiladi. Ushbu o‘zgarishlar miqyosida zamonaviy ta’lim tizimining funksiyalarini hisobga olib, o‘qitishning an’anaviy va innovation strategiyalar asosida ziddiyatlarni bartaraf etish imkoniyatlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish oliy pedagogik ta’lim tizimini modernizatsiyalash, o‘zgartirish, zamonaviylashtirishni, qayta qurishni, uninrg maqsad va vazifalarni aniqlashtirishni, bo‘lajak o‘qituvchilarining amaliy tayyorgarligi mazmunini zamon talablariga muvofiq takomillashtirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy oliy pedagogik ta’lim modernizatsiyasi oliy ta’lim muassasalardagi o‘quv jarayoni tuzilmasi va mazmunini jiddiy qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining individual ijodiy qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishlari, intellektual salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, bilim, ko‘nikma va malakalarining butun tizimini amaliy qo‘llashga imkon beradigan innovation pedagogik faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish modelini ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammolardan sanaladi.

Shaxsning o‘zini o‘zi anglashi uchun maqbul tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratish ta’limning barcha darajalarida dolzarb vazifa hisoblanadi, ammo oliy pedagogik ta’lim uchun bu vazifa alohida ahamiyat kasb etadi. Endilikda zamonaviy o‘qituvchilar uchun o‘rganilayotgan fanlar bo‘yicha chuqr bilimga ega bo‘lishi yoki ma’lum amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishning o‘zagina etarli emas. Kasbiy vazifalarni bajarish topshirilgan ishga ijodiy yondashishni, voqelikni oqilona o‘zgartirishga qaratilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy o‘quv jarayonining dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Innovation jarayon pedagogik tadbirlar va vositalar to‘plamidan iborat bo‘lib, ular yordamida pedagogik hamjamiyat va bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik yangiliklarni o‘zlashtiradilar va ilmiy asosda amaliyotga samarali qo‘llaydilar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovation pedagogik faoliyatga tayyorgarligi pedagogik yangiliklarni izlash, topish, o‘zlashtirish, ishlab chiqish va amaliy faoliyatda pedagogik yangiliklardan foydalanish, yangiliklarni amalga oshirish, pedagogik tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish, pedagogik omillarning yangiligi darajasini aniqlash, natijalarni qayta ishlash va tatbiq etishga tayyorgarligi bilan belgilanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovation pedagogik faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligi to‘zilishi va mazmuni murakkab psixologik-pedagogik tizim bo‘lib, motivatsion, mazmuniy va protsessual komponentlarning birligi bilan xarakterlanadi: bo‘lajak o‘qituvchilarning innovation pedagogik faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligining psixologik jihatlarini qamrab oluvchi emosional salohiyati; zarur bilimlarga asoslangan intellektual salohiyati; bo‘lajak o‘qituvchining innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligining motivatsion, rolli, yetakchi tashkil etuvchilarni o‘z ichiga olgan boshqaruva salohiyati.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning umumta’lim maktabida innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligi shakllanganligini monitoring qilish tizimi qator maqsadli (o‘quv-bilish, tashkiliy-tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) funksiyalarni amalga oshiradi, ularning bosqichlari va funksional mazmunini aniqlashga imkon beradi. Ta’lim texnologiyalari tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarning innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga amaliy tayyorgarligining sifatini ta’minlash mexanizmi hisoblanadi.

Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning umumiylar jarayoni ta’lim tizimini qayta qurish uchun ham qulay shart-sharoitlar yaratdi. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, ta’lim tizimi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi va ta’lim sohasida innovasiyalar va islohotlar, modernizatsiyalash jarayonlari boshlandi, bu esa vatanimiz ta’lim tizimining va xalqaro hamjamiyatga kirib kelishiga va bosqichma-bosqich integrasiyalashuviga olib keldi.

Ammo mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisoldiy sohalarda muayyan yutuqlar qo‘lga kirtilganligiga va uning umuman ta’lim tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganiga qaramay, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiysi” da ta’kidlanganidek, yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy ta’lim tizimi oldida bugungi kunda o‘z yechimini

kutayotgan bir qator dolzARB muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda, shu jumladan:

- oliv ta'lim bilan qamrov darajasi pastligicha qolmoqda;

- amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan, o'quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligidcha qolmoqda;

-oliv ta'lim muassasalari ilmiy faoliyati hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqib tashkil etilmagan, tahlillar asosida innovasion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyati yo'lga qo'yilmagan;

-innovasion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyatga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalg etish natijadorligi yetarli emas, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integrasiyasi ta'minlanmagan;

talabalar turar joylari, kutubxona, o'quv ustaxonalari, laboratoriylar, sport sog'lomlashtirish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari quvvatlari mavjud ehtiyojni qanoatlantirmaydi, ularning aksariyat qismida bugungi kun talablariga javob beradigan moddiy-texnik baza shakllantirilmagan;

-ta'lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmagan.

Kadrlar tayyorlash tizimida ta'limning yuqori sifatini ta'minlashda motivatsiya yetishmasligi, ta'lim tizimining yangiliklarga nisbatan sezgirligi va ta'lim tizimining bozor iqtisodiyoti va ochiq fuqarolik jamiyati ehtiyojlaridan orqada qolishi hollari mavjud.

Ommaviy ijtimoiy-pedagogik harakat, umumta'lim maktablarining turlari, tuzilmalari, maqsadlarining jadal rivojlanishidagi ehtiyoj bilan o'qituvchilarning ularni amalda joriy eta olmasligi o'rtasida ziddiyatlarning yuzaga kelishi bizning mamlakatimizda pedagogik innovasiyalarning rivojlanishiga imkon berdi. Shu bois yangi bilimlar, yangi "modernizatsiya", "modernizatsiyalash" "innovasiya", "yangilik yoki o'zgarishlar kiritish", "innovation jarayon", "innovation faoliyat",

“o‘quv-pedagogik vaziyatlar” va shunga o‘xshash boshqa ko‘plab tushunchalarning ma’nolarini anglash va tushunish talab qilindi.

Ushbu tushunchani quyidagicha ta’riflash mumkin: innovasiya - tatbiq etiladigan muhit (ta’lim jarayoni, ta’lim muassassasi jamoasi faoliyati va boshqalar)ga maqsadli kiritiladigan o‘zgartirish bo‘lib, nisbatan barqaror elementlarga nisbat yangilik hisoblanadi. Ularning har biri yangilik predmeti bo‘lishi mumkin.

**Yangilik - jarayonning mohiyati**, ya’ni biror tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishidir. Tizimning bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi ham yangiliklar haqidagi fan sifatidagi inovatika predmeti, ham uning markaziy muammosi hisoblanadi. Ta’limning hozirgi sharoitdagi rivojlanishida o‘qituvchidan innovation amallarni (harakatlar)ni, ya’ni moslashishni emas, balki o‘zining individualligini maksimal darajada rivojlantirishni, o‘zini o‘zi faollashtirishni talab qiladi.

Har qanday yangilikni joriy etishning muvaffaqiyati innovation xatti-harakatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bunda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga subyektning shaxsiy munosabatlari namoyon bo‘ladi. O‘qituvchining innovasiyalarni tanlashi uning yangiliklarga bo‘lgan munosabati va yangiliklar yarata bilish darjasи, uning yangiliklarga qiziqishi va moyilligi bilan bog‘liq. Innovation harakatlar – bu pedagogik faoliyatdagi faol va tizimli ijodkorlikdir.

Ta’lim tizimlari rivojlanishining har bir davri o‘ziga xos innovation pedagogik g‘oyalari bilan xarakterlanadi, ushbu davrda hukm surayotgan pedagogik g‘oyalarga nisbatan ichki va tashqi jihatdan yangilik hisoblanadi. Yaqin vaqtlargacha oliy pedagogik ta’lim tizimida quyidagilar innovation g‘oyalari hisoblanardi: dasturlashtirilgan ta’lim, muammoni o‘qitish; modulli o‘qitish, kodli ta’lim g‘oyalari. O‘zbekiston pedagogik ta’lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida quyidagi pedagogik g‘oyalari innovation bo‘lib kelmoqda: ta’limni insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish; o‘quv jarayonini texnologlashtirish; o‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash; xalq

pedagogikasi g‘oyalarini pedagogik ta’lim mazmuuniga singdirish; kredit ta’limi tizimini joriy etish; shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim.

**Pedagogik vaziyat** - bu o‘qituvchining sinf jamoasi yoki talaba bilan ziddiyatli qiziqishlar, qadriyatlar va me’yorlar asosidagi o‘zaro munosabati. Pedagogik vaziyatlar juda qisqa vaqt ichida sodir bo‘lishiga qaramay, odatda, inson faoligiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumki, agar o‘tkir pedagogik vaziyat mavjud bo‘lsa, unda uni hal etish uchun munosabatlар va o‘zaro ta’sirning maxsus turi - ishbilarmonlik, uyushganlik yoki bog‘liqlik va bo‘ysunish munosabatlari, mas’uliyatli bog‘liqlik munosabatlari mos keladi. Ushbu turdagи munosabatlар kattalar va mакtab talabalari uchun ham eng qiyin, ularda kelishuvga erishish, hamkorlikka erishish ancha qiyin kechadi.

Pedagogik vaziyat - bu muayyan vaqt va ma’lum muhitdagi holatni tavsiflovchi pedagogik jarayonning ajralmas qismi.

Vaziyatlar har doim o‘ziga xosdir, ular dars, imtihon, ekskursiya o‘tkazish jarayonida yuzaga keladi va odatda, o‘sha yerning o‘zida hal qilinadi. Pedagogik vaziyatlarni loyihalash jarayoning o‘zini loyihalash tarkibiga kiradi. Pedagogik vaziyatlarning ahamiyati juda katta. Aslida, ular orqali pedagogik jarayon namoyon bo‘ladi. Ushbu vaziyat pedagogik jarayon va butun pedagogik tizimning barcha afzalliklari va kamchiliklarini ifodalaydi. Ta’limning aniq munosabatlari sifatida ifodalangan pedgagik vaziyatlar o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi.

Pedagogik vaziyat - bu pedagogik jarayonning ajralmas qismi, pedagogik reallikdir, u orqali o‘qituvchi pedagogik jarayon va pedagogik tizimni boshqaradi. Bu pedagogik jarayon va pedagogik tizimning vaqt makonidagi kontsentratsiyalangan ifodasidir. Ular o‘qitish tajribasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Har qanday o‘qituvchi kunlik kartochkalarga yozilgan vaziyatlarning o‘ziga xos “arxivi” ga ega bo‘lishi kerak. Ushbu arxiv butun umri davomida ehtiyyotkorlik bilan saqlanishi va har qanday o‘qituvchining shaxsiy kasb boyligini tashkil etishi lozim.

Vaziyat - har doim ham qator ishlar, munosabatlar holati, muayyan muloqot va faoliyat muhiti kombinatsiyasidir. Darsdagi vaziyat - bu o'qua jarayonini tashkil etuvchi psixologik-pedagogik holatlar yig'indisidir.

Ta'lism sifati eng birinchi navbatda ta'lism muassasalarining qanday ishlashiga bog'liq. Ta'lism dasturlarining mazmuni yangilanmaguncha, o'qituvchilar yanada samarali pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirmaguncha, shuningdek o'qituvchilar va ta'lism muassasalarining sifatli ishlarini rag'batlantirish tizimi yaxshilanmas ekan ta'lism sifati ham oshmaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning umumta'lism maktabida innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligini shakllantirish o'qituvchi faoliyatining mazmuni va mohiyatini chuqr tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu toifadagi o'qituvchilarning innovation faoliyati to'g'risida yetarlicha to'liq va obyektiv tasavvurga ega bo'lish uchun tegishli tuzilmani yaratish lozim. O'qituvchining innovation faoliyati tuzilmasini ishlab chiqishda bir-biriga bog'liq va bir-birini belgilab beruvchi ikkita obyekt hisobga olindi: o'qituvchining shaxsiyati va uning innovation faoliyati. Bunday faoliyatni, bir tomondan, umumlashtirilgan va bir xil asosga keltirilgan fenomen, boshqa tomondan esa, maktab ta'liming yagona umumiyl maqsadlarini - maktab talabalarini mustaqil hayotga va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi talablariga mos mehnatga tayyorlashni amalga oshiradigan subyektlar (mansabdor shaxslar) ning ma'lum doirasi uchun xos bo'lgan tizim sifatida qarash mumkin.

Bo'lajak umumta'lism maktablari yoki professional ta'lism muassasalari o'qituvchisining innovation faoliyatini nazariy-metodologik tahlil etish bizga uning ayni faoliyatga tayyorgarligi tuzilmasi va mazmuni ishlab chiqish imkonini beradi. Innovation pedagogik faoliyat orqali bo'lajak o'qituvchilarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga oid vatanimiz va xorijiy mamlakatlarda to'plangan pedagogik tajribalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, innovation faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish samaradorligini ta'minlaydigan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar ta'lism jarayoni

ishtirokchilarining ijodiy faoliyati, ularning o‘zaro hamkorlik va munosabatlarga tayyorgarligi bilan o‘zviy bog‘liq.

Shuning uchun o‘qituvchilar va psixologlar tomonidan bildirilgan g‘oyalar va qarashlar, innovation faoliyat va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechish maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o‘rganayotgan tayyorgarlik tushunchasini quyidagicha ta’riflash mumkin: bo‘lajak o‘qituvchining innovation amaliy pedagogik faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarligi deganda uning pedagogik yangiliklarni, pedagogik vaziyatga oid masalalarni ishlab chiqish, izlash, o‘zlashtirish va ulardan amalda foydalanish, yangiliklarni joriy etish, pedagogik omillarning yangiligi darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishi va natijalarini qayta ishslashga tayyorgarligi tushuniladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovation pedagogik faoliyatga tayyorlashda asosiy omillar nimalardan iborat?
2. Pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarliK nimalarni qamrab oladi.
- 3.Pedagogik vaziyat – bu muayyan vaqt va ma’lum muhitdagi holatni tavsiflovchi pedagogik jarayon ekanligini asoslab bering.

### **Mustaqil ta’lim togshirig‘i:**

**1-topshiriq.** Talabalarning innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorgarlik bo‘yicha fikrlaringizni umumlashtirib yozma ravishda ifodalang.

## VI BOB.

---

### PEDAGOGIK KREATIVLIK

#### *Bobning qisqacha mazmuni*

Mazkur bobda pedagogik kreativlik; talabalarda kreativlik qobiliyatni rivojlantiruvchi omillari; interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish haqidagi quyidagi bilimlar o‘rin olgan:

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatini bildiradi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analistik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta’lim berish usullarini yangi holatga o‘tkazish imkoniyati; ilgari o‘rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ta’lim jarayonida erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professoro‘qituvchilar, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Ta’lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta’lim mazmunini o‘zlashtirishda ta’lim oluvchilarning bilim saviyasi, o‘zlashtirish darajasi, ta’lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o‘qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

## **5.1. Pedagogik kreativlik**

**Tayanch so‘z va iboralar:** DTS talablari, kreativlik, kreativ qobiliyat, pedagogik kreativlik, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish.

Zamonaviy dunyoning innovasiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagogini muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatini bildiradi. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olish;
- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- hayol qila olish (fantaziya).

Buyuk allomalarimiz yangi g‘oyalar, yangicha yondashuvlarni ta’limga joriy qilish bo‘yicha tinmay kurash olib borganlarini ko‘rish mumkin. SHarqning buyuk allomalari Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy, Axmad alFarg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Zahiritddin Muhammad Boburlar o‘z davrining yangi ilg‘or pedagogik g‘oyalar, fikrlar namoyandalaridir. Mustaqil ta’lim-o‘sha davrdagi eng samarali usullar hisoblangan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan allomalar, dunyodagi eng mashhur daholar hisoblanib, asosan, mustaqil, mutolaa qilish natijasida olamshumul yangilik, kashfiyotlarni ixtiro qilishga muyassar bo‘lganlar. Mustaqil ta’lim, o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish, tarbiyalash, o‘qish, o‘rganish, mehnat qilish, tinimsiz izlanuvchanlik, ko‘zatuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorliklar asosida yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyanishiga olib keladi

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish”<sup>1</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog olimlardan O.Jamoliddinova, O.Musurmonova, M.Urazova, N.Egamberdieva, E.Yuzlikaeva, Sh.Sharipov, Sh.SHodmonovalarning ilmiy izlanishlarida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy-innovasion tayyorgarligini shakllantirishdagi o‘ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, ta’lim oluvchilarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari, mavjud pedagogik shart-sharoitlari, didaktik ta’minti, shuningdek pedagogik kreativlik mazmuni yoritib berilgan.

Innovasion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda o‘z-o‘zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlanmalar

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар Стратегияси тўғрисида”ти ПФ-4947-сон Фармони //Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

(mahsulotlar)ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan erkin ta’lim muhitini tashkil etish A.Abduqodirov, N.Azizzodjaeva, U.Begimqulov, J.Yo‘ldoshev, Yu.Kruglova, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O‘.Tolipov, G.Chijakova, B.Xodjaev, Ya.G‘afforov, M.Tilakova, S.Toshtemirovalarning ilmiy tadqiqotlarida asoslangan.

Kreativlik termini angliya –amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatini bildiradi.

Amerikalik olim J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko‘rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo‘llay olishi;
- o‘ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya).<sup>2</sup>

Talabalarning innovasiya faoliyati tuzilmasidagi eng muhim komponent bu refleksiyadir. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

A.X.Maslou kreativlikni 2 turga bo‘ladi: iste’dodning kreativligi va shaxsning o‘z - o‘zini aktuallashtirish kreativligi. Shaxsning o‘z - o‘zini aktuallashtirish kreativligi shaxs bilan o‘zviy bog‘langanligi sababli biz unga kundalik hayotda va kasbiy faoliyatning ko‘p sohalarida duch kelishimiz mumkin.

A.X.Maslou kreativlikda o‘z - o‘zini aktuallashtirishning ikki darajasini keltirib o‘tgan: birinchisi - «ixtiyorsiz kreativlik, bunda shaxs birdan aqliga kelish,

---

<sup>2</sup> Guilford, J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.

ruhlanish, qiyin kechinmalarga ega bo‘ladi», «ik - kinchisi - ixtiyoriy, og‘ir mehnat bilan bog‘liq, uzluksiz ta’lim, kamolotga intiluvchanlik» .

A.X.Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko‘radi, ya’ni barcha insonlardagi tug‘ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma’lum ijtimoiy to‘siqlar natijasida yo‘qolib ketadi deb hisoblaydiInterfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlanтирish muammolari quyidagilardan iborat.<sup>3</sup>

T.A.Barisheva va Yu.A.Jigalovalar pedagogokada kreativlikni tizimli (ko‘p bosqichli, ko‘p o‘lchamli) psixik (ruhiy) ta’lim sifatida talqin etib, unga faqatgina intellektual potensiolni emas, balki motivatsiya, emotsiya, estetetik rivojlanish darajasi mavjudligi, kommunikativ parametrлари, kompetentligi va xokazolarni ham kiritadi.<sup>4</sup>

Shuningdek kreativlikni mezonlari Dj.P.Gilforda, E.P.Torrans tomonidan belgilangan :

ravonlik: ma’lum bir vaqt oralig‘ida ko‘plab fikrlarni ishlab chiqarish qobiliyati;

o‘ziga xosligi: aniq, taniqli, umum e’tirof etilgan, oddiy yoki qat’iy belgilanganidan farq qiluvchi g‘ayrioddiy, nostandard g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

sezuvchanlik: g‘ayrioddiy detallarga sezgirlik, qarama-qarshilik va turli xil noaniqliklar, tezda bir fikrdan ikkinchisiga o‘tishga tayyorlik;

mo‘tadillik: g‘ayritabiyy kontekstda ishlashga tayyor bo‘lish, ramziy, birlashtiruvchi fikrlashga moyillik, oddiy va murakkab sharoitda ko‘rish qobiliyati;

rivojlanish: paydo bo‘lgan g‘oyalarni bat afsil ishlab chiqish, ularni sath va quyi tizimlarga aylantirish qobiliyati;

to‘xtashga qarshilik: bir xillikka qarshilik ko‘rsatish, ya’ni muammoni yechish jarayonida kelib tushayotgan turli informatsiyalar andozalariga qarshilik ko‘rsatish.

<sup>3</sup> . Maslow, A.The Farther Reaches of Human Nature NY: Viking, 1971. Harmondworth, Eng: Penguin Books, 1973. Contents.

<sup>4</sup> Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. СПб, 2006. - 285c.

noaniqlik: stimuldan mustaqil mantiqiy reaktsiyagacha bo‘lgan qobiliyat; “nomlash”ning mavhumligi: shaxsning muammo mohiyatini tushunish qobiliyati, aslida ahamiyatga ega bo‘lgan nomni tushunish va aksini aks ettirish qibiliyati (“nomlash” jarayoni mufassal shaklni muammoning mohiyatini ko‘rish qobiliyatini og‘zaki shaklga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi);

ko‘p vazifalilik: Bir vaqtning o‘zida bir nechta loyihalarda ishslash qobiliyati;

samaradorligi: mahsulotning yaroqliligi, ularning foydasi, mahsulotning maqsadli auditoriyasi tomonidan yangi, noyob, original bo‘lishi haqidagi idrok;

mamnuniyat: kreativlikning natijasi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ijodiy salohiyati muammoga mustaqil qarash, qarama-qarshiliklar, tanqidiy fikrlash; har qanday muammolarni tahlil qilish qobiliyati, analitik fikrlash; ular uchun yechim topish qobiliyati; bilim olish, malaka va ta’lim berish usullarini yangi holatga o‘tkazish imkoniyati; ilgari o‘rganilgan usullarni yangilarga birlashtira olish kabi ko‘nikmalarda namoyon bo‘lishi mumkin.

**Rahbarning kreativligi** – boshqaruv jarayonga ijodiy yondoshuviga aytiladi. Kreativlik zamonaviy boshqaruvchilar, menejerlar uchun tashkilotning zamon bilan hamnafas olib borilishini ta’minlab beradi. CHunki, kreativlik ish olib borish degani rahbar o‘z faoliyatiga har tomonlama yondashish, ya’ni ijodiy-innovasion yondashuvlarni talab qiladi.

Demak rahbar kreativ fikrlab borishi “Rahbarning kreativ tafakkuri” deb tushunamiz. Rahbarning kreativ tafakkurida taraqqiyot takomili, o‘sishi, rivojlanishi, kegayishi va mo‘tadil saqlanishining instrumenti, uning ongli quroli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda boshqaruvning eng muhim funksiyalarini amalga oshiradi. Pedagogning kreativ tafakkuri

- Aqlning peshqadamligi
- Ish vazifasi va sohasiga sodiqlik
- Tafakkurning egiluvchanligi

- Noan'anaviyligi
- Nostandard qarorlar va yechimlar qabul qilishdan cho'chimaslik
- Istiqbolni ko'rish
- Prognoz qila olish kabi xususiyatlarning maqsadli tarbiyalanishi va shakllantirishiga bog'liq pedagogik jarayondir

**Aqlning peshqadamligi**-belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasining o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyati.

**Tafakkurning egiluvchanligi** – jamiyatda qabul qilingan va an'anavi mavjud bo'lgan, aslida to'g'ri deb o'ylangan shablon yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantirabilish, o'z faoliyatini yangitdan qura olish va masala yechiminining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

**Prognoz, bashorat qila olish** esa – o'z sohasi rivojidagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabalari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan mehnat unumdorligining ko'tarilishi va pasayishi, konyuktura, yoki bozorning o'zgarishi hamda mazkur o'zgarishlarning sohaga bo'lган ta'siri, narxlarning ko'tarilishiva pasayishi v.b.

Ta'lim oluvchilarda kreativlikni rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darjasи, ta'lim manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- ta'lim oluvchilarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;

- ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, ta’lim oluvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minalash, har bir ta’lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish; o‘quv jarayonini ta’lim oluvchi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intelektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- ta’lim oluvchilarda individual, kichik guruqlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandard yechimlar qabul qilishga undash; kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish va hokazo.

Tadqiqotchi G.Ibragimova interfaol o‘qitish jarayonida ta’lim oluvchilarda kreativlikning rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha ifodalab o‘tgan:

1. **Reproduktiv-tavakkalchilik bosqichi.** Bu bosqich ta’lim oluvchilarda kreativ faoliyat, kreativ faollik va ijodkorlikka bo‘lgan moyillikni qaror toptirish, ta’limdagi innovation texnologiyalarning mohiyatini anglash va yangi g‘oyalarning tug‘ilishi, shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2. **Ijodiy-izlanish tadqiqotchilik bosqichi.** Ta’lim oluvchilardagi tadqiqotchilik, ijodiy faollik, nostandard tafakkur, bilish mustaqilligi, improvizatsiya, yangilik yaratish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan belgilanadi.

3. **Kreativlik, novatorlik bosqichi.** Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llash, baholash, tahlil qilish, ommalashtirish va uni keng tatbiq etish hamda istiqbolga yo‘naltirilgan strategik rejalarini to‘zish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi<sup>5</sup>.

Ta’lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida interfaol ta’lim jarayoni ahamiyatli sanaladi. Interfaol ta’lim – ta’lim oluvchining

<sup>5</sup> Ибрагимова Г.Н. Интерфаол укитиш методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик кобилиятларини ривожлантириш. / Монография. - Т.: «Фан ва технологиялар», 2016. -77-б.

bilish faoliyatini faollashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv jarayonini o‘zaro hamkorlik asosida tashkil etilgan “subyekt-subyekt” munosabatlariga asoslangan o‘qitish metodlari tizimidir. Bunda o‘zaro harakat ta’lim oluvchilarning faollashuvi, guruh tajribasiga asoslanish, teskari aloqa o‘rnatish kabi tamoyillarga tayanadi.

Demak, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari vositasida ta’lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishning muhim sharti ta’lim jarayonida erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professoro‘qituvchilar, o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Ta’lim oluvchilarda kreativlik qibiliyatlarini rivojlantiruvchi bir qator omillar mavjud bo‘lib, quyida ayrimlarini keltirib o‘tish mumkin:

- kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o‘quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish;
- ta’lim oluvchilarning muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;
- ta’lim oluvchilarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;
- ta’lim oluvchilarning kasbiy ko‘nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishslash asosida rivojlantirishga yo‘naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish, mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z mavqeiga ega bo‘lish, ta’lim oluvchilarning mustaqil ishslash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish;
- ta’lim oluvchilarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy-hamkorlik muhitini vujudga keltirish kabilar.

Ta’lim oluvchilarda kreativlik qibiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ish shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega:

- ma'lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;
- keyslar bilan ishlash;
- guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish;
- o'quv loyihalarini tayyorlash;
- portfoliolarni shakllantirish;
- kastinglar uyshtirish;
- to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish va hokazo.

Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlashning quyidagi mezonlari mavjud: kreativ faoliyatga nisbatan motivatsiyaning qaror topganligi; kreativ fikrlash ko'nikmalarining rivojlanganligi; kreativ sifatlarning shakllanganligi; amaliy kreativ faoliyat jarayonini tashkil etish; ixtisoslashgan kreativlikning shakllanganligi va boshqalar.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb, uning fikrlaridagi, sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin.

O'qituvchining kreativligi, bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish laoyiqatidir. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish quyidagi o'zaro bir-biriga bog'liq kreativlik tarkibiy komponentlarini ajratish imkonini beradi:

1. Intellektual (aqliy);
2. Axloqiy (o'z-o'zini boshqarish);
3. Motivatsion (maqsadli);
4. Emotsional (his hayajonli).

Kreativ layoqat quyidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat bo‘ladi:

1. Kreativ maqsad;
2. Ijodiy intilish;
3. Kreativ (ustanovka) qurish,
4. Kreativ yo‘nalish;
5. Kreativ ifodali akt;
6. Kreativ o‘z-o‘zini boshqarish;
7. Kreativ faollik;
8. Kreativ intilishlar darajasi.

O‘qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Kreativlik o‘qituvchining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo‘nalishi va o‘zini boshqara olishida ko‘rinadi va uni o‘zini faolligi, o‘zini-o‘zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o‘sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Pedagogning kreativ kompetentligi uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U kreativ faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsnинг o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi.

Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetensiya» atamasining umumiy ma’nosida shakllandı. Yevropa Kengashi dasturi bo‘yicha Bern shahrida bo‘lib o‘tgan simpoziumda (1996 yil) «kompetensiya» tushunchasi «uquv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999 yil) ta’lim islohatlarining kontseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuv e’tirof etildi<sup>6</sup>.

---

<sup>6</sup> Бубенов А.В. Коммуникационная культура: Философско- методологический анализ Электронный ресурс.: дис. канд. философ, наук. М., 2006.

G.V.Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslar mavjud:

- insonning umumiyligi (matematik, kommunikativ, informasiy, ijtimoiy, axloqiy va v.h);
- faoliyat turlari bo'yicha kompetentlik (mehnat, o'quv, o'yin, kasbiy va boshqalar);
- faoliyat yo'naligan obyektlar bo'yicha kompetentlik (inson-inson, inson-texnika, inson-tabiat, inson-badiiy timsol va v.h.);
- ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha kompetentlik (maishiy, fuqaroviyligi, madaniy va boshqalar);
- ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (matematikada, gumanitar fanlarda);
- ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa va boshqalar);
- qobiliyatlar bo'yicha kompetentlik (pedagogika, psixologiya, ijtimoiy, ijodiy, texnik va boshqalar).

Zero, yuqorida aytilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-pedagogning ish sohasi bo'yicha kompetentligi - uzlusiz ta'lim tizimini o'z ichiga oladi;

-ixtisoslik bo'yicha kompetentligi - o'qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb ta'limi o'qituvchisi, ishlab chiqarish ustasi;

-pedagogning faoliyati yo'naligan obyekt bo'yicha kompetentligi - talabalar, ota-onalar, sinf jamoasi, sotsium va boshqalar;

- pedagogning faoliyati turi bo'yicha kompetentligi motivatsion, gnostik, metodologik, metodik, informasiy, kommunikativ, refleksiv, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korrektsion va boshqalar;

A.V. Xutorskiy o'qituvchining quyidagi kompetensiyalarini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asosida, ya’ni qadriyat va o‘zini anglash -o‘qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. U atrof-muhittagi voqeа va hodisalarning mohiyatini ko‘ra oladi va tushunadi, bunga o‘zini yo‘naltiradi, pedagog sifatida o‘z fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetensiya- o‘qituvchining o‘quv va boshqa faoliyatlaridagi o‘z-o‘zini anglash mexanizmini ta’minlaydi.

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oilasiga, urf–odatlarga hurmat; ijtimoiy ko‘nimalarga ega bo‘lish. Ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini angaly olish va talaba yoshlarga tushuntira olish.

3. O‘quv va bilish jarayoni - o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati. Mantiqiy fikrlashi. O‘quv-biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmalarini tahlil qila olishi.

4. Ma’lumotga ega bo‘lish - pedagogik faoliyat va o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

5. Muloqotchanlik - til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. Ijtimoiy - foydali mehnat-oilaviy munosabatlar va ma’suliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

7. O‘z ustida ishlashi - jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘z- turli axborot manbalari, shu jumladan, ta’lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetensiyalar;

- ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetentsiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a’zosi rolini bajarish);

- mehnat faoliyati sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o‘zining kasbiy imkoniyatlarini, o‘zini o‘zi uyushtirish ko‘nikmalarini baholash va takomillashtirish);

- maishiy sohadagi kompetensiyalar (shu jumladan, oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);
- madaniy faoliyat sohasidagi kompetensiyalar (shu jumladan, shaxsning ma'naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtdan unumli foydalanish).

**O‘qituvchi kompetensiyasi** – uning nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakasi, dunyoqarashi, e’tiqodi va barcha shaxsiy individual ijtimoiy psixologik sifatlarining namoyon bo‘lishidir. Ta’limming sifat va samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri, bu – o‘qituvchining o‘z fani bo‘yicha kompetensiyaga ega bo‘lishidir.

U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo‘ladi. Bo‘lar: ilmiy bilish; gnoseologik bilish; pedagogik faoliyatni epchillik, omilkorlik, mohirlik bilan bajara olish; har qanday muammoli vaziyatlarning samarali yechimini topishga ijodiy kreativ yondashish; ta’limiy, tarbiyaviy ta’sir jarayonida yuksak ijtimoiy psixologik xususiyatlarni namoyon etish; o‘zining intellektual, kognitiv, emotiv, axloqiy salohiyatini, o‘rganish va ichki psixologik zahirasidan samarali foydalanish orqali o‘zini muttasil rivojlantirish; jamiyat va insonlarga, tabiatga borliqqa ijobiy emosional munosabatda bo‘lish ijobiy pozitiv fikrlashga o‘tish tajribasidan iborat.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-Seminar (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;

- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;
- 7) izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar; 8) texnik-texnologik malakalar

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Kreativlik uchun quyidagilar muhim bo'lib hisoblanadi: pedagogik masalalarning ko'p xilligi va ularni hal etishning variativligini tushunish, o'z mahoratining darajasi va tavsifini hamda uni rivojlantirish mumkinligini tushunish, uni takomillashtirish xohishi, yangi yechimlar zarurligini tushunishi va unga psixik tayyorgarlik hamda uni amalga oshirishga ishonch.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, "talabalar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi". Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Talaba tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonne qanotlantirishi lozim E.P.Torrens fikricha, "kreativlik" tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o'zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va Seminar harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlik.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mazmunini DTS talablari asosida tahlil etib, bitiruv ishi doirasidagi «kreativlik», «kreativ qobiliyat», «pedagogik kreativlik», «interfaol o‘qitish», «interfaol o‘qitish sharoiti», «talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish» kabi asosiy tushunchalar mohiyati ochib berildi.

### **Nazorat savollari:**

1. Kreativlik atamasi qachon, kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?
2. Kreativlikning mohiyatini yoritib bering.
3. O‘qituvchining kreativligi uning ijodiy faoliyatida qanday rol o‘ynaydi?
4. Pedagogning kreativ kompetentligi uning qanday xususiyati sifatida aks etadi?
5. E.P.Torrensning fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida nimalar yoritiladi?

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** Kretiv layoqat haqidagi o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qismlarni o‘zingizga maqul bo‘lgan ta’lim texnologiya asosida yoriting.

**2-topshiriq.** Ta’lim klasteri haqida o‘z rfikrlaringizni bayon eting.

## **5.2. Talabalarda kreativlik qobiliyatni rivojlantiruvchi omillari**

**Tayanch so‘z va iboralar:** kreativ fikrlash, ko‘nikma, rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o‘quv jarayoni, izlanuvchilik, muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlari, ijodiy yechish, yaratuvchilik, faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlari.

Talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillarni quyidagilar tashkil etadi:

A) kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kreativ faollikni shakllantirish, o‘quv jarayonini izlanuvchilik hamda muammoli tadqiqotchilik yo‘nalishlarini kuchaytirish; talabalarining muammolarni ijodiy yechish va yaratuvchilik faoliyatlarini rivojlantirish vaziyatlarini tashkil etish;

B) talabalarning kreativ faoliyat tajribasiga kasbiy zaruriyat va istiqboldagi kasbiy faoliyat mazmunining tarkibiy qismi sifatida yondashishlariga erishish;

V) talabalarning kasbiy ko‘nikma va layoqatlarini rivojlantirish jarayonini interfaol metodlar va texnologiyalar ustida ishlash asosida rivojlantirishga yo‘naltirish, ularda mustaqil ijodiy faoliyat ko‘rsatish, mustaqil bilim olish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini bilish, o‘z mavqeiga ega bo‘lish, talabalarning mustaqil ishlash layoqatlarini faollashtirish, bu jarayonda ularning kreativ fikrlashlariga erishish; talabalarning kreativ layoqatlarini namoyon qilishlari uchun qulay ijodiy-hamkorlik muhitini vujudga keltirish;

– Talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarini tizimli tarzda o‘rganish, bunda ularning kreativ faoliyatni tashkil etishida uchraydigan kontrsuggestiv, tezaurus va interaktsion barerlarning bartaraf etishning samarali yo‘llarini belgilash;

– Talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalari, kontseptsiyalar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli-faoliyatli yondashuvni shakllantirish;

– Talabalarning kreativlik ko‘nikmalarini rivojlantirish asosida ulardagi ixtisoslashgan ya’ni pedagogik kreativlik kompetentligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, bunda zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalari, innovasion strategiyalar, interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalaridan keng foydalanish;

– Oliy ta’lim muassasalarida talabalar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning reproduktiv, ijodiy-izlanish va novatorlik bosqichlari samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ijodiy yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va talabalarning kreativ ko‘nikma va malkalarini rivojlanishining o‘zgarishini baholash;

– Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kreativ kompetentligini uzluksiz rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘qitish dasturlarini va texnologiyalarini takomillashtirib borish.

Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- talabalarda ma’lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;
- tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish; keyslar bilan ishlash;
- guruhiy ish shakllari va debatlarni tashkil etish; o‘quv loyihalarini tayyorlash; portfoliolarni shakllantirish; to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish.
- ijodiy topshiriqlarni bajarish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- treninglar;
- videotreninglar;
- taqdimotlar;
- viktorinalar;
- ijodiy loyihalash mashg‘ulotlari;
- interfaol ekskursiyalar;
- interfaol ma’ro‘zalar;
- vebinar;
- davra suhbatlari.

Buning uchun talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi erkin-ijodiy muhitning yaratilishi, professor-o‘qituvchilar, o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi munosabatlari va o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga asoslangan o‘qitish jarayonini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

Demak, kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik hislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

Shuningdek, shaxsnинг kreativligi pedagogik kompetentlikka ham bog‘liq. Bu haqda tadqiqotchi olim L.M.Mitina pedagogik kompetentlikni quyidagicha tasvirlaydi:

- faoliyatli (bilim, malaka, kasbiy mahorat hamda pedagogik faoliyatni mas’uliyatli va mustaqil amalga oshirishning individual usullari);
- kommunikativ (pedagogik muloqotni amalga oshirishning ijodiy yo‘llari);
- shaxsiy (o‘z ustida ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish ko‘nikmasi).

Mamlakatimizda pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o‘ziga xos jihatlari borasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar turadi:

- maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish);
- ijtimoiy kompetentlik (kasbiy kompetentlikni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas’ullik);
- autokompetentlik (o‘zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish);
- ekstremal kasbiy kompetentlik, ya’ni kutilmagan vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tuta olish..

Bir tomonidan kasbiy kompetenlik bu – kasbiy tayyorgarlik, kasbiy faoliyat sifatining ajralmas mezonidir, ikkinchi tomonidan, yuqori malakali ishchi funksiyalari, ish madaniyati va shaxslararo aloqa bilan tavsiflangan shaxsnинг mulki kasbiy muammolarni tashabbuskorlik ko‘nikmasi va ijodiy ravishda xal etish muhim hisoblanadi.

Shaxsnинг kreativligi uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqeい, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi [41].

Talabalarni hozirgi zamon talablari darajasida tayyorlash sifatiga ta'sir etuvchi omillardan biri kasbiy kompetentlik va kreativligidir. Bunda kasbga nisbatan yaxlit kontseptual yondashuvni (qanday va nimani o'qitishni aniq tasavvur qilish), mehnatni qadrlay olish (o'qitish motivatsiyasi), ta'lism jarayonini optimallashtirish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'z ustida ishslash kabi xususiyatlarni tarbiyalashni taqozo etadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi.

Ko'rinib turibdiki, kreativlik bevosita shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Uning rivojlanishi esa intellekt-intuitsiya-mantiqiy fikrlash jarayoni ta'sirida kechadi.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirish ta'lism mazmunini o'zlashtirishda talabalarning bilim saviyasi, o'zlashtirish darjasasi, ta'lism manbai, didaktik vazifalariga qarab, munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi.

Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

- talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lism jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta'minlash;

- talabalarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish, talabalar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir talabada uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish;

- o'quv jarayonini talaba shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlar va intelektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

- talabalarda individual, kichik guruqlar va jamoada ishslash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni

hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandard yechimlar qabul qilishga undash;

- kreativ faoliyatni rivojlantirishning asosi bo‘lgan kognitiv bilimlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg‘ulot shakllari va metodlarini tanlash va tatbiq etish.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minalashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o‘qituvchilar tomonidan o‘quv fanlarini past o‘zlashtirayotgan va ularini o‘rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e’tiborlarini fan asoslarini o‘zlashtirishga jalgan etish;

2) o‘qituvchilarga talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag‘batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Talabalarda ushbu bilim va malakalarni hosil qilishda innovation ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdi.

S.M. Godninning ishlarida talabaning shaxsiy hislatlari pedagogik jarayonning subyekti sifatida yoritiladi. Unga quyidagilarni kiritadi:

- o‘qitishning hozirgi va kelgusi bosqichlari uchun qabul qilingan o‘quv - tarbiya jarayonining maqsadi, vazifasi va ko‘rsatmalarini anglay bilish;

- intellektual mehnatning yangi tadbirdarini egallash;

- maqsadga muvofiq kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalash va mustaqil tahsil olish, qiyinchiliklarni a’lo darajada yenga bilish, o‘sish va mustahkam o‘rin egallashning kengayayotgan intellektual va kasbiy imkoniyatlari, istiqbollari bilan qoniqish, o‘zining sotsial roli, funksiyasini bajarishida faol munosabatda bo‘lish va hokazo.

Innovation pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini- o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday

yo‘nalish talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o‘z ichiga oladi.

Oliy maktabdagi innovation jarayonlar V.A. Slastenin, M.M. Levina, M.Ya. Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Oliy maktab innovation jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta’limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko‘p subyektlı (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvarlashtirish;
- individual - ijodiy (o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro munosabatlari) yondashuv.

V.A.Slastenin ijodiy individualizmni ro‘yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- shaxsning o‘z taqdirini o‘zi belgilash va o‘zini o‘zi namoyon qila olishi asosida o‘z rivojlanishini ta’minalash;

Shu tariqa o‘qituvchining ijodiy individuallagini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovation jarayoni sifatida tushuniladi.

Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o‘z-o‘zini anglash quyidagilarni qamrab oladi:

- o‘zini boshqalarga qiyos qilish asosida o‘z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi;
- o‘zi to‘g‘risidagi kreativ ko‘rinishlar va tasavvurlari to‘plami; individual kreativ o‘ziga xoslik-larning bir butunligi va uyg‘unligi, ichki birligi;
- shaxsning o‘z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi;

- shaxs o‘zini namoyon qila olishi va o‘zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o‘zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o‘zining o‘rnini anglay olishi [55.123].

Innovasion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi va o‘zini- o‘zi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yo‘nalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Bunday yo‘nalish talabalarning o‘quv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini o‘z ichiga oladi.

V.A.Slastyonin tadqiqotlarida o‘qituvchining innovasion faoliyatga bo‘lgan qobiliyatlarining asosiy hislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi hislatlar taalluqli:

- shaxsning ijodiy-motivatsion yo‘nalganligi. Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intil ish; peshqadamlikka intilish; o‘z kamolotiga intilish va boshqalar;

- kreativlik – bu hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo‘lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o‘zicha mushohada yuritish, refleksiya;

- kasbiy faoliyatni baholash. Bu - ijodiy faoliyat metodologiyasini egallah qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallah qobiliyati; mualliflik kontsepsiysi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar [55.129].

Oliy ta’limini boshqarishda zamonaviy innovasion texnologiyalarni joriy etish, barkamol avlodni o‘qitish va tarbiyalashda yagona davlat siyosatini amalga oshirish o‘z samarasini bermoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik hislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq?
2. Shaxsning kreativligi nimalarda ko’rinadi?
3. Pedagogik kreativlik – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda.....(davom ettiring).
4. Ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o‘z-o‘zini anglash nimalarni qamrab oladi.
5. V.A.Slastenin tadqiqotlarida o‘qituvchining innovasion faoliyatga bo‘lgan qobiliyatlarining asosiy hislatlari qanday ifodalangan.

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq.** Oliy ta’limi tizimida zamonaviy axborot va innovatsion ta’lim texnologiyalarni joriy etishni misollar yordamida asoslab bering.

**2-topshiriq.** Ta’lim innovatsialarini turkumlashtiring.

### **5.3. Interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Interfaol metod, metodlar, texnologiyalar, talabalar, kreativlik qobiliyat, interfaol usullarni qo‘llash, tafakkur, rivojlanish, bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash.

Interfaol metod – ta’lim jarayonida talabalar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni shirish orqali talabalarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari talabalarda kreativlik qobiliyatlarining shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sabali ularlarda

kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan interfaol o‘qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati yuzaga keldi.

Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ro‘zalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko‘pligi, talabalar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo‘llash natijasida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emosional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab to‘zilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko‘ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo‘ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe’llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

**Bilish**-dastlabki tafakkur darajasi bo‘lib, bunda talaba atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza

olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

**Tushunish** darajasidagi tafakkurga ega bo‘lganda esa, talaba faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma’lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta to‘zish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

**Qo‘llash** darajasidagi tafakkurda talaba olgan bilimlaridan faqat an’anaviy emas, noa’nanaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to‘g‘ri qo‘llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o‘rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

**Tahlil** darajasidagi tafakkurda talaba yaxlitning qismlarini va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko‘radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma’lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

**Umumlashtirish** darajasidagi tafakkurda talaba ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o‘tkazish rejasini to‘zadi, birnechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma’lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalahtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, to‘zish, loyihalash.

**Baholash** darajasidagi tafakkurda talaba mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko‘radi, xulosalarning mayjud ma’lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe’llar namunalari: tashhislash, isbotlash, o‘lchash, nazorat qilish, asoslash, ma’qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o‘qituvchidan mashg‘ulot oldidan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Shu mashg‘ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini uning an’anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko‘rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin.

O‘quv rejadagi fanlarni o‘qitishda qaysi mavzular bo‘yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulotning maqsadiga to‘liq erishishni ta’minlaydigan interfaol yoki an’anaviy mashg‘ulot turlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Interfaol mashg‘ulotning samarali bo‘lishi uchun talabalar yangi mashg‘ulotdan oldin uning mavzusi bo‘yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma’lumotlarni bilishlarini ta’minlash zarur. Interfaol mashg‘ulotda talabalarning mustaqil ishlashlari uchun an’anaviy mashg‘ulotga nisbatan ko‘p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o‘xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta’siri to‘g‘risida bir necha asr muqaddam A.Navoiy o‘zining mashhur «Mahbub ul-qulub» asari muqaddimasida shunday yozgan edi: “Umid ulkim, o‘qig‘uvchilar diqqat va e’tibor ko‘zi bila nazar solg‘aylar va har qaysisi o‘z fahmu idroklariga ko‘ra bahra olg‘aylar...”.

Bunda shu asarni har kim turlicha, ya’ni o‘z fahmi idroki darajasidagina tushunishi, o‘zlashtirishi, foya ola bilishi va amalda qo‘llay bilishi ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, bundan biz interfaol ta’lim usullarining an’anaviy usullardan asosiy farqlari to‘g‘risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, talabalarning fahmu idroklarini o‘sirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta’kidlash lozimki, interfaol ta’lim usullari O‘zbekistonda qadim zamonlardan beri ta’lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o‘rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, mo‘zoqara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo‘llab kelingan.

Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir talaba o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi — har bir o'qituvchi barcha talabalar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir talaba o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy to'zilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

**Moderator** – ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.

**Trener** – talabalarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.

**Tyutor** – masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.

**Fasilitator** – darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

**Mentor** – ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).

**Kouch**—ta’lim oluvchilarning to‘liq o‘zlashtirishlari uchun yordam ko‘rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg‘ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, ko‘zatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish).

**Konsultant**—maslahat berish, tushuntirish, qo‘srimcha ma’lumot berish.

**Lektor**—nazariy ma’lumotlar bilan tanishtiruvchi.

**Ekspert** — ko‘zatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

**Innovator**—yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg‘ulotlar jarayoniga joriy q

**Kommunikator**—o‘zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

**O‘qituvchi**—mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha ko‘zda tutilgan mazmunni tushuntirish, o‘quv jarayoniga rahbarlik.

**Menejer**—tashkiliy—pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.

**Spekter**—ko‘zatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

**Assistent**—mashg‘ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo‘llashga tayyorlash, mashg‘ulot ishtirokchilariga yordam ko‘rsatib turish.

**Sekretar**—zarur ma’lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o‘rnatilgan tartibda saqlash.

**Texnolog**—pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minalash bilan bog‘liq masalalarni hal etib boradi.

**Metodist**—ta’lim-tarbiya metodlari bo‘yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

**Koordinator**-loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

**Talabalar** – ta’lim oluvchilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta’lim bir vaqtida bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bo‘lardan asosiysi-talabalarning muloqot olib borish

bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, talabalar orasida emostional aloqalar o‘rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma’lum bo‘lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo‘llash talabalarning asabiy zo‘riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalg qilish imkoniyatini beradi.

### **Interfaol metodlarni mashg‘ulot maqsadiga muvofiq tanlash.**

Interfaol mashg‘ulot turlari ko‘p bo‘lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko‘zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorlik ko‘riladi. Interfaol mashg‘ulotda ishtirok etish uchun talabalarning tayyorliklariga o‘ziga xos talablar qo‘yiladi, bo‘lar mashg‘ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o‘zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko‘nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg‘ulotda vaqtidan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to‘g‘ri tanlash, tayyorlash hamda mashg‘ulot o‘tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo‘lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an‘anaviy ta’lim usullari orasida o‘ziga xos farqlar mavjud bo‘lib, har bir o‘qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish usullarini tanlashda to‘g‘ri hisobga olishi zarur.

Bunda yangi bilimlarni berish, ko‘nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo‘llash mashg‘ulotlarida hamda o‘quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo‘yicha mashg‘ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo‘lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to‘g‘ri tanlash nazarda tutiladi.

To‘g‘ri tanlangan metodlarni qo‘llash mashg‘ulotning qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasi bilan bog‘liq bo‘lib, bu metodlardan amalda foydalanishda konstruktivizmning quyidagi asosiy xulosalarini hisobga olish lozim:

Talaba o‘zi o‘rganishi kerak, aks holda unga hech kim hech narsani o‘rgata olmaydi;

O‘qituvchi talabalarga bilimlarni «kashf qilishga» yordam beradigan jarayonni tashkil qiladi;

Bilim borliqdan ko‘chirilgan nusxa emas, uni odam shakllantiradi.

Jahonda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati va raqobatbardoshligini ta’minlashga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Mamlakatimizda oliy ta’lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari bilan integrasiyalashuvini ta’minlash jarayonlarida rahbar va pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini uzuksiz rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bunda pedagog kadrlarning ijodiy salohiyati, kasbiy kompetentligi va ijodiy kreativligini rivojlantirish orqali o‘qitishning integrativ-differentsial metodikalarini yaratish va kasbiy kompetentlikni baholash mazmunini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ta’limning innovation rivojlanishning global vazifalaridan biri pedagog kadrlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishdir.

O‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kasbiy bilimlar, ko‘nikma va malakalarini muntazam ravishda yangilab borish, pedagogik mexanizmlarini hamda kasbiy ta’lim sifatini oshirish borasidagi izlanishlarni takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodologiyasi, pedagogik-psixologik jihatlari, tamoyillari va texnologiyalari hamda yondashuvning shaxs faoliyati va kasbiy kamolotidagi o‘rni, shuningdek, kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirishning kontseptual masalalari MDX mamlakatlari olimlari-dan: T.Bazarov<sup>3</sup>, A.Derkach<sup>4</sup>, I.Zimnyaya<sup>5</sup>, E.Zeer<sup>6</sup>, N.Ko‘zmina<sup>7</sup>, Ye.Kudryavtseva<sup>8</sup>, A.Markova<sup>9</sup> va

boshkalarning taddiqot ishlarida kurilgan va ta’lim muhitiga ta’siri bo‘yicha salmoqli izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlardan D.Bartram, J.Rawen, W.Hutmacherlar tomonidan ta’limga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligi strukturasi atroflicha o‘rganilgan.

Oliy ta’lim tizimi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi esa uning faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ajralmas majmua: o‘quv, uslubiy, ilmiy, tarbiyaviy, kafedra, fakultet, oliy ta’lim muassasani boshqarishda bevosita ishtirok etishdir. Kompetensiya - bu shaxsning emas, balki joyning o‘ziga xos xususiyati insonning ijtimoiy rolining parametridir. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi - bu o‘qituvchi sifatida kasbiy faoliyatining asosini tashkil etadigan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlar tizimidir.

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi uning pedagogik ko‘nikmalari orqali aniqlanishi mumkin. O‘qituvchining kasbiy kompetentligi nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi vazifasini bajaradi.

Kasbiy kompetentlik bu pedagogik faoliyatdagi real vaziyatlarda uchraydigan kasbiy pedagogik muammo va vazifalarning samarali yechimini ta’minlaydigan metodik usullar, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, pedagogik diagnostika (so‘rov, individual va guruhli intervyu) texnologiyalari psixologik va pedagogik korrektsiya, didaktik vositalarni qo‘llay olish va doimiy takomillashtirib borish; ta’lim oluvchilar bilan o‘quv mashg‘ulotlarini tashkillashtirishga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim va innovasion texnologiyalarga doir kreativ g‘oyalar, ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi adabiyot, shuningdek boshqa ma’lumotlarni o‘zlashtirish va amaliyotda qo‘llashdir

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish esa ijodiy shaxsning rivojlanishi, pedagogik yangiliklarga retseptivlikni shakllantirish, o‘zgaruvchan pedagogik sharoitda moslashish qobiliyatidir. Zamonaviy ta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchining malakasi va professionalligini, ya’ni uning kasbiy mahoratini tinimsiz oshirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini

qondirish, jamiyatda ijtimoiy moslashishga qodir, o‘z ishini to‘gri tashkil etishi, o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘zini takomillashtirishga qodir bo‘lgan ko‘p qirrali shaxsni tayyorlash hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish individual tajribani rivojlantirish, doimiy rivojlanish va o‘zini takomillashtirishni o‘z ichiga olgan kasbiy tajribani to‘plashga olib keladigan professional tajribani o‘zlashtirish va modernizatsiyalash orqali kasbiy kompetensiya rivojlantirish mumkinligini ochib berilgan.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda kasbiy xususiyatlar bilan bir qatorda malaka talablariga asoslangan holda o‘quv jarayonining didaktik ta’minoti, o‘quv jarayonini amalga oshirishda individual yondashuvlarni tanlash ham muhim ahamiyatga ega.

N.Muslimov bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarida qo‘uyidagi kompetentlik turlarini keltirib o‘tgan:

**Yaxlit-mazmunli kompetentlik.** Bu talabaning qadriyatli yo‘nalishlari bilan bog‘liq, uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil hayot yo‘lini topa olishi, o‘zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o‘rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog‘liq kompetentlik, u talaba uchun o‘quv va boshqa vaziyatlarda o‘zini aniqlash mexanizmini ta’minlaydi. Talabaning individual ta’lim yo‘nalishi va uning hayotiy faoliyatining umumiyl dasturi ana shu kompetentlikka bog‘liq.

**Ijtimoiy-madaniy kompetentlik.** Talaba chuqur o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasining doirasi bo‘lib, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma’naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an’analarning madaniy asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta’siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo‘sh vaqt ni samarali tashkil etish usullarini bilishi.

**O‘quv-bilish kompetentligi.** Bu o‘rganilayotgan aniq obyektlar bilan bog‘lik mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo‘lgan

mustaqil fikrlash kompetentliklarining to‘plami bo‘lib, unga maqsadni ko‘ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalar kiradi.

**Axborot olish kompetentligi.** Audio- hamda videoko‘rsatuv vositalari va axborot texnologiyalari yordamida mustaqil izlanish, tahlil qilish va zarur axborotlarni tanlab olish, ularni o‘zgartirish, saqlash va uzatish mahorati shakllantiriladi. Ushbu kompetentlik talabaning o‘quv fanlari asoslarini muhim axborotlar asosida o‘zlashtirishini ta’minlaydi.

**Kommunikativ kompetentlik.** Ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatlar, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi tilni o‘zlashtirish, guruhlarda ishlash ko‘nikmalari, jamoada turli xil ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil qilish va o‘tkazishni bilishni o‘z ichiga oladi.

**Ijtimoiy-faoliyatli\_kompetentlik** fuqarolik (fuqaro, kuzatuvchi, saylovchi, vakil vazifasini bajaruvchi), ijtimoiy-mehnat sohasi (iste’molchi, xaridor, mijoz, ishlab chiqaruvchi huquqlari), oilaviy munosabatlar va majburiyatlar, iqtisod va huquq masalalari, kasbiy, shuningdek, shaxsiy mavqeni aniqlash borasidagi bilim va tajribalarni egallash (xususan, mehnat bozoridagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni ko‘zlab, harakat qilish mahorati, mehnat hamda fuqarolik munosabatlarining odobini bilish)ni anglatadi [47.79].

Amaliy faoliyatga oid kompetentliklikda bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko‘chira olish, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olish, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olish ko‘nikmalari tushuniladi.

Kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish tuzilmasini ishlab chiqishda quyidagilardan foydalanildi:

- malaka talablari bo‘yicha malaka mehnat faoliyatidagi konkret majburiyatlarni bajara olish uchun tayyor bo‘lishi, zaruriy kompetensiyalarni o‘zlashtirishi;

- kompetensiya mexnat faoliyatida zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniq vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati;

- kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda yondashuvlar (tizimli, faoliyatli, shaxsga yo‘naltirilgan)ni tanlash;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni o‘quv jarayonida innovation shakllar (refleksiv kuzatuv, faolli amaliyot, mirko o‘qitish, ijodiy hisobot) yordamida amalga oshirish;
- kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga asoslangan o‘quv jarayonining didaktik ta’minotini takomillashtirish orqali ixtisoslik fan o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mumkin.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi ular ta’lim jarayonida kasbiy shakllanishiga ko‘ra uchta bosqichini bosib o‘tadi:

**Birinchi bosqich.** Ta’lim muassasasi faoliyatiga quyilayotgan yangi ijtimoiy talablarni hisobga olgan holda o‘zining faoliyat samaradorligini tahlil qilish va obyektiv baholash. Mazkur bosqichda o‘qituvchi o‘zining faoliyatini tahlil qiladi va baolaydi, maqsad va vositalar, maqsad va natijalar o‘rtasidagi ziddiyatlarni, tushunmovchiliklarni, hamda o‘qituvchilikning salbiy va ijobiy tomonlarini aniqlaydi. Bunda o‘z faoliyatida yangi tushunchalar asosida o‘zi haqida tasavvur hosil qilish, noan’anaviy uslublar yordamida keng pedagogik faoliyatni olib borish nazarda tutiladi.

Kompetentlik turi Masmuni. Kasbiy faoliyatdagi kompetentlik Kasbiy faoliyat sohasining talablaridan kelib chiquvchi maxsus kompetentlik (o‘z ishini yaxshi bilish); texnologik kompetentlik; subyektiv kompetentlik; professiologik kompetentlik (kasblar olami haqida ma’lumotga ega bo‘lish); xuquqiy kompetentlik; iqtisodiy kompetentlik va boshqalar.

**Kasbiy muloqotdagi kompetentlik** Boshqaruv va pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish bilan bog‘lik kommunikativ va muloqotchanlik kompetentligi (hamkorlik qila olish qobiliyati); ijtimoiy-pertseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilishga qobiliyati); differential - psixologik kompetentlik; diagnostik kompetentlik (boshqalarni o‘rganish qobiliyati); axloqiy kompetentlik; empativ kompetentlik; madaniyatlararo, ijtimoiy-madaniy, gender kompetentlik

(boshqa madaniyatlarga nisbatan bag‘rikenglik); nizoli vaziyatlardagi kompetentlik va boshqalar

**Profil (maxsus) kompetentlik** Faoliyat yo‘nalishi, ixtisoslik va ixtisoslik nuqtai-nazaridan amaliy faoliyatni tashkil etishda psixologik kompetentlik (boshqa kishilarni o‘rgana olish ko‘nikmasi); individual, auto-psixologik kompetentlik (o‘zini o‘rganish ko‘nikmasi); madaniy kompetentlik (jamiyatda qabul qilingan madaniy normalarni qabul qilish va o‘zi uchun etalon sifatida o‘zlashtirish); refleksiv kompetentlik va boshqalar). O‘qituvchi o‘z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatda bo‘lishga o‘tadi, pedagogik faoliyatni tanqidiy tahlil qilish asosida o‘qituvchining kasbiy shaxsiy rivojlanish jarayonining faollashuvi vujudga keladi.

**Ikkinchi bosqich.** Kasbiy kompetentlik yo‘nalishidagi tushunchalar va yangiliklarni anglashga nisbatan intilishning o‘zgarishi. Bu bosqichda o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalari yangilanishi, ma’naviy va madaniy salohiyatining rivojlanishi hamda axborot almashinuvi amalga oshadi. Ta’lim jarayoni doirasida o‘qituvchilarda kasbiy faoliyat yo‘nalishidagi tushunchalarning o‘zgarishi vujudga keladi. Shuningdek, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarish bo‘yicha tajribalari oshadi.

**Uchinchi bosqich.** Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi faoliyatning shaxsiy kontsepsiyasini ishlab chiqish. O‘qituvchining pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi faoliyatining shaxsiy kontsepsiyasini loyihalashtirishi uning kasbiy faoliyat yo‘nalishidagi yangi tasavvurlari asosida amalga oshiriladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘qitish texnologiyasi izchillikni, loyihalashni, o‘qitishning barcha komponentlarini o‘zaro aloqadorligini va ularning izchilligini nazarda tutuvchi o‘quv jarayonini tashkil etishdir. Bularga axborot texnologiya, ishbilarmon o‘yin, suhbat, trening, guruhlar bo‘yicha ta’lim, tadqiqiy, loyihalashtirilgan va boshqa shakldagi texnologiyalar kiradi.

Ilmiy-pedagogik tahlillar asosida tadqiqotchilar tomonidan oliy ta’lim tizimi pedagog kadrlar kasbiy kompetentligi quyidagi yo‘nalishlar buyicha tasniflanadi Kompetensiyalarning rivojlanishi vokeliqqa, real holatlar va jarayon o‘zgarishiga

qarab o‘zgaruvchan tus olib, o‘qituvchining pedagogik va ilmiy faoliyati, jamoadagi umuminsoniy qadriyatlar, shaxsiy refleksiya, o‘z o‘zini anglash va o‘z o‘zini baholash kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi va rivojlanib boradi.

Innovasion faollikni rivojlantirish: motivatsiyali va refleksiya, ya’ni zaruriy motivlarni faollashtirish; refleksiv o‘z-o‘zin i yo‘naltirish; pedagogik faoliyatni faollashtirishshuvini ta’minlaydi Ushbu mezonga borliqni qabul qilish, tizimli va yo‘naltirilgan tafakkur, dolzarb ijodiy faollikning intellektual refleksiyaga ta’siri, ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligi va ta’limni innovasion variativ yangilash uni muntazam oshirib borish kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Refleksiv mezon malaka oshirish jarayonida ta’lim jarayonining sifatini oshirishni ta’minlaydigan shaxsga yondashuvli faoliyat mazmuni bilan aniqlanadi; tinglovchilarining ehtiyojlariga mos ravishda o‘quv dasturlarining qulayligi va variativligini ta’minlaydi;

O‘qituvchining shaxsiy kompetentligi misolida tahlil qilsak, yakka tartibdagilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish quyidagi yo‘llar orqali amalga oshiriladi:

- ko‘nikmalar mashq va topshiriqlar orqali shakllantiriladi;
- kouching orqali ko‘nikma va malakalar rivojlantiriladi;
- o‘zlashtirilgan bilim hamda xosil kilingan ko‘nikmalarni tahlil qilish orqali ko‘nikma va malakalar mustahkamlanadi.

Bunda o‘qituvchilarga ta’lim bilan bir qatorda tarbiyaviy xarakterdagijamoa bilan ishlash mahorati; muomalali; ko‘nikuvchanlik; o‘zgalar fikrini xurmat qilish; faollik; ishga ijodiy yondashish; o‘z faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish kabi qator sifatlarini shakllantirish imkoniyati ham mustahkamlanadi.

O‘qituvchi kasbiy kompetentlikni quyidagi to‘rtta umumiyl element bilan taqqoslash mumkin:

- 1) o‘qituvchining ixtisoslik fanlar buyicha doimiy yangi bilimlarga ega bulishi va amaliyotda qo‘llay olishi;

- 2) ixtisoslik fan o‘qituvchilarning pedagogik tajribalarining ortishiga o‘zlarining shaxsiy tashabbuskorliklarini namoyon qila olishlari, pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam oshirishlari;
- 3) kasbiy kompetentlikka oid masalalarni xal etishda pedagogning ijodiy faoliyatini namoyon qila olishi;
- 4) ixtisoslik fan o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishiga bo‘lgan talab, motivatsiyaning tajribada ortishi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish o‘z navbatida, mazkur jarayon samaradorligini kafolatlovchi tizimli, faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan omillarni, kasbiy rivojlanishning mezonlari (kasbiy motivatsiya, shaxsiy-kasbiy sifatlar, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksivlik, kreativlik)ni kasbiy rivojlanish va kasbiy faoliyat muhiti bilan o‘zaro integrasiyasini ta’minlash asosida takomillashtirishni takozo etadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Oliy ta’lim tizimi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligiga nimalar kiradi?
2. Kasbiy kompetentlik bu pedagogik faoliyatdagi real vaziyatlarda uchraydigan kasbiy pedagogik muammo va vazifalar nimalardan iborat.
3. Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi nimalarga bog‘liq.
4. Kasbiy kompetentlik yo‘nalishidagi tushunchalar va yangiliklarni anglashga nisbatan intilishning o‘zgarishi nimalarda ko‘rinadi
5. O‘qituvchining kreativligiga misol keltiring.

#### **Mustaqil ta’lim togshirig‘i:**

**1-topshiriq.** Interfaol ta’lim metodlari va texnologiyalari asosida talabalar kreativligini rivojlantirish haqidagi fikrlaringizni umumlashtiring va yozma ravishda ifodalang.

**2-topshiriq.** Strategiyalar va grafik organayzerlarning bir-biridan farqi, ularni mashg‘ulotlarda qo‘llash shartlarini bayon eting.

## VII BOB.

---

### PEDAGOGIK KOMPETENTLIK VA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR

#### *Bobning qisqacha mazmuni*

Ushbu bobda modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi; fanlarni o‘qitishda STEAM yondashuv; pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar haqidagi quyidagi bilimlarga o‘rin berilgan:

Modulli o‘qitish|| termini xalqaro tushuncha modul bilan bog‘liq bo‘lib, uning bitta ma’nosи – faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u, modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi.

Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning zamonaviy masalalarini xar tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun modulli o‘qitish texnologiyasining optimallashgan va sodda ko‘rinishda ishlab chiqish muammosini xal etish zarur. Modulli ta’lim pedagogik texnologiyalarning bir turi sifatida ta’lim jarayoniga tobora kengroq yoyilmoqda.

Modul so‘zining asl ma’nosи – model (fran. “modele” - namuna, lotincha – modulus – o‘lchov) shartli obraz (ko‘rgazma, sxema va b.q.) ya’ni obyekt yoki obyektlı tizim ma’nolarini bildiradi. Umumiy ma’noda modul texnologiyasini o‘qitishda ko‘rgazmali vositalarning biri sifatida ham tushunish mumkin. Modulli ta’limning asosiy vositasi modul dasturi hisoblanadi.

STEAM – ta’limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. STEAM – ta’limi bolaning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosa bog‘laydi.

## **7.1. Modulli o‘qitish texnologiyalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash metodikasi**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Modulli o‘qitish, o‘qitishning modul tizimi, modulli ta’limning asosiy prinsiplari, modulli ta’limning asosiy vositasi, modul dastur.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar pirovard natijada jahon talablari darajasidagi bilim va malakalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ko‘zda tutadi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan Davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalarini hamda dasturlarida rivojlangan davlatlar tajribasidan o‘tgan bilim va malakalar tizimi o‘zining ijodiy aksini topmokda. Ushbu tizimda kadrlar kasbiy ko‘nikmalarini shakllashtirish va rivojlantirish ham o‘zining ahamiyati va qo‘lamini bilan muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda kasbiy-pedagogik tayyorgarlik sifatini aynan bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-pedagogik kompetentliligini shakllantirish mumkin, bunga ta’lim jarayoniga zamonaviy innovasion talim texnologiyalarini joriy etish orqali erishish mumkin. Shunday texnologiyalardan biri modulli ta’lim texnologiyasidir. Kasbiy-pedagogik jarayonida ta’limga modulli-kompetentli yondashuv ta’lim jarayonida shakllantirilishi va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan tayanch, umukasbiy, kasbiy va maxsus kompetensiyalar kompleksini loyihalashtirish va amalga oshirish imkonini beradi.

Modulli o‘qitish ancha yillardan beri fanlarni o‘rgatishda qo‘llanilib kelishiga qaramasdan, texnik yo‘nalishdagi fanlarga kam qo‘llanilgan. Modul fanining fundamental tushunchalari ma’lum hodisa yoki qonun, yoki bo‘lim, yoki ma’lum bir yirik mavzu yoki o‘zaro bog‘liq tushunchalar guruhini o‘z ichiga olib o‘rganadi. Modulli o‘qitish esa o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining shakllanishi korxonalar orasidagi raqobat asosida, xalq xo‘jaligining barcha tarmoq va yo‘nalishlarini keskin rivojlanishini taqozo etadi. Chunki bozor iqtisodiyotini raqbatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Korxonalar orasidagi raqobat o‘z navbatida, ilm-fan, texnika va texnologiyani, ya’ni ilmiy-texnik taraqqietining (ITT) jadallahuviga olib keladi.

O‘qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi butun jahon kontsepsiyasida so‘z yuritilgan edi. Modulli o‘qitish texnologiyasi – funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogik-psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

O‘.Tolipov modullashgan texnologiyaning afzalligi haqida quyidagicha fikr bildiradi: -Modullashgan texnologiyaning afzalliklaridan biri – ta’lim mazmunini tartibga solishdan iborat bo‘lib, bunda mavjud axborotdan shundaylarinigina qat’iylik va qunt bilan tanlab olish kerakki, ular davlat ta’lim standartlari doirasida talabalar faoliyatini yetarli darajada muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini berishi lozim.

O‘zbek olimlaridan S.Q.Qahhorov, R.A.Xadjaboev., M.I.Daminov., Yu.S.Ashurova I.B.Asqarov kitoblari va dissertatsiya ishlarida modulli o‘qitish texnologiyasining mazmuni va maqsadlari aniq ochib berilgan. Pedagogik olimlarning fikricha modulli o‘qitish - o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u talabalarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Modulli o‘qitish, kasbiy ta’limning zamonaviy masalalarini xar tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi. Buning uchun modulli o‘qitish texnologiyasining optimallashgan va sodda ko‘rinishda ishlab chiqish muammosini xal etish zarur. Modulli ta’lim pedagogik texnologiyalarning bir turi sifatida ta’lim jarayoniga tobora kengroq yoyilmoqda.

Modul so‘zining asl ma’nosi -model (frants. modele - namuna, lotincha – modulus – o‘lchov) shartli obraz (ko‘rgazma, sxema va b.q.) ya’ni obyekt yoki obyektli tizim ma’nolarini bildiradi. Umumiy ma’noda modul texnologiyasini o‘qitishda ko‘rgazmali vositalarning biri sifatida ham tushunish mumkin.

**Modulli o‘qitish** termini xalqaro tushuncha modul bilan bog‘liq bo‘lib, uning bitta ma’nosi – faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq

elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u, modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan informatsiya bloki sifatida tushuniladi.

V.V. Valetovning fikricha “Modulli ta’lim o‘quv materialini alohida va o‘zaro bog‘langan o‘quv elementlariga rejali ajratish, ularning har birini maxsus ishlab chiqilgan va mos ravishda rasmiylashtirilgan o‘quv masalalari bilan ta’minlashni tashkil qilishdir”. Bu tizim talabalarining tayyorgarlik darajasini, ularning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini individuallantirishga imkon yaratadi.

### **Modulli ta’limning asosiy prinsiplariga quyidagilar tegishlidir:**

- 1) modullilik;
- 2) strukturalashtirish-ta’lim berish mazmunini maxsus alohida elementlarga ajratish;
- 3) dinamiklik;
- 4) amaliylik;
- 5) moslashuvchanlik;
- 6) anglangan istiqbol;
- 7) muloqatning ikki tomonlamaligi va tenglikka asoslanganligi.

Modulli ta’limning asosiy vositasi modul dasturi hisoblanadi. Ular alohida modullardan tashkil topib, o‘qitish sifati ularning mazmun va mohiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Modul dasturi-vosita va usullar tizimi bo‘lib, uning yordami va vositasida talabalarining mustaqil bilim olish faoliyatlarining rivojlanishiga erishiladi.

Modul tizimida talabaning mustaqil ishi-modul dasturi bo‘yicha o‘quv ishlarining ajralmas qismi bo‘lib, muayyan tushuncha, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi uchun belgilangan vaqt me’yorida topshiriqlarni talaba tomonidan mustaqil bajarilishidir. Uning asosiy maqsadi-talabalarining aqliy faolligini oshirish, topshiriqlarni tahlil qilishga va muammoli vaziyat va vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir .

Modulli o‘qitishda o‘qituvchining o‘quv jarayonidagi o‘rni va roli tubdan o‘zgaradi. O‘qituvchining vazifasi-talabalarini modulli ta’lim yutuqlariga

ishontirish, ularni modul orqali bilim olish faoliyatlarini boshqarishni tashkil qilish va ta’lim oluvchilarga bevosita konsultatsiya berishdan iboratdir.

O‘quv darslarida o‘qituvchi faoliyatining o‘zgarishi dars xarakterini va unga tayyorgarlik ko‘rish mazmunini ham o‘zgartiradi: endi u yangi ma’lumotlarni yaxshi tushuntirishgagina emas, balki talabalar faoliyatini yaxshi boshqarishga tayyorgarlik ko‘radi. Demak modulli ta’limda o‘qituvchining integrallashgan didaktik maqsadga erishishi talab etiladi

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida ta’limning nazariy, amaliy va ijtimoiy jihatlarini birlashtirish orqali ta’lim jarayonida qator yangi imkoniyatlar hosil bo‘ladi, modullikompetentli yondashuv asosidagi ta’limni amalga oshirish uchun qo‘srimcha didaktik shart-sharoitlar yaratiladi, ya’ni:

- bilimlarning tizimliligi va fanlararo integrasiyasi ta’milanadi;
- ta’lim mazmunining dinamik ravishda kengayib borishiga imkon yaratiladi;
- ishlab chiqarish texnologiyalariga mos ravishda mutaxassislarning faoliyat yuritish rejalarini tuzish imkoniyatlari paydo bo‘ladi;
- funksional vazifalari va majburiyatlari bilan tanishtiriladi;
- harakatlar va bajariladigan ishlarni amalga oshirishning yo‘llari ko‘rsatiladi;
- bo‘lajak mutaxassislarning lavozimga oid va shaxsiy manfaatlari hisobga olinadi.

Oliy kasbiy ta’limda modulli -kompetentli yondashuv asosidagi o‘quv jarayoni shunday tashkil etiladiki, bunda ta’limning maqsadi sifatida ta’lim oluvchining kasbiy kompetensiyalarining yig‘indisi, unga erishish vositasi sifatida esa kasbiy ta’limning mazmunini va tuzilmasini modulli tarzda qurish hisoblanadi.

Modul ta’lim dasturining muayyan kasbiy kompetensiyani yoki kometentsiyalar guruhini shakllantirishga qaratilgan mustaqil birligi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, modul – ta’lim dasturining bir yoki bir nechta kompetensiyani shakllantiruvchi tugallangan birligi hisoblanadi hamda ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarining nazorati bilan yakunlanadi.

Demak, modulli ta’lim dasturi muayyan kompetensiyalarni egallahga qaratilgan bo‘lib, ma’lum ketma-ketlikda joylashgan modullarning yig‘indisidan iborat. Talabalar tomonidan modullarni o‘rganishda o‘quv jaraènining barcha tarkibiy qismlari mavjud bo‘ladi. Har bir modul uchun auditoriya yuklamasi, talabalarning mustaqil ishlari, kurs ishlari, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar, shuningdek, amaliyotlar, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari, bitiruv malakaviy ishning boblarini yozish va hokazolar taqsimlangan bo‘ladi.

Shu tarzda muayyan darajani berish uchun rasmiy ravishda tan olinadigan, modullarning yig‘indisidan iborat bo‘lgan ta’lim dasturi shakllantiriladi. Ta’lim moduli – ta’lim maqsadlari va mazmunini belgilashning avtonom birligi bo‘lib, ularni o‘zlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi hamda bir yoki bir nechta kompetensiyani yoki biror murakkab kompetensianing bir qismini shakllantirishni ta’minlaydi.

Ta’lim modulli tizimining moslashuvchanligi va variativligi ayniqsa, hozirgi davrda dolzarb bo‘lmoqda, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi o‘rinlarning doimiy sifatli va miqdoriy o‘zgarishlari kuzatib turiladi. Kasblarga o‘rgatish modulli tizimining mohiyati – talabalarning birin-ketin ta’lim birliklari modullarini o‘zlashtirishdan iboratdir.

Bu holatda ta’lim oluvchiunga taqdim etilgan dastur bilan mustaqil ravishda ishlashi mumkin. Ta’lim oluvchi o‘ziga aniq bir maqsadni, axborot texnika bazasi va didaktik maqsadlarga erishish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarni belgilab oladi. Umumkasbiy fanlarini modulli-kompetentli yondashuv asosida o‘qitish jarayonida ta’limning barcha metodlari, vositalarini qo‘llash natijasida talabalarda kasbiy kompetentliklarni shakllanishi ta’milanadi.

**Modulli-kompetentli yondashuvga** asoslangan ta’lim imkoniyatlarini ishga solish va samarali qo‘llashda ta’limning modulli tizimlarini joriy qilish yaxshi samaralar beradi, natijada bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini muvaffaqiyatli shakllantirish va buyurtmachi tomonidan qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq ravishda zamonaviy raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun zamin yaratiladi.

**Modulli ta’lim texnologiyasi mohiyatini** olib beruvchi tushunchalarga quyidagilar kiradi:

- modulli dastur;
- kompleks didaktik maqsad;
- integrallashgan didaktik maqsad;
- xususiy didaktik maqsad;
- o‘quv elementi; kirish nazorati;
- joriy nazorat;
- oraliq nazorat;
- umumlashgan (chiqish) nazorat.

**Modulli ta’limning mohiyati** shundan iboratki, bunda talaba modul bilan ishslashda o‘quv-biluv faoliyatining aniq maqsadlariga mustaqil ravishda (yoki o‘qituvchining ba’zi bir yordamida) erishiladi. Bu maqsadlarga erishish uchun modulli o‘qitish texnologiyasining ma’lum bir tizimga solib olish kerak. Buning uchun modulli dastur tuzib chiqish kerak. O‘z navbatida modulli dastur o‘quv modullaridan, o‘quv modullari esa o‘quv elementlaridan (O‘E) tarkib topgan bo‘ladi.

O‘quv elementi deganda muayyan texnik tushuncha yoki jarayonni talabalarga yetkazib berish uchun hizmat qiladigan tashkiliy-mazmuniy birlik tushuniladi. Har bir o‘quv elementi nazorat savollari bilan yakunlanadi. Modulli o‘qitishda quyidagi umumiylar qoidalarga rioya qilish lozim:

o‘quv materiali mazmuni va metodik materialni baèn qilish imkonini borligi;

o‘quv elementlari soniga yana quyidagi 3 ta narsa qo‘shiladi:

joriy nazorat (0-O‘E ida bajariladi), modul asosiy maqsadi (1-O‘E ida beriladi), yakuniy nazorat (n-O‘E ida bajariladi).

Natijada shunday maqsadlar tizimi yuzaga keladiki, u bilan o‘quv mazmunini to‘la tarkib toptirish mumkin. Modulli o‘qitish davomidagi nazorat, natijalari tahlil qilib borish, xulqini, bilim va ko‘nikmalarini baholash talabaning o‘zligini anglashi uchun yana bir imkoniyatdir.

Talabalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash bo‘yicha quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Har bir modul bo‘yicha baholashdan oldin talaba talab va mezonlar haqida xabardor qilinishi kerak.
2. Talabaning bilim va ko‘nikmalari baholab bo‘lgandan so‘ng uning natijalari iloji boricha tezroq talabaga bildirilishi kerak.
3. Talabaning erishgan natijalari qoniqarsiz bo‘lsa, uning sabablari suhbat orqali muhokama etilishi kerak. Bunda talabaning hatti-harakatlari ham ushbu uning qoniqarsiz natijalariga sabab bo‘lishi mumkinligini inobatga olish lozim.
4. Qoniqarsiz natijalarni birligida yaxshilash borasida ko‘rildigan choratadbirlar haqida maslahatlashib olishi kerak.
5. Talabaga bilim va ko‘nikmalarni baholash bo‘yicha hujjatlarni ko‘rish va unga munosabatini bildirish xuquqi berilishi kerak.

Topshiriqlar natijalarini baholash maqsadli ravishda qo‘yilgan talabdir. Testlar bilim, qobiliyat, ko‘nikma, shuningdek, xarakter va munosabatni tekshirish vositasidir.

Testlar quyidagi yo‘nalishlarda tuzilishi mumkin. - modulning o‘quv maqsadlariga erishilganligini aniqlash testlari;

- talabaning intellekt va boshqa qobiliyatlarini aniqlash uchun qobiliyat testlari;
- talabaning kasbga bo‘lgan laèqatini aniqlash testlari;
- ta’lim maqsadlariga yo‘naltirilganligi;
- muntazam o‘tkazib turilishi;
- haqiqiy, pedagogik va psixologik tamoyillarga asoslanganligi.

**Modulli o‘qitish** - o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta’lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An’anaviy ta’limda o‘quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya’ni bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, modulli o‘qitishda ta’lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalananib, kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Modulli o‘qitish texnologiyasining an’anaviy o‘qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik (7.1.1-jadvalga qarang).

(7.1.1-jadval).

<b>An’anaviy o‘qitish texnologiyasiga asoslangan</b>	<b>Modulli o‘qitish texnologiyasiga asoslangan</b>
Bir tomonga yo‘naltirilgan axborot. Bir tomonlama muloqot (darslik→o‘qituvchi→o‘quvchi) Axborot olish Xotirada saqlash Ma’nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash.	Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag‘batlantirish.  Ikki tomonlama muloqot Tahlil qilish orqali ma‘lumotni eslab qolish Bilim va ko‘nikmalarni namoyish etish Mazmunni tushunish va hayotga bog‘lash.

### **Modulli va an’anaviy o‘qitish texnologiyalarining farqli xususiyatlari**

Ushbu jadvalning tahlili shuni ko‘rsatadiki, modulli texnologiyaga asoslangan ta’lim an’anaviy ta’limdan o‘qitish usullari va vositalari uni tashkil etish va natijalari bilan sezilarli farq qiladi.

**Modulli o‘qitish** – ta’limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatini yaratadi.

**Modul** – faoliyatlik asosida o‘qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o‘zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta’minlaydi; o‘qitishni individuallashtirish;

amaliy faoliyatga o‘rgatish va kuzatiladigan xarakterlarni baholash darajasida o‘qitish samaradorligini nazorat qilish;

kasbga qiziqtirish asosida faollashtirish mustaqillik va o‘qitish imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish.

Modulli o‘qitish samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasi;
- malakali professor-o‘qituvchilar tarkibi darjasasi;
- talabalar tayyorgarligi darajasiga;
- kutiladigan natijalar bahosiga;
- didaktik materiallarning ishlab chiqilishiga;

-modullar natijasi va tahliliga.

Modulli o‘qitishda o‘quv dasturlarini to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin bo‘ladi. Modulli o‘qitishga o‘tishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

- o‘qitishning uzluksizligini ta’minalash;
- o‘qitishni individuallashtirish;
- o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;
- o‘qitishni jadallashtirish;
- fanni samarali o‘zlashtirishga erishish.

Modulli o‘qitish fanning asosiy masalalari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar beruvchi muammoli va yo‘riqli ma’ruzalar o‘qilishini taqozo etadi. Ma’ruzalar talabalarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilmog‘i lozim.

Modul amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari ma’ruzalar bilan birga tuzilishi, ular ma’ruzalar mazmunini o‘rganiladigan yangi material bilan to‘ldirilishi kerak.

Modulni o‘qitishning samaradorligini oshirishga erishish uchun o‘qitishning quyidagi usullarini qo‘llash mumkin:

- muammoli muloqotlar;
- evristik suhbatlar;
- o‘quv o‘yinlar;
- loyihalash va yo‘naltiruvchi matnlar va hokazo.

O‘qitishning modul tizimi mazmunidan uning quyidagi afzallikkari aniqlandi:

- fanlar va fanlar ichidagi modullar orasidagi o‘qitish uzluksizligini ta’milanishi;
- har bir modul ichida va ular orasida o‘quv jarayonini barcha turlarining metodik jihatdan asoslangan muvofiqligini o‘rnatalishi;
- fanning modulli tuzilish tarkibining moslanuvchanligi;

-talabalar o‘zlashtirishi muntazam va samarali nazorat (har qaysi moduldan so‘ng) qilinishi;

-talabalarning zudlik bilan qobiliyatiga ko‘ra tabaqalanishi (dastlabki modullardan so‘ng o‘qituvchi ayrim talabalarga fanni individullashtirishni tavsiya etishi mumkin);

-axborotni «siqib» berish natijasida o‘qitishni jadallashtirish auditoriya soatlaridan samarali foydalanish va o‘quv vaqtini tarkibini ma’ruzaviy amaliy (tajribaviy) mashg‘ulotlar individual va mustaqil ishlar uchun ajratilgan soatlarni – optimallashtirish.

Buning natijasida talabaetarli bilimlarga ko‘nikmaga ega bo‘ladi.

Modulli metodika asosida o‘qitishda faoliyatlik, tizimli kvantlash, qiziqtirish, modullilik, muammolilik, kognitiv vizuallilik, xatoliklarga tayanish tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim.

Modulli metodika asosida o‘qitishning quyidagi tamoyillari ochib berildi.

**1. Faoliyatilik tamoyili:** Bu tamoyil mutaxassisning kasbiy faoliyati mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko‘ra modullar fan bo‘yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuv asosida tuzilishi mumkin. Modulli o‘qitish texnologiyasiga fan bo‘yicha faoliyat yondashuvida modullarni o‘quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida modullar bloki mutaxassisning kasbiy faoliyati tahlili asosida shakllantiriladi.

**2.Tizimli kvantlash usuli** - bu prinsip didaktik birliklar umumlashtirilgan nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Modulda tizimli kvantlash tamoyili o‘quv materialining tegishli tuzilmasini tuzish yo‘li bilan erishiladi. Modul umumiy ko‘rinishda quyidagi elementlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- tarixiy - bu muammo teorema masala kashfiyot va tushunchalarning tarixiga qisqacha sharh berish;

- muammoli - bu muammoni shakllantirish;

- tizimli - bu modul tarkibi tizimini namoyon etish;

-faollashtirish - bu yangi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko‘rsatish;

- nazariy - bu asosiy o‘quv materiali bo‘lib, unda - didaktik maqsadlar muammoni ifodalash gipotezani asoslash muammoni yechish yo‘llari ochib ko‘rsatiladi;

- tajribaviy - bu tajribaviy materialni (o‘quv tajribasi tajribaviy ishni) bayon etish;

- umumlashtirish - bu muammo yechimini va modul mazmunini umumlashtirish;

- joriy etish- bu harakatlarning yangi usullarini ishlab chiqish va o‘rganilgan materialni amaliyotda qo‘llash;

- xatoliklar – talabalarning modul mazmunini o‘rganishdagi o‘zlashtirishda kuzatiladigan xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo‘llarini ko‘rsatish;

- bog‘liqlik - o‘tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog‘liqligini namoyon etish;

- test va topshiriqlar yordamida baholash - modul mazmunini talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish va baholash.

O‘quv materialining o‘zlashtirilishiga mashg‘ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko‘rsatilganligi modul mazmunining boshqa modullar bilan bog‘liqligi shu modulni o‘rganishdagi talabalarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

**3. Qiziqtirish tamoyili** - bu tamoyilning mohiyati ta’lim oluvchining bilim olish faoliyatini rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. Modulning o‘quv materialiga qiziqishni uyg‘otish, bilim olishga rag‘batlantirish, mashg‘ulotlar paytida faol ishtirok etish, ijodiy fikrlashga da’vat etish modulning tarixiy va muammoli elementlarining vazifalari hisoblanadi.

**4.Modullilik tamoyili** - bu tamoyil o‘qitishni individuallashtirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchidan modulning dinamik tuzilmasi fan mazmunini uch xil ya’ni to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan ko‘rinishda namoyon etish imkoniyatini beradi. O‘qitishning u yoki bu turini tanlash talabaning o‘ziga havola qilinadi.

Ikkinchidan modul mazmunini o‘zlashtirishda o‘qitish usuli va shakllarning turliligida ham modullilik namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘qitishning faollashtirishga shakl va usullar (dialog, mustaqil o‘qish,o‘quv, imitatsion o‘yinlar va hokazo) hamda muammoli ma’ruzalar seminarlar maslahatlar bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan modullilik yangi materialni pog‘onasimon o‘zlashtirishda ta’milanadi, ya’ni har bir fan va har bir modulda o‘qitish oddiydan murakkabga qarab yo‘nalgan bo‘ladi.

To‘rtinchidan modulga kiruvchi o‘quv elementlarining moslanuvchanligi tufayli o‘quv materialini muntazam ravishda yangilab turish imkoniyati tug‘iladi.

**5.Muammolilik tamoyili-** muammoli vaziyatlar va mashg‘ulotlarni amaliy yo‘naltirilganligi o‘quv materialining o‘zlashtirilish samaradorligini oshishiga imkon beradi.

Mashg‘ulotlar paytida gipoteza qo‘yiladi, uning asoslanganligi ko‘rsatiladi va muammoning yechimi beriladi. Ko‘pchilik hollarda bizning o‘qituvchilar darslarda faqatgina dalillar keltiradilar. Masalan AQSHda o‘qituvchi masalani o‘rganish uslubini, o‘zi qo‘ygan muammoning yechim yo‘llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko‘rsatadi va tushuntiradi. Ya’ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Birinchi navbatda ayniqlsa ana shu narsa talabani qiziqtirib qo‘yadi unda ijodiy fikrlash va faollikni tug‘diradi.

**6.Kognitiv vizuallik** (ko‘z bilan kuzatiladigan) tamoyili-bu tamoyil psixologik-pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqadi. O‘qitishdagi ko‘rgazmalar nafaqat so‘roq vazifasini, shu bilan birga kognitiv vazifani bajargan taqdirdagina o‘zlashtirish unumdarligini oshiradi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-sun’iy intellekt nazariyasining yangi muammoli sohasi bo‘lib,murakkab obyektlar kompyuter sur’atchalari ko‘rinishida tasvirlanadi. Modulning tarkibiy tuzilmasi

bo‘lib rangli bajarilgan kognitiv-grafik o‘quv elementlari xizmat qiladi. Shuning uchun rasmlar modulning asosiy bosh elementi hisoblanadi. Bu esa:

Birinchidan, talabaning ko‘rish va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

Ikkinchidan, o‘quv materiali mazmunini o‘zida zich joylashtirib ravshan ko‘rsatuvchi rasm talabada tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, rangli suratlar o‘quv materialini qabul qilish va eslash samarasini oshiradi hamda talabalarni estetik tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘rgazmali ma’lumot og‘zaki ma’lumotdan ko‘ra ahamiyatliroq va unumliroqdir. Ko‘rish mexanizmining ma’lumotni o‘tkazish qobiliyati eshitishnikidan ko‘ra ancha yuqoridir. Bu esa o‘z navbatida, ko‘rish tizimiga inson qabul qilinadigan ma’lumotning qariyb 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Undan tashqari ko‘rgazmali ma’lumot bir vaqtning o‘zida beriladi. Shuning uchun ma’lumotni qabul qilish va eslashga og‘zaki ma’lumotdan ko‘ra kam vaqt talab etiladi. Ko‘rgazmali ma’lumot ishlatalganda taassurot hosil bo‘lishi og‘zaki bayondan ko‘ra o‘rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi.

Insonning ko‘rgazmali ma’lumotga ishonchi, og‘zaki ma’lumotdan ko‘ra yuqori bo‘ladi. Shuning uchun “yuz bor eshitgandan ko‘ra, bir bor ko‘rmoq afzalroqdir” deb bezij aytilmagan.

Shu bilan birga ko‘rgazmali ma’lumotda qabul qilish va eslash unumi uni ko‘rsatilishi orasidagi muddatni uzoqligiga bog‘liq bo‘lmaydi. Og‘zaki ma’lumotning o‘zlashtirilishi esa, bunga bog‘liq bo‘ladi. O‘rni kelib yana bir muhim tafsilotni qayd etish lozim: simvolli-ko‘rgazmali ma’lumotni qabul etish o‘qitish samarasini oshiradi ya’ni o‘quv-ilmiy adabiyotdan va kompyuter texnikasi vositasida olinadigan ma’lumotni ko‘paytirish uchun shart-sharoit yaratish zarur. Bu esa o‘qitishni individuallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

**7.Xatoliklarga tayanish tamoyili-** bu tamoyil o‘qitish jarayonida doimiy ravishda xatoliklarni izlash uchun vaziyatlar yaratilishiga talabalarning ruhiy faoliyati funksional tizimi tarkibida oldindan payqash tuzilmasini shakllantirishga

qaratilgan didaktik materiallar va vositalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Bu tamoyilning amalga oshirilishi talabada tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi.

**8.O‘quv vaqtini tejash tamoyili** - bu tamoyil talabalarda individual va mustaqil ishlash uchun o‘quv vaqtining zaxirasini yaratishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. To‘g‘ri tashkil qilingan modulli o‘qitish o‘qish vaqtini 30% va undan ortiq tejash imkoniyatini beradi. Bunga esa modulli o‘qitishning barcha tamoyillari to‘la amalga oshirilganda, o‘quvjarayoni kompyuterlashtirilganda yondosh fanlarning o‘quv dasturlari muvofiqlashtirilganda erishish mumkin.

O‘tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida modulli o‘qitish – talabalarning bilim imkoniyatlarini ijodiy qobiliyatlarini va amaliy ko‘nikmalarini o‘rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara berishi aniqlandi. Modulli metodika asosida o‘qitishda fan tarkibidagi modullar orasidagi uzviylikni ta’minlashga o‘qitishni jadallashtirishga talabalarning o‘zlashtirishini muntazam nazorat qilishga va baholashga qiziqtirish asosida amaliy faoliyatga o‘rgatishga hamda o‘quv materialini bosqichma-bosqich o‘qitish orqali fanni samarali o‘zlashtirishga erishiladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, modulli o‘qitish dasturining tuzilishi, o‘quv vositalari, tashkiliy ishlarining sifatiga ham baho berish mumkin. Natijalarni muntazam baholab borish aniq vaadolatli xulosalarga olib keladi. Baholashda mazkur xulosalarning umumlashtirilishi baholashning aniq bo‘lishiga èrdam beradi. Talabani muntazam ravishda o‘z natijalari to‘g‘risida xabardor qilib turish uning maqsad sari intilishi va istaklarining amalga oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Fanlarni o‘qitishda STEAM (science, technology, engineering and mathematics) yondashuv:**

**STEAM** - Ta’limni haqiqiy hayot bilan bog‘lovchi texnologiya. STEAM yondashuvining asosiy g‘oyasi: amaliyot nazariy bilim kabi juda muhimdir.

S - fan

T - texnologiya

E - muhandislik

A - san'at

M - matematika

Ta'limda yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi? STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusetts Texnologiyalar Instituti (MIT). Bu mashhur universitetining shiori "Mind and hand" – "Aql va qo'l" dir. Massachusetts Texnologiya instituti STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi o'quv yurtlarida STEAM ta'lim markazlari yaratildi.

STEM atamasi AQSH da ilk bor maktab dasturiga kiritilgan bo'lib o'quvchilarning ilmiy-texnika yo'nalishlarida kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Keyinchalik bu yo'nalish kengaytirilib atamaga qo'shimcha harflar kiritildi. Jumladan, unga "R" –robotics – robototexnikani qo'shib STREM deb yoki "A" - art –san'atni qo'shib STEAM deb atala boshlandi.

### **STEAM so'zini harflab izohlansa:**

S - science (tabiiy fanlar)

T - technology (texnologiya)

Ye - engineering (muhandislik ishi)

A- art (san'at)

M - mathematics (matematika)

STEAM o'quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi

Muammolarni keng qamrovli tushunish:

Ijodiy fikrlash;

Muhandislik yondashuv;

Tanqidiy fikrlash;

Ilmiy metodlarni tushunish va qo'llash;

Dizayn asoslarini tushunish STEAM –ta'limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi.

STEAM – ta’limi bolaning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi.

STEAM –yondashuv bolalarga dunyonи tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga, o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni ochishga imkon beradi.

#### **STEAM –ta’limining 10 ta afzallik tomoni bor.**

**1. Ta’lim berishni o‘quv fanlari bo‘yicha emas, balki “ mavzu” lar bo‘yicha integrasiyalab olib borish.** STEAM –ta’limida fanlararo aloqa va loyihalash metodi birlashtirilgan bo‘lib, uning asosida tabiiy fanlarni texnologiyaga, muhandislik ijodiyotga va matematikaga integrasiya qilish yotadi. Bunda muhandislik bilan bog‘liq kasblarga bo‘lgan tayyorgarlik amalga oshiriladi.

**2. Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash.** STEAM – ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida, bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi. STEAM – ta’limida amaliy mashg‘ulotlar yordamida, bolalarga ilmiy-texnik bilimlaridan real hayotda foydalanish namoyish qilinadi. Har bir darsda o‘quvchilar zamonaviy industriya modellarini ishlab chiqadi, quradi va modelni rivojlantiradi.

**3.Tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish.** STEAM –dasturi, bolalar kundalik hayotlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda zarur bo‘ladigan tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi . Masalan, bolalar tez yuradigan mashina modelini yig‘adilar, so‘ngra uni sinovdan o‘tkazadilar. Birinchi sinovdan so‘ng, kutilgan natijaga erishilmasa uning sabablari haqida o‘ylaydilar va topadilar. Balkim, g‘ildiraklarining kattaligi yoki aerodinamikasi to‘g‘ri kelmagandir. Har bir sinovdan so‘ng ular kamchiliklarni bartaraf etib boradilar.

**4. O‘z kuchiga ishonish hissining ortishi.** Bolalar ko‘prik qurish, mashina va samolyot modelini ishga tushirishda har safar maqsadiga yaqinlasha boradilar. Har bir sinovdan so‘ng modelni takomillashtiradilar. Oxirida barcha muammolarni

o‘z kuchlari bilan yyengib maqsadiga erishadilar.Bu bolalar uchun ruhlanish, g‘alaba va quvonch demakdir. Har bir g‘alabadan so‘ng ular o‘z kuchlariga yanada ishonadilar.

**5. Faol kommunikatsiya va komandada ishslash.** STEAM –dasturi faol kommunikatsiya va komandada ishslash bilan farqlanadi. Muloqat davrida o‘z fikrini bayon qilish va babs- munozara olib borish uchun erkin muhit vujudga keltiriladi. Ular gapirishga va taqdimot o‘tkazishga o‘rganadilar. Bolalar doimo o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqatda bo‘ladilar. Bolalar jarayonda faol qatnashsalar, mashg‘ulotni yaxshi eslab qoladilar.

**6. Texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish.** Boshlang‘ich ta’limda STEAM –ta’limning vazifasi,o‘quvchilarni tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishdan iborat. Bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. STEAM – mashg‘ulotlari juda dinamik va qiziqarli bo‘lganligidan bolalar mashg‘ulot paytida zerikmaydilar va vaqtning qanday o‘tganligini sezmay qoladilar.

**7. Loyihalarga kreativ va innovasion yondashuv.** STEAM –ta’limi oltita bosqichdan iborat: savol(vazifa), muhokama, dizayn, qurish, sinovdan o‘tkazish va rivojlantirish. Bu bosqichlar tizimli loyihalash yondashuvining asosi hisoblanadi.

**8. Ta’lim va karera orasidagi ko‘prik.** Turli xil baholashlarga ko‘ra hozirgi kunda talabgor eng ko‘p bo‘lgan 10 mutaxassisidan 9 tasida aynan STEAM bilimlari zarur bo‘ladi. Bunday kasblarga : muhandis –kimyogar; neft bo‘yicha muhandislar; kompyuter tizimlari analitiklari; muhandis –mexaniklar; muhandis –quruvchilar; robototexniklar; yadro meditsinasi kiradi.

**9. Bolalarni texnologik innovasion hayotga tayyorlash.** STEAM –ta’limi bolalarni texnologik rivojlangan dunyoda yashashga tayyorlaydi. Keyingi 60 yil davomida texnologiyalar jadal darajada rivojlandi.

**10. STEAM maktab dasturlariga qo‘shimcha sifatida qo‘llaniladi.** STEAM dasturlari 7-14 yoshdagi o‘quvchilarning muttasil ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, fizika darslarida yerning tortish kuchi o‘rganilganda , doskada formulalarni yozib tushuntirilsa, STEAM

to‘garaklarida raketalar, samolyotlar, parashyutlar qurib, ishga tushirib o‘z bilimlarini mustahkamlaydilar. O‘quvchilar o‘zlari ko‘rmagan yoki eshitmagan atamalarni har doim ham tez anglab yetmaydilar. Masalan, temperatura ortishi bilan bosimning yoki hajmning ortishi.

STEAM mashg‘ulotlarida ular qiziqarli eksperimentlar o‘tkazganlarida bu atamalarni osongina tushunib olishlari mumkin STEAM ta’lim yondashuv joriy etilganligi sababli o‘quvchilarning bilim darajasini baholash bo‘yicha quyidagi:

**PISA, TIMSS, PIRLS** xalqaro dasturlar va tadqiqotlar kirib keldi.

**PISA** - 15 yoshli o‘quvchilarni matematik savodxonlik, o‘qish va tabiiy bilimlari bo‘yicha baholash 3 yilda.

**TIMSS** - 4 va 8 sinflarda o‘quvchilarning matematik va tabiiy ilmiy savodxonligini baholash.

**PIRLS** -boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish sifatini va darajasini baholash.

Ta`limda STEAM-yondashuv umumta’lim maktablarida sinf-dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o‘tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko‘chirish, ularni amaliyotda faol qo‘llash jarayoni orqali fanlar integrasiyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo’llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo‘naltirish kabi vazifalarni qo‘yadi.

### **Nazorat savollari:**

1. O‘qitishning modul tizimi haqida
2. Modulli metodika asosida o‘qitishning qanday tamoyillari mavjud.
3. Modulli o‘qitish texnologiya haqida fikrlaringiz.
4. Ta’limda yangi yondashuv qanday paydo bo‘ldi?
5. STEAM ta’lim yondashuv joriy etish haqida nimalar bilasiz.

### **Mustaqil ta’lim togshirig’i:**

**1-topshiriq. PIRLS** -boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish sifatini va darajasini baholash haqida fikrlaringizni umumlashtiring.

**2-topshiriq.** PISA, TIMSS, PIRLS xalqaro dasturlar va tadqiqtolar fikrlaringizni yoritining.

## **7.2. Pedagogik kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalar**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Yaponiya ta’lim tizimi, Amerika ta’lim tizimi, Germaniya ta’lim tizimi, Fransiyada ta’lim sifati, O‘zbekiston 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi.

Vatanimiz ta’limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko‘zda tutilgan maqsad mакtab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta’limning qadr -qimmati, obro va nufuziga teng darajada unnig ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoyilik va ishbilarmonlik ham bo‘lmogi zarur.

Ta’limdagi muvvafaqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo‘ladi. Dadil harakat, shijoat tufaylifdir. Shijoatni esa insonga, o‘zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek mакtab ilm- ma’rifat baxsh eta oladi.

Qadimdan bizda bilim olish qadrlangan. Bilimdon kishilar esa el- yurt ardog‘ida bo‘lganlar. Shuning uchun ham bilim olish va olingan bilimni mamlakatimiz xizmati yo‘lida xizmat qildirish oliy insoniylik burchimizdir. Bu vazifalarni muvvafaqiyatli hal etishni muhim shartlaridan biri chet el maktabi va pedagogikasi tajribalari o‘rganishdir.

Xalqaro tajribalarini sinchkovlik va qunt bilan o‘rganish orqali ta’lim tarbiyada qotib qolgan, o‘z dolzarbligini yo‘qotb borayotgan ish shakllari, uslublaridan xalos bo‘lish bilan birga, uni munosib tarzda yangilashda qo‘srimcha boy manbalarga ega bo‘lamiz.

Davlatimiz rahbari mamlakatda kadrlar muammosi mavjudligini barcha sohalarga islohotlar sur'atiga mos zamonaviy mutaxassislar kerakligini aytgan edi. Shu maqsadda butun ta'lif tizimi takomillashtirilmoqda. Maktabgacha ta'lif rivojlantirilayotganini maktab saboqlariga puxta zamin bo'lmoqda. Umumiy o'rta ta'lif sifati ilg'or xalqaro tajriba va zamon talablari asosida yuksaltirilmoqda.

Prezident maktablari, buyuk allomalarimiz nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar, ijod maktablari, Temurbeklar maktablari kabi zamonaviy va innovatsion ta'lif maskanlari tashkil etildi.Ularda xalqaro tajribalar yo'lga qo'yilganligi kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishidan dalolat beradi. 2019-yil 26- noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, , Zamonaviy maktab" larni tashkil etish chora tadbirlari togrisida"gi qaror qabul qilindi. Qarorga muvofiq 2021-yilgacha maktablarning kamida 3 foizi, 2025-yilgacha 20 foizi 2030-yilga qadar esa 50 foizini, , zamonaviy maktab" larga aylantirishning asosiy parametrlari belgilandi.

Prezidentimiz shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomada maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidladi. Maktablarda moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash, o'quv tarbiya jarayonida xalqaro zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash bo'yicha vazifalarini belgilab berdi.

Yurtimizda matematika, kimyo, fizika, va biologiya darslarining 10 foizigina amaliy mashg'ulotga ajratilgan.Rivojlantirilgan davlatlarda bu ko'rsatkich 30-50 foizni tashkil etadi.Shu bois xalq ta'limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikat-siyalarini rivojlantirish vazirligiga o'quv dasturlarida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, aniq fanlarda amaliy mashgu'lotlar kolamini oshirish vazifasi qo'yildi.

Bugungi kunda har qaysi xalq davlat va jamiyatning taraqqiyot darajasi, avvalambor uning inson kapitaliga, inson rivojida berayotgan e'tibori bu yo'ldagi say harakatlari bilan o'lchanadi. Bugungi kunda ta lim mazmuniga bo'lgan e'tibor

rivojlangan mamlakatlardagi shart -sharoitlarga yetib bormoqda...Buning isboti sifatida xorijiy mamlakatlatlar ta'lim tizimini tahlil qilib o'tamiz.

### **Yaponiya ta'lim tizimi**

Yaponiya talimida " iqtidorli o'quvchi ' tushunchasi yo'q. chunki har bir o'quvchi alohida iqtidor sohibidir. Ilg'or mamlakatlar ichida Yaponiya ta'limi o'ziga xos yo'nalishi yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, Yaponiya ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: maktabgacha ta'lim , boshlang'ich maktab , kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oiliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o'rgatishadi. Bundan ko'rinish turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib qolmay, bolaning har tomonlama rivojlanishiga tasir etadi.

Yaponiya rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari orasida ham yuqori bo'lgan yagona davlat.

Majburiy ta'lim muhiti. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. Muhtoj oilalarining bolalariga moddiy yordam ko'rsatiladi.

Yuqori o'rta maktab 10-11-12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud.

Yuqori bosqich o'rta maktablarda butun o'quv jarayonida o'quvchilar 80 ta sinov topshirishadi. O'quvchilar majburiy asosiy fanlardan tashqari o'z xohishlariga ko'ra ingliz tili, texnik ta'lim va maxsus sinovlarga jalb etiladi.

Universitetlariga yuqori va o'rta maktabning yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilari qabul qilinadi. Universitetlarga qabul qilinish 2 bosqichga bo'linadi: 1-bosqich turar joyda o'tkaziladi, buning uchun yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tkaziladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir.

Yaponiyada bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas'uliyati ayniqsa kattadir. Ular farzandlarining aqli, dono va mehnatsevar bo'lib o'sishlari uchun

oila sulolasiga va davlat oldida o‘zlarini ma’sul deb hisoblaydi. Yaponiyada oilaviy tarbiya xususida ko‘plab metodik qo‘llanmalar va tavsiyanomalar nashr etiladi, radio va televideniya orqali ko‘plab pedagogik maslahatlar berib boriladi.

Yaponiya oilalaridagi uy partalari diqqatga sazovordir. U mukammal, yon tomonidan muhofazalangan qurilma bo‘llib, parta ustida kitob javoni, yoritkich, soat, qalam, qog‘oz, mikrokalkulyator va boshqa zaruruy ashyolar, shuningdek kerak bo‘lib qolgan taqdirda ota-onalarini chaqiradigan signal tugmachalarigacha o‘rnatilgan.

Yaponiya o‘rtalik maktablarining saviyasi AQSH o‘rtalik maktablari saviyasidan bir muncha yuqori turadi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki yaponiyada ta’lim tizimi ham shaklan, ham mazmunan yuksak uyg‘unlik kasb etgan. Ibrat olsa, o‘rgansa arziydigan jihatlari ko‘p. E’tiborli yana bir tomoni - Yaponiyada faqat milliy an’analar bilan cheklanib qolmay jahondagi AQSH, Fransiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan mamlakatlarning ilg‘or pedagogik ish tajribalari ham ijodiy o‘zlashtiril-gan.

Bunday tajribalar Respublikamiz ta’lim tizimini yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarishda qo‘l kelishi shubhasiz [28.56].

**Amerika Qo‘shma Shtatlari ta’lim tizimi:** Amerikada o‘rtalik ta’lim 12 yil bo‘lib boshlang‘ich o‘rtalik va quyi maktablarga bo‘linadi. Aksariyat qismi davlat maktablaridan iborat va ularda o‘quvchilarning 88 foizi o‘qiydi. Ta’lim muassasalarini davlat va shahar buyudjetlari moliyalashtiradi, Qoshma shtatlarda yalpi ichki mahsulotning 7.5 foizi har yili ta’limga sarflanadi. 12 foiz o‘quvchilar xususiy maktablarga boradi, ularning moddiy resurslari ota-onalar, turli mablag‘lar va xayriya mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.

Mamalakatlarda ta’lim maskanlari raqamlarga ega emas, ammo ular hududlar boyicha yoki mashhur kishilar nomi bilan ataladi.

Odatda har bir sinf xonasi televizor va kompyuterga ega. Kompyuter sinflari yuqori tezlikdagi internetga ulangan. Amerikada nusxa ko‘chirish uskunalarini juda ko‘p joylashtirilgan. Chunki o‘qituvchi tomonidan o‘quvchlarga deyarli barcha vazifalar bosma shaklda beriladi. Boshlang‘ich maktabda har yil sinf o‘qituvchisi

o‘zgaradi. Boshlang‘ich sinflarda matematik bilimlarning hajmi Rossiya va Angliya maktablari darajasiga nisbatan biroz yengilroq. Ko‘paytirish jadvali 3-sinfdan boshlanadi.

Amerika maktablaridagi o‘ziga xos usullaridan biri har bir o‘quvchining, “Hisobot kartasi” yuritilishidir. Unda o‘quvchi 10 xil xatti -harakati bo‘yicha baholanadi. Ota-onalar ushbu karta bilan tanishib borar ekan, farzandlariga oqsayotgan tomonlarini aniqlab, uni tuzatishga harakat qilishadi.

Amerika pedagoglari haftasiga bir marta 1-3-sinf o‘quvchilari uchun “Sevimli o‘yinchoq” metodini qo‘llashadi. Bu metodda bolalar o‘yinchogini tariflaydi. Mazkur metodni qo‘llashdan maqsad bolani uyatchanlikdan xalos bolishga, sinfdoshlari orasida erkin gapirishga o‘rgatishdir. Amerikada ta’limni haddan ziyod demokratlashuvi talabalar bilimining puxtaligini tekshirish va nazorat qilishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu sababli boy moddiy baza va tajribaga ega bo‘lgan davlatda butunlay savodsiz bo‘lgan bolalar ham topiladi [31.43].

Germaniya ta’lim tizimi: Germaniya jahon ma’rifat va madaniyat o‘choqlaridan biri. Ushbu davlatda har bir fuqaro o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori moyilligi va qobiliyatiga qarab mакtab, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Mакtab ta’lim tizimi boshlang‘ich va o‘rta ta’lim muassalaridan iborat. Barcha davlat maktablarida o‘qish bepul. Germaniyada mакtab ta’limi quyidagi mакtab tiplariga bolinadi:

boshlangi’ch mакtab;

yo‘nalish maktablari;

asosiy mакtab;

real mакtab;

gimnaziya;

umumiy mакtab ;

maxsus mакtab.

Boshlang‘ich mакtab ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich mакtabdan so‘ng o‘quvchilar yo‘nalish mакtabga o‘tishadi. Asosiy yoki to‘liq xalq mакtabi boshlang‘ich mакtabni bitirib, real mакtab yoki gimnaziyaga bormagan

barcha o‘quvchilar uchun majburiydir. Asosiy maktab o‘qituvchilari o‘zlarini o‘qituvchi emas, ijtimoiy pedagog, deb his qiladi. Lekin asosiy maktabdagi o‘quvchilar yomon o‘zlashtirishiga qaramasdan kasbiy ta’lim olishiga majbur bo‘lishadi. Real mакtablar ikkinchi bosqichga qarashli bo‘lib, odatda 5-10-sinflarni o‘z ichiga oladi. Real maktab yuqori darajali kengaytirilgan umumiyligini beradi va o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mas’uliyat hissi, insonlarga rahbarlik qilish ko‘nikmalariga yuqori talab qo‘yadigan kasb egalari bo‘lishi uchun kasbiy ta’lim kurslariga tayyorlaydi.

Germaniya ta’limi o‘ziga xos yo‘nalishga juda murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o‘rin olishda o‘zini oqlab kelayotgan ta’lim tizimi mavjud.

**Fransiya ta’lim tiizimi:** Fransiyada ta’lim sifati ta’lim, sport va tadqiqotlar bo‘yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu bosh inspeksiya 4 ta vazirlilik uchun faoliyat ko‘rsatadi. Bosh inspeksiya 4 ta vazifani bajaradi:

1. Qo‘llab-quvvatlash - ta’lim, fan, sport, madaniyat boshqaruv idoralarini oliy ta’lim rektoratlarini.
2. Ekspertiza qilish - vazirliklar, idoralar, shartnomalar, rahbarlar faoliyati, xizmatlar, tuzilmalar va boshqalar.
3. Baholash - tashkilotlar, muassasalar, tuzilmalar, ijtimoiy siyosiy ahvol, kadrlar.
4. Nazorat qilish - tashkilotlar, muassasalar, xizmatlar va kadrlar.

Bosh inspeksiyada to‘planadigan tajribalarning xilma -xilligi, bolalar bog‘chasidan doktoranturaga qadar davlat siyosatini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim, fan va yoshlarni rivojlantirishga, o‘quvchilarni sport, jamiyat hayoti va jamoat o‘qishiga jalb etishga ta’sir qiladi [19].

Fransiya ta’lim tizimiga ko‘ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu mакtabda 4 yil boshlang‘ich sinfda o‘qiydi. Bu boshlang‘ich sinflar odatda alohida boshlang‘ich mакtab sifatida faoliyat ko‘rsatadi hamda ularning inspeksiyasi ham, alohida bo‘ladi.

Keyingi bosqich o‘rtta ta’lim kollej deb ataladi. U yerda bola 4 yil o‘qiydi va yakunida to‘liqsiz maktab bitiruvchisi deb hujjat beradi. Keyingi 3 yil davomida turli yo‘nalishdagi litseylarda o‘qiydi hamda yakunida bakalavr imtihonini topshirib uning natijasiga qarab OTM larga qabul qilinadi.

O‘qituvchilarini ishdan olishni maktab direktori amalga oshirmaydi. Yaxshi ishlamaydigan o‘qituvchilarini direktor tavsiyasiga muvofiq ta’lim inspeksiyasi tomonidan taftish qilinadi. Uning intizomi, o‘qituvchilik faoliyati, bolalar, otanalar o‘rtasidagi obro‘sni diqqat bilan o‘rganiladi va tegishli chora ko‘riladi.

Maktab o‘qituvchilariga qo‘yilgan talab Fransiyada o‘ta yuqori. Ayniqsa boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchi o‘z kasbining ustasi, ajoyib notiq, san’atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq egasi bo‘lmog‘i lozim. Fransiya ta’lim tizimlarida maktabdan va sinfdan tashqari muassasalari ko‘zda tutilmagan. Biroq maktablarda, litseylarda turli to‘garaklar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi talim sifatini nazorat qilish ta’lim inspeksiyasi tashkil qilinganiga endigina 2 yildan oshdi. O’tgan davr mobaynida inspeksiyaga yuklatilgan vazifalar bajarish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish va ularni yurtimiz talim sifatini baholash ishlarini joriy etish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmoqda. Biz ayni damda chet el pedagogikasidagi ilg‘or jihatlarini o‘zashtirish, yangi- yangi o‘quv predmetlarini ta’lim tarkibiga kiritish bilan jahondagi eng ilg‘or pedagogikalarinig biriga aylantirish.

### **Ayni damda AQSH pedagogikasidagi:**

1. Bolani o‘z kuchi, imkoniyatiga ishonch ruhiyatida tarbiyalash.
2. O‘quvchinig eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash
3. Bolani kamsitmaslik, insoniylik qadriyatlarini va g‘ururini yerga urmaslik
4. O‘quvchini ilk davridanoq kasbga yo‘naltirish
5. Vataniga faxr va iftixor ruhi bilan tarbiyalash.

### **Yaponiya ta’limidagi :**

1. Bolani mакtabga puxta tayyorlash

2. Kichkintoylar ta’lim va tarbiyasiga ota-onalar masuliyatini kuchaytirish;
- 3.O‘quvchilarni nafosat jismoniy kamolotiga berilayotgan etibor;
4. O‘qituvchi kadrlariga yuksak talabchanlik;
5. Yosh talantlar bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

### **Germaniya ta’limidagi :**

1. Tabaqallashtirib o‘qitishga kuchli e’tibor;
- 2.O‘quvchilarni mehnat ta’limini mustahkamlash
3. Kasbga yo‘naltirish.
1. Maktabgacha tarbiyadanoq o‘quvni predmetlashtirib tashkil etish ;
2. Boshlang‘ich ta’limni 3 bosqichda puxta amalga oshirish
3. O‘quvni didaktik vositalar bilan ta’minalashga berilayotgasmn katta e’tibor.
4. Oquv muassasalarinig turli firmalar, konsernlar, korxonalar, mustahkam aloqalari va boshqa ibratli jihatlari bizning ta’limga ham ko‘chib bormoqda. Albatta ta’limga har qanday yangilik, o‘zgarish, jiddiy tahlillar, tajribalar asosida kirib keladi.

O‘zbekiston 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi rejalashtirilgan. Bu sinovga barcha tayyorgarlik ko‘rishi kerak.Ya’ni bu yilgi 3- sinf o‘quvchilarimiz 2021-yilda 4-sinf bo‘ladi. Bu o‘quvchilarni mazkur jarayonga tayyorlash uchun xalqaro baholash tizimida ishtirok etib kelayotgan rivojlangan davlatlarning xalqaro tajribalari bilan o‘rtoqlashishga to‘g‘ri keladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Yaponiyada bolalar tarbiyasida oilalarining roli va mas’uliyati nimalardan iborat.
2. Amerika maktablaridagi o‘ziga xos usullari haqida bimalarni bilasiz?
3. Germaniyada maktab ta’limi qanday tiplariga bolinadi?
4. Fransiyada ta’lim sifatining asosiy omillari nimalarda deb o’ylaysiz?
5. O‘zbekiston 2021-yilda PISA va PIRLS xalqaro baholash tizimida ishtirok etishi qanday ahamiyat kasb etadi..

### **Mustaqil ta’lim togshirig‘i:**

**1-topshiriq.** Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

**2-topshiriq.** Riojlangan davlatlar va O‘zbekiston ta’lim tizimini qiyosiy tahlil qiling.

**3-topshiriq.** Kurs boyicha o‘z fikr va muloxazalariningizni bayon eting.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Suningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati quyidagicha yoritiladi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.
2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.
3. Shaxsiy kompetentlik — izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.
4. Texnologik kompetentlik — kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
5. Ekstremal kompetentlik — favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik

Ta’lim tizimida tom ma’noda talabalarga sifatli, foydali, muhim, zarur, kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishda yetkazib bera olishi uchun bugungi kun pedagogi axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishslash va talabalarga samarali, qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi

zarur. Bu esa pedagogning kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi zaruriyat sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda.

Shaxs intellektida akmeologiya juda muhim o‘rin egallaydi. Akmeologiya yangi yo‘nalish bo‘lib, insonning yangi qirralarini ochib beradi. Akmeologiya grekcha akme—cho‘qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davri ma’nolarini anglatadi.

Kompetensiyaning turlarini tasniflashga doir xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, N.A.Muslimov va M.B.Urazovalar kasbiy ta’lim nuqtai nazaridan kompetensiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

maxsus kompetensiya – yetarli yuqori darajada o‘z kasbiy faoliyatini egallah, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish;

ijtimoiy kompetensiya – birgalikdagi kasbiy faoliyat, hamkorlikni egallah, o‘z mehnati natijalariga ijtimoiy javobgarlik;

shaxsiy kompetensiya – shaxsiy mustaqil aks etish va mustaqil rivojlanish usullari, shaxsning kasbiy deformatsiyalarga qarshi turish vositalarini egallashi;

individual kompetensiya – kasb doirasida individuallikni mustaqil qo‘llash va rivojlantirish usullarini egallah, kasbiy-shaxsiy o‘sish, mustaqil tashkil qilish va mustaqil reabilitatsiya qilishga tayyorgarlik;

asosiy kompetensiyalar – moslashish va mahsuldor faoliyat uchun zarur bo‘lgan shaxsning madaniyatlararo va sohalararo bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarini.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchini innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida tashkil etilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayoni murakkab va ko‘p qirrali, shu bilan birga yaxlit va bir butundir. Ta’lim jarayonini boshqarish o‘quv mashg‘ulotlari va auditoriyadan tashqari ishlarni (ilmiy-tadqiqot ishlari, bo‘lajak o‘qituvchilarining ijtimoiy foydali mehnati va boshqalar) samarali, pedagogik asoslangan va puxta tashkil etilishini ta’minlashga yo‘naltiriladi. bo‘lajak o‘qituvchini innovation faoliyatga va pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga tayyorlash orqali uning amaliy tayyorgarligini

takomillashtirish jarayonini boshqarishning asosiy vazifasi - o'quv va innovation faoliyat dinamikasi va barqarorligini kuchaytirish, ushbu tayrgalikda o'qituvchi jamoasi imkoniyatlarini muvofiqlashtirish asosida yuqori natijalarga erishishni ta'minlashdan iborat.

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatini bildiradi.

Talabalarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish kerak:

1. Har bir modul bo'yicha baholashdan oldin talaba talab va mezonlar haqida xabardor qilinishi kerak.
2. Talabaning bilim va ko'nikmalari baholab bo'lgandan so'ng uning natijalari iloji boricha tezroq talabaga bildirilishi kerak.
3. Talabaning erishgan natijalari qoniqarsiz bo'lsa, uning sabablari suhbat orqali muhokama etilishi kerak. Bunda talabaning hatti-harakatlari ham ushbu uning qoniqarsiz natijalariga sabab bo'lishi mumkinligini inobatga olish lozim.
4. Qoniqarsiz natijalarni birgalikda yaxshilash borasida ko'rildigan choratadbirlar haqida maslahatlashib olishi kerak.
5. Talabaga bilim va ko'nikmalarni baholash bo'yicha hujjatlarni ko'rish va unga munosabatini bildirish xuquqi berilishi kerak.

## GLOSSARIY

**Adolat** – muayyan voqea-hodisa, jarayon, shuningdek, shaxs hatti-harakatlarini ularning tub mohiyatiga ko‘ra haqqoniy baholash.

**Anglash qobiliyati** – o‘qituvchilarning ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyati, qonuniyatlari, talabalarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, ta’lim ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat mazmuni, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish shartlari hamda kutiladigan natijalarni anglashga imkon beradigan individual psixologik xususiyat.

**Artikulyatsiya** (lot. “articulation” < “articulare” – “aniq talaffuz qilmoq”) nutq organ (a’zo)larining tovush hosil qilishdagi harakatlari holati.

**Baholash madaniyati** – pedagogning u yoki bu pedagogik voqelik, hodisa, jarayonlar bo‘yicha ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda to‘g‘ri xulosa chiqarish, oqilona qaror qabul qilish qobiliyatiga egaligini anglatuvchi sifat.

**Bilish qobiliyati** – o‘qituvchining ta’lim jarayonining ishtirokchilari – talabalar, ota-onalar, hamkasblar va ta’lim muassasasining rahbarlari bilan oson muloqotga kirishish, ular bilan munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradigan individual psixologik xususiyat.

**Diapazon** (yunon. “diapason” – “barcha (torlar) orqali”) – tovush hajmi bo‘lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi.

**Diktsiya** (lot. “diction” – “talaffuz qilish”) – so‘zlarning aniq talaffuz qilinishi Jest (gavda, qo‘l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki obyektga nisbatan munosabatning gavda, qo‘l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi.

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Individual rivojlanish dasturi** (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur.

**Innovasion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

**Intuitsiya** (lot. “intuition” < “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qaramoq”) – mantiqiy bog‘lanmagan yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun yetarli bo‘lmaqanda qidiruv yo‘nalishlari asosida masalani yechishning tarkibini bo‘lgan evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayoni.

**Kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish madaniyati** – pedagog tomonidan mavjud pedagogik bilimlarni puxta o‘zlashtirish yo‘lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligini anglatuvchi sifat.

**Kasbiy ziyraklik** – o‘quvchilar ruhiy holatlarini, dars, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishga bo‘lgan ishtyoqlarini to‘g‘ri baholash, ularning o‘zaro yoki pedagoglar bilan ziddiyatlarini anglash, o‘quvchi va guruhga ta’sir ko‘rsatishda qulay vaziyatini tanlay bilish

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalgalash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

**Kasbiy-pedagogik burch** – mutaxassis sifatida o‘qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatda ado etilishi majburiy bo‘lgan vazifa.

**Kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

**Kompetentlik** (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish.

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy èndoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

**Kreativlik** (ingl. “create” – yaratish, “creative” – “yaraturuvchi”, “ijodkor”) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi.

**Mahorat** (arab. “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik”)

- 1) biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san’at, mohirlik;
- 2) bir ish èki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish;
- 3) muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash.

**Mimika** (yunon. “mimikos” – “taqlidiy”) – yuz muskullari harakatlari orqali shaxsning o‘z fikri, his-tuyg‘ulari, kayfiyati hamda mavjud voqelikka munosabatini ifodalashi.

**Muloqot jarayonida axborot almashish vositalari** – shaxslararo muloqot jarayonida axborot almashinuvini ta’minlovchi moddiy va nomoddiy narsa, omillar (og‘zaki va yozma nutq, paralingvistik va ekstralinguistik tizimlar, muloqotning tashkiliy ko‘لامи va vaqt, ko‘z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa, belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – gavda, qo‘l va oyoq harakatlari))

**Muloqot** – 1) kishilarning o‘zaro aloqasi, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari kishilar o‘rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jaraèni; 2) kishilarning bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishi asosida ular o‘rtasida ro‘y beradigan axborot almashinuvi.

**Muloqot madaniyati** – 1) muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik; 2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri.

**Nafas olish** – 1) organizmga hayot bag‘ishlovchi fiziologik funksiya; 2) nutqning energiya bazasi.

**Nafas olish texnikasi** – fiziologik funksiya yoki nutqning energiya bazasi sifatida nafas olishda qo‘llaniladigan vositalar majmui.

**Noyob qobiliyatlar** – shaxsga xos individual psixologik xususiyatning shunday turi bo‘lib, u juda kam sonli shaxslardagina kuzatiladi va ko‘p uchraydigan psixologik hodisa sanalmaydi.

**Nutq apparati** – nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar.

**Nutqli** (yoki tovushli) nafas olish (fonatsion, yunon. “phono” – “tovush”) – nafasning nutq jarayonidagi olinishi.

**Nutq madaniyati** – o‘z fikrini nutq yordamida mantiqli, to‘g‘ri, obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o‘zlashtirilganlik darajasi.

**Nutq texnikasi** – nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui.

**Nutq hosil qiluvchi organlar** – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar (o‘pka, ikkita bronx, traxeya, kekirdak, bo‘g‘iz, hiqildoq, halqum, tishlar, burun bo‘shlig‘i, lablar)

**Pantomimika** – pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko‘rsatishga, ma’lum qiyofa orqali gavlantirishga imkon beradi gavda, qo‘l va oyoqlarning harakati.

**Paralingvistik tizim** (yunon. “pará” – yaqin, nem. “linguistik” – til) – muloqot tarkibida so‘zli, nazariy ma’lumotlarni so‘zsiz vositalar bilan birgalikda o‘zatilishi anglatuvchi tizim.

**Pedagogik bilim** – bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, ta’lim hamda tarbiya jarayonini tashkil etish asosida shaxsni har tomonlama kamol toptirishga doir tizimlangan ma’lumotlar yig‘indisi.

**Pedagogik bilimdonlik** – 1) pedagog tomonidan mutaxassislik bilimlarining puxta egallanganligi; pedagogning bilag‘onligi; 2) pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me’yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo‘lgan qobilligi, kasbiy tayèrgarlik darajasi.

**Pedagogik boshqarish** – pedagogik jarayonlarni tashkiliy-metodik jihatdan uyushtirish (talabalar faoliyatni boshqarish; talabalar jamoasini boshqarish)

Pedagogik dunyoqarash – pedagog va ta’lim oluvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari jaraènining mazmunini, natijalarini belgilovchi dialektik qarashlar va e’tiqodlar tizimi.

**Pedagogik ijod** – pedagogning kasbiy jarayonni samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan yaratuvchanlik faoliyati.

**Pedagogik intuitsiya** (lot. “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qarash”) – pedagog tomonidan pedagogik voqeа-hodisaning mohiyatini, o‘quvchi xatti-harakatlari mazmunini tasavvur, empatiya va orttirilgan tajriba asosida his-tuyg‘u, sezgi èrdamida, ziyraklik bilan mantiqiy dalillarsiz bevosa tafsiflovchi qobiliyati.

Pedagogik kreativlik (lot. “creatio” – “yaratish”) – pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jaraènini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayèrgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

**Pedagogik loyihalash madaniyati** – pedagog tomonidan o‘zining ichki imkoniyatlari bilan talab, xohish-istiklarni o‘zaro uyg‘unlashtira olgan holda maqsad, vazifalarni to‘g‘ri belgilay olish, pedagogik jaraènni bosqichlar bo‘yicha rejalashtirish, rejani amalga oshirishda zarur vositalarni tanlab bilish malakasi egalikni tavsiflovchi sifat.

**Pedagogik madaniyatga egalikni ifodalovchi sifatlar** – o‘qituvchida kasbiy xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko‘nikma, malakalar mavjudligini ifodalovchi sifatlar.

**Pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlari** – o‘qituvchining mutaxassis sifatida kasbiy madaniyati sifatlarini hosil qiluvchi tarkibiy element

(unsur)lar (pedagogik loyihalash madaniyati; kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish madaniyati; pedagogik dunèqarash; fikrlash madaniyati; his etish madaniyati; baholash madaniyati; muloqot madaniyati; tashkilotchilik qobiliyati)

**Pedagogik madaniyat** – 1) pedagogning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan xulq-atvor, odob, muomala va xatti-harakat ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirish darajasi; 2) pedagogning kasbiy vazifalarni hal qilish usul va vositalarini o‘zlashtirganlik, pedagogik bilimdonlik, takt, texnika va madaniyatni namoyon qila olishning yuqori darajasi.

**Pedagogik majburiyat** – jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo‘yiladigan talab va axloqiy yo‘l-qo‘riy, ko‘rsatmalar majmuasi.

**Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari** – o‘qituvchilarda namoyon bo‘ladigan kasbiy mahorat asosini tashkil etuvchi element (unsur)lar (pedagogik odob, pedagogik bilimdonlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, pedagogik takt (nazokat), pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat)

**Pedagogik mahorat** – 1) o‘qituvchining pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o‘ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish va boshqarish qobiliyati, ko‘nikma-malakasiga egaligi; 2) ta’lim-tarbiya jaraèniga ongli, ijodiy yondoshuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyati, yuksak pedagogik tafakkur; 3) pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui.

**Pedagogik muloqot** – pedagogning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiradigan suhbati.

**Pedagogik muloqot madaniyati** – pedagogning o‘quvchilar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob va muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbati.

**Pedagogik muloqotning avtoritar uslubi** – pedagogik muloqotda o‘qituvchining mutloq ustunligini ifodalovchi uslub.

**Pedagogik muloqotning demokratik uslubi** – pedagogik muloqotda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini ifodalovchi uslub.

**Pedagogik muloqotning liberal uslubi** – pedagogik muloqotda o‘qituvchining e’tiborsizligini ifodalovchi uslub.

**Pedagogik muloqot uslublari** – o‘qituvchilar tomonidan pedagogik jarayonda ta’lim ishtirokchilari bilan muloqotni tashkil etishda qo‘llaniladigan usullar majmui (avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub)

**Pedagogik novatorlik** – pedagogik faoliyatda ilg‘or tamoyil èki g‘oyani asoslash, yangi yo‘l, usul yoki vositalarni tavsiya qilish, ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ijodiy yondoshuv.

**Pedagogik obro‘** – pedagogning o‘quvchilar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy maqomi.

**Pedagogik odob** – o‘qituvchi oldiga uning o‘ziga, kasbiga, jamiyatga, bolalarga va o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo‘lishiga nisbatan qo‘yiladigan axloqiy talablar tizimi.

**Pedagogik relaksatsiya** (lot. “relaxatio” – “zaiflashish”, “bo‘shashish”) – talabalarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash.

**Pedagogik refleksiya** (lot. “reflexio” – “ortga qaytish”, “aks etish”) – pedagogning shaxs ongi mohiyati va vazifalarini, shu jumladan, qadriyatlari, qiziqishlari, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta’sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab yetishi.

**Pedagogik tafakkurning rivojlanish bosqichlari** – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatni tashkil etish yoki pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarda ixtisoslik BKMning o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq holda tafakkurning izchil, qadam-baqadam rivojlanib borish davrlari.

**Pedagogik tajriba** – kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan orttirilgan BKM majmui.

**Pedagogik takt** (lot. “tactus” – “dahl qilish”, “dahldorlik”, “his etish”, “tuyg‘u”) – pedagogning o‘quvchilar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar hamda hulq -atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondoshish malakalariga egaligi.

**Pedagogik tafakkur** – pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalar mohiyatining, shuningdek, ular o‘rtasidagi muhim bog‘lanish va aloqalarning pedagog ongida to‘laqonli aks etishi, yangi g‘oyalarni ilgari surish, yangiliklar yaratish, shuningdek, pedagogik jarayon, vaziyat va hodisalarning natijalarini bashoratlash; pedagog aqliy faoliyatining yuksak shakli.

**Pedagogik texnikaning vositalari** – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma’naviy axloqiy sifatlariga nisbatan subyektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularning ma’noli ifodalanishini ta’minlovchi vositalar (nutq va og‘zaki bo‘lmagan muloqot)

**Pedagogik texnika metodlari** – pedagog tomonidan o‘quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo‘ladigan ma’naviy-axloqiy sifatlariga o‘zining subyektiv munosabat, alohida his-tuyg‘ularni ma’noli ifodalanishini anglatuvchi metodlar.

**Pedagogik texnika** – pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan alohida talaba va talabalar jamoalariga pedagogik ta’sir ko‘rsatish metodlarini amalda samarali qo‘llay olish uchun zarur bo‘lgan BKM yig‘indisi (o‘zini o‘zi hissiy boshqarish, pantomimika, mimika, jest (gavda, qo‘l, oyoq harakatlari), nutq texnikasi, alohida so‘z yoki ifodalarni ifodalash sur’ati (ritmika))

**Pedagogik hamdardlik** (empatiya) – pedagogga xos sifat (talabalar, otanonalar, hamkasblar va rahbarlarning xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me’yorda tashkil etilishini ta’minalash; o‘zgalarning ichki holatini, o‘y-fikrlarini va his-tuyg‘ularini tushuna olish; boshqalarning boshiga tushgan kulfat, falokatlardan qayg‘urish; rollarni qabul qilish – og‘ir vaziyatda bo‘lgan kishilarning o‘rniga o‘zini tasavvur, mushohada èrdamida qo‘yib ko‘rgan holda ulardagи ijobiyl histuyg‘ularini qayta tiklashga ko‘maklashish;

o‘z galarning qayg‘u-alamlaridan, kulfatlaridan qayg‘urish, ko‘ngilni ko‘taruvchi, taskin beruvchi so‘zlar bilan og‘ir vaziyatda qolgan kimsalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish.

**Pedagogik qobiliyatni rivojlantirish** – faqat pedagoglarga gina xos bo‘lgan qobiliyatlarni yanada boyitish va takomillashtirish uchun zarur shartsharoitni yaratish.

**Pedagogik qobiliyat** – pedagogik faoliyatni oqlona tashkillashtirish va olib borilishiga imkon beradigan, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan pedagogga xos xususiyatlar.

**Pertseptiv-pedagogik qobiliyatlar** (lot. “perceptio” – o‘zlashtirish) – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, o‘quvchining psixik holatlarining nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati.

**Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtiokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

**Relaksopediya** (lot. “relaxation” – “quvvatsizlik”, “zaiflashish”, ruhan yoki jismonan holda toyishni bartaraf etish pedagogikasi) – shaxsda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat.

**Ritmika** – ayrim so‘z va bo‘g‘inlarning aytilish muddati va to‘xtalishi, nutq va ifodalarning navbat bilan o‘z o‘rnida ishlatilishi.

**Ritm** (yunon. “rhythmos” < “rjeo” – “oqaman”) – nutqda tovushlarning muayyan izchillik, ketma-ketlikda asosida takrorlanib kelishi, ya’ni nutq vaznini ifodalovchi muhim xususiyati.

**Ruhiy barqarorlik** – ruhiy-hissiy holat (ta’sirlanish)larning davomiyligi va barqarorlik darajasi.

**Tashkilotchilik qobiliyati** – pedagog tomonidan ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini anglatuvchi sifat.

**Tembr** (fr. “timbre” – “qo‘ng‘iroq”, “belgi”, “tamg‘a”, “farqlovchi belgi”) – tovushning tovlanishi (tovush rangdorligi, yorqinligi, yumshoqligi va alohidaligi)ni ifodalovchi xususiyat.

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**Tovushning ixchamligi va harakatchanligi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning bejirim, yig‘inchoq va tebranuvchan ekanligini anglatuvchi xususiyat.

**Tovush kuchi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning quvvati.

**Tovush pardozi** – nutq hosil qiluvchi organlar faoliyati asosida hosil bo‘lgan tovushning sayqali, bezagi.

**Tovush** – chiqarilgan havoni xiqildoqdan o‘tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladigan hodisa, sado, sas.

**Fikrlash madaniyati** – pedagogning mavjud pedagogik vaziyatlarni inobatga ola bilishi, kelib chiqqan holda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishi va ularni amaliyotga samarali tatbiq eta olishini ifodalovchi sifat.

**SHaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoèn qilish.

**Ekstralivingistik tizim** (ingl. “exterior” – “tashqarida”, nem. “linguistik” – “til”) – gapiraètgan shaxsning ijtimoiy vazifalari bilan bevosita bog‘liq holda nutqning tashkil etilishi (nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo‘talish, nafas olish, yig‘lash, tutilish va b.)ni ifodalovchi tizim.

**Ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

**O‘zini o‘zi baholash (O‘O‘B)** – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi.

**O‘z-o‘zini rivojlantirish** – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi.

**O‘zini o‘zi tahlil qilish** – pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishi.

**O‘z ustida ishlash** – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o‘zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi.

**O‘qituvchi nutqi** – pedagogning ta’lim-tarbiya jaraènida til vositalaridan foydalanishi.

**Qobiliyat** – shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan individual psixologik xususiyat.

**His etish madaniyati** – pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri bo‘lib, u pedagog tomonidan ta’lim jaraèni ishtirokchilarining ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, o‘y-fikrlarini tushuna olishi, ular bilan samarali muloqotni tashkil etishini bildiradi

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021 y., 06/21/3/1037-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagи “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2021-y., 06/21/3/1037-son.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020 y., 06/20/6075/1330-son.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagи “2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ‘Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi

PF-5953-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2021 y., 06/21/6217/0409-son.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldag'i "Pedagogik ta'lif sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.06.2020-y., 07/20/4749/0758-son.

9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – B.103.

10. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

11. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.

12. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – B.146.

13. Абдиев Р.Ф. Философия новой информационной цивилизации. – Москва.: Аладос, 1994. С.336.

14. Абульханова-Славская К.А. Время личности и время жизни. – СПб.: Алетейя, 2001. С.304.

15. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. – Т.: ТГПУ, 2000. С.80.

16. Анисимов В.В. Общие основы педагогики. – Москва.: Просвещение, 2006. С.574.

17. Андреев А.А. Педагогика высшей школы (Прикладная педагогика): Учеб. пособие в 2 кн. – М.: МЕСИ, 2000. – Кн.2. – С.163.

18. Андреев В.И. Педагогика творческого саморазвития: инновационный курс. Кн. 1. – Казан: Изд-во Казан, ун-та, 1996. – С.570.

19. Anorqulova G., Karimov A. Xorijiy mamlakatlar ta'lif tizimining o'ziga xos yo'nalishi uslub va tahlili. Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali. 2017-yil. 3-son.

20. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности. – СПб: СПГУТД, 2006. С.285с.
21. Бубенов А.В. Коммуникационная культура (философско-методологический анализ). Дис. канд. философ. наук. – М.: МПГУ, 2006.
22. Беспалко О.В. Социальная педагогика: схемы, таблицы, комментарии (учеб.пособие). – М.: Центр учебной литературы, 2009. – С.208.
23. Бондаревская Е.В., Кулневич С.Б. Педагогика: личность в гуманистических теориях и системах воспитания. – Ростов Н/Д., 1999. С.378.
24. Базаров Т.Ю., Ерофеев А.К., Шмелов А.Г. Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспериментного знания // Вестник Московского университета. – Москва, 2014. № 1. Серия 14. Психология. – С.87-99.
25. Базаров Т.Ю., Ермина Б.Е. Управление персоналом. – М.: ЮНИТИ, 2002. С.430.
26. Бобиенко О.М. Компетентностно-ориентированный подход в образовании взрослых: Уч. пос. для преподавателей. – Казан: Изд. центр Акад. упр. «ТИСБИ», 2004. – 204 с.
27. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. diss. – T.: TDPU 2007. – B.305.
28. Yo‘ldoshev J.F. Xorijda ta’lim (metodik qo‘llanma) – T.: TDPU 1995.
29. Ismailova Z.K., Mustafoeva D.A. Malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarining pedagogik kompetentligini oshirish maxsus Dastur. – T.: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti. 2018. B.21
30. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta’lim, ilm-fan (metodik qo‘llanma. Kasb mahorati jurnali, 2004 yil. 2 son.

31. Ilashova. R. Amerika maktabalarida. // Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2019. – 3 son.
32. Деркач А., Зазыкин В. Акмеология. – СПб. «Питер», 2003. С.256.
- 33.Durdona Mustafoeva Organization of increasing the professional competence of teachers technical higher educational institutions. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019.
34. Дондокова Р.П. Сущностная характеристика и структура коммуникативной компетентности // Вестник Бурятского Государственного университета, 2012. – №4. С.19.
35. Закинов Э. Ю. Коммуникативность как базис человеческого общения // Педагогические образование и наука. – № 6. – Москва, 2014. С.82.
36. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // М: "Эксперимент и инновации в школе" журнал. 2009. №2. С.-25
37. Зимняя И.А. Компетентность человека – новое качество результата образования // Компетентность человека – новое качество результата образования: Материал. ХИИИ Всерос. совещания. – М.: Уфа: Исслед. центр проблем кач-ва подг-ки спец-в, 2003. – С. 4-13.
38. Зеер Э.Ф. Психолого-дидактические конструкты качества профессионального образования. // М.: "Образование и наука" журнали. 2002. №2. С. -14.
39. Компетентностный подход в педагогическом образовании: Коллектив. Монография / Под ред. проф. В.А. Козырева, проф. Н.Ф. Радионовой и проф. А.П. Тряпицыной. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2005. – 392 с.
40. Кузмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. - М.: Изд-во Онти Пнц Ран, 2001. 26-28 с.

40. Кудрявцева Е.И. Компетенция и менеджмент: компетенции в менеджменте, компетенции менеджеров, менеджмент компетенции. - Санкт-Петербург: Изд-во Свердл. инж. пед. инс-та, 2012. С. - 340
41. Karimova M. O., Saidullaeva A. R. Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family //PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology. – 2020. – Т. 17. – №. 7. – С. 8547-8555.
42. Nazarova B.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalash: Dis. ... ped. fan. dok. – Т., 2018. – 225
- Markova A. Psixologiya professionalizma. - М.: "Vlysshaya shkola", 1996. S. - 19.
43. Назарова Б.А. Бўлажак ўқитувчиларда креатив ёндашув асосида тадқиқотчилик лаёқатини тарбиялаш: Дис. /пед. фан. док. – Т., 2018. – 225 б
44. Nosirov A. Fransiyada talim sifati qanday nazorat qilinadi? – Т.: “Boshlang‘ich ta’lim” jurnali, 2019. 12- son.
45. Маркова А.К. Психологический анализ профессиональной компетентности учителя // Советская педагогика. – 1990. – № 8. – С. 82-88.
46. Махмутов М.И. и другие. Педагогические технологии развития мышления учащихся. – Казан: ТГЛ, 1993. С.88.
47. Muslimov N.A. va boshkalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. / Monografiya. – Т.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013. 76-81 б.
48. Mustafoeva D.A., Ismailova Z.K. “Malaka oshirish tizimida maxsus fan o‘qituvchilarining pedagogik kompetentligi” (innovation faoliyatini rivojlantirish buyicha). Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TIQXMMI, 2018. 37-41 б.
49. Мустафоева Д.А. Рол мониторинга в обеспечении эффективности повышения квалификации педагогических кадров. Наука: теория и практика. Материалы XV-й Международной научно-практической конференции. Наука и инновация. - 2019. Чехия. 35-39 с.

50. Mustafoeva D.A. Ixtisoslik fan o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari buyicha falsafa doktori disssertatsiyasi (PhD). - T.: 2020. B. -154

51. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. – 185 b.

52. Митина Л.М. Учител как личность и профессионал. – М.: Дело, 1994. – С. 216.

53. Марина О.А. Структурные компоненты иноязычной профессиональной компетенции как профессионального стратегического ресурса // Педагогические образование и наука. — № 5. — Москва, 2014. — 113 п).

54. Mannopov J., Xolmatova A. Kasb ta’limi o‘qituvchisining mustaqil pedagogik faoliyat yurita olish kompetentligini shakllantirish // Uzluksiz ta’lim tizimida o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. — 209 b.

55. Сластенин В.А., Подимова Л.С. Педагогика – инновационная деятельность. – М.: Магистр, 1997. – 221 с.

56. Педагогика: Учеб. пособие для студентов педагогических учебных заведений/ В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, А.И. Мищенко, Э.Х. Шиянов. 3-е изд. - М.: Школа-Пресс, 2000. - 512 с.

57. Turg‘unov S.T., Daniyarov B.X., Umaralieva M.A., SHodmonova SH.S. o‘qituvchilarning kasbiy mahorat va kom-petentligini rivojlantirish. - T.: «Sano-standart», 2012. -73-b.

58. Удалов С.Р. Подготовка будущего учителя к использованию средств информатизации и информационных технологий в педагогической деятельности // Информатика и образование. – 2002. – № 12. – С. 105-107.

59. Хугорской А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58-64.

60. Химматалиев Д.О., Мустафоева Д.А. Профессионально-педагогическая компетентность учителя профессионального образования. // Россия: “Журнал научных и прикладных исследований”, 2016, № 11. С.4-8.

61. Xodjaev B.X. Umumta’lim mактаби о‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didiktik ta’mинot vositasida rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. dok. – T., 2016. B.314.

Karimova Muqaddas Otajonovna  
Rafikova Dilafruz Kaxxaraliyevna  
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich

## **PEDAGOGIK KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK ASOSLARI**

**o‘quv qo‘llanma**

*Farg‘ona - “Uzzerox” - 2021*